

Ilm kelajagimiz
ravnaqidir

№-2. 2025



СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР SURKONDARYO: ILM VA TAFAKKUR СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ SURKHANDARYA: SCIENCE AND CONTEMPLATION



СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИ-
ЯЛАР ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР-
НИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНС-
ФЕРА ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ
НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECH-
NOLOGY TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасгимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURKHANDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-2 2025



ТАЪСИСЧИЛАР;
СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ХУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР
ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ
РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Ҳар чоракда 1 марта чиқади.

**Jurnal 25-05-2020 yil. №-11-079
raqami bilan ro'yxatga olingan.**

O'zbekiston Respublikasi OAK ning 2021 yil
12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati
asosida ro'yxatga olingan.

Ommaviy axborot vositasi davlat
ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVONOMA N-11-079.

My.gov.uz. Yagona interaktiv. davlat
xizmatlari portali.
N 8102-325e-cd96-f50a-53b3-3119-7970

Hujjat yaratilgan sana: 2020-05-25.

Ariza raqami: 19051279.

НАШР ИНДЕКСИ 190-111.

ЖУРНАЛ «ADAD PLYUS» МЧЖ
матбаа бўлимида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани,
Бунёдкор кўчаси 28-уй.
Босишга рухсат этилди: 27.06.2025.
Қоғоз бичими 60x84 1/8.
Босма табағи 12,0. Офсет босма.
Офсет қоғози. Адади 100.
Баҳоси келишилган нархда.
Буюртма № 48.

Техник ходимлар:
Эргашева Сайёра
Мамаражабов Ғайрат
Қаршиев Ислон
Рахмонов Махаммади
Саҳифа ловчи:
Қўшоқова Мохигул

Таҳририят манзили: Сурхондарё вилояти
Термиз шаҳри "Баркамол авлод" кўчаси 43 уй.
tursunovsafullo12@mail.ru
Тел: 876 223 07 66.
+99 891 577 90 50,
+99 894 200 49 55,
+99 891 229 22 29.

Бош муҳаррир:

Главный редактор:

Chief Editor:

Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич
Тарих фанлари доктори, профессор
Термиз давлат университети

Бош муҳаррир ўринбосари:

Заместитель главного редактора:

Deputy Chief Editor:

Пардаев Тошкенбой Раджабович
Тарих фанлари доктори, доцент
Термиз давлат университети

Журналнинг илмий котиби:

Холмўминов Хусан Эшмўминович тарих фанлари
доктори, доцент, Термиз давлат университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

Тошқулов Абдукодир
Аскарлов Аҳмадали
Каримов Соҳибназар
Муртазоева Раҳбархон
Сагдуллаев Анатолий
Ашуров Адҳам
Ражабов Қаҳрамон
Воҳидов Шодмон
Виктор Агаджаниан
Юнусова Хуршида
Абдуллаев Улуғбек
Толипов Файзулла,
Дадамирзаева Гулчехра,
Дониёров Алишер
Шамсиддинов Рустам
Обломуродов Наим
Эшов Баҳодир
Саидов Илҳом
Ҳайитов Шодмон
Ғаффоров Шокир
Мусаев Нуриддин
Бобожонова Дилором
Абдуллаева Яхшибека
Эргашева Юлдуз
Давлатова Саодат
Маткаримова Садоқат
Раҳмонов Фахриддин
Турсунов Нурулло
Тилеукулов Гаўҳар
Бўриев Очил
Қурбонова Манзила
Турсунов Жавли
Хўшбоқов Панжи
Раҳимов Баҳодир

Акчаев Фаррух
Усмонов Муртоз
Ирискулов Олимжон
Турсунов Анвар
Якубова Диларам
Аҳмедова Гулчехра
Умаров Икром
Назирова Бахтиёр
Қаршиев Ислон
Туропова Моҳидил

**ЖАМОАТЧИЛИК
КЕНГАШИ:**

Бакиров Поён
Умиркулов Бекпўлат
Норбошева Меҳри
Хуррамов Алишер
Аликулов Рустам
Холиқов Зокир
Абдуқаюмов Асрор
Янгибоев Норкуват
Турдиев Тоштемир
Алланов Қилич
Муртозоев Бобоназар
Шариф Ёқубов

ТЕРМИЗИЙЛАРНИНГ ЁРҚИН АЛЛОМАЛАРИ ВА ДУНЁВИЙ ТАСАВВУРЛАРИ

Турсунов Сайпулло Нарзуллаевич*Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси профессори,
тарих фанлари доктори**e-mail: tursunovsafullo12@mail.ru**<https://orcid.org/0009-0005-2553-6164>***Чўтматов Жўрабек Омонович***тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**UDK: 94(575.1)*

Аннотация: Мазкур мақолада асосий эътибор Суфён ибн Омир Ғифорий Термизий ва Солиҳ ибн Муҳаммад Термизий каби таниқли табаа тобеин олимларнинг илмий фаолияти, уларнинг устоз ва шогирдлари силсиласи, ҳадис ва тафсир илми ривожига қўшган ҳиссасига қаратилган. Мақолада ушбу олимларнинг Имом Бухорий, Имом Аъзам Абу Ҳанифа, Имом Термизий ва Ҳаким Термизий каби буюк муҳаддис ва фақиҳларнинг ҳаёти ва илмий меросида тутган ўрни атрофлича ёритиб берилган. Шунингдек, Ҳаким Термизийнинг отаси Али ибн Ҳасан Термизийнинг илмий салоҳияти ва Бағдоддаги фаолияти ҳам батафсил ўрганилган.

Калит сўзлар: Мовароуннахр, Термиз, табаа тобеин, Суфён ибн Омир Термизий, Солиҳ ибн Муҳаммад Термизий, Ҳаким Термизий, ҳадис илми, тафсир илми, фикҳ, устоз-шогирд силсиласи.

Аннотация: Основное внимание в данной статье уделено научной деятельности известных ученых, таких как Суфьян ибн Амир Гафири Термизи и Салих ибн Мухаммад Термизи, их наставникам и ученикам, а также вкладу в развитие науки хадиса и тафсира. В статье подробно рассматривается роль этих ученых в жизни и научном наследии великих мухаддисов и факихов, таких как имам Бухари, имам Азам Абу Ханифа, имам Тирмизи и Хаким Тирмизи. Также подробно изучен научный потенциал отца Хакима Тирмизи, Али ибн Хасана Тирмизи, и его деятельность в Багдаде.

Ключевые слова: Мовароуннахр, Термиз, Табаа Табейин, Суфьян ибн Амир

Термизи, Салех ибн Мухаммад Термизи, Хаким Термизи, хадисоведение, тафсир, юриспруденция, серия «учитель-ученик».

Annotation: The main focus of this article is on the scientific activities of famous scholars such as Sufyan ibn Amir Ghafiri Termizi and Salih ibn Muhammad Termizi, their mentors and students, and the contribution to the development of the science of hadith and tafsir. The role of these scientists in the life and scientific heritage of great muhaddis and faqihs such as Imam Bukhari, Imam Azam Abu Hanifa, Imam Tirmizi and Hakim Tirmizi is detailed in the article. Also, the scientific potential of Hakim Tirmizi's father, Ali ibn Hasan Tirmizi, and his activities in Baghdad were studied in detail.

Key words: Movarounnahr, Termiz, Tabaa Tabein, Sufyan Ibn Amir Termizi, Saleh Ibn Muhammad Termizi, Hakim Termizi, hadith science, tafsir science, jurisprudence, master-disciple series.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION).

Мовароуннахр минтақаси, хусусан, унинг қадимий шаҳарлари — Термиз, Чағониён, Кеш, Насаф, Самарқанд, Бухоро, Устуршона, Шош — асрлар давомида илм-фан ва маънавиятнинг йирик марказлари сифатида танилган. Бу замин нафақат ўзининг бой тарихий мероси, балки ундан етишиб чиққан улуғ олимлар, муҳаддислар, фақиҳлар ва мутафаккирлар билан ҳам бутун ислом оламида донг таратган. Бу илмий марказлар ўзаро узвий боғлиқ бўлиб, уларнинг ҳар бири ислом цивилизацияси тараққиётига бекиёс ҳисса қўшган. Хусусан, Термиз ва Бухоро ўртасидаги

илмий алоқалар алоҳида эътиборга лойиқ.

Ушбу мақолада Мовароуннаҳрда илм-фаннинг ривожланиши, унинг машҳур марказлари ўртасидаги ўзаро таъсир ва ҳамкорлик масалалари, шунингдек, Термиз заминидан етишиб чиққан, аммо Бухоро илмий муҳитида ҳам из қолдирган, ушбу минтақа тарихида муҳим ўрин тутган Суфийн ибн Омир Термизий каби нодир шахсларнинг ҳаёти ва илмий мероси кенг ёритилади. Буюк муҳаддис ва фақиҳларнинг ҳадис, тафсир ва фикҳ илмига қўшган ҳиссаси, уларнинг устоз ва шогирдлари силсиласи, илмий фаолиятининг ўзига хос хусусиятлари батафсил таҳлил қилинади. Мақола орқали Мовароуннаҳрнинг илмий салоҳияти ва ислом оламига қилган хизматларини янада чуқурроқ англаш имконияти яратилади.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Суфийн ибн Омир Термизий Тарихий Мовароуннаҳр минтақасининг илмий муҳити унинг машҳур марказлари бўлган Термиз, Чағониён, Кеш, Насаф, Самарқанд, Бухоро, Устуршона, Шош каби жой номлари билан боғлиқлиги барчага маълум. Бу илмий марказларнинг қай бирини иккинчиси билан алоқаларини олманг, диққатга сазовор кўплаб муҳим янгиликларга дуч келаверасиз. Термиз ва Бухоронинг илмий алоқалари ҳам шулар жумласидандир.

Жумладан, Термиз – юртимизга ислом кириб келишининг асосий йўлида жойлашган ва бу дин Мовароуннаҳрда илк бор кенг тарқалган жойлардан бири бўлган шаҳар ва тарихий вилоят номидир. Шунинг учун бу ерда Мовароуннаҳр тарихидаги нодир ҳодисалардан бири юз берган ва ушбу ҳудуддан 10 га яқин табаа тобеин етишиб чиққан. Ана шундай олимлардан бири Суфён ибн Омир Гифорий Термизийдир.

Манбаларда, жумладан, Имом Бухорий “Тарих”ида келтирилишича, Суфён Термизий Абдуллоҳ ибн Товус (ваф. 749) ва Абдуллоҳ ибн Абу Нажийх Маккий (ваф. 748 ёки 749) дан, ундан эса Солих ибн Абдуллоҳ Термизий ривоят қилган. Ибн Ҳиббон (ваф. 965) уни “Ас-Сикот”

(“Ишончли ровийлар”) асарида зикр қилиб, Термиз аҳлидан бўлган шайх ва содук (ростгўй) деб таърифлайди ва унинг Ибн Товусдан қилган бир ривоятини келтиради[1]. Шунинг учун Ибн Кутлубағо (1399–1374) ушбу шахсни Ибн Ҳиббоннинг гувоҳлигига асосланиб, “Олти ҳадис тўпламида учрамайдиган ишончли ровийлар” номли китобига киритган[2].

Аммо ушбу Термизийнинг табаа тобеин саналишига сабаб бўлган шахслардан бири унинг устози Абу Умайя Абдулкарим ибн Абулмаҳорик Басрий (ваф. 743) бўлиб, у саҳоба Анас розияллоҳу анҳунинг шогирди бўлган тобеиндир. Ушбу Термизийнинг бу шахсдан ривоят қилиши ҳақида Миззий маълумот берган[3]. Ушбу Абу Умайя Маккада яшаган фақиҳ олимдир. Маккада яшаган машҳур табаа тобеин олим Суфён ибн Уяйна дейди: “Бирор киши ундан: “Бу сўзни қаердан олдинг?” деса: “Муаллимнинг Иброҳим Наҳаъийдан” деб иснодини (саҳоба) Ибн Масъудга нисбат берарди”[4]. Чунки фикҳдаги раъй йўналишининг асосчилари бошида Кўфанинг машҳур фақиҳи Иброҳим Наҳаъий туриши маълум. Зеро, манбалардан маълумки, раъй йўналишининг асосий намоёндаси Имом Аъзам Абу Ҳанифа (699–767) Ҳаммод ибн Абу Сулаймон Кўфийнинг (ваф. 738), у эса Иброҳим Наҳаъий Кўфийнинг (666–715) шогирди саналади. Шунингдек, Имом Аъзам таълим олган устозлар силсиласи Иброҳим Наҳаъийдан сўнг Иброҳимнинг тоғаси бўлмиш Алқама орқали саҳоба Абдуллоҳ ибн Масъуд розияллоҳу анҳуга (ваф. 653) боғланади.

Абу Умайя Басрий ўз даврининг машҳур тобеин олимлари Товус, Ато, Мужоҳид, Ҳасан, Иброҳим Наҳаъий каби тобеинлардан, ундан ҳам Абу Ҳанифа Имом Аъзам, Имом Молик, Суфён Саврий, Ибн Уяйна, Ибн Абу Аруба кабилар ривоят қилишган. Унинг ривоятлари “Кутуби ситта” – олти машҳур ҳадис тўплами муаллифларида турли даражаларда учрайди.

Солих ибн Абдуллоҳ Термизий (ваф. 845 ёки 853) Суфён Термизийдан унинг билвосита Умар ибн Абдулазиз, Убайд ибн

Умайр ва Мужоҳидлардан нақл қилган ҳикматли сўзларини ҳам келтиради. Жумладан, ушбу Термизийнинг ривоят қилишича, тобеинларнинг улкан олими Мужоҳид Маккий дейди: “Ким тонг отганда ва кеч кирганда тавба-тазарру қилиб турмаса, у золимлардан бўлиб қолади”. Яна бир тобеин олим Убайд ибн Умайр дейди: “Кийим-у уловга ва одамлар билан борди-келдига ўта қизиқиб, берилиб кетган қорига Аллоҳ ғазаб қилади”[5].

Яна Солиҳ ибн Абдуллоҳ ундан ривоят қилган ушбу Термизийнинг икки ҳадис ривояти кўплаб манбаларда, жумладан, Имом Табаронийнинг (873–971) “Ал-Мўъжам ал-кабир” асарида келган (342 ва 1746-рақамли ҳадислар). Ундан маълум бўлишича, ушбу Термизий саҳоба Абу Туфайл Омир ибн Восила Лайсий розияллоҳу анхудан (ваф. 728) таълим олган яна бир тобеин Абдуллоҳ ибн Абдурахмон ибн Абу Ҳусайн Маккийдан ҳам ривоят қилган. Абу Нуъайм ҳам ушбу Термизий ҳадислардан бирининг санадини шундай келтиради: уни Солиҳ ибн Абдуллоҳ, у Муҳаммад ибн Али ибн Исмоил ибн Саҳл ибн Далло Термизийдан, у Суфиён ибн Омирдан, у Ибн Товусдан, у Товусдан, у Жобир розияллоҳу анхудан ривоят қилган[6].

Эътиборли жиҳати шуки, Заҳабий (1274–1348) ва Ибн Ҳажар (1372–1449) Суфиён ибн Омир Термизийнинг Бухоро қозиси бўлганлигини айтишади[7].

Маълумки, Бухоро кейинчалик Марказий Осиёда Термиздан сўнг ҳанафийлик марказларидан бири бўлган. Бунда эса ушбу Термизийнинг ўз ўрни бўлганлиги келиб чиқади. Солиҳ ибн Абдуллоҳ Термизий Суфиён ибн Омирдан ҳадис ривоят қилар экан, “У солиҳ инсон эди” дейди[8].

Албатта, Мовароуннаҳр ва ислом дунёсида фаолият юритган кўплаб Термизийлар мавжуд. Улар билан китоб охиридаги Термизийлар рўйхатида берилган мухтасар маълумотлар бўлимида ва у ерда кўрсатилган адабиётлар орқали эса улар ҳақида батафсил танишиш имкони мавжуд.

Солиҳ ибн Муҳаммад Термизий Ушбу олим Абу Довуд Таёлисий (ваф. 819), Муқотил ибн Фазл Ямоний, Муҳаммад ибн Марвон Суддий Сағир кабилардан, ундан эса Осим ибн Замзам ибн Осим ибн Мусо Ҳанафий Балхий кабилар ривоят қилган.

Солиҳ ибн Муҳаммад Имом Аъзам Абу Ҳанифанинг фарзанди Ҳаммодан таълим олган. Гап шундаки, Ибн Ҳажар “Нусхату Ҳаммо ибн Абу Ҳанифа ʻан абийҳи” (“Ҳаммо ибн Абу Ҳанифа отасидан ривоят қилган нусха”) китобининг санадида Солиҳ ибн Муҳаммад Термизийни келтиради. У Ҳаммо ибн Абу Ҳанифадан (ваф. 792) ушбу нусхани тўғридан-тўғри ривоят қилган. Ҳаммо ибн Абу Ҳанифадан ҳадис ривоят қилган “Абу Шуъайб Солиҳ ибн Муҳаммад Термизий”ни Доракутний ҳам келтиради. Бу Аллоҳни охиратда кўриш ҳақидаги аҳли сунна вал жамоа қарашларига мувофиқ маъноси саҳиҳ ҳадис бўлиб, уни ушбу Термизий Мусайяб ибн Шарийкдан (ваф. 802) ривоят қилади. Шунингдек, Солиҳ ибн Муҳаммад Термизий бу ҳадисни Ҳаммо ибн Абу Ҳанифадан, у отасидан нақл этган.

Солиҳ ибн Муҳаммад тафсир, ҳадис, фикҳ каби илмларда етакчи бўлган. Ҳожи Халифа (1609–1657) “Кашф уз-зунун”да дейди: “Тафсир ус-солиҳий – у Солиҳ ибн Муҳаммад Термизийнинг Ибн Аббос розияллоҳу анхудан ривоят қилган тафсири. У зот унга тўрт минг ҳадисни ҳам зиёда қилган”. Баъзи манбаларда келишича, тасаввуф намояндаси, Балҳда яшаган Аҳмад ибн Хизравийя (ваф. 854) бошқа бир Термизий – Солиҳ ибн Абдуллоҳдан тафсир эшитган. Унинг аёли Фотима эса ундан тафсир китобини ривоят қилган. Бу аслида Ҳожи Халифа хабар берган тафсир китоби бўлиши мумкин. Самъоний ҳам Балх қишлоқларидан бири бўлган Ферузонахжур ҳақида маълумот берар экан, ундан чиққан Абу Саҳл Форис ибн Амр Ферузонахжурининг Солиҳ ибн Муҳаммад Термизийдан Калбийнинг “Тафсир” китобини ривоят қилишини айтади. Бошқа бир ўринда эса Самъоний ўзи ривоятига ёзма ижозат олган ушбу асар санадида Қосиб ибн Уббод Термизий уни Солиҳ ибн

Муҳаммад Термизийдан, у Муҳаммад ибн Марвондан, у Муҳаммад ибн Соиб Калбийдан ривоят қилади. Ушбу китобни Абу Ҳорун Муҳаммад Термизий ҳам Қосим ибн Уббод Термизийдан ривоят қилган. Нажмиддин Умар Насафийга кўра ҳам, Абу Румайх Муҳаммад ибн Румайх Термизий Солих ибн Муҳаммад Термизийдан, у эса Муҳаммад ибн Марвондан тафсир ривоят қилган. Зоҳид Саъд ибн Солих Самарқандий эса ушбу тафсирни Абу Румайх Термизийдан ривоят қилган. Кўриб турганимиздек, Солих ибн Муҳаммаднинг ўзи ва меросидан юртимиз ва бошқа юрт олимлари кенг-мўл истифода этишган.

Термизийлардан эса Солих ибн Муҳаммаддан Ҳаким Термизийнинг отаси Али ибн Ҳасан Термизий ва Ҳаким Термизийнинг ўзи, Қосим ибн Уббод Термизий кабилар ривоят қилиб, таълим олишган. Имом Абу Исо Термизий “Сунан”ида (99 рақам) “Солих ибн Муҳаммад Термизийнинг шундай деганини эшитдим” деб, унинг Абу Муқотил Самарқандийдан (ваф. 823) нақл қилган Имом Абу Ҳанифанинг шариат аҳкомига тегишли сўзини келтирган.

Солих ибн Муҳаммад улуг олим ва мутафаккир, ислом донишманди Ҳаким Термизийнинг асосий устозларидан биридир. У ўзининг “Наводир ал-усул” асарида Солих ибн Муҳаммад Термизийдан 68 ҳадис ривоят қилган. У аллома ҳаётида муҳим ўрин тутган.

Ҳаким Термизий дейди: “Бир куни айрим дўстларим билан масжидда ўтирган эдим. Баъзи нарсаларни эсладик. Бу эса шунга олиб бордики, мен бизга ўтмишда етган баъзи азиятли мусибатларни зикр қилдим. Ўйлашимча, бу ортиқча каломга далолат қилди. Шу кеча туш кўрдимки, Солих ибн Муҳаммад ўз масжиди саҳнида ўтирибди ва у метиндек суянчикқа суянган, атрофида эса машойихларимиз, улардан: Ҳасан ибн Мутийъ, отам, Абу Яъқуб ва бошқа бир гуруҳ машойихлар бор, Аллоҳ уларга раҳм қилсин. У худдики уларга китоблардан бир нарсалар ўқиб бермоқда. Қачонки фориг бўлишгач ва унинг атрофидан тарқалишгач, ўзимни унинг

суянчиғи яқинида, унинг рўпарасида бир ўзим тик турган ҳолда топдимки, биз билан учинчи киши йўқ эди. Мен унинг кийимининг оқлигига, соқолининг қизиллигига назар соламану ажабланаман. У эса менга дейди: “(Аллоҳ таолонинг) мана бу сўзининг тафсири нима: “Қайси ҳолда бўлсанг, Қуръондан нимани тиловат этсанг, ишлардан қай бирини қилсанг, албатта, биз ўшанга киришаётган пайтингларда сизларга гувоҳмиз” (“Юнус” сураси, 61-оят). Унга жавоб бериб, дейман: “Аллоҳнинг улар билан бўлган шохидийяти (гувоҳлиги)”. Ўйлайманки, бу калимани ҳеч қачон айтмаган эдим, уни ҳеч кимдан эшитмаган ҳам эдим, уни фақат шу вақтдагина билдим. Қачонки унга ушбу калима ила жавоб қайтарганимда, у оғзини мана бундай қилиб кулоғимга яқинлаштириб, худди менга ишорамаслаҳат бераётгандек деди: “У авлиёларига дейди: – у худдики исми баракотли Парвардигорни назарда тутаетгандек эди – “Оғизга муҳр уринглар”. Бас, уйғониб кетдим ва ичимда дедим: “Бу мавъиза туш”. У худдики уйғоклигимдагидек бўлди. Аллоҳга истиғфор айтаман ва унга тавба қиламан”[9].

Маълум бўлмоқдаки, мана шундай илмий муҳит самараси ўларок,

Термиздан Имом Термизий ва Ҳаким Термизийдек буюк олимлар етишиб чиққан. Зеро, бу олимларгача бизга 40 дан ошиқ Термизийларнинг номи маълум бўлиб, улар Термизни дунё миқёсдаги илмий марказ даражасига кўтариб улгуришган эди. Ҳаким Термизийдек буюк зот ҳақида сўз юритишдан олдин эса унинг келтириб ўтилган устозлар силсиласининг энг муҳим бўғини бўлган отаси Али ибн Ҳасан Термизий ва онаси Умму Оиша бинти Саҳлга ҳақида ҳам сўз юритиш мақсадга мувофиқ.

Али ибн Ҳасан ибн Бишр ибн Ҳорун Термизий Ҳаким ат-Термизийнинг отаси бўлган ушбу шахс ҳақида “Тарихи Бағдод”да алоҳида тўхтаб ўтилган бўлиб, бу эса олимнинг ўз даврида моддий ва маънавий марказ бўлган Бағдодга боргани

ва у ерда ҳам эътироф этилувчи йирик олим бўлганини кўрсатади. Унда айтилишича, у Бағдодда ханафий мазҳаби олимларидан бўлган Шаддод ибн Ҳаким Балхийдан (ваф. 828) ва йирик муҳаддис Солиҳ ибн Абдуллоҳ Термизийдан (ваф. тахм. 853), ундан эса Бағдод аҳлидан бўлган Муҳаммад ибн Махлад (848–943) ривоят қилди. Хатиб Бағдодий бир шахс орқали Муҳаммад ибн Махладдан, у ушбу Термизийдан ривоят қилган ҳадисни ҳам санади билан келтиради.

Али ибн Ҳасан ибн Бишрнинг устозлари ислом дунёсида машҳур бўлган олимлар бўлиб, уларнинг сони олтмишга яқин. Ҳофиз Миззий, жумладан, қуйидагиларни қайд этади: Исмоил ибн Сабийх Кўфий (ваф. 832), Исмоил ибн Маслама Маданий (табаа тобеин, ваф. 824), Собит ибн Муҳаммад Кўфий (ваф. 830), Жандал ибн Волиқ Кўфий (ваф. 840), Ҳасан ибн Робийъ Кўфий (ваф. 835 ёки 836), Ҳакам ибн Муборак Балхий (ваф. тахм. 828), Абдуллоҳ ибн Осим Басрий (табаа тобеин), Абдуллоҳ ибн Нофеъ Маданий (ваф. тахм. 830), Усмон ибн Зуфар Кўфий (ваф. 833), Амр ибн Ҳаммод Кўфий (ваф. 836), Муҳаммад ибн Саъид Кўфий (ваф. 835), Муҳаммад ибн Язид Маккий (табаа тобеин, вафоти 835 йилдан сўнг), Мутарриф ибн Абдуллоҳ Маданий (ваф. 835), Ушбу шахслар, умуман олганда, ишончли ровийлар ҳисобланади ва улардан Имом Бухорий, Муслим, Абу Довуд каби муҳаддислар бевосита таълим олганлари ҳам талайгина.

Шунингдек, ушбу Термизий Имом Абу Ҳанифа ва унинг шогирди Имом Зуфардан ривоят қилган ҳофиз Абу Нуъайм Фазл ибн Дукайн (асл исми Амр ибн Ҳаммод) Кўфий (ваф. 834) ва Кўфада илк бора “Муснад” битган шахс сифатида қайд этиладиган Абу Закарийё Яҳё ибн Абдулҳамид Ҳиммоний Кўфийдан (ваф. 843) кўп ривоят қилган ва ривоятлар миқдорига қараганда, у ушбу икки табаа тобеиннинг яқин шогирдларидан бўлиб, Кўфа шаҳри унинг ҳаётида муҳим ўрин тутган.

Али ибн Ҳасан Термизийдан эса Тайфур ибн Исо Абу Зайд Бастомий асғар (кичик)

(ваф. 883), Абу Бакр Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Абу Салж Бағдодий (ваф. 870), юқорида келган Муҳаммад ибн Махлад Бағдодийлар ривоят қилишиб, таълим олишгани қайд этилади.

Аммо Али ибн Ҳасан Термизийнинг асосий талабаси бу унинг ўғли Муҳаммад ибн Али ибн Ҳасан Ҳаким Термизийдир. Ҳаким Термизий ўзининг ҳадисга оид асосий китоби бўлган “Наводир ул-усул”да энг кўп отасидан ривоят қилган ва ушбу ривоятлар сони 206 тани ташкил этади[10].

Ҳаким Термизий дейди: “Менга отам, Аллоҳ у зотни раҳматига олсин, ривоят қилди ва деди: “Зулматли кечада тавофга кирганимда мени кисталиш тутиб, тавофдан машғул қилиб қўйди. Аммо одамларнинг азиятларига дуч келишдан хавотирланиб, чиқишни истамадим. Чунки бу (одамлар кўп бўлган) ҳаж мавсумида эди. Шунда ушбу ҳадисни эсладим: “Албатта, замзам суви нима учун ичилса, ўша мақсадга етказди”. Сўнг унга бориб, ундан сув чиқариб олиб ичдим. Шундан сўнг мендаги азият тонггача ариди”.

Бундан Али ибн Ҳасан Термизийнинг Аллоҳга яқин улуғ инсонлардан эканлиги англашилади. Шунинг учун нақшбандийлик манбалари, масалан, “Анис ат-толибин” ва бошқаларда Муҳаммад Ҳаким Термизийнинг номидан сўнг “қоддасаллоху руҳаҳума” (у иккисининг руҳини Аллоҳ покласин) дейилади. Ҳаким Термизий номига қилинган бу иккилик дуо, ислом тарихи манбаларида кузатиладиганидек, унинг отаси Али ибн Ҳасан Термизийга ҳам тегишли эканлигини айтиш мумкин.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Умуман олганда, ушбу тадқиқот Мовароуннаҳрнинг илмий муҳити қанчалик бой ва ўзаро боғлиқ бўлганлигини, бу заминдан Имом Термизий ва Ҳаким Термизий каби буюк олимларнинг етишиб чиқишига замин яратганлигини намоиш этди. Уларнинг илмий мероси бугунги кунгача ислом олами учун муҳим аҳамият касб этиб келмоқда.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Ибн Ҳиббон. *Ас-Сикот*. Ж. VI. – Б. 406, №8310; Ж. VIII. – Б. 288, №13485.
2. Ибн Қутлубағо. *Ас-Сикот*. Ж. V. – Б. 37–38, №4583.
3. Миззий. *Таҳзиб ал-камол*. Ж. XVIII. – Б. 259–265.
4. Муғлатой. *Икмол*. Ж. VIII. – Б. 294.
5. Абу Нуъайм. *Ҳиятул-авлиё*. Ж. III. – Б. 274, 294.
6. Абу Нуъайм. *Ҳиятул-авлиё*. Ж. IV. – Б. 22.
7. Заҳабий. *Мезон ал-эътидол*. Ж. II. – Б. 169, №3324; Ибн Ҳажар. *Лисон ал-мезон*. Ж. III. – Б. 53, №207.
8. Хатиб Бағдодий. *Тарихи Бағдод*. Ж. X. – Б. 429. Батафсил қаранг: Чўтматов Ж. *Бухоронинг Термизий қозиси // Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги даврлардан ҳозиргача)* мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Бухоро, 2023. – Б. 125–128.
9. Ҳаким Термизий. *Наводир ал-усул*. Ж. III. – Б. 317–318. Қаранг: Чўтматов Ж. *Термизнинг безавол қалъалари ёхуд Термиз тарихи*.
10. Ҳаким Термизий. *Наводир ал-усул*. Ж. VII. – Б. 353–355.

O‘ZBEKISTONNING ANTROPOLOGIYA MAKTABI VAKILLARI VA ULARNING FAN RIVOJIDAGI O‘RNI

Sulaymanov Amaliddin Nurboyevich

Guliston davlat universiteti “Tarix” kafedrası dotsenti

Orcid ID: 0009-0002-5490-7217

UO‘T (UDK):930(575)

Annotatsiya: O‘zbekistonda antropologiya va etnografiya sohasi tadqiqotchilari faoliyatlarining natijasida, Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasiga oid fundamental ishlar tayyorlanib, mintaqa xalqlarining antropologiyasi tarixi yaratilmoqda.

Shuning uchun ham, O‘zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi tarixi, faoliyati davomida shakllangan soha olimlari va ularning fan rivojidagi o‘rni, bugungi kunda O‘zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishi va Markaziy Osiyo xalqlarini o‘rganishdagi o‘rnini tarixshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish tarixchilarning muhim tadqiqotlari sirasiga kiradi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, ilm-fan, antropologiya, maktab, tadqiqotlar, titul xalqlar, etnografiya.

Аннотация: В Узбекистане в результате деятельности исследователей в области антропологии и этнографии готовятся фундаментальные труды по антропологии народов Центральной Азии, создается история антропологии народов региона.

Поэтому одним из важных исследований историков, занимающихся историей возникновения антропологии как науки в Узбекистане, является изучение деятельности ученых, сформировавшихся в ходе развития антропологии как науки в Узбекистане, их роли в развитии историографии народов Центральной Азии.

Ключевые слова: Узбекистан, наука, антропология, школа, исследования, титульные народы, этнография.

Annotation: In Uzbekistan, as a result of the activities of researchers in the field of anthropology and ethnography, fundamental works on the anthropology of the peoples of Central Asia are being prepared, and the history of the anthropology of the peoples of the region is being created.

Therefore, one of the important studies of historians engaged in the history of the emergence of anthropology as a science in Uzbekistan is the study of the activities of scientists who formed during the development of anthropology as a science in Uzbekistan, their role in the development of the historiography of the peoples of Central Asia.

Keywords: Uzbekistan, science, anthropology, school, research, titular peoples, ethnography.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asr boshlarida faoliyat ko‘rsatgan ilmiy jamoalar, mehnatning taqsimoti va kooperatsiyasi natijasida, yangi bilimlarni yaratish maqsadidagi ilmiy faoliyatning asosiy bo‘linmalariga aylana boshlaydi. Bunday ilmiy jamoalarning shakllaridan biri – maktab, yangi bilimlarni yaratish, tarqatish funksiyasini bajaradigan tadqiqotchilar jamoasi hisoblanadi. Har qanday maktabning faoliyatini o‘rganishning dolzarbligi, uning fan rivojiga qo‘shgan hissasi bilan belgilanadi. Chunki maktablar, insonlarni nafaqat bilimlar bilan tanishtiradi, balki mavjud yaratilgan bilimlarni avaylab asraydigan, uni rivojlantiradigan noyob markaz ham hisoblanadi. Maktab yo‘nalishi – ilmiy an‘ana bilan tavsiflanadi. Har qanday maktab, alohida olimlar yoki tadqiqotchilar jamoasi guruhini birlashtiradi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jamoa tushunchasi ma’lum bir shaxsiy tarkib degan ma’noni anglatmaydi. Ilm-fan rivojida, bugungi kun jamiyatning dolzarb muammolarini tizimli hal etishda, maktablarning o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday jamiyatda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham, maktablar, ilmiy kadrlar tayyorlashning o‘ziga xos poydevori bo‘lib,

ajdodlarimizning ilmiy an'alarini saqlash, takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi. Bu esa hozirgi kunda doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrnlarning dissertatsiyalarini tayyorlashlari davomida namoyon bo'lmoqda. Dissertatsiya mavzusi ustida ishlash va uning doirasida ilmiy tadqiqotlar olib borish ko'pgina hollarda, umumiy ilmiy yo'nalish doirasida, ko'p yillik hamkorlik va uzluksiz mehnat bilan bog'langan bo'lib, poydevori mustahkam maktablarni tashkil etuvchi ilmiy jamoalarda amalga oshiriladi va o'zining ijobiy samaralarini beradi.

Maktab deganda, taniqli ilm vakili rahbarligida, turli yoshdagi va malakali tadqiqotchi-olimlar jamoasining kollektiv ilmiy mehnati bilan birlashgan, ma'lum bir ilmiy yo'nalishda tadqiqotlar samaradorligini va mutaxassislar malakasini ta'minlaydigan, ilmiy va pedagogik faoliyat tushuniladi. Fan sohasidagi maktablar, turli yo'nalishdagi olimlar o'rtasida doimiy va yaqin, norasmiy muloqotni tashkil etish, fikr almashish va natijalarni muhokama qilish uchun zo'r maydon bo'lib xizmat qiladi [14.].

Maktab, aniq ilmiy yo'nalishda, uyushgan jamoa tomonidan yuksak saviyadagi izlanishlarni olib borish, ilmiy obro'-e'tibor, an'analarning barqarorligi, yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashda avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan norasmiy, ochiq jamoa hisoblanadi.

Tarixan shakllangan va bugungi kun sharoitida rivojlanayotgan maktab tushunchasi, kundalik hayotda ro'y berayotgan ilmiy tadqiqotlarda, fan tarixida muhim o'rin tutadi. Aynan maktablar fanda avlodlar uzluksizligi an'alarini, dunyoqarashlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ilmiy jamiyat me'yorlari, qadriyatlar, ilmiy tadqiqotlarni olib borish san'ati, motivatsiyalari, yangi ilmiy g'oyalarni ilgari surish, ularni nazariy jihatdan asoslash va tajriba yo'li bilan isbotlash, amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yaratib beradi. Shu bois bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ilmiy sohadagi siyosati, ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlashga qaratilayotganligi bejiz emas [1.].

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda, O'zbekiston antropologiya fanining vakillari va ularning fan rivojidadagi o'rniga baho berish lozim.

XIX asrning ikkinchi yarmida, 1884-yil 9-mart kuni Turkiston o'qituvchilar seminariyasi o'qituvchisi, Vasiliy Fyodorovich Oshanin oilasida Lev ismli o'g'il dunyoga keladi. Lev, 1903-yilda Toshkent shahrida o'rta maktabni tamomlab, Sankt-Peterburg universitetining Biologiya fakultetiga o'qishga kiradi [8. B. 21]. 1912-yilda harbiy-tibbiyot Akademiyasini tamomlaydi. O'z vaqtida professorlar V.T.Shevyakov, V.M.Bexterevlar qo'lida tahsil olib, ko'plab amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etgan L.V.Oshaninining pedagogik va ilmiy faoliyatining boshlanishi, 1918-1919-yillarga to'g'ri kelib, bu davrda u boshqa mutaxassislar bilan birgalikda Toshkent shahrida o'lkaning Oliy tibbiyot maktabiga asos soladi va u erda o'qituvchilik qila boshlaydi. Toshkent universitetida Tibbiyot fakultetini tashkil qilishda ishtirok etib, bir qancha muddat shu fakultetning dekani lavozimida ishlaydi. XX-asrning 20-yillarining boshlaridan antropologiya bilan shug'ullanishni boshlab, o'zini ushbu fan rivojiga bag'ishlaydi.

Uning antropologiya sohasidagi faoliyatining boshlanishi 1920-1921-yillarga to'g'ri keladi. O'sha davrda Toshkentda antropologik muassasalar va ekspeditsiyalar bo'lmaganligi sababli, mintaqaning turli hududlariga uyushtirilgan tibbiyot ekspeditsiyalarida shifokor sifatida ishtirok etib, antropologik materiallar to'plash bilan jiddiy shug'ullanadi [8. B. 21]. O'rta Osiyo davlat universiteti qoshida Antropologiya kafedrasini tashkil qilishda bosh-qosh bo'lib, sohaning fan sifatida rivojlanishida katta hissa qo'shadi. 1925-yilning kuzidan boshlab, Sharq va Tibbiyot fakultetlarida talabalarga O'rta Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnogenezi bo'yicha ma'ruzalar o'qishni boshlaydi. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, biologiya fanlari doktori., professor, 1939-1961-yillarda Toshkent davlat universiteti, "Antropologiya" kafedrasi mudiri lavozimida mehnat qiladi [8. B. 21].

L.V.Oshanin pedagogik va ilmiy faoliyati

davomida 60 dan oshiq ilmiy ishlarni chop ettiradi [8. B. 21]. Ular asosan O'rta Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixining dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi bilan alohida ahamiyatga ega ekanligini bugungi kunda ham yo'qotmagan. L.V.Oshanin, O'rta Osiyo xalqlari antropologik tarkibi va etnogenezi, Janubiy Tojikiston tojiklari va o'zbek qabilalari antropologik tarkibi va etnogenezi masalalari, G'arbiy Pomir eroniy qabilalari, Antropologik taqqoslash tadqiqotlari mavzusida 50 dan ortiq ilmiy asarlar chop etadi. 1953-yilda uning O'zbekiston antropologi V.Ya.Zezenkova bilan birgalikda mintaqa va unga tutash hududlarning olti mingdan ziyod aholisi o'rtasida olib borilgan antropologik tadqiqotlari natijalarini o'z ichiga olgan "O'rta Osiyo xalqlari etnogenezi masalalari antropologik ma'lumotlar asosida" nomli kapital asari chop etiladi. Uning O'rta Osiyo aholisi antropologik tarkibi va uni xalqlarining etnogenezi nomli uch tomlik asari (1957-1959-yy.) dunyo etnik antropologiyasi fanining rivojiga salmoqli hissa qo'shadi. Asarda O'rta Osiyo aholisi tarkibi beshta antropologik (bitta mo'g'uliy va to'rta evropeoid) tipga ajratilib, ularning mintaqa bo'ylab paydo bo'lishlari va joylashish areallari ilmiy jihatdan asoslab beriladi [9. B. 54-56]. Shuningdek asarda, O'rta Osiyoning barcha qadimgi hududlarida O'rta Osiyo ikki daryo oralig'i evropeoid tipi vakillari hisoblangan, qadimda yashagan mahalliy Xorazm-So'g'd-Baqtriya aholisining ajdodlari hisoblanmish tojik va o'zbeklar bu tipning vakillari ekanligi asoslab beriladi. Mintaqaning qozoq va qirg'iz xalqlari, L.V.Oshanin tadqiqotlariga ko'ra, katta mo'g'uliy tip variantlaridan biriga mansub deb e'tirof etiladi [9. B. 54-56]. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonning birinchi antropologini ushbu klassifikatsiyasi, mintaqada olib borilgan keyingi antropologik (V.V.Ginzburg, Q.Najimov, T.A.Trofimova, V.Ya.Zezenkova, T.K.Xodjayov, G.K.Xodjayova) tadqiqotlar davomida asos sifatida qabul qilinadi [3].

O'zbekistonning birinchi antropologining pedagogik va ilmiy faoliyati to'g'risida ko'p gapirish mumkin. Ammo shu erda bu olimning

asosiy mehnatlariga to'xtalib o'tishni joiz deb topdik. 1939-yil 29-sentyabrda, Oliy Attestatsiya Komissiyasi L.V.Oshaninga doktorlik dissertatsiyasini yoqlamasidan, biologiya fanlari doktori ilmiy darajasini beradi. Shu yilning o'zida u, sobiq ittifoqda ikkinchi hisoblangan, O'rta Osiyo davlat universitetining "Antropologiya" kafedrasini mudiri lavozimini egallaydi. 1942-yildan boshlab u, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Tarix va arxeologiya institutining katta ilmiy xodimi sifatida faoliyatini davom ettiradi. 1946-yilda unga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoni beriladi. 1955-yilda L.V.Oshanin, O'zbekiston Oliy Kengashi deputatligiga saylanadi. 1959-yilda olimning asosiy ilmiy mehnati mahsuli bo'lgan "O'rta Osiyo aholisining antropologik tarkibi va etnogenezi" nomli uch tomlik asarlari chop etiladi. O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishida katta hissa qo'shgan olim, L.V.Oshanin 1962-yil yanvar oyida Toshkent shahrida vafot etadi.

Shu o'rinda, O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi va rivojlanishida hissa qo'shgan, mamlakatning birinchi antropologi L.V.Oshaninga hamda uning hamkasblariga, O'zbekiston antropologlarini tarbiyalab voyaga etkazgan oliy maskan, O'zbekiston milliy universitetida 2020-yilda tashkil etilgan "Antropologiya va etnologiya" kafedrasini qoshida, O'zbekistonda antropologiya fanining 100 yilligi munosabati bilan xotira taxtasini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bundan 103 yil avval, 1920-yil 15-oktyabrda o'zbek antropologi, tarix fanlari nomzodi, Najimov Qodir Najimovich Toshkent shahrida, hunarmand oilasida dunyoga keladi. Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgandan so'ng, 1949-yilda, O'rta Osiyo davlat universitetining (SAGU) biologiya fakultetini tamomlaydi, uning eng yaqin ustozlari b.f.d., professor L.V.Oshanin va akademik T.Z.Zohidovlar hisoblangan. 1949-1951-yillarda O'rta Osiyo davlat universiteti aspiranturasida tahsil olgach, 1953-yilda "Surxondaryo viloyatining ayrim xalqlarining antropologik tarkibi va ularning etnogenezi masalalari antropologik

ma'lumotlar asosida" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi.

1952-1953-yillarda – O'rta Osiyo davlat universiteti Antropologiya kafedrasida assistenti, 1953-yil oktyabrda katta o'qituvchi, 1956-1963-yillarda Antropologiya va umurtqali hayvonlar zoologiyasi kafedrasida dotsenti. 1959-1965-yillarda Toshkent davlat universiteti Biologiya va tuproq fakulteti dekani vazifalarida unumli mehnat qiladi.

1950-1959-yillarda FA Tarix va arxeologiya instituti va SAGU Antropologiya bo'limi (Toshkent va Surxondaryo viloyatlari, Turkmanistonning turli viloyatlari)ning antropologik ekspeditsiyalariga rahbarlik qiladi. 1959-yilda G'arbiy Sibirga uyushtirilgan antropologik ekspeditsiya rahbari sifatida faoliyat ko'rsatadi. Antropologiyaga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar, jumladan, "Surxondaryo viloyati aholisining antropologik tarkibi" (1958) monografiyasi muallifi hisoblanadi. N.V.Kolesnikovning "Odam anatomiyasi" darsligini o'zbek tiliga tarjima qilgan. "O'zbek maktablarida bolalar – maktab o'quvchilarining jismoniy rivojlanishi dinamikasi" mavzusida ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mintaqa, xususan O'zbekiston antropologiyasi bo'yicha qator fundamental asarlar muallifi. Jumladan: Антропологические материалы к проблеме этногенеза некоторых народов Средней Азии (узбеков, таджиков, туркмен и дунган), Антропологический состав некоторых народов Сурхандарьинской области и вопросы их этногенеза в свете данных антропологии, О черепе Зливкинского могилника, Антропологический состав населения Сурхандарьинской области (в связи с некоторыми вопросами этногенеза), О происхождении человека mavzularida olib borgan ilmiy tadqiqotlari, fundamental ilmiy ishlari chop etilgan.

Olim "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun", "1941-1945-yillardagi Ulug' Vatan urushidagi g'alabani yigirma yilligi" medallari bilan taqdirlangan. O'zSSR Oliy

Kengashi Prezidiumining ikkita Faxriy yorlig'i va O'zSSR Siyosiy ilmiy bilimlarni tarqatish jamiyatining tashakkurnomasi bilan taqdirlangan.

Olim to'g'risida uning talabalari shunday deb eshlashadi: "Qodir Najimovich Nadjimov o'qigan "Markaziy Osiyo antropologiyasi" kursini tinglash juda ham qiziqarli, maroqli edi. U O'rta Osiyo xalqlari antropologiyasining chinakam bilimdoni va Antropologiya kafedrasining asoschisi, atoqli toshkentlik olim Lev Vasilievich Oshanineng eng bilimdon shogirdi edi" deb yozgan edi [10. B. 87] taniqli olim E.Rtveladze.

O'zbekistonda antropologiya fanining rivojlanishida munosib hissa qo'shgan olim, Tatyana Petrovna Kiyatkina, O'rta Osiyo davlat universitetining Biologiya fakultetini tamomlagan. O'zbekistonda antropologiya fanining asoschisi, Antropologiya kafedrasining mudiri, L.V.Oshanineng shogirdlaridan biri bo'lgan.

Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi va etnik tarixi bo'yicha ko'plab ilmiy nashrlar muallifi. 1966-yilda arxeologik qazishma ishlarida izlab topgan paleoantropologik materiallar asosida tojiklarning antropologik tipini shakllanishi mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi [7. B. 155]. T.P.Kiyatkina Markaziy Osiyo xalqlari antropologiyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifi hisoblanadi.

Uning "Tojikiston paleoantropologiyasiga oid ashyolar", "Bronza davri Markaziy Osiyoning g'arbiy hududlari paleoantropologiyasi" kabi fundamental ishlari mintaqada antropologiya fanining rivojlanishiga hissa qo'shib, bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

B.X.Karmisheva, 1940-1945-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining Tarix fakulteti talabasi, 1945-1950-yillarda Tojikiston FA ilmiy xodimi, 1951-1956-yillarda Tojikiston FA ilmiy kotibi, katta ilmiy xodimi, 1950-1951-yillarda aspirant, 1956-1957-yillarda kichik ilmiy xodim, 1957-1982-yillarda esa katta ilmiy xodim, 1982-2000-yillarda Etnografiya instituti, O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'limi yetakchi ilmiy xodimi lavozimlarida mehnat qiladi. 1951-yilda

“Узбеки-локайцы Южного Таджикистана. Историко-этнографический очерк животноводства в дореволюционный период” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1978-yilda “Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. По этнографическим данным” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. 1945-1988-yillar oraligʻida Oʻrta Osiyoning turli hududlariga 25 marotaba ekspeditsiyalar uyushtirib, ilmiy faoliyati davomida, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi boʻyicha tadqiqotlar olib boradi va “О некоторых древних тюркских племенах в составе узбеков: по этнографическим данным”, “Среднеазиатские арабы”, “Узбеки-локайцы Южного Таджикистана”, “Население. Этнографические очерки узбекского сельского населения”, “Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана”, “Следы средневековых этнонимов и антропонимов в узбекских генеалогиях”, “Кочевая степь” Мавераннахр и ее население в конце XIX — начале XX в по этнографическим данным”, “Узбеки”, “К этнической истории туркмен Среднеазиатского междуречья” kabi fundamental asarlar yaratadi, Oʻzbekistonda antropologiya fanining rivojida, mintaq xalqlarini tadqiq qilishda soha vakillari, bugungi kunda ham olimaning ilmiy tadqiqot ishlaridan keng foydalanib kelishadi [5. B. 7-23].

Suxareva O.A., 1925-yilda Oʻrta Osiyo davlat universitetining Sharq fakultetini tamomlagan. 1925-1926, 1927-1930-yillarda oʻqituvchi, 1934-1946-yillarda Samarqanddagi oʻzbek xalqi madaniyati muzeyining xodimi lavozimlarida mehnat qiladi. Bir vaqtning oʻzida Pedagogika instituti va Oʻzbek davlat universitetlarining Tarix fakultetlarida, talaba-yoshlarga dars beradi. 1946-1967-yillarda Oʻzbekiston FA, Tarix va arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi, Etnografiya sektori mudiri lavozimlarida mehnat qiladi. L.V.Oshanin, V.Ya.Zezenkovalarning shogirdi hisoblanadi. 1940-yilda Leningrad davlat universitetida “Пережитки анимизма у равнинных таджиков” mavzusida nomzodlik, 1962-yilda

Etnografiya institutida “Позднефеодальный город Бухара конца XIX - начала XX в.” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Ilmiy faoliyati davomida Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va etnografiyasi mavzusida tadqiqotlarni davom ettiradi [12. B. 517]. Mintaqa xalqlari antropologiyasi va etnik tarixiga oid “Древние черты в формах головных уборов народов Средней Азии”, “Прошлое и настоящее селения Айкоран”, “К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографические очерки)”, “Бухара. XIX — начало XX в. (Позднефеодальный город и его население)”, “Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков”, “Вопросы изучения костюма Средней Азии” kabi materiallari chop etilgan [12. B. 517].

Oʻzbekistonda antropologiya fanining rivojlanishiga, uning fan sifatida dunyoga tanilishida katta hissa qoʻshgan, oʻzbek antropologlaridan biri Telman Qosimovich Xojayov, 1938-yil 8-mart kuni Oʻzbekistonning Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toʻrtkoʻl tumani, Shoʻraxon qishlogʻida tugʻilgan. 1957-yilda Toshkent davlat universitetining Biologiya-tuproqshunoslik fakultetiga oʻqishga qabul qilingan. 1963-yil oʻqishni tamomlagandan soʻng, Nukus shahridagi Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasining Qoraqalpoq filialining Tarix, til va adabiyot instituti boʻlimida laborant boʻlib ishlagan [4. B. 12].

1957-yilda T.Xodjayov, Qoraqalpogʻiston davlat universitetining tabiiy-geografiya fakultetining Biologiya taʼlim yoʻnalishiga oʻqishga qabul qilinadi. 1960-yilda antropolog mutaxassisligiga talab yuqori boʻlganligi va kadrlar etishmasligini oldini olish maqsadida isteʼdodli T.K.Xodjayov, 3-kursdan antropologiya sohasida bilim olish maqsadida oʻqishini Toshkent davlat universitetining “Biologiya-tuproqshunoslik” fakultetiga koʻchiradi. Uning ustoz va murabbiylari L.V.Oshanin shogirdlari V.Ya.Zezenkova va Q.N.Najimovlar boʻlishgan [4. B. 12]. Oʻqishni tamomlagandan soʻng Telman Qosimovich, Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi, Qoraqalpoq filialining tarix, til

va adabiyot institutiga kichik ilmiy xodim vazifasiga ishga qabul qilinadi. Antropolog sifatida ko'plab ekspeditsiyalarda ishtirok etib, ma'lum miqdordagi paleantropologik materiallarni to'playdi. Ammo o'ziga professional mahoratning etishmayotganligini sezgan holda u, Moskva etnografiya institutining antropologiya ixtisosligi bo'yicha aspiranturasiga kirishga harakat qiladi. 1964-1966-yillarda Fanlar Akademiyasi, Etnografiya instituti Leningrad antropologiya bo'limi aspiranti sifatida faoliyat ko'rsatib, 1968-yil Moskva shahrida "Формирование антропологического состава населения Южного Приаралья (Миздахкан)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi va 1968-yilda Nukusga qaytib, 1972-yilgacha O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Qoraqalpoq filialida oldin kichik, so'ngra katta ilmiy xodim sifatida faoliyat ko'rsatadi.

1972-yildan T.Xodjayovning ijodi va ilmiy faoliyatining Samarqand davri boshlanadi. U antropolog V.Ya.Zezenkovaning tavsiyasi bilan Samarqandda akademik Ya.G'ulomov tashabbusi bilan qayta tashkil etilgan Arxeologiya institutida ishlashga taklif etiladi. Bu erda u, o'n yil antik arxeologiya bo'limida antropolog sifatida, katta ilmiy xodim lavozimida mehnat qilib, materiallar yig'ish maqsadida tashkil etilgan barcha ekspeditsiyalarda ishtirok etadi. Doimiy ish joyida vazifalarning ko'pligiga qaramasdan T.K.Xodjayov, ko'plab paleantropologik materiallarni to'plash maqsadida nafaqat O'zbekiston, balki mintaqamizning Tojikiston, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston Respublikalarida shuningdek, Ukraina, Shimoliy Kavkazdagi ilmiy ekspeditsiyalarda faol ishtirok etadi. To'plangan materiallar asosida "Палеоантропология Средней Азии и этногенетические проблемы" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini 1982-yilda Moskvada muvaffaqiyatli himoya qiladi. XX-asrning 80-yillaridayoq T.Xodjayov, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, Arxeologiya instituti qoshida etnik antropologiya bo'limini ochish taklifi bilan chiqqan edi. Bu taklif tarixchi olim, tarix fanlari doktori., professor, akademik A.A.Asqarov tomonidan ilqlilik

bilan kutib olinib, har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Shundan so'ng T.Xodjayov V.P.Alekseev bilan birgalikda somatologik, dermatoglifik, odontologik va serologik tadqiqotlarni o'z ichiga olgan kompleks dasturni ishlab chiqishadi [11. B. 15-18].

1984-yildan to 1989-yilgacha, Toshkentga ko'chib o'tguniga qadar, etnik antropologiya bo'limining rahbari sifatida mehnat qiladi. Ushbu vaqt oralig'ida, Markaziy Osiyoning 50 dan ortiq etnohudud aholisini tadqiq qilishni tashkil etish va o'tkazishga muvaffaq bo'ladi. Kompleks dastur asosida o'n mingdan oshiq aholi o'rganiladi, ularni nikoh aloqalari, xo'jalik va madaniy hayotlari to'g'risida etnografik ma'lumotlar to'planadi.

T.K.Xodjayov 1989-yildan Toshkent davlat universiteti Tarix fakultetining "Qadimgi dunyo, o'rta asrlar va etnografiya" kafedrasini professori vazifasini bajaruvchi lavozimida o'z faoliyatini davom ettirib, 1993-yil professor ilmiy unvonini oladi. 1994-1998 yillarda shu kafedraning mudiri lavozimida mehnat qiladi. 1998-yilda olim Sankt-Peterburgga ko'chib ketgan davrigacha olimning ilmiy tadqiqot va ma'naviy hayoti sarmahsul bo'ladi. Tarix, biologiya, psixologiya fakultetlari talaba-yoshlari uchun, "Antropologiya asoslari", "Jismoniy antropologiya asoslari", "O'zbekistonda tarixiy fanlarning dolzarb muammolari", "O'rta Osiyo xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi", "Dunyo turkiy tilli xalqlarining etnogenezi va etnik tarixi" kabi umumiy va maxsus kurslar ishlab chiqiladi. Ushbu kurslarni olim, O'zbekistonning deyarli barcha oliy ta'lim muassasalarida, Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalarida hamda xorijda o'qib, talaba-yoshlar va mutaxassislariga o'ziga xos metodik yordam ko'rsatishni yo'lga qo'yadi. Uning ilmiy va lavozim pillapoyasi doimiy ravishda ko'tarilib boradi. U, Markaziy Osiyo antropologiyasi sohasidagi yirik bilimdon-mutaxassis hisoblanib, bibliografik ro'yxati 200 dan oshiq bo'lgan boy kraniologik kolleksiyasini yaratadi [2. B. 127-129].

T.K.Xodjayov xizmatlari O'zbekiston hukumati va xalqaro ilmiy hamjamiyat tomonidan munosib baholanadi. U doimiy ravishda O'zbekiston Oliy Attestatsiya

Komissiyasining a'zosi, ko'plab ilmiy Kengashlar a'zosi sifatida mehnat qilib, O'zbekiston Respublikasining Abu Rayhon Beruniy nomli davlat mukofoti bilan, 1995-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Faxriy Yorlig'i bilan taqdirlanadi.

1998-1999-yillarda Rossiya Fanlar Akademiyasi, Etnologiya va antropologiya institutining O'rta Osiyo va Qozog'iston bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, 2000-yildan 2008-yilgacha shu institutning jismoniy antropologiya bo'limi yetakchi ilmiy xodimi, 2008-yildan to umrining oxirigacha shu bo'limning bosh ilmiy xodimi lavozimlarida samarali mehnat qiladi [4. B. 12].

T.Q.Xodjayov, 2022-yil 18-yanvar kuni Moskva shahrida, 84 yoshida vafot etadi.

O'zbekistonda antropologiya fanining rivojida o'zining o'rniga ega bo'lgan yana bir antropolog, T.K.Xodjayovning shogirdi S.I.Mustafaqulov hisoblanadi. Olim uzoq yillar davomida mintaqaning, xususan O'zbekiston aholisining antropologiyasi va etnik tarixi bo'yicha tadqiqotlar olib bormoqda.

Формирование антропологических особенностей населения Согда, Старый Термез (К антропологии населения Бактрии-Тохаристана), Формирование человеческих популяций Южной и Центральной Азии (The Formation of Human Populations in South and Central Asia) mavzularidagi

tadqiqotlari chop etilgan [13].

Ushbu tadqiqot, Shimoliy Amerika, Evropa, Markaziy va Janubiy Osiyo paleogenetik, arxeolog, antropolog va etnograflarining jamoaviy faoliyati mahsuli bo'lib, bugungi kunda antropologlar va sohaning boshqa mutaxassislari uchun aholining antropologiyasi, etnogenezi, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda antropolog-olim S.I.Mustafaqulov, o'zining ilmiy tadqiqot ishlarini, Samarqand shahridagi Afrosiyob davlat muzeyi direktori sifatida davom ettirib kelmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yangi O'zbekiston sharoitida, ilmiy maktab, ilmiy maktab rahbari deb atash huquqini da'vo qilayotgan ilmiy, o'quv va tadqiqot jamoalarining paydo bo'layotganligi quvonarli hol.

O'zbekistonda antropologiya fanining vujudga kelishi, uning fan sifatida rivojlanishi va maktab darajasiga ko'tarilishida shu sohada uzoq yillar, uzluksiz ravishda ilmiy tadqiqotlar olib borgan va nafaqat O'zbekiston balki Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari to'g'risidagi fundamental natijalari bilan maktab maqomiga ko'tarilishiga muhim hissa qo'shgan fan vakillarining o'rne va xizmati katta hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995-сон “Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” қарори.

2. Библиография научных работ лауреата государственной премии им. Абу-Рейхана Аль-Беруни, доктора исторических наук профессора Ходжайова Тельмана Касимовича // Российский журнал физической антропологии. – Москва, 2023. – №1. – С. 127–129.

3. Гинзбург В.В., Трофимова Т.А. *Палеоантропология Средней Азии*. – М.: Наука, 1972. – 371 с.; Зезенкова В.Я. К этногенезу расового типа среднеазиатского междуречья // *Проблемы археологии Средней Азии*. – Л., 1968. – С. 19–24; Наджимов К. Антропологические материалы к проблеме этногенеза некоторых народов Средней Азии // *Сборник трудов аспирантов САГУ*. – Ташкент, 1952. – Вып. 1. – С. 272–275; Ходжайов Т.К. *К палеоантропологии древнего Узбекистана*. – Т.: Фан, 1980. – 167 с.; Хўжайов Т.К., Хожайова Г.К. *Ўзбек халқининг антропологияси ва этник тарихи*. – Т.: ТошДУ нашриёти, 1995. – 91 б.

4. Герасимова М.М. К 85-летию со дня рождения Тельмана Касимовича Ходжайова // *Российский журнал физической антропологии*. – Москва, 2023. – №1. – С. 12.
5. Губаева С.С. Балкис Халиловна Кармышева // *Этнографическое обозрение*. – 2001. – №3. – С. 25–32; Лунина Е. О Балкис Халиловне Кармышевой // *Оазисы Шёлкового пути: Современные проблемы этнографии, истории и источниковедения народов Центральной Азии. К 100-летию д.и.н. Б.Х. Кармышевой*. – М.: Исламская книга, 2018. – С. 17–23.
6. Кияткина Т.П. Памяти посвящается. Антрополог Лев Ошанин; *Российский государственный архив древних актов*; Фролов Н.В. *Владимирский родословец*. – Вып. 1. – Ковров: Изд-во ТОО «БЭСТ-В», 1996.
7. Кияткина Т.П. *Формирование антропологического типа таджиков по палеоантропологическим данным*: дис. ... канд. ист. наук. – Душанбе, 1966. – 155 с.
8. Миклашевская Н.Н. Памяти Л.В. Ошанина // *Вопросы антропологии*. – 1962. – Вып. 12. – С. 21.
9. Ошанин Л.В., Зезенкова В.Я. Вопросы этногенеза народов Средней Азии в свете данных антропологии (итоги 25-летних антропологических исследований в Средней Азии). – Ташкент, 1953. – С. 54–56.
10. Ртвеладзе Э. *Respice post te, или Академик Массон и другие* // *Восток Свыше*. – Ташкент, 2012. – №26. – С. 87.
11. Сайпов С.Т. Мои встречи с Тельманом Касимовичем // *Российский журнал физической антропологии*. – Москва, 2023. – №1. – С. 15–18.
12. Тишков В.А., Тумаркин Д.Д. *Выдающиеся отечественные этнологи и антропологи XX века*. – М.: Наука, 2004. – 716 с. – С. 517.
13. Ходжайов Т.К., Мустафакулов С.И. *Формирование антропологических особенностей населения Согда*. – Электронная библиотека Музея антропологии и этнографии им. Петра Великого (Кунсткамера) РАН: www.kunstkamera.ru; Ходжайов Т.К., Мустафакулов И., Ходжайова Г.К. *Старый Термез (К антропологии населения Бактрии-Тохаристана)*. – Актобе, 2012. – 320 с.
14. *Ведущие научные школы России: Справочник*. – М.: Янус-К, 1998. – 624 с.

XX ASRNING 70-80-YILLARDA SURXONDARYO VILOYATI SANOATI (SHARG'UN VA SHO'RCHI SHAHARLARI MISOLIDA)

Tursunov Jovli Narzullayevich

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va
falsafa kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

<https://orcid.org/0009-0007-2912-4887>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola Surxondaryo viloyatining Sharg'un va Sho'rchi shaharlaridagi sanoatining 1970-1980 yillardagi rivojlanishini tarixiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqot davrida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va zamonaviy texnika hamda texnologiyalardan foydalanishga qaratilgan sa'y-harakatlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, Sharg'un, Sho'rchi, sanoat, mexanizatsiyalashuv, paxta tozalash, ko'mir koni, g'isht zavodi, don mahsulotlari kombinati.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие промышленности городов Шаргун и Шорчи Сурхандарьинской области в 1970-1980-х годах с исторической точки зрения. В исследуемый период велись работы по повышению производительности труда, улучшению качества продукции, использованию современной техники и технологий.

Ключевые слова: Сурхандарья, Шаргун, Шорчи, промышленность, механизация, хлопкоочистительная фабрика, угольная шахта, кирпичный завод, зерноперерабатывающий завод.

Abstract: This article analyzes the development of industry in the cities of Shargun and Shorchi of Surkhandarya region in the 1970s and 1980s from a historical perspective. During the research period, efforts were made to increase labor productivity, improve product quality, and use modern equipment and technologies.

Keywords: Surkhandarya, Shargun, Shorchi, industry, mechanization, cotton ginning, coal mine, brick factory, grain processing plant.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Surxondaryo viloyatining Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida 1970-1980-yillar davomida sanoat va qurilish sohalarida mehnat unumdorligini hamda mahsulot va ish sifatini oshirishga katta e'tibor berildi. Bu davrda zamonaviy texnika va texnologiyalardan kengroq foydalanishga intilishlar kuzatildi, ammo bu harakatlar har bir shaharda o'ziga xos muammolar bilan kechdi.

МУНУКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sharg'un shahridagi ko'mir koni viloyat uchun muhim strategik obyekt edi. Bu yerda ko'mir qazib olish, saqlash va tashish jarayonlarini mexanizatsiyalashtirishga alohida e'tibor berildi. Donbass, Angren, Zaporozhe kabi yirik sanoat markazlaridan olib kelingan yuklagichlar, transportyorlar va ko'mirni briketlovchi uskunalar o'rnatilishi konchilarning mehnat xavfsizligini va unumdorligini oshirishga xizmat qildi, jarohatlanish holatlari ham kamaydi [1].

Ammo bu yutuqlarga qaramay, Sharg'un ko'mir konida texnika xavfsizligi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan edi. 1976-1979-yillarda texnika xavfsizligining ta'minlanmaganligi sababli 204 soat ish vaqti yo'qotildi va 214 ming so'm zarar ko'rildi [2]. Bundan tashqari, yer osti va ochiq konlarda ehtiyotsizlik tufayli 2 ta o'lim, 14 ta mayib bo'lish holati qayd etildi va 54 kishi mehnatga yaroqsiz bo'lib qoldi. Kon ma'muriyatining mas'uliyatsizligi sababli dam olish va ijtimoiy himoyaga ajratilgan mablag'larning atigi 77,9 foizi bajarilgan, xolos [3].

Sharg'un g'isht zavodlarida ham mehnat sharoitlari va ishlab chiqarish quvvatini yaxshilashga qaratilgan choralar ko'rildi. Aholi soni ortishi va turar joylarga bo'lgan ehtiyoj tufayli g'isht, ohak, gips kabi qurilish materiallariga talab oshgan edi. G'ishtni

taxlovchi "BXZ" avtomatlari, loy aralashtiruvchi uskunalar o'rnatildi [4]. Biroq, bu yerda ham og'ir jismoniy mehnat ustunlik qilgan (mehnat sarflarining deyarli 78-82 foizi), va mehnat xavfsizligi ahvoli achinarli edi. Faqatgina 1974-yilda uchta zavodda 8 ta baxtsiz hodisa ro'y berib, 265 ish kuni behuda yo'qotilgan [5].

1986-yilgacha g'isht kuydiruvchi pechlar mazut bilan qizdirilgan. Bunday texnologiya mehnat sharoitlari va g'isht sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan, shuningdek, atrof-muhitning ifloslanishiga olib kelgan. Bu nuqsonlarni bartaraf etish maqsadida 1986-yildan boshlab 1- va 2-zavodlardagi tunnel pechlari tabiiy gazga o'tkazildi [6]. Ammo gaz sarfini nazorat qilish imkoniyatining yo'qligi sababli mahsulotning taxminan 20 foizi sifatsiz chiqqan. Bu kamchiliklar 1988-1989-yillarda qisman bartaraf etildi [7].

Sho'rchi shahrida sanoat va qurilish sohalarini rivojlantirish Boysun va Sharg'unga nisbatan yanada jadal sur'atlarda amalga oshirildi [8]. Shaharning Termiz-Dushanbe temir yo'li yoqasida joylashganligi uning iqtisodiy va ijtimoiy hayotini faollashtirdi. 1960-yillardan boshlab bu yerda asosan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar, jumladan, paxta tozalash, asfalt-beton zavodlari va mebel fabrikasi qurildi [9]. Aholisi 17 mingdan oshgan Sho'rchiga 1976-yil 26-mayda shahar maqomi berildi [10].

1971-yilda Denov sut zavodining filiali, 1978-yilda esa don va un mahsulotlari kombinatining birinchi navbati ishga tushirildi. Bu kombinat yiliga 78 ming tonna g'allani saqlash va 32 ming tonna g'allani quritish imkonini bergan. Ayniqsa, yuklash-tushirish ishlarini mexanizatsiyalashtirishga katta e'tibor qaratildi. 1979-yilda temir yo'l vagonlaridan donni tushirish uchun maxsus uskunalar o'rnatilib, bu jarayonni ancha tezlashtirdi [11]. 1980-yilda esa kuniga 450 tonna un ishlab chiqarish quvvatiga ega tegirmon, 5 ming tonna un saqlash ombori va chiqindi suvlarni tozalaydigan uskunalar ishga tushirildi, bu nafaqat Sho'rchi, balki qo'shni tumanlar aholisining ham ehtiyojini qondirishga xizmat qildi.

Sho'rchi paxta tozalash zavodi ham texnik va texnologik jihatdan yangilandi. 1970-yillarga kelib Sho'rchi tumanida va qo'shni tumanlarda paxta yetishtirish hajmi 1,5 barobar ko'paydi [12]. Shuni hisobga olib, 1979-yilda ikkita yangi (paxtani quritish va tozalash) sexlar qurildi, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etildi [13, 14]. Natijada, 1980-yillarga kelib zavodning ishlab chiqarish quvvati deyarli 4,8 barobar oshib, yiliga 45 ming tonna paxtani qayta ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi [15].

Surxondaryo viloyatida birinchi va yagona mebel fabrikasi ham Sho'rchida 70-yillar o'rtasida qurila boshlandi va 1982-yilda yakunlandi [16]. Bu fabrika asosan oshxona garniturlari va maktab partalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashib, nafaqat Surxondaryo, balki qo'shni viloyatlar va Tojikiston aholisining ham ehtiyojini qondirdi.

1980-yillar boshida Sho'rchida yangi yirik non zavodi ham ishga tushirilib, shaharliklarni va atrofdagi qishloq aholisini non va pechenye bilan ta'minlash ishlari yo'lga qo'yildi. 1983-yilda esa Sho'rchida keramika (sopol) buyumlar zavodi ham ishga tushirildi.

Afsuski, Sho'rchida 70-80-yillarda qurilgan aksariyat zavod, fabrikalar eskirgan, unumi past uskunalar bilan jihozlangan edi. Ba'zi korxonalarda tez-tez nuqsonlar uchrab turdi. Masalan, Sho'rchi paxta tozalash zavodining momiq sexida texnika xavfsizligiga e'tibor berilmagani tufayli 2 ta ishchi tan jarohati oldi va bir yilda 50 ish soat vaqti yo'qotildi [17]. 1977-1981-yillarda paxta tozalash zavodi, un va don mahsulotlari kombinati hamda g'isht zavodida texnika xavfsizligi yomon yo'lga qo'yilgani sababli ish vaqti yo'qotildi va 61 kishi mehnat qobiliyatini yo'qotdi [18]. Un va don mahsulotlari kombinatida chang yutuvchi moslamalarning yomon ishlashi tufayli ishchilar orasida ko'z va ichki kasalliklar ko'paygan. Shahar ekologiyasi masalasiga ham e'tibor sust bo'lgan; 1975-1979-yillarda aholining 32,4 foizi ariqlardagi oqar suvlardan iste'mol qilishgan, kanalizatsiya tizimi yo'q edi [19]. 1980-1983-yillarda don mahsulotlari va un zavodidagi chang yutuvchi, havo tozalovchi moslamalarning yomon ishlashi tufayli 114 ta ishchi turli kasalliklar bilan

kasallandi. Paxta tozalash zavodida 1982-1984-yillarda ko'z, teri kasalliklari 3,2 foizga oshdi, chunki ishchilarga changdan himoya kiyimlari va havo tozalovchi uskunalar berilmas edi [20].

Sanoatni yangilash va takomillashtirishda ixtirochilar va ratsionalizatorlarning faoliyati katta ahamiyat kasb etdi. Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlaridagi korxonalarda ham ular o'z hissalarini qo'shdilar. Boysunda 1971-1990-yillarda har yili o'rtacha 90 ta ratsionalizatorlik takliflari tushgan bo'lsa, ulardan 75-80 tasi ishlab chiqarishga tatbiq etilgan [21]. Boysun eksperimental shoyi to'qish fabrikasida Aziz Norqulov, Qayum O'rinov, Marziya Ro'ziqulova kabi ishchilar mehnat unumdorligini oshirish, dastgoh va uskunalar ratsional foydalanish hamda mahsulot sifatini yaxshilashga o'z hissasini qo'shganlar [22]. Natijada, ushbu fabrika 1972-yilga nisbatan 1985-yilda yalpi mahsulot hajmini 907 mingdan 5 mln 90 ming so'mgacha yetkazdi, ya'ni ishlab chiqarish deyarli 5,5 barobar oshdi [23].

Sharg'un shahridagi ko'mir koni va g'isht zavodlarining mutaxassisleri ham ixtirochilik va ratsionalizatorlik harakatiga qo'shilishgan, ammo korxona rahbarlari tomonidan yetarli darajada qo'llab-quvvatlash yo'qligi sababli bu sohada faoliyat ancha qiyin kechgan.

Sho'rchi shahar korxonalarida esa industrial darajaning yuqori bo'lganligi, boshqa korxonalar bilan bevosita bog'liqlik hamda mutaxassislarning yuqori malakasi tufayli ixtirochilik va ratsionalizatorlik harakati bir oz bo'lsa-da jonlanishini ta'minladi. Sho'rchi paxta tozalash zavodida salkam 550 ta mutaxassis va ishchilardan atigi 45-50 kishi muntazam ravishda ixtirochilik va ratsionalizatorlik ishida qatnashgan bo'lsa-da, ularning ko'pchilik takliflari o'z vaqtida muhokama etilib, ishlab chiqarishga tatbiq qilingan. Har yili o'rta hisobda 27-30 ta tushgan takliflardan 20-21 tasi tatbiq etilgan va bir yilga hisoblangan iqtisodiy samaradorlik 10 ming so'mdan ortgan [24].

Eng faol ixtirochi va ratsionalizatorlar orasida zavodning bosh mexanigi Valijon Shokirov, paxtani tozalash sexining mexanigi Juma Umbarov va ilg'or ishchi Xolto'ra

Qudratov alohida o'ringa ega bo'lishgan. Masalan, V. Shokirov va J. Umbarov birgalikda ixtiro etishgan va ishlab chiqarishga tatbiq qilingan zanjirli uzatkich chang kabinasidan chiqindilarni tashqariga chiqarib tashlash imkonini bergan, bu esa og'ir qo'l mehnatini sezilarli darajada kamaytirgan [25]. Xolto'ra Qudratov esa 1988-yilda uch fazali 380 voltli kuchlanishga ega motorlarning faza uzilishi natijasida kuyib qolmasligi uchun avtomatik o'chirish uslubini ixtiro etgan. Ushbu ixtiro zavodni har yilgi juda katta xarajatlardan qutqargan, chunki kuygan har bir motorni o'rniga yangisi 4100 so'mga sotib olinar edi [26]. Paxta tozalash zavodi toy bog'lash sexining ilg'or ishchisi Alimardon Boltayev ham ixtirochilik faoliyati bilan ishlab chiqarishni yangilanishiga hissa qo'shgan. U kesuv nasoslarining uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun havo yuborgichga qo'shimcha klapan o'rnatishni taklif qilgan [27].

Sho'rchi don mahsulotlari kombinatida 1988-yilda mutaxassis va ishchilardan 12 ta ratsionalizatorlik taklifi tushdi. Ulardan 8-9 tasi ishlab chiqarishga joriy qilindi va natijada korxona 39 ming 761 so'm iqtisodiy samara oldi. 1989-yilda esa 26 ming 542 so'mlik tejalandi [29]. Bosh muhandis Erkin Qurbonov tomonidan xalta tikish sexida qo'shimcha xalta yamash mashinasining o'rnatish taklifi amalga oshirildi. Muhandis Omon Cho'tov rahbarligida don tozalash asbob-uskunalarini rekonstruksiya qilish ham omixta yem ishlab chiqarish sur'atini tezlashtirish imkonini berdi, bu o'z navbatida 4 ming 361 so'm sof foyda keltirdi [30]. Zavodning bosh mexanigi Ergash Jumayev esa 1986-1987-yillarda xalta tikish apparatlariga tasmali uzatgich o'rnatishni taklif qilgan. Bu yangilik xalta tikish sexida 5 ta ishchini shartli ravishda bo'shatishga va bir yilga hisoblaganda 5000 so'mni tejash imkoniyatini berdi [31].

Sho'rchi mebel fabrikasi mutaxassislari va ilg'or ishchilari ham fan va texnika taraqqiyoti talablariga mos holda ishlab chiqarish sohasida chora-tadbirlar amalga oshirganlar. Eskirgan asbob-uskunalarni ta'mirlash bilan cheklanmasdan, ularni takomillashtirishga va mahsulotning yangi turlarini yaratishga katta

hissa qo'shdilar. Filial ishlab chiqarish hajmini oshirdi va 80-yillar oxirida mustaqil fabrikaga aylantirildi. Sho'rchi mebel fabrikasi 1990-yilda 1 mln 200 ming so'mlik 18 turdagi mahsulot ishlab chiqardi va sotdi [32].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatining Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida Sovet davrida sanoatni rivojlantirish va mehnat unumdorligini

oshirishga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilgan. Biroq, bu jarayonlar mehnat xavfsizligi va ekologiya masalalariga yetarli e'tibor berilmaganligi sababli jiddiy muammolar bilan ham kechgan. Shunga qaramay, ishchilar va mutaxassislarning ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyati ishlab chiqarishni takomillashtirishga va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'z MA. 2113-fond, 28-ro'yxat, 1918-ish, 4–5 varaqlar.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 446-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 43-varaq.
3. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 446-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 47-varaq.
4. O'z MA. 2113-fond, 28-ro'yxat, 1920-ish, 3–4 varaqlar.
5. O'z MA. 2113-fond, 28-ro'yxat, 1884-ish.
6. Sharg'un g'isht zavodlar boshqarmasining joriy arxivi. Bosh energetika bo'limining 1986–1987 yillardagi materiallari. 3-papka, 17–18 varaqlar.
7. Sharg'un g'isht zavodlar boshqarmasining joriy arxivi. Bosh energetika bo'limining 1988–1989 yillardagi materiallari. 7-papka, 2-varaq.
8. *Lenin bayrog'i*. Surxondaryo viloyat gazetasi.
9. Xoliyorov X., Bichkov D. *Surxondaryo oblasti*. – Toshkent: O'zbekiston, 1975. – 30 b.
10. *Народное хозяйство Узбекской ССР за 60 лет*. – 1964. – 22 с.; Sho'rchi shahar hokimiyati huzuridagi davlat arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 49-ish, 33-varaq.
11. *Kommunizm g'alabasi*. Sho'rchi tuman gazetasi. 1979-yil 13-mart.
12. Xoliyorov X., Bichkov D. *Surxondaryo oblasti*. – Toshkent: O'zbekiston, 1975. – 37 b.
13. *Kommunizm g'alabasi*. Sho'rchi tuman gazetasi. 1979-yil 13-mart.
14. Sho'rchi tumani arxivi. Bosh muhandis bo'limi. Korxonaning texnik va texnologik holati haqida axborot. 1981-yil, 4-papka, 19-varaq.
15. Sho'rchi tumani arxivi. 164-fond, 1-ro'yxat, 31-ish, 12-varaq.
16. O'z MA. 2113-fond, 28-ro'yxat, 1920-ish, 7-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 45-fond, 1-ro'yxat, 34-ish, 12-varaq.
18. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 446-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 47-varaq.
19. Denov davlat arxivi. 80-fond, 1-ro'yxat, 187-ish, 119-varaq.
20. Denov davlat arxivi. 80-fond, 1-ro'yxat, 187-ish, 130-varaq.
21. Boysun tumani arxivi. 2-fond, 44-ish, 13-papka, 21–24 varaqlar.
22. Boysun tumani arxivi. 2-fond, 44-ish, 13-papka, 29-varaq.
23. Boysun tumani arxivi. 2-fond, 44-ish, 13-papka, 29-varaq.
24. Sho'rchi tumani arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 29–30 varaqlar.
25. Sho'rchi tumani arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 39-varaq.
26. Sho'rchi tumani arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 27-ish, 29–39 varaqlar.
27. *Kommunizm g'alabasi*. – 1990-yil 13-fevral.
28. *Kommunizm g'alabasi*. – 1990-yil 13-fevral.
29. *Kommunizm g'alabasi*. – 1990-yil 3-aprel.
30. Sho'rchi tumani arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 145-varaq.
31. Sho'rchi tumani arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 47-ish, 146-varaq.
32. Sho'rchi tumani arxivi. 163-fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 16-varaq.

SURXONDARYO VILOYATI SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH BO'YICHA INVESTITSİYALARINING JALB QILINISHI (2017-2023-YILLAR)

Raximov Boxodir Saidmusayevich

*Termiz davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrası dotsenti,
tarix fanlari nomzodi*

e-mail: raximovbaxodir197@gmail.com

<https://orcid.org/0000-0001-7596-5600>

UDK: 94 (575.1)

Annotatsiya: Maqolada viloyatning, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hudud bo'lganiga qaramay, sanoat korxonalari sonining oshishi, paxtachilik, oziq-ovqat va qurilish sanoati, shuningdek, yoqilg'i-energetika, mashinasozlik va kon sanoati kabi yangi tarmoqlarning paydo bo'lishi ko'rsatilgan. Asosiy e'tibor bozor iqtisodiyotiga asoslangan ko'p ukladli mulkchilik tizimining shakllanishi, xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi, qo'shma korxonalar, kichik va o'rta biznesning rivojlanishi natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sishiga qaratilgan. Maqolada 2017-yildan 2023-yilgacha bo'lgan davrdagi sanoat mahsulotlari hajmi, o'sish sur'atlari, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va eksport ko'rsatkichlari, shuningdek, viloyatning turli tumanlari kesimida sanoatning taqsimlanishi va jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Surxondaryo viloyati, sanoat rivojlanishi, xorijiy investitsiyalar, sanoat ishlab chiqarish hajmi, kichik biznes va tadbirkorlik, paxtachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati.

Аннотация: В статье показано, что несмотря на то, что область в основном специализируется на сельском хозяйстве, количество промышленных предприятий увеличилось, появились новые отрасли промышленности, такие как хлопководство, пищевая и строительная, а также топливно-энергетическая, машиностроительная и горнодобывающая. Основное внимание уделяется росту промышленного производства в результате формирования многоуровневой системы собственности, основанной на рыночной

экономике, привлечению иностранных инвестиций, совместных предприятий, развитию малого и среднего бизнеса. В статье анализируются объемы промышленного производства, темпы роста, показатели производства и экспорта потребительских товаров за период с 2017 по 2023 годы, а также распределение промышленности по районам области и объемы промышленного производства на душу населения на основе статистических данных.

Ключевые слова: Сурхандарьинская область, развитие промышленности, иностранные инвестиции, объем промышленного производства, малый бизнес и предпринимательство, хлопковая промышленность, пищевая промышленность.

Abstract: The article shows that despite the fact that the region is mainly specialized in agriculture, the number of industrial enterprises has increased, new industries such as cotton growing, food and construction, as well as fuel and energy, mechanical engineering and mining have emerged. The main focus is on the growth of industrial production as a result of the formation of a multi-tiered ownership system based on a market economy, the attraction of foreign investments, joint ventures, and the development of small and medium-sized businesses. The article analyzes the volume of industrial output, growth rates, consumer goods production and export indicators for the period from 2017 to 2023, as well as the distribution of industry in different districts of the region and the volume of industrial output per capita based on statistical data.

Keywords: Surkhandarya region, industrial

development, foreign investments, industrial production volume, small business and entrepreneurship, cotton industry, food industry.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mamlakatimizda bo'lgani kabi Surxondaryo viloyati ham barcha sohalarda o'zgarishlar, rivojlanishlarga yuz tutmoqda. Shu jumladan, sanoat sohasida ham. Asosan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududda sanoat korxonalari ham miqsorda bunyod etilib, viloyatda paxtachilik sanoati, oziq-ovqat sanoati va qurilish sanoatiga ixtisoslashgan korxonalar faoliyat olib borayotir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mulkchilikka xos ko'p ukladli tizimning shakllanishi, qolaversa respublika hukumatining va viloyat hokimiyatining tashabbusi bilan viloyatda sanoat korxonalarini keng miqyosda barpo qilish, viloyat sanoatiga chet el investitsiyalarini kiritish va bu orqali qo'shma korxonalar, o'rta va kichik biznes rivojlanib, katta va kichik korxonalar faoliyat olib borayotir. O'tgan 7-8 yil ichida viloyat sanoati ham miqdor jihatidan, ham sifat jihatidan yangi pallaga qadam qo'ydi. Natijada viloyat zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan sanoat korxonalariga ega boy hududga aylandi. Vohada yoqilg'i-energetika sanoati, mashinasozlik sanoati, qurilish materiallari sanoati, paxta tozalash kabi sanoatning turlari ko'paydi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2017-yil yanvar dekabrda sanoat mahsuloti hajmi 2189,8 milliard so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 92,3 foizni tashkil etdi. Hisobot davrida 996,3 milliard so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2016-yil yanvar-dekabriga nisbatan 93,0 foizni tashkil etdi. Jumladan, 586,6 milliard so'mlik oziq-ovqat, 39,1 milliard so'mlik aroq 370,6 milliard so'mlik nooziq-ovqat mollari (2016-yil yanvar mos ravishda (86,8 foiz, 109,6 foiz va 103,2 foiz) ishlab chiqarildi[5]. Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar dasturini amalga oshirish doirasida

tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2017-yilda 0,8 milliard so'mlik mahalliy lashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi.

Bugungi kunda viloyatda 2939 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 418 tasi Termiz shahriga, 362 tasi Denov tumaniga, 249 tasi Sho'rchi, 224 tasi Qumqo'rg'on tumaniga va 200 tasu Sariosiyo tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'idir[1].

Surxondaryo viloyatining asosiy sanoat tarmoqlari: yengil sanoat (paxta tozalash), oziq-ovqat sanoati, un-yorma. Surxondaryo viloyatiga O'zbekistonda ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotining 3-4 foizi to'g'ri keladi. Respublikamizning janubiy viloyati Surxondaryoning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini tezlashtirish, yuk tashishning transport ta'minotini yaxshilash maqsadida "Toshguzar-Boysun-Qumqo'rg'on" temiryo'li ishga tushirildi. Bu temiryo'l Boysun tumani orqali iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan tumanning yaxshi rivojlanmayotgan qishloqlariga sanoatning kirib kelishiga, yerusti va yerosti boyliklaridan keng foydalanishga, dam olish maskanlari qurishga katta imkoniyat yaratmoqda. Viloyat sanoat tarmoqlari ichida yetakchi hisoblangan yengil sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Denov, Sho'rchi tumanlarida to'qimachilik komplekslari tashkil etilib, viloyatda yetishtirilayotgan paxta tolasining qayta ishlash hajmini oshirish mo'ljallanmoqda. Kon sanoatini ham rivojlantirish jadal ketmoqda.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 3 586,1 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmindeksi 106,1 foizni tashkil etdi[5]. Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 90,5 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar

markazining ekspertlari tomonidan Surxondaryo viloyatining 2022-yil yanvar-iyun oylaridagi sanoat ko'rsatkichlari tahlil qilindi.

Viloyatda 3 047 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 104,5 foiz (o'sish ko'rsatkichi bo'yicha respublika hududlari orasida 13-o'rin)ga oshgan.

Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 1,2 foizni tashkil qilgan va hududlar orasida oxirgi o'rinni egallangan. Jumladan viloyatda

qayta ishlovchi sanoat hajmi-2686,2 milliard so'm, qazib oluvchi sanoat – 85,3 milliard so'mni tashkil qilgan.

Sanoat mahsulotlarining 37,4 foizi (2021-yilning mos davrida 42,4 foiz) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan. Shuningdek, viloyat sanoati tarkibida tog'-kon sanoatining ulushi-2,8 foiz, ishlab chiqaradigan sanoat -88,2 foiz, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash -7,2 foiz, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish– 1,8 foizni tashkil qilgan.



Ishlab chiqarish sanoatining tarkibiga ko'ra to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish – 42,7 foiz, kimyo mahsulotlari – 28,9 foiz, oziq-ovqat mahsulotlari – 19,5 foiz, kiyim ishlab chiqarish – 3,2 foizni tashkil qiladi.

Viloyat bo'yicha jami sanoat ishlab chiqarish hajmida tumanlar ulushi tahlil qilinganda, eng yuqori ulush Jarqo'rg'on (17,4 foiz), Termiz shahri (17,3 foiz), Sherobod (9,8 foiz), Denov (9,4 foiz), Qumqo'rg'on (9,3 foiz) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Muzrabot (4,5 foiz), Qiziriq (2,5 foiz), Oltinsoy (2,4 foiz), Angor (2 foiz), Boysun (1,4 foiz), Bandixon (0,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish hajmi past ulushni tashkil qilgan [5].

Shuningdek, o'tgan yilning mos davriga nisbatan Oltinsoy (121,8 foiz), Bandixon (120,8 foiz), Termiz (114,3 foiz) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish indeksi yuqori natijaga erishgan.

Viloyatda jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari hajmi 1105,1 ming so'mni (respublika hududlari orasida oxirgi o'rin) tashkil qilgan holda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,1 foizga oshgan. Shuningdek,

viloyat miqyosida jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat hajmi respublika jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichdan 6,4 baravar past bo'lgan.

Termiz shahri (viloyat o'rtachasidan 2,5 baravar ko'p), Jarqo'rg'on (2,1 baravar), Termiz (1,9 baravar), Sherobod (1,3 baravar) tumanlarida jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan.

Bandixon (viloyat o'rtachasidan 4,9 baravar kam), Boysun (3,2 baravar), Oltinsoy (2,8 baravar), Angor (2,5 baravar), Qiziriq (1,7 baravar), Denov (1,6 baravar), Sariosiyo (1,5 baravar), Uzun (1,3 baravar) tumanlarida jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan past bo'lgan [5].

Aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining o'sish sur'atlari Oltinsoy (119,2 foiz), Bandixon (117,5 foiz), Termiz (111,8 foiz) tumanlarida yuqori bo'lgan.

Jahonda globallashuv jarayonlarining tezlashib borishi hozirgi davrda mamlakatlar iqtisodiyotida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy

investitsiyalarni jalb etish imkoniyatini oshirishni taqozo etmoqda. “To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda eng asosiy omillardan hisoblanadi” [1]. Dunyo mamlakatlari ilmiy tadqiqotlarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishda davlat mulkining va davlat ulushi bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi jamiyatlarning ishlab chiqarish maydonlari va obyektlaridan samarali foydalanish, investitsiyalarni faol jalb etish uchun qulay sharoitlarni shakllantirish, yangi raqobatbardosh ishlab chiqarishlarni va kichik korxonalarni rivojlantirishni yanada qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hududlar roli nihoyatda muhim hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalb etishning asosiy muommolaridan biri, hududlarda ularni to‘g‘ri taqsimlash muommosidir. “O‘zbekiston Respublikasining

TAHLIL VA NATIJALAR

2019-yil I chorak- 2023-yil II chorak davri bo‘yicha Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmlari 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm: Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga choraklar bo‘yicha jalb etilgan investitsiyalar hajmlari (mlrd. so‘m)

Hudud iqtisodiyotiga jalb etilgan xorijiy investitsiyalar hajmini modellashtirish hamda 2027-yilga qadar prognoz etish maqsadida dastlab vaqtli qator stasionarligi kengaytirilgan Dikkey-Fyuller testi bilan tekshirildi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan (1-jadval).

Sanoatni rivojlantirish 2024-yil 9 oy davomida Sariosiyo tumanida jami 619,5 milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,4 foizga ortgan [5].

Qurilish va kommunikatsiya sohasini yaxshilash bo‘yicha investitsiya dasturi 2023-yilda Sariosiyo tumanida 33 ta obyektida 243,2 milliard so‘mlik qurilish montaj ishlari amalga oshirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, shundan, 17

investitsiya salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish, investitsiya muhitini yanada takomillashtirish, yillik investitsiya dasturlarini sifatli ishlab chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoitlar yaratish, xalqaro moliya institutlari, xorijiy hukumatlarning moliya institutlari, yetakchi chet el kompaniyalari va bank tuzilmalari bilan hamkorlikni kengaytirish, shuningdek, jalb etiladigan chet el investitsiyalari samaradorligini oshirish" vazifasi alohida belgilab berildi.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya — bu "iqtisodiyot drayveri", deyish mumkin. Investitsiya bilan turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg‘or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi [1].

tasi yildan yilga o‘tuvchi va 16 tasi yangidan boshlanuvchi obyektlar hisoblanadi. Ushbu obyektlarning 10 tasi maktab, 2 tasi maktabga sport zal, 2 ta maktabgacha ta‘lim tashkiloti, 5 ta ichimlik va 1 ta issiqlik suv obyektlari, 2 ta qirg‘oq himoya ishlari hamda 10 ta yo‘l obyektlarini tashkil etadi.

Bugungi kunda barcha obyektlarda qurilish montaj ishlari jadal sur‘atlarda olib borilayotgan bo‘lib, shundan, 6 ta maktab, 2 ta

maktabgacha ta'lim tashkiloti, 2 ta qirg'oq himoya ishlari va 3 ta ichimlik suv obyektlarida qurilish-montaj ishlari yakunlandi. Obyektlarni o'z muddatida va sifatli holatda foydalanishga topshirilishi bo'yicha tasdiqlangan reja-grafik asosida qurilish-montaj ishlari olib borilmoqda.

Qumqo'rg'on tumanida 2023-yilda 30.0 million AQSH dollari miqdorida xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilgan (82.4 foizga). Misol uchun "QUMTEX INVEST" MCHJ tomonidan "Sun'iy va ingichka paxta tolasidan aralashmali ip yigiruv, mato to'quv hamda mato pardozlash" loyihasi uchun 29.4 million AQSH dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kredit mablag'lar o'zlashtirildi.

Eksport prognozlarini Qumqo'rg'on tumanida jami 16.8 million AQSH dollarlik mahsulotlar eksport amalga oshirilgan bo'lib, reja 126 foizga bajarilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 217 foizga ortgan. Jumladan, sanoat mahsulotlari eksporti 1840 ming AQSH dollarini hamda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 14 989 ming AQSH dollarini tashkil etgan.

Jumladan, so'nggi yetti yilda Boysun tumanida tadbirkorlar soni 1,7 barobarga, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 3,6 barobarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 4,2 barobarga, xizmat ko'rsatish 4,1 barobarga, chakana savdo hajmi 3,2 barobarga oshdi.


Viloyatda 2022-yil yanvar-mart oylarini tahlil qiladigan bo'lsak, 1 269,5 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,8 foiz (o'sish ko'rsatkichi bo'yicha respublika hududlari orasida oxirgi o'rin) ga oshgan [5]. Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 1,1 foizni tashkil etgan. Sanoat mahsulotlarining 37,4 foizi (2021 yilning mos davrida 37,2 foiz) kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan yaratilgan. Shuningdek, viloyat sanoati tarkibida tog'-kon sanoatining ulushi – 2,1 foiz (26,1 milliard so'm), ishlab chiqariladigan sanoatning ulushi – 89,8 foiz (1 140,4 milliard so'm), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatining ulushi – 6,2 foiz (78,5 milliard

so'm), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoatining ulushi – 1,9 foiz (24,5 milliard so'm)ni tashkil qilgan. Viloyatda sanoat mahsulotlarining 56,6 foizi viloyatning 4 ta hududi — Jarqo'rg'on (17,7 foiz), Sherobod (13,3 foiz), Denov (11,1 foiz) tumanlari hamda Termiz shahri (14,5 foiz)ga to'g'ri keladi hamda sanoat mahsulotlari hajmida yuqori ulushni tashkil qilgan. Sho'rchi (8,3 foiz), Qumqo'rg'on (8,0 foiz), Termiz (6,1 foiz) tumanlari sanoat mahsulotlari hajmida o'rtacha ulushni, Uzun (5,5 foiz), Muzrabot (4,5 foiz), Sariosiyo (3,4 foiz), Qiziriq (2,5 foiz), Oltinsoy (2,1 foiz), Angor (1,5 foiz), Boysun (1,1 foiz), Bandixon (0,3 foiz) tumanlarida esa ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida past ulushni tashkil qilgan. Jumladan, eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan Jarqo'rg'on tumanida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi (224,6 milliard so'm) Bandixon tumaniga (4,4 milliard so'm) nisbatan 50,8 baravar, Boysun tumaniga (13,7 milliard so'm) nisbatan 16,4 baravar ziyod bo'lgan. Shu bilan birga o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami sanoat mahsulotlari hajmining o'sish sur'ati Oltinsoy (120,7 foiz), Bandixon (117,6 foiz), Termiz (114,4 foiz) tumanlarida eng yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan bo'lsa, Sariosiyo (84,4 foiz), Qumqo'rg'on (91,5 foiz) hamda Angor (94,3 foiz) tumanlarida eng past ko'rsatkichni tashkil qilgan. Bundan tashqari viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 52,9 foizi (603,3 milliard so'm) to'qimachilik sanoatiga, 19,4 foiz (221,2 milliard so'm) oziq ovqat sanoatiga, 11,6 foiz (132,3 milliard so'm) koks va neftni qayta ishlash sanoatiga hamda 16,1 foiz qolgan boshqa yo'nalishlarda ishlab chiqarilgan[5].

2017-2022-yillar davomida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti hajmi (YAHM) 31,2 foizga oshib, 14,4 trillion so'mdan 34,9 trillion so'mga yetdi. Bozor xizmatlari hajmi 1,9 baravarga ko'payib, 4,5 trillion so'mdan 12,9 trillion so'mga yetdi. Surxondaryo viloyatida 6 yil davomida 5 milliard dollarlik investitsiyalar o'zlashtirildi.

Viloyatda sanoat sohasida investitsiyalarni jalb qilinishi, ilgari mavjud bo'lmagan qurilish materiallari, charm-poyabzal, elektr texnikasi kabi yangi sanoat tarmoqlarining yaratilishi

natijasida sanoat ishlab chiqarish hajmi 2,4 trillion so'mdan 7,3 trillion so'mga yetdi yoki 38,7 foiz o'sdi.



XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ) / CONCLUSION). Viloyatimizda yetishtirilgan mahsulotlarning dunyo bozoriga chiqishi esa xorijiy investorlarni qiziqtirib qo'ydi. Ular iqlimimiz, shart-sharoitlarimizni o'rgangan holda, sarmoya — investitsiya kiritdilar. Qarabsizki, so'nggi bir necha yilda xorijiy hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilib, dunyoning rivojlangan davlatlarining

ishbilarmon vakillari bilan qo'shma korxonalar soni orta bordi. Bu esa hududda ishbilarmonlik muhitini yaratib, yangi ish o'rinlari yaratilishiga, yangi xizmat turlarining ortishiga xizmat qildi. Sanoatimiz gurkirab yashnagani ko'rsatkichlarda, raqamlarda o'z aksini ko'rsatib, ko'rgan ko'zni quvontirayotgani rost.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Холманова Ф.У. Саноат корхоналари иш самарадорлигини ошириш ва кишлок тизимидаги тузатишлар // *Замонавий фан ва тадқиқотлар*. – 2023. – Б. 247, 254.
2. Азизов А.С. Тўғридан тўғри хорижий инвестицияларни жалб қилишда молиявий-иқтисодий ва мамлакат хатарларини камайитириш: Иқтисод фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021. – 11 б.
3. Турсунов С. *Термиз шаҳри тарихи*. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – 261 б.
4. Раҳимов Б. *Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида, 1991–2018 йиллар)*. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – Б. 56.
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси расмий сайти: www.stat.uz

SURXONDARYO VILOYATI SANOAT KORXONALARINING TEXNIKAVIY TA'MINOT MASALALARI

Xolmanova Feruza Uralovna

Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasi dotsenti,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

feruzahalmanova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-2012-4549>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirish borasidagi sa'y-harakatlarini, xususan, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik munosabatlarini tahlil qiladi. Maqolada mamlakatning asosiy savdo hamkorlari, tashqi savdo aylanmasidagi o'zgarishlar va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi imkoniyatlar va tahdidlar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyati misolida to'qimachilik va ipakchilik sanoatining rivojlanishi, qo'shma korxonalarining tashkil etilishi va ularning eksportga yo'naltirilgan faoliyati batafsil yoritilgan. Maqola agrosanoat klasteri orqali viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Eksport salohiyati, tashqi savdo, xorijiy investitsiyalar, qo'shma korxonalar, to'qimachilik sanoati, ipakchilik, Surxondaryo viloyati, iqtisodiy hamkorlik.

Аннотация: В статье анализируются усилия Узбекистана по повышению своего экспортного потенциала, в частности, его сотрудничество с зарубежными странами. В статье рассматриваются основные торговые партнеры страны, изменения во внешнеторговом обороте, возможности и угрозы в привлечении прямых иностранных инвестиций. Также подробно рассматривается развитие текстильной и шелковой промышленности, создание совместных предприятий и их экспортно-ориентированная деятельность на примере Сурхандарьинской области. В статье подчеркивается важность развития региональной экономики через агропромышленный кластер.

Ключевые слова: Экспортный потенциал, внешняя торговля, иностранные инвестиции, совместные предприятия,

текстильная промышленность, производство шелка, Сурхандарьинская область, экономическое сотрудничество.

Abstract: This article analyzes Uzbekistan's efforts to increase its export potential, in particular, its cooperation with foreign countries. The article examines the country's main trading partners, changes in foreign trade turnover, and opportunities and threats in attracting foreign direct investment. It also discusses in detail the development of the textile and silk industry, the establishment of joint ventures and their export-oriented activities on the example of Surkhandarya region. The article emphasizes the importance of developing the regional economy through an agro-industrial cluster.

Keywords: Export potential, foreign trade, foreign investments, joint ventures, textile industry, silk production, Surkhandarya region, economic cooperation.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish maqsadida, xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilingan va ushbu qarorlar asosida eksport salohiyatini rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekistonning savdo sotiqdagi asosiy mijozlari: AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya, Belgiya, Shveysariya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlar.

O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida keyingi yillarda muhim tarkibiy

o'zgarishlar bo'lmoqda. Dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo qilinmoqda[1].

Sanoatda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari ishchi kuchi qiymatiga sezuvchan bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy tahdidlari mavjuddir. Bularga mamlakatdagi moliyaviy beqarorlik, harbiy va siyosiy beqarorlik, investitsiya muhitining o'zgarishi va boshqa omillar sabab bo'lishi mumkin. Eng muhim tahdidlar ichida birinchi o'ringa harbiy va siyosiy beqarorlik chiqadi. Investorlar javobiga Iroq, Afg'oniston va dunyoning boshqa hududlaridagi harbiylarning reja va harakatlari ta'sir qiladi.

Investitsiya iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biridir. Investitsiya yordamida yangi sanoat korxonalari quriladi, mavjudlari ta'mirlanadi, yangi mashina va uskunalar sotib olinadi. Mamlakatimizning import va eksport salohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, 1991 yillarda viloyatimizda kichik, xususiy va qo'shma korxonalar tashkil etila boshlanganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, paxta tolasini ip-gazlamaga, gazlamani esa tayyor kiyim-kechakka aylantirish, iqtisodiyotimizga o'zining ijobiy o'zgarishlarini ko'rsatishi muhim vazifa qilib olindi[2].

Germaniya davlati bilan tashqi iqtisodiy aloqalarimiz 1997-yilda 6204,0 ming dollarni tashkil etib, bunga asosan eksport tarkibida paxta tolasi va oziq-ovqat mahsulotlari kirdi[3].

Jarqo'rg'ondagi ip-gazlama qo'shma korxonasi 1997-yilda eksportga mahsulot sotish rejasini 140 foizga bajardi. Korxona tomonidan Chexiya, Polsha va Avstriya mamlakatlariga 312 ming dollarlik ip-kalava mahsulotlari sotildi. 1800 nafardan ziyod ishchilar 1602 tonna kalava ip, 8866 ming pogonometr mato ishlab chiqarib, bu boradagi reja topshiriqlarini ortig'i bilan bajarib, korxonaning 2000-yildagi sof foydasi 34,5 million so'mni tashkil qildi. Fabrika qoshida "O'zbekiston-Amerika" qo'shma korxonasi tashkil etilib, uning quvvati yiliga 42 tonna kalava ip va 1920 ming pogon. metr mato ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Korxonaning umumiy loyiha quvvati 13 million 132 ming 36 yevro bo'lib, xorijiy ta'sischi Amerikaning ulushi hisobiga (53 %) tashkil etildi. Qo'shma korxonada Germaniya va Chexiya davlatlarining zamonaviy yigiruv dastgohlari o'rnatilib, jahon bozorlari talablariga javob beradigan yuqori sifatli kalava ip va mato ishlab chiqaradigan mahsulotning 70 foizi eksportga sotildi[4].

Boysun tumanida Ishonch hissadorlik jamiyati bazasida yiliga 600,0 tonna kalava ip ishlab chiqarish bo'yicha qo'shma korxonalar tashkil etish uchun Rossiya Federatsiyasi va Janubiy Koreya davlatlari bilan muzokaralar olib borildi va kelishuv imzolandi.

Viloyatda 1998 yilda tashqi savdo aylanmasi 124404 ming dollarga teng bo'ldi. 1997-yilning shu davriga nisbatan 108,5 foiz, jami tashqi savdo aylanmasining 90,9 foizi eksport mahsulotlari va 9,1 foizi import mahsulotlari hissasiga to'g'ri keldi[5].

Viloyat tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi bilan Ukraina o'rtasida 1999-2008 yillarga mo'ljallangan "Iqtisodiy hamkorlik dasturi" ga muvofiq Surxondaryo viloyatida quyidagi ishlarni amalga oshirdi. "Texno-Teks" O'zbekiston-Ukraina qo'shma korxonasi 2007-yilning 21-iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi, Surxondaryo viloyati Adliya boshqarmasidan 33-raqamli reestr bilan ro'yxatdan o'tgan. Jamiyat ishtirokchilarining nizom jamg'armasidagi ulushlari quyidagicha taqsimlangan: Ukrainalik ishtirokchi "OOO PFK Merkuriy LTD" firmasi 480,0 ming dollar (60 foiz), O'zbekistonlik ishtirokchi "Po'lat Alp" XITF 320,0 ming dollar (40 foiz) ni tashkil etdi. Korxonaning asosiy faoliyat turidan biri gilam mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish hisoblanadi. Xorijiy hamkor tomonidan qiymati 486,7 ming dollar miqdoridagi zamonaviy asbob-uskuna va jihozlar keltirildi. 2007-yilda korxona tomonidan 16,1 mln. so'mga, 2008 yilda esa 43,2 mln. so'mga teng gilam mahsulotlari ishlab chiqarildi[6].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 11-oktyabrdagi "Qo'shma korxonalar" ni tashkil etishda

xorijiy investorlarni jalb etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi 393-son qarorining 9-ilovasiga muvofiq viloyatimizning tumanlarida 2001-2005 yillarda 19 ta qo'shma korxonalar tashkil etilishi, shu jumladan 2001-yilda 5 ta qo'shma korxonalar tuzilishi rejalashtirilgan edi[7].

Binobarin, so'nggi o'n yillikda yurtimizda engil sanoat tizimi taraqqiyot sari yuz tutdi. "Surxonteks" qo'shma korxonasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmi va turini ko'paytirish maqsadida 2010 yilda ishlab chiqarish quvvati 2,0 ming tonna, umumiy qiymati 2400 ming dollar qiymatidagi loyiha amalga oshirildi.

"Surxonteks" O'zbekiston Buyuk Britaniya qo'shma korxonasi sobiq "Surxontekstil" korxonasi o'rnida 2013-yilda qayta tashkil etildi. Ilgari korxonada 970 kishi ishlagan 2,5 ming tonna paxta xom ashyosi qayta ishlangan bo'lsa, bugungi kunda 240 nafar ishchi faoliyat yuritmoqda. 2018-yilda ishlab chiqarish quvvati 5 ming tonnani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa korxoning yangi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlanganligini ko'rsatadi. O'rtacha ish haqi 550 mingdan oshgan. 2017-yil korxonada 16 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, shuning 90 foizi xorijga eksport qilindi. Chet davlatlarga eksport qilingan mahsulot tannarxi qariyb 2 mln. dollarni tashkil etdi. Mahsulot asosan Rossiya, Xitoy, Turkiya va Boltiqbo'yi mamlakatlariga etkazib berildi. 2016 yilda 600 ming dollardan ziyod chet el sarmoyasi asosida korxonaga keltirilgan 2 ta savash liniyalari uchun 4 ta dastgoh keltirilganligi sifat va samaradorlikni yanada oshirdi. Islohotlar natijasida "Surxonteks" qo'shma korxonasi tomonidan 2588,9 dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilindi[8].

Pilla mahsulotlarini qayta ishlashda Termiz shahridagi "Inter Silk Pro" O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi viloyat iqtisodiy hayotida o'z o'rniga ega. Korxonada pilla xom ashyosidan ishlab chiqarayotgan ip-kalava sifati va dizayni bilan jahon bozorida tobora mustahkam o'rin egallamoqda. Pilla xom ashyosidan xaridorgir ip-kalava ishlab

chiqarayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyati shaklidagi "Inter Silk Pro" O'zbekiston-Xitoy qo'shma korxonasi 1 million 170 ming dollar qiymatidagi zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangani raqobatbardosh, jahon standartlariga mos tayyor mahsulot ishlab chiqarishda qo'l kelayotir. 2015-yil korxona Surxondaryo viloyatida yetishtirilgan 1 ming 550 tonna pillani qabul qilgan va xomashyo sifatli qayta ishlanib, tayyor mahsulot xorijiy davlatlardagi buyurtmachilariga jo'natildi. Korxonada mehnat qilayotgan 80 dan ziyod ishchining unumli mehnat qilishi uchun barcha sharoit yaratilgan. Bepul tibbiy va transport xizmati ko'rsatish yo'lga qo'yilgan, uzoq qishloqlardan qatnab ishlaydiganlar uchun yotoqxonalar mavjud. 2015 yil korxona 150 ming dollar qiymatidagi ip-kalavani eksport qildi. Yangi yilgacha yana 350 ming dollar qiymatidagi raqobatbardosh mahsulot chet ellik buyurtmachilariga jo'natiladi. Bu erda xom ashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayon to'liq texnologik zanjir asosida tashkil etilgan. Jumladan, ipak qurti boqish, mato va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish, gilam to'qish yo'lga qo'yilgan. Klaster usulida mahsulot yetishtirish uchun Surxondaryo viloyatidagi bir nechta tumanlar birlashtirib berilgan[9].

Korxona faoliyati ikki smenali bo'lib, 300 dan ortiq doimiy, 250 dan ziyod mavsumiy ish o'rinlari yaratilgan. Bugungi kunda korxona mahsulotlari Osiyo va Yevropa davlatlariga sotilmoqda. 2017-yilda qariyb 2 million 140 ming dollar, 2018-yilda 2 million 873 ming dollardan ziyod miqdorda eksport qilingan[10].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mazkur jarayonlar Surxondaryo viloyatida qishloq xo'jaligi mahsuloti, xususan, paxta va pilla yetishtirish asosida to'qimachilik industriyasi shakllanishiga xizmat qilmoqda. Uning tarkibini paxta tozalash, ip va ipak yigiruv, tikuvchilik sanoati tashkil etadi va bu sohalarni rivojlantirish esa viloyat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES):

1. Ўзбекистон Республикаси. *Энциклопедик маълумотнома*. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 333.
2. Турсунов С., Тўхтаев А. *Жарқўрғон*. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 142.
3. Сурхондарё вилоят давлат архиви, 1091-жамғарма, 1-рўйхат, 293-иш, 78-варак.
4. “Сурхон тонги” газетаси. – 2018 йил, 3-сон (№17403).
5. Холманова Ф.У. О роли предприятий лёгкой промышленности в экономике Сурхандарё // *Бюллетень науки и практики*. – 2023. – №6(12). – Б. 483–486.
6. Холманова Ф.У. Озиқ-овқат саноатининг худудий ташкил этилиши // *Ўтмишга назар*. – Б. 436.
7. Холманова Ф.У. Сурхондарё вилояти иқтисодиётида енгил саноат корхоналарининг ўрни // *Modern Science and Research*. – 2023. – Б. 236–240.
8. Холманова Ф.У. Саноат корхоналари иш самарадорлигини ошириш ва аграр тизимидаги ислохатлар // *Modern Science and Research*. – 2023. – Б. 247–252.
9. Холманова Ф.У. Современные методы обучения истории как наука и учебный методы // *Интернаука*. – 2023. – №3(1). – Б. 30–32.
10. Холманова Ф.У. О роли предприятий лёгкой промышленности в экономике Сурхандарё // *Бюллетень науки и практики*. – 2023. – №6(12). – Б. 483–486.

АФРОСИЁБ ШАХСИ ТЎҒРИСИДАГИ ЯНГИЧА ҚАРАШЛАР

Умаров Икромжон Ибрагимович

*Термиз давлат университети катта ўқитувчиси,
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)**Email: lochin-umarov@mail.ru**<https://orcid.org/0009-0003-1986-2002>**UDK 94 (575.1)*

Аннотация: Ўзбек давлатчилиги тарихида ўрганишимиз керак бўлган кўпгина масалалар бор. Улардан бири қадимги муаллифлар томонидан тилга олинган Афросиёб ҳисобланади. Афросиёб исми дастлаб Авестода Франграсьян, ўрта форс манбаларида Фрасиак ёки Пахлечак, қадимги туркча Алп Эр Тўнга деб аталган. Тарихий манбаларда Афросиёб Туроннинг машхур ҳукмдори, кўплаб шаҳарлар қурдирган давлат арбоби сифатида қайд этилади. Бироқ ёзма манбалар турли даврларда яратилганлиги боис илмий адабиётларда Афросиёб шахси тўғрисида қарама-қарши фикрлар билдирилади. Ушбу мақолада тарихий манбалар асосида Афросиёб тўғрисида маълумот берилади.

Калит сўзлар: Афросиёб, Алп Эр Тўнга, Алишер Навоий, Махмуд Кошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Наршахий, Фирдавсий.

Аннотация. В истории узбекской государственности есть много вопросов, которые нам необходимо изучить. Одним из них является Афрасияб, упоминаемый еще древними авторами. Имя Афрасияб в Авесте именуется Франграсьяном, в среднеперсидских источниках — Фрасиак или Пахлечак, в древнетюркских — Алп Эр Тунга. Исторические источники упоминают Афросиаба как известного правителя Турана, государственного деятеля, основавшего множество городов. Однако, поскольку письменные источники создавались в разное время, в научной литературе высказываются противоречивые мнения о личности Афрасияба. В данной статье на основе исторических источников представляется сведения об Афрасиябе.

Ключевые слова: Афросиаб, Альп Эр Тунга, Алишер Навои, Махмуд Кашгари,

Юсуф Хос Хаджиб, Наршахи, Фирдоуси.

Abstract. There are many issues in the history of Uzbek statehood that we need to study. One of them is Afrasiyab, mentioned by ancient authors. The name Afrasiyab in the Avesta is called Frangrasyan, in Middle Persian sources - Frasiak or Pakhlechak, in ancient Turkic - Alp Er Tunga. Historical sources mention Afrasiyab as a famous ruler of Turan, a statesman who founded many cities. However, since written sources were created at different times, contradictory opinions are expressed in scientific literature about the personality of Afrasiyab. This article presents information about Afrasiyab based on historical sources.

Keywords: Afrasiyab, Alp Er Tunga, Alisher Navoi, Mahmud Kashgari, Yusuf Khos Hajib, Narshahi, Firdawsī.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ) / INTRODUCTION. Бугунги кунда ўзбек давлатчилиги тарихини ўрганиш кун тартибидаги муҳим масалалардан бири бўлиб келмоқда. Давлатчилик тарихини ўрганиш учун олимларимиз томонидан турли изланишлар олиб борилмоқда. Тадқиқотлар натижасида давлатчилигимиз 3500-4000 йиллик тарихга эга эканлиги аён бўлмоқда. Тарихчиларимиз олдида Канишка, Жалолиддин Мангуберди, Амир Темур, Муҳаммад Шайбонийхон, Абдуллахон II сингари давлатчилигимизда муҳим ўрин тутган шахсларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этмоқда. Айниқса, деярли унутилаётган қаҳрамонларимиз тарихини ўрганиш шу куннинг долзарб вазифасига айланди. Улар орасида қадимги турк ҳокони Афросиёб ҳам бор. Афросиёб қадимги туркларнинг биринчи ҳукмдори ҳисобланган ва кўпгина тарихий

манбаларда тилга олинган эди. Ўзбекистон Республикасининг Биринчи Президенти Ислон Каримов 1997 йил 19 октябрда Бухоро шахрининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги табригида «Энг қадимги миллий қахрамонларимиздан бўлмиш Алп Эр Тунга (Афросиёб)» деган сўзлари орқали тарихчилар олдида Турон давлати ва унинг дастлабки ҳукмдори ҳақида тарихий ҳақиқатни қарор топтириш вазифасини қўйган эди [1].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ /DISCUSSION). Афросиёб исми дастлаб Авестонинг энг қадимги қисмларидан бирида *Франграсыйан*, ўрта форс манбаларида *Фрасиак* ёки *Паҳлечак* номлари билан тилга олинади. *Франграсыйан* сўзи «жангчи» деган маънони англатади [2]. *Франграсыйан* – Авесто бўйича Ўрта Осиёда яшаган қадимги тур қабиласи етакчисининг исми бўлган.

Рус тадқиқотчилари В.В.Бартольд ва В.В.Григорьевлар *Афросиёб* сўзи туркча эмаслигига эътиборни қаратиб, уни афсонавий шахс сифатида билганлар. Бундан ташқари, XI аср шоири Фирдавсий ўзининг «Шоҳнома» асарида Афросиёбга бадий афсонавий кийим кийдирган эди. Шу сабаб кўпчилик тарихчилар Афросиёбни тарихий шахс эмас деган фикрга келган эдилар.

Диққатга сазовор томони шундаки, ўрта аср тарихчилари – Наршахий, Табарий, Маҳмуд Кошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб, Алишер Навоий, Рашидиддин ва бошқалар Афросиёбни реал тарихий шахс сифатида кўрсатиб ўтганлар. Хусусан, Юсуф Хос Ҳожиб ўзининг «Қутадғу билик» асарида, унинг асл исми Тўнға Алп Эр эканлигини таъкидлаб қуйидагича ёзади:

Бу турк беклариндин оти белгулик,
Тўнға Алп эрди, кути белгулик.
Тожиқлар аюр они Афросиёб,
Бу Афросиёб олди элларни толоб.

Мазмуни: *У номи чиққан турк бекларидан эди, Тўнға Алп эди. Юзи жозибадор киши эди. Тожиқлар уни Афросиёб деб аташади. Бу Афросиёб кўп элларни босиб олган* [3].

Ёки «Алп Эр Тўнганинг билими улуг, ҳунари талай эди. Унинг тенги топилмасди. Тожиқлар уни Афросиёб деб аташган», дейилади [4].

Маҳмуд Кошғарий *тўнға* сўзини изоҳлар экан, шундай кўрсатади: «Тоға – йўлбарс жинсидан бўлган бир хил ҳайвон. У филнинг кушандасидир. Афросиёбни Тўға Алп Эр деб атар эдилар. Йўлбарс каби кучли баҳодир одам демакдир» [5]. Умуман олганда, Маҳмуд Кошғарий «Тўнға Алп Эр ёки Алп Эр Тунг» деганда Афросиёбни тушунади.

Демак Афросиёбни у даврда Алп Эр Тўнға деб атаганликлари каби Тўнға Алп Эр деб ҳам атар эдилар. Бу ҳол Маҳмуд Кошғарий билан Юсуф Хос Ҳожиб маълумотлари ўртасида қарама-қаршилик йўқлигини кўрсатади.

«Ғиёс ул-луғат»да Афросиёб ҳақида шундай дейилади: «Афросиёб – Туроннинг улуг подшосидир, ғоят шижоатли ва баҳодир киши бўлган» [6].

С.Муталлибовнинг фикрича, В.В.Бартольд ва В.В.Григорьевларнинг «Қутадғу билик» ва «Девону луғатит турк» даги бу маълумотлардан хабарсизликлари уларни адаштирган. Афросиёб машҳур баҳодир Алп Эр Тунгага араб-форслар томонидан берилган номдир. У тарихий шахсдир. Афросиёбни янглиш тушуниш бир халқ тарихига доир воқеаларни иккинчи бир халққа нисбат беришга элтувчи қўпол хатодир [7].

Тарихий манбаларда Афросиёб шахси ҳақида икки хил қараш мавжуд. Эроний халқлар учун Афросиёб ёвуз инсон, золим ҳукмдор сифатида гавдаланган. «Шоҳнома» га кўра, Афросиёб Афридун ўғли Турнинг авлоди бўлиб, кўчманчи тур қабилаларининг бошлиғи ҳамда Эрон шоҳларининг ашаддий душмани бўлган. «Шоҳнома»да Афросиёбнинг Зол ва Рустамлар билан кураши анчагина жойни ишғол қилади.

Алишер Навоий авлиёлар ва ҳукамолар тарихига бағишлаб махсус «Тарихи мулуки аҷам» деган асарида Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асаридан фойдаланиб қуйидагиларни ёзади:

Тур ўғли Афросиёб сипоҳ тортиб анинг (подшоҳ Манучехрнинг) устига юрди. Ул Табаристон сори тортиб, урушмади. Аму суийдин норини анга мусаллам тутуб, яраш бўлиб, Афросиёб қайтди [8].

Ёзма манбаларда Афросиёб – Алп Эр Тўнга улуг ҳукмдор, бунёдкор инсон сифатида тасвирланади. Бухоролик тарихчи Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий «Бухоро тарихи» асарида Ромитаннинг Афросиёб томонидан қурилганлигини қайд этиб, шундай дейди: «... Бу катта бир қўхандизга эга ва мустаҳкам бир қишлоқ бўлиб, Бухородан қадимийроқдир. Баъзи китобларда бу қишлоқни Бухоро деб атаганлар. Бу қишлоқ қадим вақтларда подшоҳларнинг турар жойи бўлган, (кейинроқ эса) Бухоро шаҳри бино бўлгандан кейин, подшоҳлар қиш фаслидагина бу қишлоқда турадиган бўлганлар. (Бу ерлар) ислом давлатига ўтганда ҳам шундай бўлиб турган. Бу қишлоқни Афросиёб бино қилган. Афросиёб ҳар вақт бу вилоятга келганида шу қишлоқдан бошқа жойда турмаган». Шунингдек, Наршахий Бухоро шаҳри ҳисорини Афросиёб бино қилганлигини қайд этади [9].

Маҳмуд Кошғарий Афросиёб ва унинг болалари томонидан қурилган шаҳарлар ҳақида маълумот беради. Булар:

Ордуқэнд (Кошғар) – хон турадиган шаҳар, марказ маъносида қўлланади. Чунки бу шаҳарнинг ҳавоси яхши бўлгани учун Афросиёб шу ерда турар эди. Кошғар – Афросиёбнинг марказий шаҳри бўлган.

Баржусқ – Афросиёб бино қилган шаҳар. У Бухтун Нассар ўғли Байзанни шу шаҳарга қамаган эди [10].

Қаз – Афросиёб қизининг номи. Қазвин шаҳрини шу қургандир. Бу сўзнинг асли қаз ўйини – ғоз ўйналадиган жой демакдир. Чунки у шу ерда турар ва шу ерда ўйнар эди. Шунинг учун баъзи турклар Қазвинни турк шаҳарларидан ҳисоблаганлар. Шунингдек Қум шаҳри ҳам чегара ҳисобланади. Чунки қум туркча сўздир. Афросиёбнинг қизи бу ерда ов қилар ва ўйнар эди. Баъзилар турк шаҳарлари чегараси Марваш – Шохижондан

бошланишини сўзлайдилар. Чунки Қазнинг отаси Тоңа Алп Эр – Афросиёбдир. У Тахмураспдан уч юз йил кейин Мэрвни бино қилгандир.

Баъзилар бутун Мовароуннахрни турклар ўлкаларидан деб ҳисоблаганлар. У Янқанддан бошланади. Унинг бир оти Дизрўйиндир. У сариқлигига кўра, мис шаҳри демакдир. Бу Бухорога яқиндир. Бу ерда Афросиёбнинг қизи Қазнинг эри Сиявуш ўлдирилгандир. Мажусий оташпарастлар ҳар йили бир кун бу ерга келиб, Сиявуш бўлган жой атрофида йиғлайдилар. Моллар сўйиб, қурбонлик қиладилар. Сўйилган мол қонини унинг мозори тепасига тўкадилар. Уларнинг одатлари шундай.

Қаз суви – Ила водийсига қуядиган катта бир денгиз. Шундай аталишининг сабаби – Афросиёбнинг қизи унинг қирғоғига бир шаҳар қургани ва бу ном унга нисбат берилганидандир.

Йунгу – Барман шаҳарчасига оқадиган катта бир дарё номи. Бу дарё бўйига Афросиёбнинг Барман деган ўғли шаҳар қурган эди. Шаҳар ҳам унга нисбат берилиб, унинг номи билан аталади.

Барсған – Афросиёб ўғлининг номи. Барсған шаҳарини бино қилган шудир... Баъзилар: уйғур беги отбоқарининг номи Барсған эди; бу ернинг ҳавоси яхши бўлгани учун у отларни шу ерда боқар эди. Сўнг шаҳар унга нисбат берилиб, Барсған деб аталди, дейдилар [11].

«Шоҳнома»да Афросиёб даврига оид Хуттал, Фаргар, Висагир, Ғузғонон Замм сингари шаҳарлар тилга олинади. Афсонага кўра, Ғузорга Афросиёб асос солган. Ҳисор қалъасининг бино қилиниши ҳам Афросиёб номи билан боғланади [12].

М.Кошғарий Афросиёб авлодларининг унвонлари ҳақида ҳам сўз юритади. Масалан:

Тарим – текинларга (қулликдан подшоликка етишган кишиларга) ва Афросиёб авлодидан бўлган хотин ва бошқаларга ҳоҳ катта, ҳоҳ кичик бўлсин тарим сўзи ишлатилади. Ҳоқония подшоларидан бошқалар ҳам қанча катта бўлсалар ҳам, бу сўз уларга нисбатан

ишлатилмайди.

Қатун – Афросиёб қизларидан бўлганларнинг номи [13].

Манбаларда келтирилишича, Афросиёбнинг тўнғич ўғли Қорахон деб аталган. Унинг қўшини Чин одамлари, Тароз чавандозлари, Чигил турклари, ғузлар, қарлуқлар ва туркманлар, шунингдек, кушонлар, шуғнонликлар, славянлар, ҳиндлар ва бошқалардан иборат бўлган [14].

Араб, форс ва турк манбаларида Афросиёб – Алп Эр Тунга турклар ҳукмдори сифатида кўрсатилади. *Алп Эр* номи тоғли Олтойдаги қадимги турк-руник битикларида ҳам учрайди [15].

Афросиёбнинг форсларга қарши кураши кўчманчи туркларнинг Эронга уюштирган ҳужумлари билан боғлиқ тарихий воқеаларни акс эттиради. Жумладан, Афросиёб билан бўлган курашда Манучехр енгилади. Манучехр ўғли Навзар отасининг ўчини олиш мақсадида Афросиёбга қарши жанг қилади, аммо мағлубиятга учрайди. Афросиёб Навзарга қарши махсус ҳозирлик билан жанг бошлайди. Навзарни ҳалок қилади ва бутун Эронни қўлда тутаяди, ўн йиллаб қаттиқ зулм остида ҳукм юргизади [16].

Наршахийнинг ёзишича: Сиёвуш ибн Кайковус ўз отасидан қочиб, Жайхун дарёсидан ўтиб Афросиёбнинг олдига келди. Афросиёб уни яхши қабул этди ва ўз қизини унга хотинликка бериб, айтишларича, барча мулкани ҳам унга топширди. ... (Кимлардир) у билан Афросиёб ўртасида ёмон гап юргизди ва (натижада) Афросиёб уни ўлдирди ҳамда ана шу ҳисорда шарқий дарвозадан кираверишингда «Дарвозайи ғуриён» деб аталган сомонфурушлар дарвозасининг ичкарисига дафн этдилар.... Сиёвушнинг Кайхусрав номли ўғли бўлиб, у отасининг қонини талаб қилиб қўп лашкар билан бу вилоятга келганида Афросиёб шу Ромтин қишлоғини ҳисор қилиб турган. Кайхусрав икки йилдан кейин Афросиёбни тутиб ўлдирди. Афросиёбнинг гўри Бухорода Маъбад дарвозасида раҳматли Хожа имом Абу Ҳафс Кабир тепалигига туташган катта

тепалик устидадир. Муҳаммад ибн Жаъфар (ан Наршахий) ўша вақтдан буён уч минг йил ўтган (дейди) [17].

Фирдавсийнинг «Шоҳнома»сида Кайхусравнинг Афросиёб билан кураши бошқача талқин этилади. Сиёвушнинг ўлиmidан кейин Эрон шоҳи Кайхусрав отаси учун ўч олиш истагида унга қарши юради. Бўлиб ўтган жангда Афросиёб ундан енгилиб, Зарр қўли тубига яшириниб олишга ҳаракат қилади. Лекин эронликлар томонидан калтакланаётган укасининг кичкириғини эшитиб сувдан чиқади. Афросиёб ўлдирилади, ўрнига Кайхусрав унинг ўғлини ўтказади [18].

Маҳмуд Кошғарийда Афросиёбнинг ўлимига бағишлаб қуйидаги марсия келтирилади:

*Алп Эр Тоға öldimü,
Эсиз ажун қалдимү,
Озләк очин олдиму,
Эмди жүрәк жіртілур.*

Мазмуни:

Алп Эр Тўнга (Афросиёб) ўлдими,
Ярамас дунё қолдимү,
Дунё ундан ўчин олдимү,
Энди юраклар унинг учун яраланмоқда.
Ёки:

*Бэгләр атін арғуруб,
Қазғу ані турғуруб,
Мәңзи жүзі сарғаріб,
Кўркүм аңар тўртүлүр.*

Маъноси: Афросиёб ўлимига ачиниб айтади: амирлар отларини чарчатиб келдилар. Қайғу бекларни оздирди, юзлари заъфарон сургандек жуда сарғайди [19].

Ш.Камолиддиннинг ёзишича, Афросиёб реал тарихий шахс эканлиги тахмин этилади. Унинг прототипи – скиф-киммерия кўчманчиларининг ҳукмдори Мадай ҳисобланади. У кўшгина турк эпослари - «Алпамиш», «Алп-Манас», «Ўғузнома», «Китоби Дада Қўрқут», «Қутадғу билик» ва бошқалар, шунингдек, қадимги грузин эпоси «Амиран» (Алп Эр Тунг) ва рус халқ достонлари ва афсоналаридаги қаҳрамонларнинг прототипи ҳисобланади. Қадимги Турон бир қатор туркий ва эроний тилли халқларнинг конфедерацияси бўлиб,

Афросиёб исмли хукмдор томонидан бирлаштирилган эди. Афросиёб аслида туркча Мадай Қорахон исми ҳамда Алп Эр Тунга деган фахрий унвон билан аталган... Мил.ав. VII асрда у Евроосиё китъасининг жуда катта қисмини эгаллаб, Эрон шоҳи Манучеҳрни тор-мор этган ва бирмунча вақт (12 йил) Эрон устидан ўз ҳукмронлигини ўрнатган эди. Шу сабаб у қадимги Эроннинг пешдодийлар даври ҳукмдорлари (мил.ав. I минг йиллик) қаторидан тилга олинади [20].

Қ.Ражабовнинг фикрича ҳам Алп Эр Тўнга тарихий шахс, бунинг устига у энг қадимги миллий қаҳрамонларимиздан бири. Афросиёб – Турон давлатининг дастлабки ҳоконларидан бири ҳисобланади. Афросиёб олис Мидияда душман кўлида ўлдирилгач, васиятига биноан унинг жасади айнан Бухоро шаҳрига олиб келиниб, Маъбад дарвозаси олдидаги катта тепалик устига дафн этилган. Агар Бухоро шаҳри ўша пайтда Турон давлатининг бош кенти бўлмаганида Афросиёб бу ерда дафн этилмас эди [21].

Маҳмуд Кошғарий Афросиёбнинг Яқин Шарқ ҳукмдорлари билан алоқалари ҳақида ҳам маълумот келтиради. Хусусан, Афросиёб Бухтуннасар ўғли Батзанни қизи Қоз билан яширин алоқада бўлгани учун Жаруқ деган шаҳарга қамаган эди [22].

Тарихий манбаларни синчиклаб ўрганадиган бўлсак, Бухтуннасар қадимги Бобил шоҳи Навуходоносар II нинг (мил.ал. 612-585) айнан ўзи эканлигига гувоҳ бўламиз.

Қадимги Эрон афсоналарида Афросиёб зардуштийларнинг ашадий душмани бўлганлиги кўрсатилади. Аммо унинг ўзи оташпараст бўлиб, Ардвисуре, Анахита ва Вайюга сиғинган. Наршахийнинг маълум қилишича, «Афросиёб икки минг йил яшаган. У жодугар бўлиб, Нух подшоҳнинг болаларидандир» [23].

VI аср франк тарихчиси Григорий Турскийнинг ёзишича, Нухнинг уч ўғли бор эди. Сим, Хам ва Ўафет. Хам ва Сим сингари Ўафетдан ҳам халқлар вужудга келди... Хамнинг биринчи туғилган ўғли Хуш эди.... Сўнгра Хуш форсларга ўтди,

улар уни Зороастр деб атадилар. Унинг маъноси «тирик юлдуз» демакдир. Форслар Зороастр ўргатганидек оловга ва унинг ўзига сиғинадилар ҳамда уни худо сингари эъзозлайдилар [24].

Г.Турскийнинг маълумотидан аён бўлишича, Европада Зороастр (Зардушт) Нух подшоҳнинг болаларидандир бири бўлиб ҳисобланган. *Зороастр* номи илк маротоба юнон муаллифи Ксанф Лидийский томонидан тилга олинади (мил.ав. V ўрталари). Милоддан аввалги V асрда форс шоҳлари саройида ишлаган юнон тарихчиси Ктесийнинг «Персика» («Persika») номли асарида Оссурия подшоси Ниннинг Бактрияга юриши ҳақидаги ҳикоясида *Зороастр* исмли Бактрия ҳукмдори тилга олинади. Албатта Ктесийнинг ҳикояси бизгача етиб келган эмас. У бошқа юнон муаллифларининг асарлари орқали бизга маълум. Ниннинг Бактрияга юриши тўртта парчада ёритилади. Диодорда Бактрияда (Bactrianē) ҳукмронлик қилган *Оксиарт* (Oxyártēs) деб аталади. Қўлёзмаларда бу исм яна Eхаórtēs, ho Хаórtēs, ho Заórtēs шаклларида қайд этилади. Oxyartēs исми тикланган. Аммо айрим олимлар Диодорда Zōróastrēs номини тиклайдилар [25]. Бошқа парчада, яъни, Арнобийда у «бактриялик сеҳргар Зороастр» (magus Zoroastres, Bactrianus) аталади. Кефалионнинг учинчи парчасида «сеҳргар Зороастр, Бактрия шоҳи» деб қайд этилади. Тўғри унинг матни бизгача асл ҳолича эмас, балки Евсевий (арманча таржима) ва Синкелла орқали бизгача етиб келган. Евсевийда Zaravastes magus Bactrianorum rex, Синкеллада Zōróastrēs magos дейилган. Тўртинчи парчанинг муаллифи номаълум бўлиб, унда Зороастр ҳақида ҳеч нарса дейилмайди. Фақат «Семирамида Бактрияни босиб олди» деган жумлалар қайд этилади [26].

Кўриб турганимиздек, Бактрия ҳукмдори Диодорда *Оксиарт*, Арнобий ва Кефалионда *Зороастр* номлари билан тилга олинади. И.М.Дьяконов эса, Зороастр деганда зардуштийлик дини асосчиси Заратуштрани тушунган [27]. Якобининг ёзишича, Диодор Ктесийнинг «Оссурия

тарихи»ни Александр Македонский тарихчиларидан бири Клитархдан олган. Бактриялик Оксиарт – Александр Македонскийнинг қайнотаси бўлиб, кўзга кўринган шахслардан бири эди. Ктесийнинг асаридаги «Бактриялик Зороастр» ўрнига «Бактриялик Оксиарт» (Οχυάρτης ἢ Βακτριανός) сўзи Александр Македонский тарихчиларидан бири томонидан онгли равишда киритилган бўлиши мумкин [28]. Бу масалага биз қуйроқда тўхталиб ўтамиз.

Диодорнинг қайд этишича, Оссурия подшоси Нин Бобилдан чиқиб, Арманистонга юриш қилади. Арман подшоҳи Барзон қаршилиқ кўрсатиш фойдасизлигини тушуниб, совға-саломлар билан унинг қошига чиқади. Нин унга ҳокимиятини қолдиради. Фақат ўз қўшини учун таъминот ва ёрдамчи қўшин жўнатишини талаб қилади (Диодор, кн. II, 1: 8-9).

Ктесий хабаридаги арман подшоҳи Барзон Махмуд Кошғарийда қайд этилган Бухтуннасар ўғли Батзанга ҳамоҳанг бўлиши бу воқеаларда маълум бир ҳақиқат ётганлигидан далолат беради.

Яна Диодорга қайтамиз. Ниннинг иши юришиб кетгач, у бутун Осиёни, Танаисдан то Нилгача бўлган ҳудудларни бўйсундириб олмоқчи бўлди. Шу сабаб Мидияда ўз дўстларидан бирини сатрап қилиб қўйиб юришга чиқди. 17 йил ичида бактрияликлар ва ҳиндлардан бошқа барча халқларнинг ҳукмдорига айланди. У кадусийлар, тапирлар, гирканлар, дербиклар, карманийлар, хоромнийлар (хоразмийлар), борканийлар ва парфянлар ерини эгаллади. Бактрияга бориш қийинлиги ҳамда аҳолиси жуда жанговор эканлигидан бир неча бор муваффақиятсиз уринишлардан сўнг у билан урушни тўхтатиб турди (Диодор, кн. II, 2:1-4).

Ниневияга асос солгач, Нин... Бактриянинг кўп сонли аҳоли ва олиб бўлмас қалъаларга эга эканлигини ҳисобга олиб ўзига бўйсунган аҳолидан ғоят катта қўшин тўплайди. 1700 минг пиёда, 210 минг отлиқ аскар ва 10600 та уруш аравасидан иборат улкан қўшин билан

Бактрияга бостириб киради. Бактриядаги йирик шаҳарлар орасида энг каттаси Бактра бўлиб, Нин уни ололмайди. Бактрада подшолик қилган Оксиарт курул кўтаришга қодир 400 минг одамни сафарбар этади. Қаттиқ жангдан сўнг бактрияликлар ғолиб келиб душманни тоғ этагига қадар қувиб боради ва улардан юз мингини қириб ташлайди. Бактрияликларнинг шижоати Нинни довдиратиб қўйди. Аммо у асосий қўшинни ишга солгач, бактрияликлар чекинишади. Бактра шаҳри қамал қилинади. Қамал узок вақт давом этади. Бу орада оссурияликларнинг Бактрадаги ўрдасига эркак кийимидаги Семирамида етиб келади ва ҳарбий хийла ишлатиш натижасида Бактранинг олиб бўлмас аркини эгаллайди. Семирамиданинг жасоратига қойил қолган Нин унга ҳурмат бажо келтиради. Кўп ўтмай унга уйланади. Нин Бактрия бойликларини талайди (Диодор, II, 5: 3-5; 6: 1-10; 7: 1) [29].

Семирамида (Шаммурамат) нинг 816-772 йилларда Оссурия маликаси бўлганлиги ҳисобга олинса, оссурияликларнинг Бактрияга юриши IX аср охири - VIII аср бошларида содир бўлганлигини тахмин этишимиз мумкин.

Ниннинг Бактрия уруши ҳақида рим тарихчиси Помпей Трог (Юстиннинг ҳикоясида) ҳам хабар беради (Помпей Трог, кн. I, гл. I, 9-10.) [30]. Унда Диодордан фарқли равишда Семирамиданинг номи учрамайди. Бактрия подшоси сифатида сеҳргар ва мунажжим Зороастр тилга олинади. Юстинга асосланиб, XII асрга қадар бўлган латин муаллифлари ўз асарларида Нинга қарши кураш олиб борган Зороастрни «биринчи сеҳргар» (*magorum primus*), «сеҳргарлик (*inventor magicæ artis*) ва мунажжимлик (*inventor mathematicæ artis*) санъатларининг асосчиси» сингари номлар билан улуғлайдилар. Византия манбаларида Бактрия шоҳи Зороастр астрология (мунажжимлик) ва сеҳргарлик илмларининг асосчиси (*epheures didaches astrologias kai niageias*) сифатида кўрсатилади.

Энди скиф кўчманчиларининг бошлиғи

Мадай ҳақида тўхталиб ўтсак. Тарихчи Геродотнинг хабар беришича, Мидия ҳукмдори Киаксар Оссурия пойтахти Ниневияни камал қилганида унинг ерларига Протофиея ўғли Мадиес бошчилигидаги скифларнинг улкан қўшини бостириб кирди. Скифлар киммерийларни Европадан қувиб юборган, уларни Осиёда таъқиб қилишар, энди эса Мидия ерларига бостириб киришган эди. Мидийлар скифлар билан бўлган жангда мағлубиятга учрадилар. Уларнинг қудратига чек қўйилди. Скифлар бутун Осиёга ўз ҳукмронлигини ўрнатишди.

Шундан сўнг скифлар Мисрга юриш қилдилар. Сурияда уларни Миср ҳукмдори Псамметих совға-саломлар билан кутиб олиб, юришни давом эттирмасликка кўндиради...

Скифлар Осиёда 28 йил барча ерни остин-устун қилиб юбордилар. Негаки, ҳар бир халқдан ўлпон олишдан ташқари, скифлар мамлакат бўйлаб тарқалиб, қўлига тушган нарсани талар эдилар... Шунда Киаксар ва мидияликлар бир куни жуда кўп скифларни меҳмонга таклиф этиб, маст бўлгунча ичиришади ва уларни қириб ташлашади. Шу тариқа мидияликлар ўзларининг олдинги қудратларини тиклаб, Нин шаҳрини ҳам эгаллаб олишади (мил. ав. 612 йил) ва оссурияликлар устидан ўз ҳукмронликларини ўрнатишади (Геродот, китоб 1, 103-106 [31]).

Шундай қилиб, биз Зороастр ва Мадиес ҳақида қисқача маълумот бериб ўтдик. Хўш, улардан қайси бири Афросиёб – Алп Эр Тўнга бўлиши мумкин? Тўғри, уларнинг ҳар иккиси ҳам душманлари томонидан ўлдирилган. Бири ўзгалар юртини босқин қилиб ўлдирилган бўлса, иккинчиси ўз юртини душмандан ҳимоя қилиб ҳалок бўлган. Бизнингча, Мадиесни Афросиёб номи билан боғлаб бўлмайди. Негаки, юнон тарихчиларининг деярли барчаси Кавказ тизмаларидан ошиб, Яқин Шарққа бостириб кирган кўчманчи скифларни бузғунчи, ваҳший, ҳар қандай ёвузликни қилишдан тап тортмайдиган халқ сифатида таърифлашган. Аммо Бақтрия подшоси Зороастр (Оксиарт) ни ақлли, доно,

мунажжим, олим ҳукмдор сифатида тавсифлашади. Унинг халқи ҳам зироатчилик ва чорвачилик билан шуғулланган. Геродотнинг замондоши Херилл Самосский турларни (Авестода Франграсиён, яъни Афросиёб бошлиқ бўлган халқни) Осиёнинг бой буғдойзорларида яшовчи чорвадорлар деб атайди. Л.Салдатзенинг ёзишича, ўтроқ аҳоли, кучли ёвга қарши курашиш учун кўчманчи турлар билан иттифоқ тузган. Турлар ҳимоячи, ўтроқ аҳоли эса уларни боқувчи бўлган [32]. Шунингдек, Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асарида «Афросиёб даврида барча халқлар учун анҳорлар қазилган, шаҳарлар барпо этилган» деган жумлаларни эслатиб ўтиш ўринлидир. Қолаверса, Маҳмуд Кошғарий ҳам Афросиёб ва унинг авлодлари томонидан амалга оширилган улкан бунёдкорлик ишлари, қурдирган шаҳарлари ҳақида ҳам яхшигина маълумот беради. Ўйиборли томони у берган хабарлар маълум даражада Ктесийнинг маълумотларига тўғри келади. Масалан айрим тарихий шахслар исмларининг мослиги, Афросиёб давлатининг жанубий чегараларидаги шаҳарларнинг қадимги Бақтрия-Марғиёна ва унга яқин ҳудудларга тўғри келиши масалага анчагина ойдинлик киритади. Бундан ташқари, Наршахий ва Фирдавсийда Афросиёбнинг Эрондан келган босқинчилар томонидан Бухорода ҳалок қилинганлиги акс этса, Ктесийда Зороастрнинг оссурияликлар томонидан ўлдирилганлиги кўрсатилади. Ҳар икки ҳолатда ҳам биз ўрганаётган қаҳрамон ўз юртини ғарбдан бостириб кирган душмандан ҳимоя қилиш вақтида ҳалок бўлади. Скифлар қўмондони Мадиес эса Мидияда ўлдирилган. Шуларни ҳисобга олиб, Ктесийда тилга олинган Зороастр (Оксиарт)ни Афросиёбнинг айнан ўзи деган фикрни илгари суриш мумкин. Афросиёбни Мидияда ҳалок бўлган дейишимиз учун ҳеч қандай асос йўқ.

Албатта, юнон-рим муаллифлари Зороастрни сеҳр илмининг асосчиси сифатида билганлар. Уларга ўхшаб Наршахий ҳам Афросиёбни жодугар деб

ҳисоблаган. Аммо, уни сеҳргар деб билиш унчалик тўғри бўлмайди. Сабаби, ўтмишда физикавий, химиявий ҳодиса ва жараёнларни, турли моддаларнинг хусусиятлари яхши билган ва уларни ишлата олган иқтидорли кишилар оддий халқ томонидан сеҳргар (жодугар) деб аталган. Арнобийнинг парчасида ёзилишича, оссурияликлар ва бактрияликлар ўртасидаги урушда нафақат жангчилар ва қурол кучи ишлатилди, балки муғлар ва халдейларнинг махфий билимлари ҳам ишга солинган (Арнобий 1,5) [33]. Бундан кўринадики, Зороастр (Афросиёб) ўз юртини ҳимоя қилишда турли кимёвий унсурлар ва физикавий ҳодисалардан ҳам яхшигина фойдалана олган кўринади. Душманга қарши курашда табиат ҳодисаларидан фойдаланиш усули бошқа жойларда ҳам бўлган. Масалан машҳур юнон олими Архимед қуёш нурини бир жойда тўплаб уларни римликларнинг кемалари томон йўналтириб ёқиб юборган. Физикавий жараёнлардан яхшигина фойдаланганлиги учун Муқаннани ҳам сеҳргар деб ҳисоблаганлар. Шуларни ҳисобга олиб Зороастрни оддийгина сеҳргар эмас, балки табиий фанларнинг билимдони сифатида тушуниш лозим.

Бундан ташқари, юнон манбаларида Зороастр яна *Оксиарт* номи билан ҳам аталади. Худди шу ном билан милоддан олдинги IV асрда Шимолий Бактриядаги маҳаллий мулклик ҳокими, Александр Македонскийнинг қайнотаси аталган. Милодий V асрда эфталийлар ҳукмдори *Вахиунвар* (*Оқиунвор*) дейилган. Бу исм юнонлар томонидан *Оксиарт* шаклида талаффуз этилган.

Шу ўринда яна бир ўринли савол туғилади? Агар юнонлар Бактрия ҳукмдорини Зороастр дейишган бўлса, у ҳолда зардуштийлик динининг асосчиси Зардуштнинг унга қандай алоқаси бўлиши мумкин? Зардушт шахси ҳақида турли фикрлар бор. Қадимда фақат *Заратуштра* (*Zaratustra*) номи учрайди. Кейинроқ ундан Зардушт ва Зардушт шакллари вужудга келган. Юнон манбаларида унинг исми *Затраустер* шаклида тилга олинади

(Диодор, 1, 94).

Зардушт обрўли Спитама уйида туғилган. Заратустранинг отаси Спитама Пурушаспа Мидиянинг кўзга кўринган оқсуякларидан бири бўлган. Ктесийнинг ёзишича, Спитама сўнгги Мидия ҳукмдори Астиагнинг қизига уйланган. Уларнинг ўғли ёш Спитак (Заратустра) гатларнинг муаллифи ҳисобланади. Эқбатана шаҳри Кир II томонидан босиб олинган, Заратустранинг онаси Кирга турмушга чиқади. Уларнинг қизи Атосса Заратустранинг она томонидаги синглиси ҳисобланади. Шундан келиб чиқадиган бўлсак, Зардушт милоддан олдинги VI асрда яшаганлигини қайд этишимиз мумкин.

Хўш! зардуштийлик динининг асосчиси Зардушт билан Бактрия подшоси Зороастр бир шахс бўлганми ёки бўлак кишиларми? Манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, улар алоҳида кишилар бўлишган. Биринчидан, ҳар иккови яшаган даврда фарқ бор, яъни Бактрия ҳукмдори Зороастр – Оксиарт милоддан олдинги IX-VIII асрларда, зардуштийлар динининг асосчиси Зардушт эса милоддан олдинги VI-V асрларда яшаган. Иккинчидан, уларнинг исмида ҳам фарқ бор, яъни, бири Зороастр (Оксиарт), иккинчиси Заратуштра – Зардушт.

Эрон шоҳлари саройида ишлаган Ктесий ҳам Зороастр исмини тилга олар экан, уни дин асосчиси эмас, балки Бактрия подшоси сифатида тавсифлайди. Юнонлар зардуштийлик дини билан Аҳамонийлар давридан буён яхшигина таниш бўлишган. Шу сабаб бўлса керак, Ктесийнинг асаридан фойдаланиш жараёнида Диодор ўз ишларида Зороастр билан Зардуштнинг номини аралаштириб юбормаслик учун Бактрия подшосини *Оксиарт*, дин асосчиси Зардуштни эса *Затраустер* номи билан қайд этади. Бу эса унинг икки шахс ҳақида етарли маълумотга эга бўлганлигини кўрсатади. Кейинроқ, юнон ва бошқа манбаларда *Заратуштра* номи учрай бошлади. Авестонинг ўзига ҳам эътибор бериладиган бўлса, у ерда *Франграсиён* турларнинг ҳукмдори, Зардушт эса Мидия оқсуяги Пурушаспанинг ўғли сифатида

тилга олинади.

Х.Дониёровнинг фикрича, Афросиёб – тарихий шахс, Туроннинг машхур ҳукмдори ва ўзининг узоқ подшолик сулоласига эга бўлган улуг зот, биз ўзбекларнигина эмас, гарчанд унинг яқин меросхўрлари ўзбеклар, уйғурлар ва ўғузлар бўлса ҳам, деярли барча туркий элларнинг ҳам энг қадимги буюк аجدодларидан биридир [34]. Шу боис Х аср ўрталарида Шарқий Туркистон ва Еттисувда ташкил топган Қорахонийлар давлатининг ҳукмдорлари ўзларини Афросиёб авлодлари деб эълон қилдилар. Қорахонийлар Мовароуннахрни узил-кесил забт этишгач (999 йил), бу ерда то XIII аср бошларига қадар ҳукмронлик қилдилар. Уларнинг сўнгги ҳукмдори султон Усмон бўлиб, хоразмшоҳ Муҳаммад томонидан 1212-йилда Самарқандда ўлдирилди.

Чингизхон бошчилигидаги мўғул босқинчилари Мовароуннахрни эгаллагач, Афросиёб авлодлари томонидан бир вақтлар обод этилган юрт тўлиқ харобага айланади. Шундай шароитда, боболаримиз Туроннинг биринчи ҳукмдори номи ўчиб кетишига йўл қўймаслик мақсадида

Самарқанд шахрининг мўғуллар томонидан бузиб ташланган ва ҳеч ким яшамайдиган қисмини Афросиёб деб атадилар. Бунда Самарқанднинг кўп асрлар давомида Афросиёб авлодлари пойтахти бўлганлиги назарда тутилди.

Мўғуллар босқинига қарамай, Афросиёб авлодларининг чироғи ўчмади. Афросиёб авлодлари XV-XVI асрларга қадар Ироқ (Басра) да яшаб келиб, у ерларда ҳоким бўлганлар [35].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қиладиган бўлсак, тарихий манбалар таҳлили Афросиёб, Сиёвуш ва Кайхисров орасидаги муносабатлар Қадимги Оссурия ва Бактрия давлатлари ўртасида бўлиб ўтган узоқ йиллик урушлар билан боғлиқ эканлигини кўрсатади. Афросиёб аслида қадимги Бактрия ҳукмдори Оксиарт бўлиши мумкинлиги ҳақиқатга яқиндир. Унинг чинакам исми минг йилликлар ичида содир бўлган турли ижтимоий шароитлар натижасида унутилган. Шу боис турли тарихий даврларда яратилган манбаларда ҳар хил номлар билан аталган.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Ражабов Қ. Энг қадимги миллий қаҳрамонларимиздан бўлмиш Афросиёб – Турон давлатининг асосчиси // *Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт: трансформацион жараёнлар*. Республика илмий анжумани материаллари. – Термиз, 2013. – Б. 12.
2. Муҳаммад ан-Наршахи. *Тарихи Бухара. История Бухары* / Перевод, комментарии и примечания Ш. С. Камолитдина. – Тошкент, 2011. – С. 201, прим. 103.
3. Маҳмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк. Туркий сўзлар девони*. Ж. I / Изоҳлар муаллифи: С. Муталибов. – Тошкент, 1960. – 493-бетдаги изоҳ.
4. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig* ("Saodatga eltuvchi bilim"). – Toshkent, 2007. – Б. 22.
5. Маҳмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. III. – Тошкент, 1963. – Б. 379.
6. Ғиёсул-луғат. Ж. I. – Душанбе, 1987. – Б. 76.
7. Маҳмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. II. – Тошкент, 1961. – Б. 427.
8. Навоий А. *Хамса*. – Тошкент, 1960. – Б. 647.
9. Наршахий. *Бухоро тарихи* // «Мерос» туркуми. – Тошкент, 1991. – Б. 98–104.
10. Маҳмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. I. – Тошкент, 1960. – Б. 329, 433.
11. Маҳмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. III. – Тошкент, 1963. – Б. 163, 165, 379, 424.
12. Дьяконов М. М. Работы Кафирниганского отряда // *Труды Согдийско-Таджикской археологической экспедиции*. Т. 1. – Москва–Ленинград, 1950. – С. 151.
13. Маҳмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. I. – Тошкент, 1960. – Б. 376, 388.

14. Мухаммад ан-Наршахи. *Тарихи Бухара*. – Тошкент, 2011. – С. 201–202, прим. 103.
15. Кызласов И. Л. *Новости тюркской рунологии*. Вып. 1. Енисейские надписи на горе Ялбакташ (Горный Алтай). – Москва, 2003. – С. 42.
16. Махмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. I. – Тошкент, 1960. – Б. 494.
17. Наршахий. *Бухоро тарихи*. – Тошкент, 1991. – Б. 98–99, 103–104.
18. Фирдоуси. *Шоҳнома*. Критик матн. Т. 5. – Москва, 1966–1971. – С. 235–418.
19. Махмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. I. – Тошкент, 1960. – Б. 449.
20. Мухаммад ан-Наршахи. *Тарихи Бухара*. – Тошкент, 2011. – С. 202, прим. 103.
21. Ражабов Қ. Энг қадимги миллий қаҳрамонларимиздан бўлмиш Афросиёб – Турон давлатининг асосчиси. – Б. 12–13.
22. Махмуд Кошғарий. *Девону лугатит турк*. Ж. I. – Тошкент, 1960. – Б. 494.
23. Наршахий. *Бухоро тарихи*. – Тошкент, 1991. – Б. 98.
24. Турский Г. *История франков*. – Москва, 1987. – С. 9.
25. Krumbholz. *Diodor's Assyrische Geschichte*. RhM, N. F., Bd. 41. – 1886. – P. 338.
26. Пьянков И. В. Ктесий о Зороастре // *Материальная культура Таджикистана*, вып. 1. – Душанбе, 1968. – С. 55–68.
27. Дьяконов И. М. *История Мидии от древнейших времён до конца IV века до н. э.* Кн. 1. – Москва–Ленинград, 1950. – С. 39.
28. Jacoby C. *Ktesias und Diodor: Eine Quellenuntersuchung von Diodor II, 1–34*. RhM, N. F., Bd. XXX. – 1875. – P. 582–583.
29. Диодор Сицилийский. *Историческая библиотека* / Пер. О. П. Цыбенко, В. М. Строгоцкий, М. Е. Сергеенко. – Москва: Директ-Медиа, 2008. – 755 с.
30. Марк Юниан Юстин. *Эпитома сочинения Помпея Трога “Historiae Philippicae”*. – Санкт-Петербург: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2005. – С. 40.
31. Геродот. *История в девяти книгах* / Перевод ва изоҳлар Г. А. Стратановский. – Ленинград: Наука, 1972. – С. 45.
32. Салдатзе Л. *Ибн Сина – Авиценна*. – Тошкент, 1985. – С. 51.
33. Арнобий. *Против язычников* / Введ. и указ. имён Н. М. Дроздова; под ред. А. Д. Пантелеева. – СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2008. – 402 с.
34. Дониёров Х. Афросиёб ҳақидаги ҳақиқат // *Гулистон* журнали. – 1992. – №3–4. – Б. 6.
35. Бартольд В. В. *Сочинения*. Т. 7. – Москва, 1971. – С. 197.

ОИЛАВИЙ (МАИШИЙ) ЗЎРАВОНЛИКНИНГ ШАКЛЛАРИ ВА ТАСНИФИ: ИЛМИЙ-ТАҲЛИЛИЙ ЁНДАШУВ ВА ТАРИХИЙ ТАЖРИБА

Атаназаров Хуршид Наджимович

Сурхондарё вилояти ИИБ бошлиғи ўринбосари, ИИБ ҳузуридаги

тергов бошқармаси бошлиғи, подполковник

<https://orcid.org/0009-0004-1547-002X>

UDK 94 (575.1)

Аннотация. Мақолада оилавий (маиший) зўравонликнинг долзарб муаммо сифатидаги ўрни, унинг шакллари ва таснифини илмий-назарий жиҳатдан таҳлил қилинган. Шунингдек, зўравонлик шакллари аналдаги қўлланиш усуллари, уларнинг аёллар ва болаларга таъсири, шунингдек, мураккаб зўравонликнинг хусусиятлари очиқ берилган. Илмий манбалар ва тадқиқотларга таяниб, зўравонлик шакллари таснифи “шакл” ва “тур” тушунчалари асосида мукамаллаштирилган.

Калит сўзлар. Оилавий (маиший) зўравонлик, жисмоний зўравонлик, руҳий зўравонлик, жинсий зўравонлик, иқтисодий зўравонлик, мураккаб зўравонлик, тасниф, шакл, ҳуқуқий ислохотлар

Аннотация. В статье рассматривается семейное (бытовое) насилие как актуальная социальная проблема и проводится научно-теоретический анализ его форм и классификации. Раскрываются практические проявления различных форм насилия, их воздействие на женщин и детей, а также особенности комплексного (системного) насилия. На основе научных источников и эмпирических исследований усовершенствована классификация форм насилия с учётом понятий “форма” и “вид”.

Ключевые слова: семейное (бытовое) насилие, физическое насилие, психологическое насилие, сексуальное насилие, экономическое насилие, комплексное насилие, классификация, форма, правовые реформы.

Abstract. This article examines domestic (family) violence as a pressing social issue and provides a scientific and theoretical analysis of its forms and classification. It explores the

practical application of different forms of violence, their impact on women and children, and the specific features of complex (systemic) violence. Based on scientific literature and empirical research, the classification of violence has been refined with consideration of the concepts of “form” and “type.”

Keywords: domestic (family) violence, physical violence, psychological violence, sexual violence, economic violence, complex violence, classification, form, legal reforms.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Оилавий (маиший) зўравонлик глобал ва миллий миқёсдаги долзарб масала бўлиб, жиддий эътибор талаб қиладиган ҳуқуқбузарликларнинг бир тури ҳисобланади. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти ва БМТнинг маълумотларига кўра, дунёдаги ҳар учинчи аёлга ҳаёти давомида ўз умр йўлдоши томонидан жисмоний тазйиқ ўтказилади. Турмуш қурган аёлларнинг 30 фоизи ҳамроҳи томонидан зўравонлик ҳолатларига дуч келганлари ҳақида маълум қилади. Аёллар ўлимининг 38 фоизи уларнинг турмуш ўртоғи томонидан амалга оширилади ва зўравонликка дуч келган аёлларнинг 42 фоизигина муаммо ҳақида очиқ сўзлайди. [1]

Ўзбекистонда эса 2023 йилда оилавий зўравонлик билан боғлиқ 40.055 та ҳолат аниқланган бўлиб, 2024 йилда бу кўрсаткич 54.757 тага ортган. Таҳлилларга кўра, зўравонлик шакллари орасида руҳий зўравонлик (30.920 та) энг кўп қайд этилган. [2]

Бу муаммо нафақат инсон ҳуқуқларининг бузилиши, балки жамиятнинг ижтимоий ва иқтисодий ривожланишига ҳам ўзининг салбий

таъсирини ўтказди. Шу билан бирга, оиладаги зўравонлик болаларнинг руҳий ва жисмоний ривожланишига жиддий таъсир кўрсатади, келажакда уларнинг ўзи зўравон ёки унинг қурбони бўлиш эҳтимолини оширади. Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев “Оилаларда носоғлом муносабатлар, қайнона-келин, эр-хотин ўртасидаги жанжаллар, хотин-қизларимиз орасида ўз жонига қасд қилиш ҳолатлари борлиги шахсан мени қаттиқ изтиробга солмоқда” [3] деб таъкидлаган эди.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Мамлакатимизда қисқа фурсат ичида оилавий (маиший) зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларнинг ҳуқуқий асосларини мустаҳкамлаш, хотин-қизлар ва болаларни турли тазйиқ ва зўравонликлардан ҳимоя қилиш, бу борада қонунчиликни мустаҳкамлаш, зўравон шахсларга нисбатан жавобгарликни таъминлаш ва уни кучайтириш борасида қатор ишлар амалга оширилди. Кўплаб қонун ва қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди, халқаро ташкилотлар билан бирга кўплаб конференция ва тадбирлар, тарғибот кампаниялари ташкил этилди.

Бироқ, ҳуқуқни қўллаш амалиёти таҳлиллари ҳамда илмий-амалий тадқиқотлар натижалари зўравонликка қарши қонунларнинг ижросини кучайтириш, суд ва ҳуқуқ-тартибот органларининг малакасини ошириш, оилавий зўравонликнинг зарарли оқибатлари ҳақидаги тарғибот кампанияларини кенгайтириш, психологик ва юридик ёрдам хизматларини ривожлантириш, аёлларнинг иқтисодий мустақиллигини мустаҳкамлаш ва энг асосийси, ушбу масалага оид илмий-тадқиқот ишларини кўпайтиришни тақозо этмоқда.

Айрим олимлар жисмоний зўравонлик, руҳий зўравонлик, жинсий зўравонлик, иқтисодий зўравонликларни оилавий (маиший) зўравонликларнинг шакллари сифатида эътироф этади. Оилавий

(маиший) зўравонликларнинг ушбу шакллари бошқа илмий манбаларда [4] турлари [5] сифатида ҳам илгари сурилади. [6] Қонун ва қонуности ҳужжатларда кўпинча бу атамалар синоним сифатида ишлатилади, лекин, “шакл” тушунчаси кўпроқ зўравонлик ифодаланадиган усулларни (қандай амалга оширилади), “тур” эса мазмундаги фарқларни (мазмунига қараб тасниф) англатади.

Социологик ва криминологик тадқиқотларда (масалан, М.А. Бучакова, Е.В. Кошелев, Л.М.Алтынбаева, А.А.Гайдуков каби муаллифлар) [7], БМТнинг Аёлларга нисбатан камситишларга барҳам бериш қўмитасининг (CEDAW) аёлларга нисбатан зўравонликлар бўйича 19-тавсиясида [8] ҳамда Европа Кенгашининг (Истанбул Конвенцияси, 2021-й.) “Аёлларга нисбатан зўравонлик ва оилавий зўравонликка қарши курашиш” тўғрисидаги Конвенциясида [9] ҳам айнан “shapes/forms of violence” деб, яъни зўравонлик шакллари сифатида таснифланган.

Шу сабабли, жисмоний, руҳий, жинсий, иқтисодий зўравонликлар – оилавий зўравонликнинг шакллари ҳисобланади. Уларни “турлари” деб ҳам аташ мумкин, аммо расмий ва илмий адабиётларда “шакллари” деган атама бизнингча афзалроқ ва тўғрироқ ҳисобланади.

Амалдаги қонунчиликда хотин-қизлар ва болаларга нисбатан зўравонлик шакллари сифатида “оилавий (маиший) жисмоний зўравонлик”, “оилавий (маиший) руҳий зўравонлик”, “оиладаги жинсий зўравонлик” “оилавий (маиший) иқтисодий зўравонлик”, “шаҳвоний шилқимлик”, “ҳақоратомуз шилқимлик”, “таъқиб этиши”, “ғамхўрлик кўрсатмаслик”, “болаларни эксплуатация қилиш”, “таъқиб этиши (буллинг)” каби тушунчаларга ҳуқуқий изоҳлар берилган.

Болаларга нисбатан зўравонлик ва унинг шакллари алоҳида қайд этилганлигини инобатга олиб, оилавий (маиший) зўравонлик шакллари куйидаги 2 та гуруҳга ажратиш мумкин:

1) хотин-қизларга нисбатан зўравонлик шакллари;

2) болаларга нисбатан зўравонлик шакллари.

Аёллар ва болаларга нисбатан содир этиладиган зўравонликлар ва уларнинг шакллари ўзаро фарқланади. Масалан, аёлларга нисбатан *жисмоний зўравонлик* кўпинча турмуш ўртоғи (собик) томонидан асосан калтаклаш ва уриш шаклида, болаларга нисбатан эса ота-оналар ёки васийлар томонидан тан жароҳати етказиш, жазолаш шаклида намоён бўлади. *Руҳий зўравонлик* эса аёлларга нисбатан кўпинча уларнинг кадр-қимматини камситиш, репродуктив ҳуқуқларини чеклаш, таҳдид қилиш шаклида, болаларга нисбатан эса ҳақорат қилиш, буллинг, ажратиб қўйиш, ғамхўрлик қилмаслик шаклида намоён бўлади.

Жинсий зўравонлик аёлларга нисбатан кўпинча розилигисиз жинсий алоқа қилиш, шахвоний шилқимлик қилиш шаклида, болаларга нисбатан эса жинсий эксплуатация, уятсиз ҳаракатлар, фоҳишалikka жалб қилиш шаклида намоён бўлади. *Иқтисодий зўравонлик* аёлларга нисбатан кўпинча пулларини назорат қилиш, ишлашига тўсқинлик қилиш ёки бунга мажбурлаш шаклида, болаларга нисбатан эса асосий эҳтиёжларини қондирмаслик, меҳнатга мажбурлаш шаклида намоён бўлади.

Таъқиб этиш аёлларга нисбатан кўпинча онлайн кузатиш, рашк қилиш, шахсий чегараларини бузиш шаклида, болаларга нисбатан эса интернетда таъқиб қилиш, кибербуллинг, ижтимоий чекловлар шаклида намоён бўлади. Аёллар ва болаларга нисбатан оилавий зўравонликнинг шакллари – жисмоний, жинсий, иқтисодий, руҳий, таъқиб қилиш, шахвоний ва ҳақоратомуз шилқимлик, эксплуатация ва ғамхўрлик кўрсатмаслик – турли кўринишларда содир бўлади ва уларнинг барчаси қурбонларнинг жисмоний, руҳий ва ижтимоий саломатлигига жиддий зарар етказади. Мавжуд бу усуллар айрим маданий унсурлар, иқтисодий муаммолар ва

қонунчиликдаги бўшлиқлар туфайли мураккаблашади.

Қонун ва қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда оилавий (маиший) зўравонликка берилган тушунчалар ва уларнинг мазмунига, ҳуқуқни қўллаш амалиётида учраётган зўравонлик шакллари, илмий ва ҳуқуқий манбалар таҳлиллари асосида зўравонлик шакллари қуйидагича таснифлаш мумкин:

1. Жисмоний таъсир кўрсатиш ва зарар етказиш: шахсга нисбатан қасддан жисмоний куч ишлатиш, унинг соғлиғига шикаст етказиш ёки ҳаётига хавф туғдириш.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари: шапалоқлаб ёки муштлаб уриш, чимчилаш;

узоқ вақт тик туришга мажбур қилиш, қўлига оғир нарсаларни кўтаргани қўйиш, оёғи билан тепиш ёки бошқача тарзда танага зарб бериш;

турткилаш ёки бошқача тарзда ушлаб туриш;

ашёлар билан уриш (масалан, таёк, идиш) ёки унга қарата отиш;

итариб юбориш, туртиш, бўғиш, қисиш; пичоқ, темир ёки қурол билан қўрқитиш; сигарет ёки иссиқ нарса билан қуйдириш иссиқ ёки совуқ сув билан жисмоний азоблаш;

боғлаб қўйиш, боғлаб судраш, сочидан тортиб судраш;

хавф остида қолдириш, ҳаёти ва соғлиғи учун хавфли ҳолатда бўлган хотин-қизлар ва болаларга ёрдам кўрсатмаслик ва бошқ.

Ўзбекистонда жисмоний зўравонлик кўпинча оилавий низолар натижасида содир бўлади. Тадқиқотларга кўра, аёллар ва болалар жисмоний зўравонликнинг асосий қурбонлари бўлиб, бу кўпинча “оилавий тарбия” ёки “обрўни сақлаш” билан оқланади. [10]

2. Руҳий (психологик) таъсир ўтказиш ва мажбурлаш: шахснинг руҳиятига салбий таъсир кўрсатиш, уни қўрқув, стресс ёки ўзига нисбатан ишончсизлик ҳиссини кучайтиришга, ихтиёрига зид хатти-ҳаракатларни қилишга мажбурлаш.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари:
бақириш, ҳақорат қилиш, шаъни ва қадр-қимматини камситиш;

тахдид қилиш, таҳқирлаш, айбдорлик ҳиссини оширишга уриниш;

дўстлар ва қариндошлар билан алоқа қилишга йўл қўймаслик ёки уларни чеклаш;

ҳаракатларини доимо кузатиш, пулини назорат қилиш;

жисмоний зарар етказиш ёки болаларни олиб кетиш билан қўрқитиш;

шахсий буюмларини бузиш ёки шикаст етказиш;

пул, озиқ-овқат ёки шифокор хизматидан маҳрум қилиш;

доимий танқид қилиш ва камситиш, хатларини ўқиш, телефонини текшириш, хонага қамаб қўйиш, ухлашга йўл қўймаслик;

болани бошқалар билан танқидий солиштириш;

хавфли ҳайвон ёки транспорт воситаси билан қўрқитиш;

зўравонликдан жабрланувчида ўз хавфсизлиги учун хавотир уйғотишга қаратилган ҳаракатлар ёки ҳаракатсизлик қилиш;

ўзини ҳимоя қила олмасликка олиб келадиган ҳар қандай ҳаракатлар ёки ҳаракатсизлик;

руҳий ҳолатига зарар етказадиган бошқа ҳаракатлар (ҳаракатсизлик)ни қилиш.

Руҳий зўравонлик Ўзбекистонда кенг тарқалган, лекин кўпинча оиладаги “нормал” муносабат сифатида қабул қилинади. Аёлларда депрессия ва стресс, болаларда эса хавотир ва ўзига ишончсизлик каби оқибатлар кузатилади. [11]

3. *Жинсий таъсир этиш ва тажовуз қилиш:* шахснинг жинсий эркинлигига тажовуз қилиш, унга нисбатан шахвоний хатти-ҳаракатлар содир этиш.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари:
жинсий алоқага мажбурлаш (номусга тегиш), шахвоний шилқимлик қилиш;

жинсий эҳтиёжни зўрлик ишлатиб ғайритабиий усулда қондириш;

ўн олти ёшга тўлмаган шахс билан

жинсий алоқа қилиш;

вояга етмаган шахсни порнографик хусусиятга эга ҳаракатлар ижрочиси сифатида жалб этиш, жинсий тажовуз қилиш;

вояга етмаган шахсни жалб этган ҳолда қўшмачилик қилиш, фоҳишахона ташкил этиш, уятсиз-бузуқ ҳаракатлар содир этиш;

алдаш ёки ишончни суиистеъмол қилиш орқали ёхуд боланинг ожизлигидан фойдаланиб шахвоний хусусиятга эга ҳаракатларни содир этиш;

хоҳишига зид равишда жинсий аъзоларига тегиниш (болаларга нисбатан);

учинчи шахс билан жинсий алоқа қилишга мажбурлаш;

жинсий мазмундаги фильмлар намойиш қилиб бериш ёки уларда иштирок эттириш (болаларга нисбатан);

жинсий мазмундаги суҳбатлар куриш (болаларга нисбатан).

Жинсий зўравонлик Ўзбекистонда айрим объектив омиллар туфайли кам ёритилади. Бироқ, киберзўравонлик (интим суратлар тарқатиш) сўнгги йилларда муаммо сифатида кўтарилмоқда. [12] Болаларга нисбатан жинсий зўравонлик кўпинча оила ичида яширин бўлиб, “маҳалла еттилиги” тизими орқали аниқланиши мумкин. [13]

4. *Иқтисодий таъсир этиш ва чеклов:* шахснинг молиявий мустақиллигини чеклаш, уни иқтисодий жиҳатдан қарам қилиш ёки унинг моддий қимматликларидан мажбуран фойдаланиш.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари:
пулини олиб қўйиш ёки пул бермаслик, ҳаражатларни тақиқлаш;

молиявий қарор қабул қилишини чеклаш, ўқишга тўсқинлик қилиш;

ишлашга рухсат бермаслик ёки тўсқинлик қилиш;

мол-мулкига ва шахсий ашёларига қасддан шикаст етказиш ёки бузиш;

оила мулкани (уй, ер) рухсатсиз сотиш, буюмларини сотишни тақиқлаш;

нормал яшаш ва камол топиш учун озиқ-овқат, уй-жой ҳамда бошқа зарур шарт-шароитлар билан таъминланишга оид ҳар қандай ҳуқуқларини чеклаш ёки тўсқинлик

қилиш.

Иқтисодий зўравонлик Ўзбекистонда аёлларнинг меҳнат бозоридаги фаоллигини чеклаш ва уларни иқтисодий қарам қилиш орқали кўп кузатилади. Патриархал тузум ва иқтисодий етишмовчилик бу муаммони кучайтиради. [14]

5. *Таъқиб қилиш*: жабрланувчининг хоҳиш-иродасига қарши, унинг икки ёки ундан ортиқ марта қаршилиқ кўрсатганлигига ёхуд огоҳлантирганлигига қарамай доимий кузатиш, жабрланувчида нормал ҳаёт кечириши ва ўз хавфсизлиги учун хавотирлик кўзғатадиган тарздаги бошқа ножўя хатти-ҳаракатларни содир этиш шаклида намоён бўлади.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари: тинимсиз телефон орқали кўнғирок қилиш;

тинимсиз ижтимоий тармоқларда хабар юбориш, изоҳ қолдириш;

иш жойига ёки уйига рухсатсиз бориш, ажримдан кейин таъқиб қилиш;

кўчада ёки жамоат жойларида кузатиш туриш;

дўстлари ёки оила аъзолари орқали босим ўтказиш;

хатлар юбориш, исталмаган совғалар юбориш;

лақаб қўйиш ва ушбу лақаб билан чақириш;

ҳар қандай мулоқотни чеклаб қўйиш (бойкот қилиш);

мол-мулкни олиб қўйиш ва (ёки) мол-мулкига зарар етказиш;

ўзига хос жисмоний, психологик ёки интеллектуал хусусиятларини оммавий муҳокама қилиш;

муттасил руҳий ва (ёки) жисмоний тажовузкор таъсир кўрсатиш.

Таъқиб этиш Ўзбекистонда кўпинча киберзўравонлик шаклида (ижтимоий тармоқлар орқали таҳдид) кўринади. Бу муаммо аёлларнинг хавфсизлигига жиддий таҳдид солади, лекин қонунчиликда аниқ таърифланмаган. [15]

6. *Шаҳвоний ва ҳақоратомуз шилқимлик*: шахснинг шаъни ва кадр-қимматини камситиш, унга нисбатан ахлоққа зид бўлган хатти-ҳаракатлар ёки

муомала қилиш.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари: шаҳвоний тусдаги имо-ишоралар қилиш, тусдаги ҳар қандай тегиниш, ушлаш, масҳара қилиш, суратга олиш.

шаҳснинг обрў-эътибори, иззат-шаънини ҳақоратлаш, камситиш ҳамда уларнинг тинчлигини бузишга қаратилган ҳақоратомуз тегажўглик қилиш, ҳақоратли сўзларни айтиш, камситиш;

инсон кадр-қимматини ҳақоратловчи суҳбатга зўрлаб тортиш;

шилқимлик қилиш ва шу мақсадда қўлини силтаб тортиш ёки куч билан қўлидан ушлаш, бош кийимини юлқиб олиш, сигарет тутунини унинг юзига пуфлаш.

7. *Ғамхўрлик кўрсатмаслик*: шахснинг асосий эҳтиёжларини (жисмоний, руҳий, ижтимоий) қасддан қондирмаслик, унга керакли ёрдамларни бермаслик ва қўллаб-қувватламаслик. Боланинг тўлақонли ривожланиши, унинг жисмоний ва руҳий саломатлиги учун озиқ-овқат, уй-жой ҳамда бошқа зарур шарт-шароитлар билан таъминланиши, хавфсизлик, таълим олиш, катта ёшдагиларнинг ғамхўрлиги, ижтимоий алоқалар ўрнатиш, ҳаётий кўникмалари ривожланиши ва ўз имкониятларини амалга ошириши учун шарт-шароитлар яратилишини қамраб оладиган ҳаётий муҳим эҳтиёжлар мажмуи боланинг асосий эҳтиёжлари деб эътироф этилади.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари: озиқ-овқат бермаслик, кийим-кечак билан таъминламаслик;

уй-жой шароитларини яратмаслик, мактабга юбормаслик;

шифокор хизматида маҳрум қилиш (эмлаш, даволаш);

ҳиссий эътиборсизлик, муаммоларини тингламаслик;

хавфли жойда ёки назоратсиз қолдириш, суҳбатдан четлатиш;

тиббий ёрдам олишига тўсқинлик қилиш ёки чеклаш (айниқса, ҳомиладорликда);

етарли шароитга эга бўлмаган ёки совуқ уйда яшашга мажбурлаш;

Ўзбекистонда ғамхўрлик кўрсатмаслик

кўпинча иқтисодий муаммолар (камбағаллик) ва ота-оналарнинг билимсизлиги билан боғлиқ. Болаларда таълим ва соғлиқ муаммолари, аёлларда эса ижтимоий чекловлар кўп кузатилади. [16]

8. *Эксплуатация қилиш*: шахснинг меҳнати, ресурслари ёки имкониятларидан уларнинг ихтиёрига зид равишда фойдаланиш, уларни моддий манфаат ёки бошқа ғаразли мақсадларда мажбурий меҳнатга жалб қилиш ёки ишлатиш.

Амалда қўллаш усуллари ва воситалари: уй ишларида ортиқча меҳнатга мажбур қилиш;

ҳар қандай шаклдаги меҳнатга мажбурлаш орқали ундан фойдаланиш;

тиланчилик йўли билан пул топишга мажбур қилиш;

фоҳишалик ёки шу каби фильмларда иштирок этишга мажбур қилиш;

эрта никоҳ қуриш ёки эр-хотин бўлиб яшашга мажбур қилиш;

муайян диний таълимга мажбур қилиш.

Ўзбекистонда эксплуатация кўпинча иқтисодий етишмовчилик ва таълимдаги муаммолар билан боғлиқ. Аёллар ва болалар одатда оиладаги иқтисодий муаммоларни ҳал қилиш учун

эксплуатация қилиниши мумкин. [17] Аслида бу каби зўравонлик шакллари хуқуқни қўллаш амалиёти таҳлиллари асосида яна давом эттириш мумкин.

Фуқаролардаги “уят” ҳисси, “оиланинг обрўси” ва “оилавий сир” деган тушунчалар зўравонлик ҳақида хабар беришга тўсқинлик қилади. [18] Оқибатда аёллар ва болалар кўпинча зўравонликка чидашга ва бунга кўникишга мажбур бўлади, чунки бу менталитетда “оилани сақлаб қолиш” деб қаралади. Шу билан бирга, аёлларнинг иқтисодий ва ижтимоий эркинлигини чеклаш, уларни эркакларга тобе қилиш зўравонликнинг кўплаб шакллари (иқтисодий, руҳий, таъкиб) кучайтиради. [19]

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ўйлаймизки, ушбу тасниф оилавий (маиший) зўравонликнинг турли шакллари аниқ ва тизимли равишда аниқлаш, тушуниш ва уларга қарши курашишга, зўравонлик шакллари хусусиятларини билиш орқали уларнинг олдини олишга қаратилган чора-тадбирларни режалаштириш ва амалга оширишга хизмат қилади.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Ахмедов О.Т., Хатамов Ф.Ф., Боймирозев С.Т. ва бошқ. *Дарслик: Тазйиқ ва зўравонликдан жабрланган хотин-қизлар билан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш фаолияти*. – Тошкент, 2023. https://ipkmvd.uz/media/pdf/kitoblar/8-darslik_Taziyq_va_zoravonlikdan.pdf (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).

2. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги ҳисоботи.

3. Мирзиёев Ш.М. Ватанимиз тақдири ва келажаги йўлида янада ҳамжиҳат бўлиб, қатъият билан ҳаракат қилайлик // *Халқ сўзи*. – Тошкент, 2017 йил 16 июнь. <https://www.xs.uz> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).

4. Шомуротова Н.Н. Оилавий зўравонликнинг ижтимоий-психологик хатарлари. – Б. 224–227. <https://api.moiti.uz/media/book/> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).

5. Зўравонлик турлари. <https://gendermadad.uz/uz/document/2469>; <https://nemolchi.uz/uz/z-ravonlik-turlari> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).

6. Муродов А.Ш. *Хотин-қизларга нисбатан тазйиқ ва зўравонликнинг кримнологик тавсифи ва олдини олишни такомиллаштириш*. Диссертация. – Б. 21.

7. Бучакова М.А., Кошелев Е.В., Алтынбаева Л.М., Гайдуков А.А. *Domestic violence: legal aspect of the problem*. <https://www.shsconferences.org/articles> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).
8. CEDAW General Recommendation No. 19: Violence against Women. <https://www.globalhealthrights.org/instrument/cedaw-general-recommendation-no-19-violence-against-women/> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).
9. *Action against violence against women and domestic violence (Istanbul Convention)*. <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention> (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).
10. Рустамова Н.Р. Оилавий зўравонликнинг аёллар ва болаларга таъсири: Ўзбекистондаги ижтимоий-психологик оқибатлар // *Journal of Social and Psychological Research*, 4(1), 56–63. – Ziyonet.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.04.2025 йил).
11. Абдуллаева М.М. Оилавий муносабатлардаги психологик зўравонликнинг аёллар саломатлигига таъсири // *Psychology and Social Sciences Journal*, 2(1), 45–52. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
12. Йўлдошев С.А. Психологик зўравонлик ва кибербуллинг // *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 1(2), 62–66. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
13. Саидова Г.Х. Оилавий зўравонликнинг профилактикаси: маҳалла тизими ва ижтимоий хизматлар // *Community and Social Development Journal*, 3(4), 67–74. – Ziyonet.uz (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
14. Хабибуллаев Ш.З. Оилавий зўравонликнинг ижтимоий-иқтисодий омиллари // *Uzbek Journal of Social Sciences*, 3(2), 78–85. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 04.05.2025 йил).
15. Ахмедова З.М. Оилавий зўравонликнинг қонуний жиҳатлари: Ўзбекистондаги муаммолар ва ечимлар // *Legal Studies and Practice*, 6(1), 22–29. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
16. Мирзаева Д.Ш. Ўзбекистонда оилавий зўравонлик ва ғамхўрлик кўрсатмаслигининг ижтимоий оқибатлари // *Journal of Family and Community Studies*, 2(3), 34–41. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
17. Хабибуллаев Ш.З. Оилавий зўравонликнинг ижтимоий-иқтисодий омиллари // *Uzbek Journal of Social Sciences*, 3(2), 78–85. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
18. Рустамова Н.Р. Оилавий зўравонликнинг аёллар ва болаларга таъсири: Ўзбекистондаги ижтимоий-психологик оқибатлар // *Journal of Social and Psychological Research*, 4(1), 56–63. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).
19. Турсунов А.Х. Ўзбекистонда гендер тенглик ва оилавий зўравонлик: ижтимоий-иқтисодий омиллар таҳлили // *Gender and Social Studies*, 5(2), 12–19. (Электрон манбага мурожаат қилинган сана: 01.05.2025 йил).

SURXON VOHASIDA QADIMGI VA ILK O'RTA ASRLARDA HUNARMANDCHILIK SOHALARINING IJTIMOYIY-IQTISODIY ASOSLARI

Ergasheva Sayyora Abdusoatovna

Termiz davlat universiteti, Jahon tarixi kafedrası katta o'qituvchisi,

Orcid ID: 0009-0004-1881-7200

UO'K (UDK): 94(575.151

Annotatsiya: Maqolada Surxon vohasida qadimgi davrdan ilk o'rta asrlargacha bo'lgan davrdagi hunarmandchilik tarixi uzoq yillar davomida olib borilgan arxeologik tadqiqotlarning ilmiy xulosalari asosida keng yoritilgan. Asosiy e'tibor Surxon vohasida ilk hunarmandchilik turlari bo'lgan tikish-bichish, kulolchilik, mato to'qish, temirchilik, shishasozlik o'rta asrlarda kelib esa kemasozlik paydo bo'lishi kabi masalalarga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, Surxon vohasining qadimgi madaniyat o'choqlaridan Sopollitepa, Jarqo'ton, Budrachtepa, Kuchuktepa, Pishaktepa, Tallashqon, Jondavlattepa, Qiziltepa, Bandixontepa, G'ozimulla, Hayitobodtepa, Tumanqo'rg'onlardan topilgan hunarmandchilik mahsulotlari haqida fikrlar yuritiladi.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, igna, kulolchilik, keli, tegirmon, to'qimachilik dastgohi, usta-kulol, kulolchilik charxi, sopol qozon, xumdon, metallsozlik, qurolsozlik, shishasozlik, pichoqlar, o'roq, tesha, ketmon, shamdon, surmadon, qoshtergich, ko'zgu.

Аннотация: В статье всесторонне освещается история ремесленного производства в Сурхандарьинском оазисе с древнейших времён до раннего Средневековья на основе научных выводов, полученных в результате многолетних археологических исследований. Основное внимание уделяется таким ранним видам ремёсел, как шитьё, гончарное дело, ткачество, кузнечное и стеклодувное ремесло, а также появлению кораблестроения в средневековый период. Кроме того, рассматриваются изделия ремесленников, обнаруженные на древних культурных памятниках региона — Сополлитепа, Жаркутан, Будархтепа, Кучуктепа, Пишактепа, Таллашкан,

Жондавлаттепа, Кызылтепа, Бандихонттепа, Гозимулла, Хаитободтепа и Туманкуртон.

Ключевые слова: ремесленное производство, игла, гончарное дело, ступа (кели), мельница, ткацкий станок, гончар-мастер, гончарный круг, глиняный котёл, гончарная печь (хумдон), металлообработка, оружейное дело, стеклодувное ремесло, ножи, серп, тесло, мотыга, подсвечник, сурьмадон (сосуд для сурьмы), щипчики для бровей, зеркало.

Annotation: This article provides a comprehensive overview of the history of handicrafts in the Surkhan Oasis from ancient times to the early Middle Ages, based on the scientific conclusions of long-term archaeological research. The main focus is placed on the early forms of craftsmanship in the region, such as sewing, pottery, weaving, blacksmithing, and glassmaking, as well as the emergence of shipbuilding during the medieval period. The article also discusses the artisanal products discovered at ancient cultural sites of the Surkhan Oasis, including Sopollitepa, Jarkutan, Budrakhtepa, Kuchuktepa, Pishaktepa, Tallashkan, Jondavlattepa, Kiziltepa, Bandikhontepa, Gozimulla, Khayitobodtepa, and Tumankurgan.

Keywords: handicrafts, needle, pottery, keli (grinding tool), mill, weaving loom, master potter, potter's wheel, clay cauldron, kiln, metalworking, weapon-making, glassmaking, knives, sickle, adze, hoe, candlestick, kohl container, tweezers, mirror.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi shakllangan qadimiy hududlardan biri bo'lgan Surxon vohasi o'zining qulay geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi hamda qadimdan rivojlangan dehqonchilik-merosxo'rlik

an'analari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, qadimgi davrdan boshlab ilk o'rta asrlargacha bo'lgan tarixiy bosqichlarda vohada hunarmandchilik sohalarining shakllanishi va taraqqiyoti mahalliy aholi hayotining ajralmas bir qismi sifatida namoyon bo'lgan. Bu jarayonlar, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning muhim tayanchi, savdo-madaniy aloqalarning vositachisi va moddiy madaniyat rivojining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ahamiyat kasb etadi.

Surxon vohasida hunarmandchilik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy asosi ko'p omillarga tayanadi. Bular qatorida tabiiy-geografik muhit, aholining turmush tarzi, qadimiy dehqonchilik madaniyati, qo'shni hududlar bilan aloqalar, shuningdek, mahalliy xom ashyo zaxiralari va mehnat resurslari asosiy o'rin tutadi. Ana shu omillar ta'sirida vohada turli xil hunarmandchilik tarmoqlari – kulolchilik, to'qimachilik, temirchilik, yog'ochsozlik, shishasozlik, qurolsozlik va boshqa sohalar bosqichma-bosqich shakllanib, yuksak darajada rivoj topgan. Ushbu maqolada qadimgi davrdan to ilk o'rta asrlargacha bo'lgan davr mobaynida Surxon vohasida hunarmandchilik faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari arxeologik topilmalar, yozma manbalar hamda etnografik dalillar asosida o'rganiladi. Maqolaning maqsadi – ushbu hududda hunarmandchilik tarmoqlarining qanday shakllangani, ularning ijtimoiy hayotdagi o'rni va iqtisodiy tizimdagi funksional vazifalarini tahlil qilishdan iborat.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Hunarmandchilik tarixiga nazar tashlar ekanmiz, arxeolog olimlarning olib borgan tadqiqot natijalariga ko'ra mezolit davri yodgorliklari (Qayla yodgorligidan topilgan, Zarautsoy rasmlarida kuzatilgan)dan topilgan baliq suyagidan yasalgan ignaning topilishi mezolit odamlarining tikish-bichish ishlari bilan shug'ullanganligini ko'rsatadi. Ushbu igna shakl jihatidan hozirgi zamon ignalarini eslatadi va eng qadimgi igna hisoblanadi[14].

Eramizdan avvalgi III-II ming yilliklarda O'rta Osiyoda ikkinchi mehnat taqsimoti – dehqonchilikdan hunarmandchilikning ajralib chiqishi yuz

berdi. Ushbu davrda hunarmandchilikning metallga ishlov berish, kulolchilik, to'qimachilik kabi turlari keng tarqaladi. Neolit davrining so'ngidan boshlab, sopoldan yasalgan qozonlar, yumshoq tarkibli toshlardan keli, tegirmon toshlar yasalganligini ko'rsatuvchi ashyoviy manbalar topilgan.

Kulolchilik O'rta Osiyoda neolit davrida paydo bo'lgan bo'lsada, uning tez sur'atlar bilan rivojlanishi bronza davrida kulolchilik charxining kashf etilishi bilan bog'liq. Kulolchilikda tez aylanadigan charxning qo'llanila boshlanishi yuqori sifatli, xaridorgir, turli xil shakldagi sopol idishlarning ko'plab ishlab chiqarilishiga imkon yaratadi. O'z uslubi va an'analarga ega bo'lgan ustakulollar paydo bo'ladi. Akademik A. Asqarovning yozishicha, har bir mahallaning o'z belgisi yoki tamg'asiga ega bo'lgan ustaxonalari bo'lgan[1]. O'zbekistonning janubida joylashgan Sopollitepaning topilishi va uni ochib o'rganish katta ahamiyat kasb etdi. Arxeologi A.A.Asqarov bu tepalikni to'liq o'rgandi. Bu yodgorlikdan chiqqan topilmalar bir madaniyatga oid bo'lib, uning dastlabki yodgorligi Sopollitepa deb bilan nomlandi[8]. Sopolli madaniyati davrida sopol buyumlar ishlab chiqarish nihoyatda taraqqiy etgan. Ayniqsa, kulolchilik charxida tayyorlangan idishlar shaklining yetukligi, nihoyatda nozikligi, yaxshi pishirilganligi, yengilligi va jarangdorligiga hech qaysi davr sopoli tenglasha olmaydi. Sopolli madaniyatining barcha bosqichlarida sopollar garchi bir-biriga o'xshasa-da, sinchiklab qaralsa, ularning bir-biridan farqi seziladi. O'zining nozikligi va shaklining yetukligi jihatidan sopolli bosqichining sopollari boshqa barcha bosqich sopollaridan ustun turadi. Eneolit davriga kelib, kulolchilik ancha rivojlangan. Sopol buyumlar endi o'choqda emas, balki xumdonlarda pishiriladigan bo'lgan. Olovda emas, olov hilida pishgan sopol buyumlar sifat jihatidan beqiyos o'zgardi.

Bronza (jez)davri (er.av. III-II ming yilliklar)da kulolchilik charxining kashf etilishi sopol idishlarning shaklan o'zgarishi, ya'ni bejirim va chiroyli yasallishiga, san'at

asari darajasiga ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Bronza davrida yaratilgan sopol charxi va xumdonlar kulolchilik sohasida hozirgi kungacha hech bir o'zgarishsiz foydalanib kelinmoqda. Arxeologik tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, Jarqo'ton bosqichining sopollari sopolli bosqich sopollariga qaraganda og'ir va ancha qo'pol ishlangan bo'lsada, bu yerda kulollar mahallalari paydo bo'lganligi kuzatilgan [13]. Keyinchalik (eramizdan avvalgi II ming yillik oxirlarida) faqatgina kulolchilik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan aholi manzilgohlari ham paydo bo'ladi[16]. Jarqo'tonda olib borilgan qazishmalar natijasida bu yodgorlikda ilk shaharlarga xos bo'lgan ibodatxona, hukmdorlar saroyi, mudofaa inshootlari, hunarmandchilik inshootlari, aholi yashaydigan mahobatli uylar qoldiqlari va yuqori moddiy madaniyat namunalari topilganki, shu osori-atiqalar natijasida Jarqo'ton yodgorligi ilk shaharlar qatoriga kiritilgan[2].

Eneolit davrida ipak va jundan to'qish boshlanganligini shu davr yodgorliklaridan mato parchalari, shuningdek, ushbu davrga oid deyarli barcha aholi manzilgohlaridan, jumladan Sopollitepadan, to'qimachilikda qo'llanilgan urchuq va urchuqboshlar topilgan. Bu bilan aytish mumkinki, O'zbekiston ipakchilikning ilk vatanlaridan biri bo'lganligi haqida fikrlar ham bir muncha asoslidir[1]. Xuddi shu davrda to'qimachilik dastgohlarining kashf etilishi, o'z navbatida, to'qimachilikning rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Hunarmandchilikning dastlabki turlari bo'yicha qadimgi yozma manbalardan bir "Avesto"da ham uchraydi. "Avesto" jamoasining dehqon va chorvador aholisi temirni bilganligi va undan keng foydalanganligi xususida, "Avesto"da maxsus hunarmand, kulol, to'quvchi kabi ma'nolarni anglatgan so'zlarni topishganlar[9]. "Avesto"da hunarmandchilikning yana bir turi temirchilikning umuman, temirning kashf etilganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, "Kichik Avesto"dagi "ayah" so'zini V.Geyger temir deb o'qigan bo'lsa, A.Bartolome bu terminni umumlashtirib metall deb tarjima qilgan[17]. Sherobodning

G'oz qishlog'ida joylashgan ilk temir davriga oid yodgorlikdan o'g'ir topildi. U yumshoq, tarkibli monolit toshdan yasalgan bo'lib, balandligi 22 sm, eni 20 sm, keli ichining chuqurligi 12 sm. O'g'ir (keli) fors tilida "hovana" deb atalib, Zardushtiylikda otashkodaning eng muhim ashyolaridan biri hisoblangan. Tadqiqotchilar fikricha ushbu qurollar ibodat qurollari bo'lib, havm giyohini yanchishda foydalanilgan va undan havm urfodatida ishlatiladigan sharbatlar (xaoma) tayyorlangan[18].

"Avesto"ning Videvdat qismidan Ye.E.Kuzmina sopol pishiriladigan xumdonlar to'g'risidagi ma'lumotni topgan[3,11]. "Avesto"da kulolchilik charxi to'g'risidagi ma'lumotlar uchramaydi va ko'plab tadqiqotchilar "Avesto" jamoasini kulolchilik charxini bilmagan yoki undan foydalanmagan deb hisoblaydilar[11].

Surxondaryo viloyatida qadimgi Baqtriya madaniyatining 36 ta yodgorligi aniqlangan. Bu yerda Kuchuktepa, Pishaktepa, Tallashqon, Jondavlattepa, Qiziltepa, Bandixontepa, G'ozimulla, Hayitobodtepa va boshqalar. Ushbu davrda Yunon-Baqtriya davlatida hunarmandchilik san'ati yuqori darajada rivojlangan. Xususan, oltin va kumushdan yasalgan zargarlik buyumlari, kundalik hayotda ishlatiladigan turli idishlar, otlar uchun jihozlar, xudolar haykallari va devoriy rasmlar bizgacha yetib kelgan. Bu mahsulotlarning ko'pchiligi qadimiy karvon yo'llari atrofida joylashgan shahar va qishloqlardan topilgan. O'sha davrga oid yozma manbalarda, jumladan "Milinda-Pankha" asarida ham bu holatlar tilga olingan.

Baqtriyaliklar nafaqat o'zlari rivojlangan san'at, hunarmandchilik va shahar madaniyati sohibi bo'lganlar, balki bu madaniyat ta'sirida Qarshi vohasidagi Yerqo'rg'on, qadimiy Samarqand (Afrosiyob) va boshqa shaharlar Baqtriya madaniyatining bevosita ta'siri asosida shakllangan[4]. Kushon podsholigi hukmronligi davrida o'zining takrorlanmas san'at namunalariga va qurilish uslubiga ega Baqtriya badiiy maktabi shakllangan. Miloddan avvalgi I va Kushon podsholigi davri sopol idishlari juda sifatli ishlanib xilmaxil ko'rinishga ega. Bu davr kulolchiligida to'q

qizil bo'yoqli jimjimador qadahlar, qizil loyli va kul rang tarkibli taqsimcha, ko'za va ko'zalar keng tarqalgan. So'nggi kushon davrida (milodiy III-IV asrlar) sopol buyumlar yanada sifatli ishlanib, ularning sirtidan turli-tuman yulduzlar, buddaning "panja izlari" kabi o'yma va bosma naqshlar beriladi. Ko'zalarning bir qismi ikki baldog'li bo'lib, kosa, tog'oralarning tashqi tarafi, baldog'lari maymun yoki sher kabi hayvonlarning bosh qismlari tasvirlangan shakllar bilan bezatilgan. Ayniqsa, Tumanqo'rg'on (Boysun) yuqori qatlamida topilgan naqshli xum idishlar Shimoliy Baqtriyaning bu davr kulolchiligida noyob nusxalar hisoblanadi. Bir xum idish tashqi tomoniga muhr yordamida kiyikning kamon o'qi teshib o'tgan tasviri tushirilgan bo'lsa, ikkinchi xum bo'g'zida kiyikning sakrashga shay bo'lib turgan ikki qator bosma tasviri o'z aksini topgan[5].

Ilk o'rta asrlarda Surxon vohasida hunarmandchilikning shishasozlik turi jadal suratda taraqqiy topgan. Toxaristonlik ustalar havorang, ko'k shishalardan turli – tuman juda nafis idishlar tayyorlaganlar. Manbalarda "Toxaristonlik ustalar chinnilarni shisha tayyorlashning ba'zi sirlaridan voqif etganlar" deb ta'kidlangan[6]. Aynan ana shu davrda hunarmandchilik xo'jaligi yuksak darajada rivoj topib, ushbu sohaning kulolchilik, metallsozlik, qurolsozlik, to'qimachilik, shishasozlik kabi turlari ancha yuksalgan. Hatto Baqtriya shishasozlari 420 yilda Xitoy poytaxtida turfa rangdagi shishalar tayyorlab xitoyliklarni lol qoldirganlar.

Ilk o'rta asrlarda Shimoli-G'arbiy Toxariston shahar va qishloqlarida temirchilik ham jadal taraqqiy etgan[12]. V asrdan boshlab Ko'hitang va Boysuntog'lardagi konlar jadal o'zlashtirila boshlangan va bu joylarda konchilarning yirik-yirik qal'a va qishloqlari vujudga kelgan. Bu davr metall buyumlari turkumiga turli-tuman surmadonlar, pichoqlar, ish qurollari, jumladan, o'roq, tesha, ketmonlar kiradi.

IX-XIII asrlarda Termiz va Chag'oniyon yurtlarida hunarmandchilik jadal rivojlangan. Hunarmandlar ustaxonasi Termiz va Chag'oniyon shaharlari bilan bir qatorda qishloqlarda ham bo'lgan. Dalvarzintepa

yonidagi G'armalitepa qishloq joylardagi ana shunday kulolchilar ustaxonalaridan biri bo'lgan.

Termizda kulollar mahallasi bir necha gektarni tashkil etgan. Bu shaharda kulolchi ustalar mahallasi bilan bir qatorda temirchilar mahallasi, shishasozlar mahallasi ham bo'lgan. Paxtachilik asosida to'qimachilik taraqqiy etgan. Chag'oniyonning Darzangi qishlog'i to'qimachilik sanoatining markazi hisoblangan. Bu yerdan tashqi bozorga ip, ip kalava, paxta yog'i, har xil to'qima matolar ishlab chiqarilgan. O'lkadagi temirchilik rivojiga Boysuntog' va Ko'hitang tog'laridagi konlarning jadal sur'atda o'zlashtirilishi ham katta ta'sir ko'rsatgan, ya'ni X asrdan boshlab Boysuntog'ning janubiy yonbag'ridagi To'da, Xo'ja Kashkaron, Alami, Xomkondagi Cho'yanli, Ko'hitangdagi Kampirtepa (Konipur) atrofida konlarning yirik-yirik ustaxonalari va mahallalari paydo bo'lgan[4].

Temirchi ustalar mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari bilan bir qatorda antiqa shamdonlar, surmadonlar, qoshtergichlarva ko'zgular yasaganlar. Ular bu buyumlarni ichki va tashqi bozorga olib chiqib sotganlar. Bunday temirchi – ustalar Termiz shahar rabotining Amudaryodagi yaqin joydagi mahallalari bo'lib, ular ham o'zlari yasagan mehnat qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, harbiy qurol-aslahalar, ot-ulov anjomlari va boshqalarni ichki va tashqi bozorga chiqarib sotganlar. Termizlik va chag'oniyonlik ustalar temir buyumlarni quyma va bolg'alash uslubida yasaganlar. Misgar ustalar esa buyumlarga bezak berishda o'yma va chizma naqsh usullaridan keng foydalanganlar.

Budrach shaharchasida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar davomida topilgan metall idishlar xazinasi o'lkada misgarlikning jadal taraqqiyotidan dalolat beradi. XI asrga oid umumiy og'irligi 300 kilogrammga yaqin bu xazina turli-tuman idishlardan, jumladan, katta-katta qozonlar, hovoncha, shamdon, ko'zalardan iborat. IX-XII asrlar davomida o'lkada hunarmandlari ko'k, havo rang shishadan qadahlar, bankasimon, butilkasimon idishlar, kimyogarlar foydalanadigan kolbalar, grafinlar va pardoz-andoz buyumlarini juda mohirlik bilan yasaganlar. Ayniqsa, termizshohlar

saroyidan topilgan shisha taqinchoqlar o'zining betakror jilosi bilan ajralib turadi. Taqinchoqlarga badavlat chavandozning ov qushi bilan yoki ovchi ayolning otning ro'parasida ov qushini qo'lida ushlab turgan holatlari tasvirlangan. Yana bir taqinchoqda yeldek uchib borayotgan jayron atrofida "sultonlarning sultoni Abul Muzaffar Bahrom shohga" deb arab tilida bitilgan yozuv saqlanib qolgan[10].

IX asrdan boshlab Termiz va Chag'oniyonda ham sirlangan idishlar yasash mukammal o'zlashtirilgan. Bu davrning sopol idishlari, xususan, lagan, kosa, taqsimcha, ko'zalar yashil, jigarrang va sarg'ish sirlarga bo'yalgan. Bir tur idishlar esa oq rangga bo'yalib, ustidan kufiy uslubida bitilgan qora va jigarrang yozuvlar bilan bezatilgan. Idishlarning bir qismi maxsus qoliplarda yasalgan[7]. IX-XII asrlarda idishlarning turlari yana boyib, turfa rangli bo'yoqlarga bezalib, naqshlari ustidan yaltiroq sir bilan qoplanadi. O'yib chizilgan naqsh bilan bezatilgan Termiz kulollarining idishlariga o'xshagan idishlar hatto o'sha davr yirik kulolchilik markazlari hisoblangan Samarqand, Marv, Buxoro, Binkentda ham juda kam uchraydi. Zero, bu faqat Termiz kulolchilik maktabiga xos bo'lsa kerak[15]. Termizlik kulollar o'rta asrlarda simob ko'zalar yasashda ham mashhur bo'lganlar. Ular yasagan simob ko'zalar nafaqat Movarounnahr bozorlarida, balki Xorazm, Xuroson, Iroqi ajam, Hindiston bozorlarida ham sotilgan.

Shu davrda Termizda hunarmandchilikning boshqa sohalari ham

taraqqiy etgan. Bu borada kemasozlik, sovun tayyorlash sohalarini qayd etish mumkin. Shaharda tayyorlangan katta-kichik kemalar Amudaryo bo'yida joylashgan shaharlar o'rtasida qatnab turgan. Manbalarda qayd etilishicha, Termiz Amudaryo o'zanidagi eng yirik port shahri hisoblangan. Termiz kemasozlari yirik shohona kemalar ham yasaganlar. Bu kemalarda Termizga kelgan shohlar, sultonlar daryoda suzib hordiq chiqarishgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Surxon vohasida hunarmandchilikning dastlab toshga, yog'ochga, suyakka ishlov berish kabi turlari mezolit davrida keng tarqalgan bo'lsa, tikish-bichish, kulolchilik, to'qimachilik kabi turlari neolit va eneolit davrida, ilk o'rta asrlarga kelib esa temirchilik, shishasozlik, misgarlik, savdo-sotiq rivojida katta muhim o'rin tutgan kemasozlikning mavjud bo'lganligini yuqoridagi tahlillar asosida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bu hunarmandchilik turlari asosida keyingi davr hunarmandchilikning boshqa turlariga "asos solinib" rivojlanganligini bugungi kunda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Surxon vohasida hunarmandchilik turlarining rivojlanishi tabiiy resurslar, aholi ehtiyojlari, geografik joylashuv va savdo aloqalari ta'sirida yuzaga kelgan. Har bir hunarmandchilik turi o'zining texnologiyasi, uskunalari va ijtimoiy ahamiyati bilan alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda ushbu tarixiy hunarmandchilik an'analarini o'rganish milliy madaniy merosni tiklashda muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Аскарлов А. *Древнеземледельческая культура юга Узбекистана*. – Ташкент: Фан, 1977.
2. Аскарлов А.А., Ширинов Т.Ш. *Ранняя городская культура и эпохи Средней Азии*. – Самарканд, 1993.
3. *Авесто*. Видевдат 8, 84–85.
4. Аннаев Т., Шайдуллаев Ш. *Сурхондарё тарихидан лавҳалар*. – Ташкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1997.
5. Аннаев Т. ва бошқалар. *Бойсун археологик ёдгорликлари*. – Ташкент: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1999.

6. Аннаев Т. *Раннесредневековые поселения северного Тохаристана*. – Ташкент: Фан, 1988.
7. Аршавская З.А., Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. *Средневековые памятники Сурхандарьи*. – Ташкент: Изд-во лит-ры и искусства им. Гафура Гуляма, 1982.
8. Исомиддинов М. *Сополга битилган тарих*. – Ташкент: Фан, 1993.
9. *История таджикского народа. С древнейших времен до V века до н.э.* / Под ред. Б.Г. Гафурова, Б.А. Литвинского. Т. I. – Москва, 1963.
10. Исаев А., Эргашева С. *IX–XII асрларда Термиз маданияти*. – Ташкент: Янги аср авлоди, 2001.
11. Кузьмина Е.Е. *Откуда пришли индоарии?* – Москва, 1994.
12. Литвинский Б.А., Соловьёв В.С. *Средневековая культура Тохаристана*. – Москва: Наука, 1985.
13. Масимов И. *Керамическое производство Южного Туркменистана эпохи бронзы*.
14. *Неолит Северной Евразии. Археология с древнейших времён до Средневековья в 20 томах* / Коллектив авторов; под ред. акад. Б.А. Рыбакова. – Москва: Наука, 1996. – (Российская академия наук). Электрон манба: <https://bibliotekar.ru/3-1-75-neolit/55.htm>
15. Пидаев Ш. *Қадимий Термиз*. – Ташкент: Фан, 2001.
16. Рахмонов У. Раскопки керамических печей Сапалли на поселении Бустан 4 // *ИМКУ*, Вып. 15. – Ташкент, 1979.
17. Geiger W. *Ostiranische Kultur im Altertum*. – Erlangen, 1882.
18. Сагдуллаев А.С. “Авесто”да акс этган диний маросимлар тарихини ўрганишда археологик маълумотлар // “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. – Тошкент–Урганч, 2001.

SURXON-SHEROBOD CHO‘LLARINING O‘ZLASHTIRILGAN HUDUDLARIDA IJTIMOIY-MADANIY INFRATUZILMANING RIVOJLANISHI

Qulboshev Sirojiddin Jumayevich

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Orcid ID: 0009-0006-1075-7923

UO‘K: 94(575.151):325.14

Annotatsiya: Ushbu maqola XX asrning ikkinchi yarmida Surxon-Sherobod cho‘llarining o‘zlashtirilishi jarayonida O‘zbekistonning Surxondaryo viloyatida ijtimoiy-madaniy infratuzilmaning rivojlanishini tahlil qiladi. Unda ayniqsa, yangi vujudga kelgan xo‘jaliklar va aholi punktlarida ta’lim-tarbiya, madaniy-ma’rifiy muassasalarning barpo etilishi, sog‘liqni saqlash tizimining takomillashuvi, shuningdek, matbuot va aloqa sohasidagi o‘zgarishlar atroflicha yoritilgan. Shuningdek, 1970-1990-yillarda viloyatda maktablar sonining ko‘payishi, pedagog kadrlar bilan ta’minlanish darajasi va aholining demografik o‘sishi oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Surxon-Sherobod cho‘llari, ta’lim-tarbiya, madaniy-ma’rifiy muassasalar, ijtimoiy infratuzilma, xalq ta’limi, sog‘liqni saqlash, Gagarin tumani, Lenin yo‘li tumani, pochta aloqasi.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие социально-культурной инфраструктуры в Сурхандарьинской области Узбекистана в период освоения Сурхандарьинско-Шерабадских степей во второй половине XX века. Особое внимание уделяется созданию образовательных, культурно-просветительских учреждений в новообразованных хозяйствах и поселках, совершенствованию системы здравоохранения, а также изменениям в печати и средствах связи. Также на основе статистических данных анализируются социальные проблемы, возникшие в регионе в 1970-1990-х годах в связи с ростом числа школ, уровня обеспеченности педагогическими кадрами, демографического роста населения.

Ключевые слова: Сурхандарьинско-Шерабадские степи, образование, культурно-просветительские учреждения, социальная инфраструктура, народное образование, здравоохранение, Гагаринский район, Ленин йулийский район, почтовая связь.

Abstract: This article analyzes the development of socio-cultural infrastructure in the Surkhandarya region of Uzbekistan during the development of the Surkhandarya-Sherabad steppes in the second half of the 20th century. It especially covers the establishment of educational, cultural and educational institutions in newly formed farms and settlements, the improvement of the health care system, as well as changes in the press and communications. Also, the social problems that arose in the region in the 1970s-1990s due to the increase in the number of schools, the level of provision with pedagogical personnel, and the demographic growth of the population are analyzed based on statistical data.

Keywords: Surkhandarya-Sherabad steppes, education, cultural and educational institutions, social infrastructure, public education, health care, Gagarin district, Lenin Yuli district, postal service.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Surxon-Sherobod cho‘llarining o‘zlashtirilishi natijasida vujudga kelgan yangi xo‘jaliklar va aholi punktlarida ta’lim-tarbiya va madaniy-ma’rifiy muassasalarini barpo etish masalasi o‘sha davrning eng dolzarb vazifalaridan biri edi. Maqolada Surxon-Sherobod cho‘llarining o‘zlashtirilishi natijasida hududda vujudga kelgan ijtimoiy-madaniy hayotning xususiyatlarini, jumladan, ta’lim-tarbiya maskanlari, madaniyat o‘choqlari va aloqa tizimlarining barpo etilishi hamda ularning

rivojlanish dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan. Unda keltirilgan ma'lumotlar o'sha davrning ijtimoiy manzarasini yanada yorqinroq ko'rsatishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'rganilayotgan tarixiy davrda Gagarin va Lenin yo'li tumanlarining Yangiobod, Gagarin, Komsomolobod, Sovetobod, A.Nabiyev, Lenin, Oxunboboyev nomidagi sovxozlarida muhim ijtimoiy obyektlar barpo etildi. Xususan, Sherobod dashtida amalga oshirilgan keng ko'lamli o'zlashtirish ishlari natijasida aholi uchun 410 ta uy-joylar qurilib, jami 140761 kvadrat metr yashash maydoni yaratildi. Yosh avlodning ta'lim olishi uchun 1930 o'quvchi sig'imiga ega maktablar, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun esa 1540 o'rinli bolalar bog'chalari bunyod etildi. Aholining madaniy hordiq chiqarishi va ma'naviy boyishi uchun 1800 tomoshabinga mo'ljallangan zamonaviy kinoteatrlar, sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish maqsadida 250 o'rinli shifoxonalar hamda turli tadbirlar va dam olish uchun 1400 o'rinli yozgi va qishki klublar foydalanishga topshirildi[1].

Yangi yerlarning o'zlashtirilishi munosabati bilan Surxondaryo oblasti aholisining milliy tarkibidagi o'zgarishlar natijasida madaniy-maishiy turmush sharoitida hamda o'zaro muloqotda rus tili ustun mavqega ega bo'lib bordi. Bu jarayon butun respublikaga xos edi, ya'ni o'zaro muloqot tili sifatida belgilangan rus tilining belgilovchilik xususiyat ustuvorlik qilar edi. Bu holat respublikaning barcha oblastlaridagi maorif va xalq ta'limi sohasiga o'z ta'sirini o'tkazganligini quyidagi misoldan ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1970-yilda Boysun va Sho'rchi shaharlarida 2 ta o'rta maktab, 3 ta bolalar bog'chasi rus tiliga ixtisoslashgan edi. Sharg'unda esa 6 ta bolalar bog'chasi o'zbek va rus tillarida, 2 ta o'zbek va tojik tili va 1 ta rus tili o'qitiladigan o'rta maktab bo'lgan. Jumladan, 1964-yilda Sharg'un shahridagi Pushkin nomidagi 2-son maktabning 11-sinfini tamomlagan 43 nafar bitiruvchilaridan atigi 17 tasi mahalliy aholi o'quvchilari bo'lib hisoblangan[2]. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu shaharda yevropa

millatiga mansub aholi ustun mavqega ega bo'lgan. Bu bir qarashda aholining ehtiyojlariga to'la javob beradigan holdek bo'lib ko'rinadi, lekin mahalliy millat vakillariga mansub aholining maktablarga bo'lgan ehtiyoji to'liq hisobga olinmaganligi va rus maktablariga nisbatan o'zbek va tojik maktablarida bir sinfda me'yoridan ortiq o'quvchilar o'qigani hamda o'quv ko'rgazmalari bilan jihozlanish jihatidan jiddiy farq bo'lganligi aniqlangan.

1970-yilda Surxondaryoning ayrim rayonlaridagi maktablar soniga e'tibor beradigan bo'lsak, Sharg'unda 6,6 ming, Sho'rchida 6,3 ming, shu jumladan, Sharg'unda ruslar, ukrainlar, boshqirdlar, tatarlar va boshqa mahalliy bo'lmagan millat vakillari aholining 1/3 qismini tashkil etgan, lekin 800 o'rinli o'rta maktabga, 4 ta rus tilidagi bolalar bog'chasiga ega bo'lgan. Aholisi 6,6 ming kishini tashkil etgan Sharg'un shahrida 1970-1971-o'quv yilida o'zbek, tojik, rus tilidagi o'rta ta'lim maktablari mavjud edi. Yana bir xususiyatlik tomoni shundaki, Sharg'un shahri Surxondaryo oblastining boshqa shaharlaridan o'zining industrial qiyofasi, aholi orasida ruslar, ukrainlar, boshqirdlar, tatarlar soni ancha katta bo'lganligi bilan ham farqlanadi. Shu bois bu shaharning ijtimoiy-madaniy rivojlanishiga ajratilgan mablag'lar boshqa shaharlardagiga nisbatan deyarli 1,5 barobar ortiqroqdir[3].

Surxondaryo viloyati xalq maorifi sohasidagi rivojlanish darajasi 70-yillarning boshlarida respublika bo'yicha Xorazm viloyati bilan birga eng past ko'rsatkichlarni qayd etgan. 1976-yilning may oyida Boysun tumanidan 120 ta oilaning Gagarin tumanidagi Beshqo'ton qishlog'iga ko'chirilishi ushbu hududning ijtimoiy infratuzilmasidagi mavjud muammolarni yanada yaqqol ko'rsatdi. Ko'chib kelgan oilalarning atigi 60 foizi turar joy bilan ta'minlanganligi sababli, qolgan 40 foizi jiddiy uy-joy muammosiga duch keldi va natijada 15 ta oila o'zining avvalgi yashash joyiga qaytib ketishga majbur bo'ldi. Ko'chib kelganlar orasida 300 nafar maktab yoshidagi bolalar bo'lib, ularning ta'lim olishi uchun mo'ljallangan maktab binolari juda nochor va ta'mirtalab ahvolda edi, bu esa ko'plab

o'quvchilarning xususiy uylarda, moslashmagan sharoitlarda tahsil olishiga sabab bo'ldi[4].

Surxondaryo viloyatida o'sha davrda oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan ta'minlanganlik darajasi respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan ancha past bo'lgan. Misol uchun, viloyat aholisining 10 yoshdan katta bo'lgan qismi orasida har ming kishiga hisoblaganda oliy ma'lumotli, to'liq o'rta ma'lumotli va to'liq bo'lmagan o'rta ma'lumotli shaxslarning umumiy soni atigi 368 nafarni tashkil etgan. Taqqoslash uchun, respublika miqyosida bu ko'rsatkich 458 kishiga to'g'ri kelgan[3].

Jamiyat taraqqiyotining rivojlanishi natijasida va demografik vaziyat oqibatida butun O'zbekistonda bo'lganidek, Surxondaryo oblastida ham aholi soni ortib bordi. Surxondaryo oblasti aholisi 1970-1989-yillarda 662027 kishidan 1253813 kishiga oshdi. Aholining 19 yoshgacha bo'lgan qismi 394 ming kishidan 704 ming kishiga ortdi. Mazkur davrda shahar aholisi 106166 kishidan 244404 kishiga ko'paydi[5].

Yangi tashkil etilgan rayonlarda ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifat o'choqlari barpo etildi. Misol uchun, Gagarin tumani barpo etilishi arafasida tumanda faqat bitta yozgi klub mavjud bo'lgan bo'lsa, tuman rasman tashkil etilgan yili bu yerda aholining madaniy hordiq chiqarishi va bilim olishi uchun 5 ta qishloq klubi va 16 ta kutubxona o'z faoliyatini boshladi. Madaniyat sohasini rivojlantirish maqsadida Jo'ra Himmatov madaniyat bo'limiga mudir etib tayinlandi. Qobiliyatli san'atkor Q.Nabiyev boshchiligidagi teatr jamoasi tuzilib, o'zining muvaffaqiyatli chiqishlari orqali "Xalq teatri" faxriy unvoniga sazovor bo'ldi. "Sovetobod", "Komsomolobod" va "Yangiobod" sovxozlarida mahalliy iste'dodlarni namoyon etish va xalq ijodiyotini rivojlantirish maqsadida turli xil musiqiy va folklor ansambllari tashkil etildi. Ayniqsa, o'zining betakror ohanglari va mahoratli ijrosi bilan ajralib turgan "Surxon taronalari", "Mingchinor" va "Cho'lquvar" ansambllari nafaqat Surxondaryo viloyatida, balki butun respublika miqyosida tanildilar[6].

1969-yilning 1-iyul sanasidan boshlab O'zbekiston Kompartiyasi Gagarin tuman komiteti va mehnatkashlar deputatlari tuman Sovetining rasmiy nashri sifatida "Mehnat zafari" nomli gazeta o'z faoliyatini boshladi. Gazetaning dastlabki sonlari viloyat bosmaxonasida chop etilgan bo'lsa, 1969-yilning sentyabr oyidan boshlab "Yangiobod" sovxozining markazida tashkil etilgan o'z bosmaxonasida nashr etila boshladi. Gazeta tahririyatining joylashuvi ham aynan shu sovxoz hududida joylashdi.

1969-1987-yillarda gazetaga Jabbor Vahobov, 1987-1988-yillarda Davron G'ulomov muharrirlik qildilar. O'tgan yillar mobaynida rayon gazetasida Xolmo'min Xudoyqulov, Suvon To'rayev, Xo'shmurod Xolmo'minov, Yaxshiboy Jabborov, Omon Norsoatov, Sherali Boboyev, Muhammad Soatov, Abdumo'min Abdurasulov, Abduvohid Vahobov, Qulmamat Barotov, Mamaqurbon Xolmirzayev, Komila Yusupova kabi o'nlab ijodkorlar ishlab, gazeta o'qimishlilikini oshirishga, rayon mehnat ahli hayotini keng yoritishga erishdilar. Tahririyatda jami 6 nafar xodim bo'lib, ularning 3 nafari O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zolari edi.

Gazeta ijodkorlarning cho'lquvarlar hayotini keng yoritishda salmoqli hissasi bor. Birinchi bo'lib qo'riqqa otlanganlar, bu yerda qahramonona mehnat qilib dovuq taratayotganlar haqida ijodkorlar turkum maqolalar chop etib bordilar.

Rayon gazetasi qoshida "Mahorat" maktabi tashkil etilishi natijasida yosh ijodkorlarning mahorati oshib bordi. Ijodiy jamoaga rayon gazetasi muxbiri, O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi Egamberdi Eshonqulov yetakchilik qildi. "Mahorat" maktabining 30 dan ziyod tinglovchisi bo'lib, ularning ijodiy namunalari rayon va oblast matbuotida chop etib turildi.

Qo'riq odamlari mehnatini o'zlarining badiiy asarlarida madh etib kelgan ijodkorlardan Abdumurod Rahmonov, Shomurod Allamov, Chori Mamanazarov, Mahbuba Xayinova, Normahammad Muhammadiyev, Sulaymon Qo'ziyev, Sunatullo Abdukarimov va boshqalarning ijod

namunalari hamisha kishilarga ilhom bag'ishlab keldi. Bugungi kunda Nigora Normurodova, O'rol Abrayev, Ilhom Rahmonov, Kamola Xolliyeva, Kamola Qarshiyevalarning nomlarini misol keltirish mumkin[7].

Gagarin tumanida 1968-yilning dekabr oyida aholi va tashkilotlarga pochta aloqa xizmatlarini ko'rsatish maqsadida yangi tarmoq tashkil etildi. Ushbu tarmoqqa tajribali mutaxassis Murtazo Mustayev rahbarlik qildi. Tarmoqda jami 112 nafar ishchi xodim mehnat qilib, aholiga qulay xizmat ko'rsatish uchun 8 ta aloqa bo'limi faoliyat yuritdi.

1970-yillarda pochta aloqa sohasida tubdan rivojlanish boshlandi. Cho'lning qoq o'rtasida telefonlashtirish, radiolashtirish, pochta xizmatlari, obuna ishlari, pul, posilka va xat jo'natmalarini qabul qilish ishlari juda yuqori darajada amalga oshirildi.

1972-yil 29-iyunda O'zbekiston SSR hukumati "Yoshlarning umumiy o'rta ta'limga o'tishini tugallash va umumiy ta'lim maktablarini yanada rivojlantirish to'g'risida"gi[8] qarorini qabul qildi, unda uzoq muddatga mo'ljallangan bir qator vazifalar belgilangan. Ushbu qaror yuzasidan Surxondaryo oblasti ijroiya komiteti 1972-yil 18-iyulda qaror qabul qildi va har bir rayon va shaharda amalga oshiriladigan ishlar ko'lamini belgilab berildi[9]. Bu chora-tadbirlar bir qator rayonlarda 8 yillik maktablarni umumiy ta'lim maktablariga aylantirish va bu maktablarni kadrlar, shuningdek, ko'rgazmali va texnik vositalar bilan ta'minlash kabi masalalarni ham amalga oshirishga mo'ljallangan edi. O'zbekistonning, jumladan, Surxondaryo oblasti sharoitida umumiy o'rta ta'limga o'tishni tugallash va xalq maorifi tizimiga o'tishni kengaytirishni takomillashtirish uchun davlat byudjetidan va rayon hamda shaharlarning mahalliy byudjetlardan mablag'lar ajratildi. O'zbekistonda 1966-1970-yillarda 1368 ta yangi maktab barpo etilib, foydalanishga topshirilgan bo'lsa, 1986-1990-yillarda ular soni 1888 tani tashkil etdi[10].

Aholining ko'payishi va sanoat, qishloq xo'jaligining rivojlanishi munosabati bilan birga Surxondaryo oblastida 1970-1980-yillar

oralig'ida maktablarni qurish keng miqyosda olib borildi. Misol uchun, 1971-1975-yillarda qishloq va shaharlarda 174 ta, 1976-1980-yillarda 85 ta[10], 1981-1985-yillarda 90 ta, 1986-1990-yillarda 192 ta yangi maktablar o'z faoliyatini boshladi[10]. 1990-yilda O'zbekistonda kunduzgi umumiy ta'lim maktablar soni 6940 tadan 8333 taga yetdi[10]. Ularda xizmat qilayotgan o'qituvchilar soni 160,4 mingdan 365,4 minggacha o'sdi[10].

Qayd etish kerakki, ushbu maktablarning atigi uchta loyiha asosida qurilgan, 8 tasi esa moslama binolarda joylashgan edi. Bu davrda vrachlik ambulatoriyasi, feldsherlik-akusherlik punktlari va bolalar bog'chalarining ayrimlari moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. Qiziriq va Gagarin rayonlari hududida atigi uchta hammom bo'lib, ular ham ishlamas edi[11].

Qosim Raximov sovxozidagi istirohat bog'i va stadion esa qoniqarsiz ahvolda edi. Toshkent va Shreder sovxozlarida stadion yo'q, xo'jaliklarda badiiy to'garaklar tuzish, kutubxonalaridan foydalanishga e'tibor berilmas, xo'jaliklarni radiolashtirish, telefonlashtirish masalalari ham hali hal etilmagan desa ham bo'lar edi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin ediki, aholini ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan himoyalashni chuqurroq o'ylashni davr taqozo qilardi.

Lenin yo'li rayoni tashkil etilganidan keyingi yillarda cho'lquvarlarning bolalariga ta'lim-tarbiya berish maqsadida birin-ketin o'rta umumta'lim maktablari qurilib bordi. Rayon xalq ta'limi bo'limi tashkil etilganidan keyin ilgari maktab direktorligi lavozimida ishlab kelgan Qarshi Choriyev xalq ta'limi bo'limi mudirligiga tayinlandi va bu vazifada 25 yil halol xizmat qildi.

1970-yilda, ya'ni rayon tashkil qilinishidan oldin bu yerda 8 ta maktab mavjud bo'lib, 157 nafar o'qituvchi, 4602 ta o'quvchiga ta'lim bergan. 1975-1976-yillarda esa jami 20 ta maktabning 19 tasi joriy va 1 tasi kapital ta'mirdan chiqarildi. Maktablarni 9 tasi o'rta, 11 tasi 8 yillik maktablar bo'lib, ularda 396 o'quvchi (shundan 276 nafari oliy ma'lumotli) rayon mehnatkashlarining 7537 nafar bolalariga ta'lim-tarbiya berdi. Rayonda 1976-

yilda 6 ta maktabgacha tarbiya muassasalari bo'lib, unda 303 nafar o'g'il va qizlar tarbiyalandilar[12].

1978-yilda Lenin yo'li rayonining "Yangi hayot" qishloq kengashi hududida beshta tashkilot faoliyat yuritgan bo'lib, bular: Istara, Toshkent, Shreder nomli sovxozlari va PMK-4 hamda "Istara" savdo birlashmasi bor edi[13].

Shuningdek, hududda 9 ta aholi yashaydigan qishloq: Yangi hayot, Karmaki, Mehnatobod, Istara, Novbur, Gulzor, Shreder, Toshkent qishloqlarida 2679 ta oila mavjud bo'lib, 14344 kishini tashkil etgan edi. Istara sovxozda 2024 oilada 10928 kishi, Shreder sovxozda 228 oilada 1241 kishi, Toshkent sovxozda 427 oilada 2175 kishi istiqomat qilar edi[14].

O'sha davrda rayon hududida 11 ta maktab bo'lib, shulardan uchasi o'sha davr zamonaviy loyihasi asosida qurilgan binoda joylashgan edi. Maktablarning 8 tasi o'rta, 3 tasi to'liqsiz o'rta maktab bo'lib, 3695 nafar o'quvchisi bor edi. Hududda 3 ta vrachlik ambulatoriyasi, 1 ta uchastka kasalxonasi, 12 ta feldsherlik – akusherlik punktlari mavjud edi[15]. 11 ta bolalar bog'chalari mavjud bo'lib, shulardan 2 tasi zamonaviy binolarda joylashgan edi[16].

Lenin yo'li tumanida ta'lim sohasida sezilarli o'sish kuzatilgan. Agar 1980-1981-o'quv yilida tumanda 28 ta maktabda 597 nafar

o'qituvchi o'quvchilarga bilim bergan bo'lsa, 1985-1986-o'quv yiliga kelib maktablar soni 34 taga yetdi va 13025 nafar o'quvchiga 700 nafar o'qituvchi ta'lim-tarbiya berdi. Mazkur besh yillik davr mobaynida maktablar adadi 21.4% ga, muallimlar adadi 17.2% ga oshgan[17].

Xususan, A.Hidoyatov nomidagi 14-maktabning o'quvchilari soni ortib borayotganligi sababli, uning yonida yana 320 o'rinli yangi o'quv binosi barpo etildi. Toshkent sovxozida esa zamonaviy 417 o'rinli o'rta maktab binosi va aholiga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan feldsher-akusherlik punkti, Shreder xo'jaligidagi 2-posyolkada tijorat markazi, 5 ta xonadon, markaziy tuzatish ustaxonasida hordiq chiqarish joyi, boshqaruv binosi barpo etish ishlari boshlab yuborildi[18].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Surxon-Sherobod cho'llarining o'zlashtirilishi davridagi ijtimoiy-madaniy rivojlanish o'ziga xos murakkab va dinamik jarayon bo'lib, u ham ijobiy yutuqlarga, ham hal qilinishi lozim bo'lgan jiddiy muammolarga ega edi. Ushbu davr tajribasi bugungi kunda ham hududlarni kompleks rivojlantirish, aholining hayot sifatini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish borasida muhim saboqlar beradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. *Узбекистан за годы восьмой пятилетки (1966–1970):* Краткий статистический сборник. – Т.: Узбекистан, 1971. – С. 140.
2. *Ленин байроги* газетаси. – 1964 йил 1 июль.
3. *Народное хозяйство Сурхондарьинской области за годы двенадцатой пятилетки (1986–1990 гг.).* – Термез, 1991. – С. 14, 17.
4. *Dala yozuvlari: Surxondaryo viloyati Muzrabot tumani To'da qishlog'i, 2020-yil.*
5. *Итоги Всесоюзной переписи населения 1989 года. Национальный состав населения Узбекской ССР.* Стат. сборник. Ч. I. – Т.: Узбекистан, 1990. – С. 17.
6. *Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yxat, 61-ish, 25-varaq.*
7. Ш. Орипов, Х. Шоймардонов. *Яшнаётган Музrabot.* – Қарши: Насаф, 2009. – Б. 36–39.
8. *Совет Ўзбекистони* газетаси. – 1972 йил 30 июнь.
9. *Ленинское знамя* газетаси. – 1972 йил 21 июль.
10. *Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 году.* – Т.: Узбекистон, 1991. – С. 101–103, 110, 246, 284.

11. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro'yxat, 34-ish, 200-varaq.
12. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yxat, 131-ish, 69-varaq.
13. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yxat, 71-ish, 36-varaq.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yxat, 231-ish, 76-varaq.
15. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 474-fond, 1-ro'yxat, 36-ish, 95-varaq.
16. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 719-fond, 1-ro'yxat, 38-ish, 200-varaq.
17. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 454-fond, 1-ro'yxat, 272-ish, 110-varaq.

SURXON VOHASI BEKLIKLARIDA HUNARMANDCHILIK VA MAHALLIY USTAXONALARNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

Qarshiyev Ahmad Abdulazizovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

Orcid ID: 0009-0005-0170-150X

UDK: 94(575.146)

Annotatsiya: Mazkur maqola XVIII asr oxiri – XX asr boshlarida Sharqiy Buxoro bekliklaridagi hunarmandchilik, mahalliy ustaxonalar va savdo-sotiq munosabatlarining holatini atroflicha tadqiq etadi. Unda qadimdan shakllangan karvon yo'llari, daryo va dengiz suv yo'llari orqali rivojlangan savdo aloqalarining mintaq iqtisodiyotidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada hunarmandchilikning turli sohalari, jumladan, to'qimachilik (zardo'zlik, do'ppido'zlik, chopondo'zlik), kulolchilik, temirchilik, zargarlik va degrezlik (cho'yangarlik) kabi turlarning rivojlanish darajasi, ularning mintaqaviy o'ziga xosliklari (Surxon vohasi, Boysun, Sherobod) atroflicha yoritilgan.

Kalit so'zlar: Sharqiy Buxoro bekliklari, hunarmandchilik, savdo-sotiq, ustaxona, to'qimachilik, zardo'zlik, kulolchilik, temirchilik, zargarlik, degrezlik, Surxon vohasi, Boysun, Sherobod.

Аннотация: В статье подробно рассматривается состояние ремесел, местных мастерских и торговых связей в княжествах Восточной Бухары в конце XVIII — начале XX вв. Анализируется роль торговых связей, развивавшихся по древним караванным путям, речным и морским водным путям в экономике региона. В статье подробно рассматривается уровень развития различных отраслей ремесла, в том числе ткачества (золотного дела, шапочного дела, плащеделия), гончарного дела, кузнечного дела, ювелирного дела и обезжиривания (литья), а также их региональные особенности (оазис Сурхон, Байсун, Шерабад).

Ключевые слова: княжества Восточной Бухары, ремесла, торговля, мастерская, текстиль, золотого дела, гончарного дела, кузнечного дела, ювелирного дела,

обезжиривания, оазис Сурхон, Байсун, Шерабад.

Abstract: This article provides a detailed study of the state of crafts, local workshops and trade relations in the Eastern Bukhara principalities in the late 18th and early 20th centuries. It analyzes the role of trade relations developed through ancient caravan routes, river and sea waterways in the regional economy. The article covers in detail the level of development of various branches of crafts, including weaving (goldsmithing, hat-making, cape-making), pottery, blacksmithing, jewelry and degreasing (casting), and their regional characteristics (Surkhon oasis, Boysun, Sherabad).

Keywords: Eastern Bukhara principalities, crafts, trade, workshop, textiles, goldsmithing, pottery, blacksmithing, jewelry, degreasing, Surkhon oasis, Boysun, Sherabad.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Qadimdan vujudga kelgan karvon yo'llari, daryo va dengiz suv yo'llari orqali savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi natijasida Sharqiy Buxoro bekliklari aholisining xo'jalik va hunarmandchilik faoliyati va mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni hamda Sharq davlatlari bilan savdo-sotiq ishlarining ahvolini o'rganish yurtimiz tarixida muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Sharqiy Buxoro bekliklarida hunarmandchilikning ahvoli, mahalliy ustaxonalarning iqtisodiyotdagi o'rni hamda olib borgan ichki va tashqi savdo aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Milliy arxivining bir qator jamg'arma (fond) laridagi hujjatlarda, aynan tadqiq qilingan davrda yashagan sovet

davri olim, sayyoh, harbiylar, o'lkashunoslarning asarlari, statistik to'plamlar, davriy matbuot materiallari, shuningdek, sovet va mustaqillik davri olimlarining tadqiqotlarida uchramiz. Mustaqillik davrida mamlakatimizda ushbu mavzu R.Qilichev[1], R. Xoliqova[2], E. Qobulov[3], F. Ochildiyev[4], G.A. A'zamova[5] kabi olimlarning tadqiqotlarida ham yoritilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Buxoro amirligida shaharlar asosiy hunarmandchilik markazlari sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, bekliklardagi ko'pgina yirik qishloqlarda ham hunarmandchilikning kundalik ehtiyoj uchun zarur sohalar rivojlangan edi. O'rta asrlarda mavjud bo'lganidek, amirlik davrida ham hunarmandlar uyushmalari xususan kasaba va sexlar mavjud bo'lgan. Ushbu birlashmaning tashkil topishi hududlarda mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o'rnatishga, talabga qarab mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog'liq edi. Amirlik tarkibiga kiruvchi bekliklardagi hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo'lib, uyushmani saylab qo'yiladigan shaxs-rais yoki oqsoqol boshqargan. Uyushma raisi shahar va qishloqlardagi hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar narxini belgilashda, turli soliq va to'lovlar yig'imida, usta va shogird munosabatlarida, xo'jalik ishlarini yuritishda asosiy shaxslardan hisoblangan.

Hunarmandchilik qadimdan Surxon vohasi aholisi xo'jalik hayotining muhim tarmog'i bo'lib kelgan. Sharqiy Buxoro bekliklarida hunarmandchilikning rivojlanishi boshqa hududlardan ancha farq qilgan. Bunga vohaning tabiiy-geografik joylashuv o'rni, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan. Surxon vohasini hunarmandchilik bilan shug'ullanish darajasiga ko'ra kuyidagi mintaqalarga ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tog'li hududlar, shaharlar va aholi zich yashaydigan qishloqlarda hunarmandchilikka ixtisoslashuv kuchaygan.

2. Daryolarning yuqori va o'rta oqimi hududlarida yashagan aholi o'rtasida uy

ro'zg'or hunarmandchiligi yaxshi yo'lga qo'yilgan.

3. Dasht oldi va keng dasht hududlarida yashaydigan aholi o'rtasida uy-ro'zg'or, ya'ni har bir xo'jalik o'zlari uchun mahsulot ishlab chiqarish shakllari taraqqiy etgan. Hunarmandchilik turlari ko'proq tog' oldi va katta daryolar Surxondaryo hamda Sherobod daryolarining yuqori va o'rta oqimlarida yaxshi rivojlangan bo'lib, bu yerda ko'proq aholi talabiga qarab, bozorgir mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Vohaning dasht oldi va dasht hududlarida uy ro'zg'or hunarmandchiligiga xos ishlab chiqarish shakllari ko'proq taraqqiy etgan[4].

F.Ochildiyev polkovnik Galkinning ma'lumotlari asosida, voha shaharlarida yashovchi aholining asosiy mashg'uloti kundalik ehtiyoji uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlashdan iborat bo'lgan. Hunarmandchilikning paxta, ipak, teri mahsulotlariga ishlov berish, metall va kulolchilik idishlari, egar-jabduq, poyabzal, matolarni bo'yash va gul bosish, cho'yan va temirga ishlov berish, misgarlik, zargarlik va tegirmonsozlik kabi turlari yaxshi rivojlanganligini yozadi[4].

Hunarmandchilik — milliy an'anaviy mayda tovar ishlab chiqarish, oddiy mehnat qurollari yordamida yakka tartibda va qo'l mehnatiga asoslangan sanoat turi hisoblanadi.

Hunarmandchilik qadimdan insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida mehnat taqsimoti orqali asta-sekin dehhonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqdi. Bizga ma'lumki, Surxon vohasi Buxoro amirligi tarkibidagi hudud bo'lgan bo'lib, amirlikning eng ko'hna shaharlaridan biri bo'lgan qadim Boysunda XVIII — XIX asr va XX asrning 50-yillarigacha hunarmandchilik keng rivoj topdi. Kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskarlik, binokorlik, tosh taroshlik, o'ymakorlik, kashtado'zlik, ko'nchilik, tikuvchilik, to'quvchilik, zargarlik, degrezlik, tunukasozlik va boshqa hunarmandchilik turlari rivojlandi.

Hunarmandchilik tabiiy xom ashyoning mavjudligiga qarab rivojlangan. O'rta asrlarda

ham hozirgi Boysun tumanida, ayniqsa, qishloqlarda hunarmandchilik taraqqiy etgan.

Cho‘yanli va Munchoqtepa (Xomkon hududi), Xoja Qashqaron, Oqtepa va Alamlidagi Munchoqtepalar temirchi-konchilarning yirik qishloqlari va ustaxonalari bo‘lgan. Bu qishloqlarda bir necha yuzlab metrlarga cho‘zilgan temir va cho‘yan eritish pechlari va ruda uyumlari Boysunning o‘rta asrlar hunarmandchiligi rivojidan dalolat beradi. Pillachilik rivojlanishi evaziga to‘qimachilik, kashtado‘zlik (zardo‘zlik), do‘ppi va chopondo‘zlik, chorvachilik ravnaqi tufayli ko‘nchilik va to‘qimachilik (jun va teri), Boysuntog‘ning o‘rmonga burkanishi evaziga yog‘ochsozlik, duradgorlik yuksalgan.

Sherobod bekligida hunarmandchilik milliy talablar darajasida bo‘lib, hunarmandlar o‘z mahsulotlarini ishlab chiqarishda oddiy kosibchilik an‘analariga amal qilgan. Temirchilik ustaxonalari o‘zlarini mahsulot bilan ta‘minlash, konlarda ruda, chet ellardan zargarlik uchun mahsulot olib kelishni o‘z zimmlariga olib, dastlab amirlik tomonidan hech qanday moddiy-ma‘naviy qo‘llab quvvatlashga ega emasdilar. Hunarmandlar og‘ir sharoitga qaramay milliy urf-odatlariga mos buyumlar tayyorlab, ular o‘zining mustahkamligi, go‘zalligi, bozor talablariga xos bo‘lishi bilan ajralib turar, usta va shogirdlar hurmat-e‘tibori sinovlardan o‘tish orqali obro‘ga erishilar edi. Milliy urf-odatlar talabi asosida tikilgan kiyimlar, gilamlar, taqinchoqlar jahon bozorlarida o‘z xaridorlarini topgan[6].

Zardo‘zlik. Sharq mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘rta Osiyoda ham qadimdan zardo‘zlik hunari rivojlanib, yildan-yilga takomillashib borgan. XVIII asr oxiriga kelib, Buxoro shahri O‘rta Osiyodagi yagona zardo‘zlik markaziga aylanib qoldi. Bu hunarmandchilik turining Buxoro amirligida taraqqiy qilishining sabablaridan biri uning amirlik davrida hukmdorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanishidir. Amir Shohmurod (1785-1800), amir Haydar (1800-1826) davrida zardo‘zlik uncha taraqqiy etmagan bo‘lsa-da, amir Nasrullo (1826-1860), Amir Muzaffarxon (1860-1885), amir Abdulahadxon (1885-1910), amir Sayyid

Olimxon (1910-1920) davrlarida zardo‘zlik rivojlanib yanada takomillashgan.

Zardo‘zlik yopiq kasb hisoblanib, bu hunar asosan ustaning o‘z farzandi yoki eng yaqin qarindoshiga o‘rgatilgan. Shahar zardo‘zlari boshqa hunar egalari kabi o‘z sexlari va pirlariga ega bo‘lganlar. Ular Hazrati Yusufni o‘z pirlari deb hisoblashgan.

Amir Muzaffarxon davrida Buxoro arkida bitta zardo‘zlik ustaxonasi bo‘lgan bo‘lsa, Abdulahadxon davrida bu yerda yana bitta zardo‘zlik ustaxonasi tashkil etilgan[1].

Shuningdek, Sharqiy Buxoro hududidagi yirik qishloqlarda ham hunarmandchilik rivojlanib, har bir hunarmand ustaning o‘z ustoz, piri bo‘lib, avvalo xudoga so‘ngra piriga sig‘inib, Ollohdan marhamat, rizq-nasiba, kasblariga baraka tilab, sadaqa o‘tkazib turganlar. Masalan, Sherobod bekligi hunarmandlari kulollar piri Sayyid Amir Kulol, charmgarlar piri Ali, rangdezlar piri hazrati Jabroil, kosiblar piri Boboi Shavqi Porado‘z, buyum va matoga naqsh beruvchi naqqoshlar piri hazrati Bahouddin Naqshbandlarga sig‘inib, ushbu pirlar arvohiga bag‘ishlab – “arvohi pir” marosimlarini o‘tkazib turganlar[6].

Sherobod bekligida metallni qayta ishlash sohalaridan biri zargarlik san‘ati keng rivojlangan. Zargarlik ustaxonalarida xotin-qizlar uchun chiroyli taqinchoqlar kumush, mis, oltindan tayyorlanib, har-xil rangli toshlar bilan bezatilgan tumorlar uchun g‘iloflar tayyorlangan. Zargarlik buyumlari “zebi sina”, “tilla bargak”, “aqiq”, “qo‘ltiq tumor”, “zarkokil”, “xalqai Muhammadi”, “xalqai sepoya”, “xalqai beshoyoq”, “bibishoh” kabi nomlari bilan ajralib turgan. Zargarlik kasbini egallagan ustalar turli xil buyumlar tayyorlashda o‘z mahoratlarini ko‘rsatib, el orasida alohida nufuzga ega bo‘lganlar. Iste’dodli ustalarga boy-amaldorlar maxsus uzuklar tayyorlatib qo‘llariga taqib yurgan, eng qiziq tomoni uzuklarga alohida muhr tushirilib, o‘z ismlarini yozdirib qo‘yishgan. Masalan, Sherobod begi, qozisi, shayxi, me‘rosxo‘ri degan nom ism bilan qo‘shib yozib qo‘yilgan. Muhr tayyorlaydigan ustalar alohida ro‘yxatda bo‘lib, bu sohada ishlayotgan ustalar har bir ishga mas’uliyat va

e'tibor bilan qaragan. Ularning ish qurollari tarozi, buta, o'choq, sandon, bolg'a, otashgirak, qaychi, ombir, shikanja, dahandom, zirdam, ombiri damashtez, suvon, muhraqalamdan iborat bo'lgan. XVIII-XX asr boshlarida hatto Hindiston, Eron va Misrdan sun'iy toshlar olib kelinib, oltin va kumushlar aralashtirilib, qimmatbaho toshlar tayyorlangan[6].

O'zbek xalqining milliy iftixori sanalgan do'ppi va chopon asrlar davomida xalqimiz tomonidan ardoqlanib kelingan. Do'ppining ko'plab turlari bo'lib, ular tayyorlangan joyiga qarab Boysun, Shahrisabz, Kitob, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Chust do'ppi deb atalgan. Do'ppining Iroqi, Chust, Gilam do'ppi, Chakma tur do'ppi, Qizil gul, Piltado'zi, Baxmal, Tagdo'zi, To'ldirma, Zardo'zi kabi xillari bo'lgan.

Do'ppido'zlar baxmal, satin, sidirg'a shohiga oddiy, ipak, zar iplar ishlatib do'ppi tikishgan. Buxoro do'ppilari inqilobga qadar o'zining rang-barang matolarga tikilishi bilan boshqa hududlardagi do'ppilardan ajralib turgan[1].

Jamiat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan:

- 1) Uy hunarmandchiligi;
- 2) Buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik;
- 3) Bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik. Uy hunarmandchiligi eng keng tarqalgan hunarmandchilik turlaridan edi[7].

Buxoroda, xususan, Boysun hududida hunarmandchilikning barcha turlari XX asrning 20-yillarigacha saqlandi. Boysunning o'zida hunarmandchilikning 30 ga yaqin turi rivoj topgan edi. Boysun shahristonidagi yopiq timda (bozor) hunarmandlarning 53 ta do'koni bo'lgan. Terini qayta ishlash sohasida ko'ncilar, etikdo'zlar, mahsido'zlar, kovushchilar, egar — jabduqchilar, telpakchilar, po'stinchilar, kamarchilar, to'qimachilik sohasida bo'zchilar, atlaschilar, gilamchilar, sholcha va namatchilar, taqachilar, miskarlar, chilangarlar, zargarlar bo'lgan. Ular hunarmandchilikning tarmoq tuzilishini belgilagan. Sharqda usta, xalfa va

shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalari bor edi. Avloddan-avlodga o'tuvchi odatlar va udumlarga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o'z pirini yodga olib, undan madad so'rashi, shogirdga fotiha berishi kabi odatlarga amal qilingan.

Surxon vohasi Rossiya mustamlakasiga aylangach, hunarmandchilik sanoat raqobatiga duch kelib, o'zining ilgarigi mavqeini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning ko'p tarmoqlari saqlanib qolgan. Chunki u milliy ehtiyojni qondiradigan tovarlarni, chunonchi, kiyim — kechak, idish-tovoq, turli uy-ro'zg'or buyumlari, mayda mehnat qurollarini yaratib, ularni mahalliy bozorlarga yetkazib berdi. Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom ashyo, materiallar, kichik uskunalar muhim o'rin o'ynagan[7].

Surxon vohasi tarkibida bo'lgan Sherobod bekligida yakka tartibda ishlovchi ustalar "Ustoi xudbof" deb atalib, ular faoliyati davrida ko'plab shogirdlarni usta darajasiga yetkazgan. Ustoi xudboflar o'z do'konlari va tayyorlagan mahsulotlarining xo'jayini hisoblanib, birob-bir ishga qaram bo'lmaganlar. Xalfa shogirdlikdan yuqori darajaga ko'tarilgan hunarmand bo'lib, o'z ustasi qo'lida mehnat qilgan. Uning shogirdidan farqi, u birinchi navbatda ancha erkin bo'lgan, ikkinchidan usta bilan kelishuvga muvofiq ish haqi olgan. Ushbu darajaga etgan shogird istagan paytda o'z ustasidan alohida ishlashi yoki boshqa ustaga yollanib ishlashi mumkin bo'lgan. Ustaxonada xalfa ustaning eng ishonchli yordamchisi hisoblanib, usta bilan birga teng miqdorda mehnat qilgan[6].

Shuningdek, tarixchi olim S.Tursunov Boysunda cho'yanichilar bo'lganligini hozirda ham ularning mahallalari mavjudligini keltiradi. Cho'yan har xil buyumlar kuyish uchun mo'rt material. Cho'yan kulrang, oq va oraliq turlarga bo'linadi. Quymalar olish uchun ishlatiladigan kulrang cho'yan quymakorlik cho'yani deb ataladi.

Degrez (fors — quymoq) — qozon quyuvchi, umuman, cho'yandan turli buyumlar quyuvchi usta. Degrezlik

(cho‘yanganlik) — cho‘yan eritib, undan turli buyumlar quyish kasbi. Boysunda qadimdan cho‘yandan jang qurollari, hunarmandchilik, qishloq, xo‘jalik va uy-ro‘zg‘or buyumlari yasalgan. Cho‘yanganlar qozon, qorachiroq, chiroqpoya, miltiq kabi buyumlar, hatto zambarak va to‘p ham quyganlar. XX asrda og‘ir sanoatning rivojlanishi tufayli degrezlik kasbi barham topgan[7].

Cho‘yan quyish juda murakkab jarayon hisoblanib, bir turkum cho‘yan eritish uchun 30 nafarga yaqin kishi: 3 nafar usta, 10 nafar yorgir (yordamchi), 10 nafar damgir, 5 nafar qolipga quyuvchi bo‘lgan[1].

XVIII asrning ikkinchi yarmi va XIX asrning boshlarida amirlikning hunarmandchiligi sohasida to‘qimachilik asosiy tarmoqlaridan hisoblangan. Ushbu tarmoq soha uchun mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipak yetarli darajada bo‘lganligi va ichki va tashqi bozor hamda kundalik hayotda to‘qimachilik mahsulotlariga talab katta bo‘lganligi sababli rivojlandi. Amirlik shaharlarida esa bo‘z, chit, olacha (qo‘lda to‘qilgan ingichka yo‘lli mato) ko‘p miqdorda tayyorlangan. Qarshi, Hisor, Baljuvon, Dehnov, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va ularning atroflarida shaharlarda ipak matolar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratilgan.

Shu bilan birga amirlikning boshqa shahar va qishloqlarida ham ip yigirish, mato to‘qish, tayyor kiyim tikish, gilam to‘qish va boshqa to‘qimachilik sohalari ancha rivojlangan. Shuningdek, ishlab chiqarilgan to‘qimachilik mahsulotlari, amirlikdan tashqarida ham juda mashhur bo‘lgan. Masalan, Buxoroning zarbof to‘nlari, Shahrisabzning iroqi do‘ppilari, Termizning harir matolari, Samarqand va Boysun hunarmandlarining ipak matolarini misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlariga kelib, Sherobod, Denov, Termiz, Boysun, Yurchi va boshqa shaharlar amirlikning hunarmandchilik markazlariga

aylangan. Bu shaharlarda hunarmandchilik turlarining barcha sohalari yaxshi rivojlangan edi. Hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda har bir shahar o‘zining ishlab chiqargan mahsulotlari bilan ajralib turgan. Masalan, Buxoro shahri paxta va boshqa mahsulotlardan to‘qilgan gazlamalari, Denov shahri esa ipakdan to‘qilgan gazlamalari bilan mashhur bo‘lgan[4].

Surxon vohasi hunarmandchiligidagi muhim tarmoqlardan yana biri bu –kulolchilik edi. Xo‘jalik taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan kulolchilik vohaning deyarli barcha hududlarida rivojlangan edi. Kulolchilik eng taraqqiy etgan markazlari Termiz, Sherobod, Boysun, Dehnov kabilar bo‘lib, ularning mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan. Voha kulolchiligidagi O‘rta Osiyoning ko‘pgina kulolchilik maktablariga xos bo‘lgan manzaralar (turli gullar va o‘simliklar tasviri), turli hayvonlar, qushlar, hashoratlar yoki ular tanasining bir qismini shartli ravishda tasvirlash kulol ustalar tomonidan keng qo‘llanilgan.

Voha iqtisodiyotining *metallga ishlov berish* sohasi ham yaxshi rivojlangan. Boysun, Sherobod kabi tog‘li tumanlardan ma‘danlar qazib olingan bo‘lib, ulardagi konlardan foydalanish XX asr boshlariga qadar davom etgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Rossiya mustamlakasi davrida sanoat raqobatiga duch kelishiga qaramay, milliy hunarmandchilik o‘z yashovchanligini saqlab qolgan, chunki u aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan tovarlarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etgan. Sharqiy Buxoro bekliklari iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lgan hunarmandchilikning boy tarixi, o‘ziga xos xususiyatlari va mintaqada madaniy-iqtisodiy hayotidagi muhim o‘rnini yorqin aks ettiradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qilichev R. *Buxoro shahrida hunarmandchilik*. – Toshkent: Fan, 1996. – B. 11–12, 15, 19.

2. Xoliqova R. *Rossiya–Buxoro tarix chorrahasida (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – 240 b.
3. Qobulov E.A. *Surxon vohasi xo‘jaligi*. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
4. Ochildiyev F. *Surxon vohasi bekliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar (XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)*. – Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2008. – B. 121–122.
5. A‘zamova G.A. *So‘nggi o‘rta asrlar O‘rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo*. – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
6. Tursunov S.N. *Sherobodliklar*. – B. 65, 70.
7. Tursunov S., Rashidov Q. *Boysun*. – Toshkent: Akademnashr, 2001. – B. 295–297.

TEMIR IZLARDA TARIX AKS-SADOSI: TERMIZ TEMIR YO‘L MAGISTRALI TARIXI

Mulkamanov Mansur Xudoyqulovich

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o‘qituvchisi

mansurmulkamanov1990@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0007-1580-4040>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasida, xususan Termiz shahrida temir yo‘l transporti qurilishining tarixiy asoslari va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. XIX asr oxiridan boshlab chor Rossiyasi tomonidan bu hududda harbiy va iqtisodiy manfaatlar yo‘lida olib borilgan temir yo‘l siyosati, Buxoro amirligi bilan aloqalari, va xalqaro geosiyosiy omillar yoritilgan. Shuningdek, Termiz temir yo‘l qurilishida qatnashgan ishchilar, harbiylar, mahbuslar va xorijiy mutaxassislarning roli ham ko‘rib chiqiladi. Maqola O‘zbekiston janubidagi transport infratuzilmasining shakllanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Termiz temir yo‘li, chor Rossiyasi, Buxoro amirligi, harbiy-strategik infratuzilma, Amudaryo flotiliyasi, rus-ingliz raqobati, Buxoro bekliklari, mahalliy ishchilar.

Аннотация: В статье анализируются исторические основы и этапы развития железнодорожного транспорта в Сурханском оазисе, в частности в городе Термезе. Освещены железнодорожная политика, проводимая царской Россией в этом регионе с конца XIX века в интересах военных и экономических интересов, ее взаимоотношения с Бухарским эмиратом, международные геополитические факторы. Также рассматривается роль рабочих, военнослужащих, пленных и иностранных специалистов, участвовавших в строительстве Термезской железной дороги. В статье раскрывается формирование транспортной инфраструктуры на юге Узбекистана и ее социально-экономическое влияние.

Ключевые слова: Термезская железная дорога, царская Россия, Бухарский эмират, военно-стратегическая инфраструктура, Амударьинская флотилия, русско-английское соперничество, Бухарские княжества, местные рабочие.

Abstract: This article analyzes the historical foundations and stages of development of railway transport in the Surkhan oasis, in particular in the city of Termez. The railway policy pursued by Tsarist Russia in this region since the end of the 19th century in the interests of military and economic interests, its relations with the Bukhara Emirate, and international geopolitical factors are highlighted. The role of workers, military personnel, prisoners, and foreign specialists who participated in the construction of the Termez railway is also considered. The article reveals the formation of transport infrastructure in southern Uzbekistan and its socio-economic impact.

Keywords: Termez railway, Tsarist Russia, Bukhara Emirate, military-strategic infrastructure, Amu Darya flotilla, Russian-English rivalry, Bukhara principalities, local workers.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Temir yo‘l transporti Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Uning qurilishi nafaqat mintaqaning iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlagan, balki geosiyosiy vaziyatga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatgan. Termiz temir yo‘lining qurilishi, uni o‘rab turgan siyosiy va iqtisodiy voqealar, xorijiy kuchlar o‘rtasidagi raqobat, xalqaro savdo yo‘llarini boshqarish istagi mintaqaviy strategiyalarni belgilab bergan. Surxon vohasining geografik jihatdan muhim joylashuvi, uni Afg‘oniston, Buxoro va Rossiya uchun muhim tugun nuqtasiga aylantirgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Maqolada tarixiy-faktografik uslub qo‘llanildi. Asosiy e‘tibor arxiv manbalar, tarixiy hujjatlar, muhandislarning izohlariga hamda o‘sha davr matbuot materiallariga qaratildi. Qurilish

jarayonida ishtirok etgan guruhlar, ularning ijtimoiy holati va harbiy-siyosiy qarorlarning roli aniqlashga harakat qilindi. Shuningdek, statistik tafsilotlar, logistika va harbiy-siyosiy tahlillar asosida Termiz temir yo'li qurilishi jarayonlari bosqichma-bosqich yoritildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Termiz temir yo'lining qurilishi, shubhasiz, Rossiya imperiyasining nafaqat mintaqaviy, balki global miqyosdagi ambitsiyalarini aks ettiruvchi strategik qadam edi. Bu loyiha, ayniqsa, imperiyaning Hind okeaniga chiqish bo'yicha uzoq yillik intilishlarining yaqqol dalili bo'ldi. Temir yo'l XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi “Buyuk o'yin” deb ataluvchi davrda Angliya bilan Markaziy Osiyodagi ta'sir doiralari uchun kechgan keskin geosiyosiy raqobatda chor hukumatining muhim vositasi vazifasini o'tadi. Rossiya uchun bu temir yo'l mintaqadagi harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash bilan birga, paxta, g'alla kabi O'rta Osiyoning boy xomashyo resurslarini imperiya markazlariga tez va samarali tashish imkonini beruvchi iqtisodiy arteriya ham edi.

Temir yo'lining Buxoro amirligi hududidan o'tishi mahalliy iqtisodiyotga yangi ruh bag'ishladi. Bu infratuzilma ichki savdo aloqalarini mustahkamlash bilan birga, amirlikning mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun muhim kanallar ochdi. Masalan, Sharqiy Buxoro bekliliklaridan olib kelingan yuz minglab botmon bug'doy, arpa, tariq va sholi kabi asosiy qishloq xo'jaligi ekinlarining temir yo'l orqali tashilishi Termiz yo'lining nafaqat strategik, balki iqtisodiy ahamiyatini ham oshirdi. Bu, o'z navbatida, mintaqaning agrar salohiyatini samarali ishga solish imkonini berdi.

Temir yo'lining bunyod etilishi, bir tomondan, ijtimoiy adolatsizliklar bilan kechgan. Qurilish maydonlarida mahalliy aholi va ishchilarning misli ko'rilmagan og'ir mehnatiga majbur etilishi, hatto mahbuslardan foydalanilishi kabi holatlar hozirgi zamon inson huquqlari va mehnat standartlari bo'yicha keskin tanqid qilinadi. Bu, shubhasiz, o'sha davrdagi jamiyatdagi ekspluatatsiya va insonparvarlik tamoyillarining buzilishini ko'rsatadi.

Sovet davrida Termiz temir yo'li tizimi sezilarli darajada modernizatsiya qilindi va kengaytirildi. Ushbu yo'llar endilikda nafaqat harbiy maqsadlar, balki xalq xo'jaligining turli tarmoqlari, masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va sanoat tovarlarini tashish uchun ham faol ishlatildi. Termiz–Dushanbe yo'nalishi va mintaqada qurilgan yangi temir yo'l shoxobchalari viloyatning iqtisodiy o'sishiga va umumiy taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdi.

Termiz temir yo'lining qurilishi bevosita Rossiya imperiyasining Surxon vohasini bosib olish jarayoni bilan bog'liq bo'lib, bu loyiha Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasidagi murakkab geosiyosiy manfaatlar uyg'unligidan kelib chiqqan. XIX asrning 90-yillarida chorizmning Surxon vohasiga faol kirib kelishi, asosan, Angliyaning Buxoro xonligiga ta'sirini keskin kamaytirish strategiyasiga asoslangan edi. Bu strategiyaning bir qismi sifatida, 1892-yil 7-avgustda Buxoro xonligiga tegishli Hujayraquq hududi Afg'onistondan rasman ajratib olindi. Keyingi yilda, 1893-yil 15-yanvarda, Afg'oniston-Buxoro chegarasini nazorat qilish bo'yicha muhim qaror qabul qilindi. Imperiyaning harbiy mavqeini kuchaytirish maqsadida, 1894-yil 12-dekabrda Amudaryo chegaralarini qo'riqlash uchun Pattakesar qishlog'iga 31-Amudaryo chegarachi brigadasi joylashtirildi. Nihoyat, 1897-yilda chor hukumati Termizning strategik jihatdan juda qulay joylashganligini hisobga olib, bu yerda doimiy va mustahkam o'rtnashishga qaror qildi. Bu rejaning bir qismi sifatida Samarqand-Termiz pochta yo'lini qurish joyi belgilandi. Shuningdek, Pattakesarning shimoliy qismidan 40 desyatina yer sotib olinib, yirik harbiy obyektlar qurilishi boshlandi[1].

Chor hukumati Termizga strategik jihatdan ikki tomonlama yondashdi: u nafaqat muhim harbiy istehkom, balki ingichka tolali paxtaning asosiy yetkazib beruvchisi sifatida ham ko'rilgan. Bu mintaqaning imperiya iqtisodiyoti uchun qanchalik qimmatli ekanligini ko'rsatadi. Paxta yetkazib berish hajmidagi sezilarli o'sish bu e'tiborning samarasi edi: agar 1903-yilda Termiz orqali 17

000 pud paxta tashilgan bo'lsa, atigi yetti yil o'tib, 1910-yilga kelib bu raqam ikki barobar ortib, 34 000 pudga yetdi[2]. Harbiy muhandis A.G. Ananyev o'sha davrdagi chorizmning Surxon vohasini bosib olishdan ko'zlangan asosiy motivatsiyalarini atroflicha tahlil qiladi. Uning so'zlariga ko'ra, birinchidan, harbiy nuqtai nazardan, Termizda joylashgan qo'shinlar va armiya qismlari uchun ta'minot bazasini yaxshilash asosiy maqsad bo'lgan. Serhosil hududda joylashish ularga oziq-ovqat, ishchi kuchi va safarlar uchun zarur resurslarni bemalol topish imkoniyatini bergan[3]. Ikkinchidan, iqtisodiy jihatdan, Termiz va uning atrofidagi hudud Rossiya sanoati mahsulotlari uchun yangi va katta bozor yaratishi ko'zlangan. Shuningdek, Rossiya bozorini bir million puddan ziyod paxta tolasi bilan ta'minlash orqali mamlakatni Amerikadan paxta importiga qaramlikdan ozod qilish va paxta narxini sezilarli darajada pasaytirish ham strategik maqsadlardan biri edi.

Rejalashtirilgan temir yo'l tarmog'i Buxoro amirligi markazini Sharqiy Buxoroning strategik ahamiyatga ega bo'lgan to'qqizta bekligi bilan bevosita bog'lardi. Bu hududlarda taxminan 470 ming kishi istiqomat qilgan bo'lib, ular yiliga 528 ming botmon bug'doy, 272 ming botmon arpa, 113 ming botmon tariq, makkajo'xori va boshqa g'alla ekinlari, shuningdek, 152 ming botmon sholi kabi salmoqli hajmdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirar edilar. Ammo Sharqiy Buxoro bekliliklarida ichki bozor deyarli rivojlanmagan bo'lib, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlari ham cheklanganligi sababli, savdo aloqalari juda sust kechgan. Bu bekliliklarning eng dolzarb muammolaridan biri zamonaviy va samarali transport infratuzilmasining yo'qligi edi.

Albatta Sharqiy Buxoro yerlarini markazga olib boruvchi quruqlik, suv yo'llari mavjud edi. Ammo bu yo'llar amirlik uchun ham, chor hukumati uchun ham ancha qimmatga tushmoqda edi. Ma'lumki 1887-yilda tashkil topgan Amudaryo flotiliyasida 25 tonna atrofida yuk ko'tara oladigan 6 ta tagi yassi o'rtacha kuchga ega bo'lgan buksir paroxod, hamda 13 ta 50 dan 150 tonnagacha yuk

ko'tara olish quvvatga ega barjalar nihoyatda past edi.. Masalan: Buksir paroxodlar Chorjuy va Termiz oralig'idagi 450 km masofani yoz kunlari 7 kunda, qishda 11 kunda bosib o'tardi. Paroxodlarning har bir reysiga 48 tonna, ya'ni 2700 so'mlik neft sarf qilgani holda, foydasi 2200 so'mni tashkil etardi[5]. Buxoro amiri qayiqlarining ahvoli bundan ham og'ir edi. Bu qayiqlar orqali yuk bilan Termizdan Jiliko'lgacha yozda 12-20 kun, qishda 15-25 kungacha vaqt talab etardi. Suv yo'li qanchalik qimmatga tushishiga qaramasdan Amudaryoda amirlik ichkarisida mollarni tashish uchun 600 dan ortiq qayiq harakatlanardi[5]. Suv yo'lidan tashqari quruqlik yo'lida Qarshi-G'uzor va Sharqiy Buxoro-Dushanbe yo'nalishida 7 mingdan ortiq tuya karvoni harakatlanar edi. Umuman olganda mazkur qiyinchiliklar Buxoro amiri uchun ham temir yo'l qurish zaruratini keltirib chiqargan edi.

Buxoro- Termiz, Termiz-Hisor, Termiz-Ko'lob temir yo'li qurilishi 1892-yilda chor hukumati yig'ilishida muhokama qilindi. Rejaga asosan 1906-yilda temir yo'l qurilishi boshlanish lozim edi. Ammo 1904-1905 yillarda boshlanib ketgan rus-yapon urushi qurilishning vaqtinchalik kechikishiga sabab bo'ldi.

1908-yilda rus harbiy mahkamasi Buxorodan Termizgacha tor izli temir yo'l qurilishi loyihasini tayyorladi. O'rta Osiyoda ruslarga qarshi inglizlarning ortib borayotgan hiyla-nayrangini hisobga olib, chor Rossiyasi hukumati Buxoro amiri Abdulahadxon roziligi bilan Buxorodan Termizgacha temir yo'l qurilishini, Buxoro kapitalini jalb qilmasdan, rus xususiy korxonalari egalariga mablag'i hisobidan amalga oshirishga qaror qiladi. Ushbu qaror 1910-yilning 10 aprelida Stolipin raisligida o'tkazilgan Rossiya vazirlar kengashining yig'ilishida tasdiqlandi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, qurilajak temir yo'l Buxoro amiri manfaatlariga ham mos kelardi. Shu sababli amir muhandis A.N.Kovalevskiy temir yo'l qurilishidagi xizmati uchun 600 desyatina yer hamda qurilishga ketadigan harajatlarning 25 foizini ajratishni o'z zimmasiga oldi[6].

1913-yil A.N.Kovalevskiy «Buxoro temir

yo'lini qurish aksionerlik jamiyati»ni ta'sis etdi, jamiyat direktorligiga I.M.Sluskii, bosh injener etib G.S.Kikodze tayinlandi.

Shunday qilib 1914-yili qiymati 18 mln so'm hisobida baholangan Termiz temir yo'li qurilishi boshlandi[7]. Ammo boshlanib ketgan birinchi jahon urushi qurilishi ishlarini qiyinlashtirib yubordi. Temir yo'li qurilishi uchun relslar, shpallar, tunellarni teshadigan asbob-uskunalar ta'minotida uzilishlar ko'p bo'la boshladi. Natijada malakali mutaxassislar talab qilinadigan joylarda qurilish bataloni askarlaridan foydalana boshladilar. Eng og'ir ishlarni bajarishda mahalliy millat ishchilaridan tashqari (rus, eroni, tatar, gruzin, arman ishchilari va harbiy asirlar (chex, slovak, nemis, polyak, italiyaliklar) ham ishlatildi. Qurilish ishlarida ichimlik suvi yetishmasligi, ob-havoning nihoyatda og'irligi hamda mehnat sharoitlarining talabga javob bermasligi natijasida norozilik harakatlari kuchayib bora boshladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek temir yo'li qurilishida Buxoro amirligi beklilari ham ishtirok eta boshladi.

Buxoro amiri Qorategin hukmdori Ne'matullabekka qorateginlarni temir yo'li qurilishiga safarbar etish to'g'risida farmon berdi. Temir yo'li qurilishida ishtirok etayotgan har bir ishchi uchun ish haqi temir yo'li qurilishi boshqarmasi tomonidan ajratildi va mablag' Ne'matullabek ixtiyoriga o'tkazildi. Ne'matullabek temir yo'li qurilishida ishtirok etayotganlarga ish haqi to'lamasdan, ularni harbiy tayyorgarlik ko'rish uchun qilinayotgan ish sifatida qurilishga safarbar etdi. 2-3 martdan navbat bilan ishtirok etgan dehqonlar, ishning og'irligi ish haqining to'lamasligidan azob ko'rdilar, ko'plari vafot etdilar va Ne'matullabekdan gubernatorga shikoyat qildilar.

Temir yo'li qurilishida ishtirok etayotgan Penza guberniyasidan kelgan 300 ishchi ham ish sharoiti og'irligi tufayli ish tashladilar.

1915-yil davomida temir yo'li qurilishida bir necha marta ish tashlashlar bo'ldi. Jamiyat ishchilarning talab va istaklarini inobatga olish o'rniga, ishchilardan voz kechib Bokudan, keyinchalik Erondan ishchilar taklif etdilar. Injener Kikodze tomonidan shartnoma tuzib

kelingan 2000 eronlik ishchidan 100 tasi bir oy ishlaganlaridan keyin ishlashdan bosh tortdilar, qolganlari esa umuman kelmadilar.

Shundan keyin injener G.S.Kikodze general-gubernatorga temir yo'li qurilishiga mahalliy tumanlarda saqlanayotgan mahbuslardan foydalanishga ruxsat berishini so'radi. General-gubernator hisobga olgan holda mahbuslardan foydalanishga ruxsat berdi.

Ma'lumotlarga qaraganda Toshkent turmasidan-36, Farg'onadan-60, Qo'qondan-30, Namangandan-10, Skobelyovdan-20, Samarqanddan-100, Kaspiy orti viloyatidan-256 mahbuslar temir yo'li qurilishiga ishlash uchun yuborildi[8].

Temir yo'li qurilishiga jalb qilingan mahbuslar kasb malakasiga ega emas edilar va o'z navbatida ozodlikdagi ishchi-dehqonlar singari mehnat qilmas edilar. Termiz temir yo'li qurilishida mahalliy millat vakillari va avstriyalik, italiyalik, germaniyalik harbiy asrlardan tashqari chet el mutaxassislarining ham xizmati borligini ta'kidlamoq lozim. Masalan, tunel loyihalari bo'yicha Italiya injenerlari, temir beton qurilishlari bo'yicha avstriyalik mutaxassislar ishladilar. 1916-yil 14-iyulda 573 verst bo'lgan Termiz temir yo'li foydalanishga topshirildi.

Shunday qilib, rus chorizmi harbiy-siyosiy strategiyasidagi hind okeaniga chiqish, ya'ni harbiy istehkomlar yaratish, o'sib kelayotgan sanoatni arzon xom ashyo bilan ta'minlash, hamda chor sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish maqsadida, turli millat va elat vakillarining og'ir mehnati va qurbonlari evaziga Termiz Temir yo'li bunyod etildi. Temir yo'li shaxobchasi rus, Afg'on va Sharqiy Buxoro bozorlarini bir-biri bilan o'zaro bog'lash natijasida ichki va tashqi savdo ancha taraqqiy qildi.

Biroq fuqarolar urushining kuchayib ketishi natijasida 1919-yilga kelib barcha temir yo'llar izdan chiqib boshladi. Eng qiyin tomoni yonilg'i yetishmas, neft va ko'mir manbalaridan foydalanish kamayib ketdi. Yonilg'i krizisidan chiqish uchun saksovul, paxta yog'idan poyezd o'txonalarini qizitishda foydalana boshladilar. Asosiy urush o'choqlari temir yo'llarning ikki tomonidan olib

borilganligi uchun stansiya binolari, ko'priklar, relslar o'z joyidan ko'chirib olinar va boshqa binolar artilleriya bilan o'qqa tutilib yo'q qilinib tashlanar edi.

1925-yilning ikkinchi yarmida Sovet hukumati uzunligi 248 km bo'lgan Termiz-Dushanbe temir yo'l qurilishi uchun 3 mln so'm pul ajratdi. Bu temir yo'l qurilishi 1926-1931-yillarda tugallandi. Bu temir yo'lning viloyat hududining janubi bilan shimolga qadar, hamda aholi zich joylashgan va iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan joylar orqali o'tishi shunga imkon berdi.

1935-yilga kelib Ashxobod, Chorjo'y, Qarshi, Termiz temir yo'llarida vagonlarni ta'mirlash ustaxonalari qurib ishga tushirildi. Bu esa vagonlarni o'z vaqtida ta'mirlash, ish unumiga oshishiga yordam berdi.

1930-yillarda viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi va madaniyat sohasida amalga oshirilgan ishlar, uning bundan keyingi istiqbolida yangi davrni ochdi. 1935-yildan buyon Buxoro viloyati tarkibida okrug

sanalgan Surxondaryo SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941-yil 6-mart farmoniga asosan viloyatga aylantirildi[9].

Okrugning viloyatga aylantirilganligi, Surxondaryoning ijtimoiy, iqtisodiy madaniy taraqqiyotida burilish nuqtasi bo'ldi. Bu vaqtga kelib temir yo'lning yuk tashish quvvati ancha o'sdi, yuklarning turi ham ko'paydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Termiz temir yo'li Surxon vohasining tarixida muhim burilish yasagan. U nafaqat harbiy-siyosiy strategiyaning mahsuli, balki mintaqaviy iqtisodiyot va transport infratuzilmasining shakllanishiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda ham bu temir yo'l yo'nalishlari xalqaro savdo va logistika uchun ahamiyatli hisoblanadi. Tarixdan saboq sifatida, mintaqaning strategik geografiyasi doimo tashqi kuchlar diqqat markazida bo'lgan va bu voqeliklar zamonaviy transport siyosatini shakllantirishda e'tiborga olinishi lozim.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. *Ленин байроғи.* – 1966 йил, 16 июль.
2. *Краеведения Сурхандарьи.* – Тошкент, 1889. – 127-бет.
3. *Ананьев А.Т. Шеробод воҳасини Сурхон суви ёрдамида суғориш лойиҳаси.* – Тошкент, 2002. – 5-бет.
4. *Искандаров Б.И. Из истории Бухарского эмирата.* – М.: Восточная литература, 1858. – 9 с.
5. *Искандаров Б.И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX века.* Қисм 11. – Душанбе, 1963. – Б. 241–242.
6. *Заря Сурхана.* – 1996 г., 12 апреля.
7. *Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX – начале XX века.* – Душанбе–Алма-Ата, 1967. – 191 с.
8. *Заря Сурхана.* – 1995 г., 13 июля.
9. *Сурхон тонги.* – 1998 г., 4 февраль.

ABDULLA AVLONIY VA JADIDCHILIK HARAKATI

Azimova Dिल्фуза Usmonovna

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limda
matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi*

<https://orcid.org/0009-0006-2944-660X>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola Abdulla Avloniy (1878–1934) hayoti, faoliyati va o'zbek jadidchilik harakatidagi o'rnini atroflicha tahlil qiladi. Maqolada Avloniyning ma'rifatparvarlik g'oyalari, yangi usuldagi maktablar tashkil etishdagi hissi, shuningdek, uning "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" kabi fundamental asarlari muhokama qilinadi. Shuningdek, uning teatr, matbuot va publitsistika sohalaridagi faoliyati, jamiyatni jaholatdan olib chiqish va milliy ongni yuksaltirish yo'lidagi sa'y-harakatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Abdulla Avloniy, Jadidchilik, yangi usul maktablari, pedagogika, ta'lim, "Turkiy guliston yoxud axloq", Turkiston, matbuot, teatr.

Аннотация: В статье дается всесторонний анализ жизни, деятельности и места Абдуллы Авлони (1878–1934) в движении узбекского джадидизма. В статье рассматриваются просветительские идеи Авлони, его вклад в организацию школ нового образца, а также такие его фундаментальные труды, как «Турецкая роза или нравственность», «Первый учитель», «Второй учитель». Также освещается его деятельность в области театра, печати и журналистики, его усилия по выводу общества из невежества и повышению национального самосознания.

Ключевые слова: Абдулла Авлони, джадидизм, школы нового образца, педагогика, образование, «Турецкая роза или нравственность», Туркестан, пресса, театр.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the life, work and place of Abdulla Avloni (1878–1934) in the Uzbek Jadidism movement. The article discusses Avloni's ideas of enlightenment, his

contribution to the organization of new-style schools, as well as his fundamental works such as "Turkish Rose or Morality", "First Teacher", "Second Teacher". It also covers his activities in the fields of theater, press and journalism, his efforts to bring society out of ignorance and raise national consciousness.

Keywords: Abdulla Avloni, Jadidism, new-style schools, pedagogy, education, "Turkish Rose or Morality", Turkestan, press, theater.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). XX asr boshlarida O'zbekiston tarixida yuz bergan siyosiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar millatning o'zligini anglash, ma'naviy uyg'onish va taraqqiyot yo'lida muhim burilish davri bo'ldi. Ana shu davrda xalq taqdiriga befarq bo'lmagan, millat kelajagini o'zining asosiy burchi deb bilgan ziyolilar qatlami yetishib chiqdi. Ularning sa'y-harakatlari natijasida jadidchilik harakati vujudga keldi. Ushbu harakat vakillari orasida o'zining pedagogik, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, adabiy va ijtimoiy faoliyati bilan ajralib turadigan siymolardan biri bu — Abdulla Avloniydir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Maqolani tayyorlashda Abdulla Avloniyning hayoti va ijodini yorituvchi ilmiy-publitsistik matn, shuningdek, jadidchilik harakatining asosiy tamoyillari va yetakchi namoyandalari haqidagi ma'lumotlar asos qilib olindi. Tahlil jarayonida quyidagi metodlar qo'llanildi:

Tarixiy-qiyosiy tahlil: Avloniy faoliyatini o'sha davrning tarixiy-madaniy konteksti, jadidchilik harakatining umumiy yo'nalishlari bilan qiyosiy o'rganish.

Mavzuli-analitik yondashuv: Avloniyning pedagogik, ma'rifiy, adabiy va jurnalistik

faoliyatini alohida mavzularga ajratgan holda tahlil qilish.

Bosqichma-bosqich tahlil: Avloniyning pedagogik faoliyatini ma'lum davrlarga bo'lib, har bir bosqichning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyatini yoritish.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jadidchilik — bu faqat ta'lim tizimining yangilanishi emas, balki umumiy ma'naviy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy ongni shakllantirishga qaratilgan madaniy-siyosiy harakatdir. XIX asr oxiriga kelib, Turkiston xalqlari an'anaviy maktab-madrasalarda berilayotgan diniy ta'limning zamonaviy ehtiyojlarga javob bera olmasligini anglab yetdilar. Jaholat, savodsizlik va mustamlakachilik siyosati tufayli madaniy turg'unlik yuzaga kelgan edi. Bu holat jadid ziyolilarini, jumladan, Avloniyni, yangi usuldagi maktablar ochish, darsliklar yozish, milliy teatr va matbuotni rivojlantirishga undadi.

Avloniy jadidchilikning nazariy tamoyillarini amaliyotga tatbiq etgan yetuk mutafakkir edi. Uning pedagogik qarashlari asosida insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va ijtimoiy faollik yotadi. "Turkiy guliston yoxud axloq", "Birinci muallim", "Ikkinchi muallim" kabi asarlari orqali u ta'lim-tarbiya sohasida axloqiy me'yorlar, ilmiy dunyoqarash va tanqidiy fikrlashni ilgari surdi. Bu darsliklarda diniy aqidaparastlik emas, balki dunyoviy bilim, axloqiy poklik, yurtparvarlik va fuqarolik mas'uliyati targ'ib etilgan.

Avloniy faoliyatidagi muhim jihatlaridan biri — milliy teatr va matbuot orqali xalq ongini uyg'otishdir. U birinchi teatr sahnalarini tashkil etib, spektakllar orqali ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqdi. "Nido", "Panohsizlar", "Advokatlik osonmi?" kabi pyesalari orqali xalqni hayotdagi haqiqatlarni anglashga chorladi. Bular jadidchilikning "xalq ichiga kirib, uni uyg'otish" g'oyasi bilan uyg'unlashgan edi.

Avloniy asarlarining dolzarbligi shundaki, u faqat o'z davrining emas, balki bugungi kun pedagogikasi va milliy taraqqiyot konsepsiyasi uchun ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Uning asarlaridagi ijtimoiy adolat, axloqiy

tarbiya, milliy birlik, ilm-fanga hurmat kabi qadriyatlar hanuzgacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Avloniy va jadidlar harakatining tarixiy-madaniy asoslarini o'rganish — zamonaviy o'zbek ta'limi va ma'naviyatini chuqur anglash uchun zaruriy shartlardan biridir.

Abdulla Avloniy faoliyati tarixiy va madaniy kontekstda qaralganda, u o'zbek milliy uyg'onish harakatining peshqadamlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. U jadidchilik g'oyalarini chuqur anglab, ularni o'z ijodi va pedagogik faoliyati orqali amaliyotga tatbiq etdi. Avloniy merosi — bu nafaqat o'tmishga oid tarixiy haqiqat, balki bugungi kun yoshlari uchun ham ruhiy-ma'naviy tayanch, ilm va axloq namunasi hisoblanadi.

XIX asrning oxirlarida dunyo tamaddunida bo'layotgan ulkan madaniy —ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, yangi munosabatlar u yoki bu tarzda sekinlik bilan bo'lsada, Turkiston o'lkalariga kirib kela boshladi. Yangilik tarafdorlarini Abdulla Avloniy so'zi bilan aytganda, «Gazeta o'qig'uvchilarni» mullalar «jadidchi» nomi bilan[1] atar edilar. Jadidlar Usmonli Turkiyadagi «Ganch (yosh) turk»lar tashkilotlari ta'sirida «Yosh buxoroliklar», «Yosh xivaliklar», «Yosh turkistonliklar» degan nomlarda faoliyat olib borishgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Ziyolilar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish yo'llarini topishga harakat qiladi.

Xuddi shunday jarayon XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan Qrim, Kavkazorti, Turkiston, protektoratga aylantirilgan Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham ro'y berdi. XIX asrning ikkinchi yarmida mustamlaka zulmi ostidagi ziyolilar o'z xalqlarini ma'rifatli qilish va ularning taraqqiyot darajasini ko'tarishga qaratilgan harakatlarni boshladilar.

1898-yilda Qo'qon shahrida Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabini ochdi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabini ochib, ko'plab o'quvchilarning yangi usulda

ta'lim olishlariga erishdilar. O'rta Osiyoda taraqqiyparvarlar rivojlangan jamiyat yaratishdek o'z g'oyalarini amalga oshirishda mutaassiblik, loqaydlik, qoloqlikka qarshi kurash olib borishga alohida ahamiyat berganlar. Ular bu vazifalarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlarni ustuvor deb hisoblaganlar: o'lkada yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish, qobiliyatli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, turli ma'rifiy jamiyatlar va teatr truppalari tuzish, gazeta va jurnallar chop etish, xalqning ijtimoiy-siyosiy va madaniy ongini yuksaltirish yo'li bilan Turkistonda milliy demokratik davlat qurish edi. Ilg'or milliy ziyolilar faoliyatining muhim yo'nalishi yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish edi. Bu maktablar bolalarning tez va oson savodxon bo'lishlarini Ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari ta'minlabgina qolmay, balki ularda fanatizm va konservatizmdan xoli bo'lgan yangi dunyoqarashning shakllanishiga ham xizmat qilar edi. Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonida Yevropa standartlari mezon qilib olingan edi. Arifmetika, tarix, geografiya, tabiatshunoslik asoslari singari fanlar bilan bir qatorda islom ta'limoti asoslarini o'rganishga ham katta e'tibor berilgan. Yangi darsliklar yaratish masalasi juda dolzarb bo'lib turar edi.

Dastlabki paytlarda Turkistondagi yangi usul maktablarining ko'pchiligida Qozon va Orenburgda nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan foydalanildi. Toshkent, Buxoro, Samarqand, Andijon, Qo'qon, Xiva shaharlari jadidchilik harakati markaziga aylandi.

XX asr boshlariga kelib Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysi shaharlarida o'nlab jadid usulidagi maktablar ochildi. Jadidlar maktablarda yoshlarni bilimli va ma'rifatli qilib tarbiyalab, ular orqali Turkistonda mustaqil davlat barpo etish uchun milliy davlatchilik g'oyalarini ilgari surganlar. XX asr boshiga kelib Turkistonda jadid ziyolilarining butun bir avlodi, o'lka ma'naviy-ma'rifiy soha taraqqiyotiga, milliy madaniyatning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan namoyandalari vujudga keldi. Bular Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy,

Abduqodir Shakuriy, Saidahmad Siddiqiy-Ajziy, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev, Buxoroda Abdurauf Fitrat, Sadriddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev, Farg'ona vodiysida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Obidjon Mahmudov, Abdulhamid Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Xivada Bobo'xun Salimov, Polvonniyoz hoji Yusupov va boshqalar edi. Ular vatanparvar, ma'rifatparvar, Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining asoschilari va rahnamolari hisoblanadi. Turkiston jadidlarini birlashtirishda «O'rta Osiyo jadidlarining otasi» deb tan olingan Mahmudxo'ja Behbudiy (1875–1919) ning xizmati katta bo'ldi. Dastlab Samarqand, so'ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko'tarildi. Behbudiy O'rta Osiyo jadidchilik harakatining asoschisi va yo'lboshchisi edi. Turkistonda ma'rifatparvarlik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shaxs hisoblanadi. Behbudiyning tashabbusi bilan o'z otasi sharafiga «Behbudiya kutubxonasi» deb atalgan kutubxona tashkil qilingan. O'zbek milliy teatrining shakllanishida jadidlarning o'rni katta edi.

Jadidchilik harakati jamiyatni yangilashga, ilmiy va madaniy rivojlanishni yangi shakllarda ifodalashga intildi. Shu sababli, jadid pedagoglari o'zlarining maqsadlariga erishish uchun, xalq ta'limini yangilash, o'zgarishlarni amalga oshirish yo'lida juda ko'p kuch va vaqt sarfladilar. Avloniyning pedagogik qarashlari ham aynan shu harakatning bir qismi sifatida shakllandi va rivojlandi.

XX asrning boshlarida, O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda kuchli o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu davrda milliy anglash va ta'limda yangi o'zgarishlarga ehtiyoj tug'ildi. Shuningdek, o'zbek xalqining o'z ma'naviy va madaniy qadriyatlarini qayta tiklash, yangi jamiyat qurish istagi rivojlandi. Ushbu davrda jadidchilik harakati millatni yuksaltirish, ta'limni yangilash va xalqni ilmfan sohasida oldinga olib chiqish yo'lida katta o'rin tutdi. Jadidchilar yangi g'oyalar, pedagogik usullar va ta'lim metodlarini ishlab

chiqib, ularni keng jamoatchilikka taqdim etdilar. Abdulla Avloniy shu harakatning yetakchi figurasi sifatida ajralib turdi.

Uning bolaligi o'tmishda, an'anaviy, diniy ta'limni olish bilan o'tdi. Biroq Avloniy yoshligidan yangilikka intilish, ilm-fanga bo'lgan qiziqish bilan ajralib turdi. Avloniy o'zining dastlabki ta'limini maktabda olgan bo'lsa-da, u ilgari surayotgan pedagogik g'oyalari faqat an'anaviy tizimga tayanib qolmasdan, ilm-fan va yangiliklarga asoslangan metodlarni ham ilgari surdi. Shuning uchun ham Avloniy yangi pedagogik g'oyalarni qo'llab-quvvatlab, o'zining tajriba va bilimlarini keng ommaga taqdim etishga harakat qildi.

Avloniyning jadidchilik harakatiga qo'shilishi, uning hayotida katta burilish nuqtasiga aylandi. Jadidchilik faqat ta'limni yangilashni emas, balki xalqni yangi g'oyalar va madaniy qadriyatlar asosida tarbiyalashni ham nazarda tutgan edi. Avloniyning ta'limga bo'lgan yondashuvi aynan shu yo'nalishda rivojlandi.

Abdulla Avloniyning pedagogik merosi milliy madaniyat va ta'lim tizimining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. U ta'limni nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya manbai sifatida ko'rdi. Avloniy o'z asarlarida xalqning milliy qadriyatlarini, din va axloqni ta'lim jarayoniga joriy etish zarurligini ta'kidlab o'tdi. U o'zining pedagogik g'oyalari ilgari surish orqali nafaqat yangi ta'lim tizimini yaratishga, balki yoshlarni tarbiyalashda ularga milliy g'urur, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy qadriyatlarni singdirishga harakat qildi.

Avloniyning faoliyati va pedagogik qarashlari o'z vaqtida zamonaviy ta'limning yangi talablariga javob berishga intildi. Uning asosiy maqsadi — o'quvchilarda intellektual, ma'naviy va ijtimoiy bilimlarni o'rgatish, shuningdek, ularda milliy tafakkur, xalq madaniyati va an'alariga hurmat tuyg'usini shakllantirish edi.

Avloniy faqatgina ta'limni yangilashga emas, balki yoshlar tarbiyasida yuksak axloqiy qadriyatlarni tarbiyalashga ham katta e'tibor qaratdi. Uning pedagogik qarashlari faqatgina ilmiy bilimlarga asoslanib qolmay, balki

insonning ma'naviy-axloqiy shakllanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi.

Avloniy o'zining pedagogik faoliyatida an'anaviy ta'lim tizimidan tashqariga chiqib, milliy g'oya va qadriyatlarni asosiy tamoyil sifatida qabul qildi. U ta'limni nafaqat ilmiy jihatdan, balki ma'naviy va axloqiy nuqtai nazardan ham rivojlantirishga harakat qildi. Uning pedagogik qarashlarining asosida xalqni bilim olishga qiziqtirish, shuningdek, ularni axloqiy tarbiya va ma'naviy yuksalishga yo'naltirish g'oyasi yotadi. Avloniy o'z asarlarida ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarda ilmiy bilimlarni berishdan tashqari, insoniy fazilatlarni ham shakllantirish ekanligini ta'kidlaydi.

Avloniy ta'limning muhim komponenti sifatida ma'naviy tarbiyani ajratib ko'rsatdi. U ta'limni faqat ilm-fan bilan cheklanmasdan, unga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni ham singdirish zarurligini ko'rsatdi. Uning fikricha, maktabda o'qitilayotgan fanlar yoshlarni nafaqat bilim bilan, balki o'zligiga, milliy qadriyatlariga, tarixiy merosiga ham mehr uyg'otishi kerak. O'zbek xalqining tarixiy tajribasini, uning axloqiy qadriyatlarini o'qitish ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lishi zarur edi.

Pedagogik faoliyatida Avloniy Islom dinini va uning tarbiyaviy jihatlarini ham yuksak qadrladi. U ta'limda diniy-axloqiy qadriyatlarni o'rganishning ahamiyatini qayta tiklashga harakat qildi. Dinni o'rganish o'quvchilarda insonparvarlik, adolat, to'g'rilik, axloqiy poklik kabi sifatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutishi kerakligini ta'kidlagan.

Avloniy pedagogik faoliyatini turli bosqichlarda amalga oshirgan.

Abdulla Avloniy (1878–1934) — o'zbek pedagogik tafakkurining asoschilaridan biri bo'lib, uning ma'rifiy va tarbiyaviy faoliyati xalqimizning madaniy-ma'naviy uyg'onishida beqiyos rol o'ynagan. Avloniy faoliyati faqatgina o'qituvchilik bilan cheklanmagan, balki u adabiyot, teatr, jurnalistika va ijtimoiy islohot sohalarini pedagogik g'oyalar bilan bog'lab olib borgan. Uning pedagogik qarashlari zamon talablaridan kelib chiqib bosqichma-bosqich takomillashgan va o'zbek

xalqining tarixiy taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda shakllangan.

Quyida Avloniy pedagogik faoliyati uch asosiy bosqichga ajratilib, ilmiy tahlil qilinadi.

1-bosqich: Ma'rifiy uyg'onish davri (1890-yillar oxiri – 1910-yillar boshi)

Bu bosqich Avloniyning ilmga intilishi, savodxonlik va ma'rifatni keng targ'ib qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan davridir. U yangi usuldagi maktablar ochish harakatida bo'lib, an'anaviy maktab-madrasalarning eskirgan tizimini isloh etishga kirishadi. Shu davrda u Toshkentda birinchi yangi usul maktablarini ochadi va bu dargohlarda o'zi shaxsan dars beradi.

Avloniy shu bosqichda o'zining ilk darsliklarini yaratishga kirishadi. Jumladan, "Birinchi muallim" (1909) va "Ikkinchi muallim" (1912) darsliklari ta'lim mazmunini zamonaviylashtirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Ushbu darsliklarda dunyoviy bilimlar, axloqiy-me'yoriy tushunchalar, ona tilini o'rgatish metodikasi muhim o'rin egallaydi.

Bu bosqichdagi faoliyati jadidchilik harakati bilan to'liq uyg'unlikda olib borilgan bo'lib, Avloniy o'z pedagogik faoliyatida xalqni uyg'otish, yoshlarni ilm-fan bilan qurollantirish g'oyasini birinchi o'ringa qo'ygan.

2-bosqich: Madaniy-ma'rifiy faoliyatning kengayish davri (1910–1920-yillar)

Ikkinchi bosqichda Avloniy faqat maktab bilan cheklanmay, pedagogik g'oyalarni keng jamoatchilik orasida targ'ib qilishga intiladi. U bu davrda teatr, matbuot, publitsistika kabi ommaviy vositalar orqali xalq ongini yuksaltirishni maqsad qilgan.

Avloniy 1913-yilda yozgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asari bu bosqichdagi pedagogik faoliyatining yuksak cho'qqisidir. Mazkur kitob yosh avlodni axloqiy tarbiyalash, milliy ong va insoniy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'z davrida pedagogik metodologiya sohasida muhim yangilik bo'lgan.

Shuningdek, u teatrni "xalqni tarbiyalashning kuchli quroli" deb bilib, spektakllar orqali savodsizlik, jaholat, adolatsizlik kabi ijtimoiy illatlarga qarshi kurashgan. Uning dramalari didaktik

xarakterda bo'lib, axloqiy g'oyalarni ommaga etkazishga xizmat qilgan.

Bu bosqichda Avloniy maktab ta'limini isloh qilish bilan birga, o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish masalasiga ham katta e'tibor qaratgan. U o'qituvchi shaxsiga katta e'tibor berib, uni «millat tarbiyachisi» sifatida talqin etgan.

3-bosqich: Davlat tizimidagi pedagogik faoliyat (1920–1934-yillar)

Bu bosqichda Avloniy Sovet hokimiyati davrida rasmiy ta'lim tizimi bilan faol ishlay boshlaydi. U xalq maorifi bo'yicha turli lavozimlarda ishlaydi, o'quv dasturlari va metodik materiallar ishlab chiqishda qatnashadi.

Ushbu davrda u o'zining boy pedagogik tajribasini davlat maktab tizimiga tatbiq etishga harakat qilgan. Ayniqsa, o'zbek maktablarini dunyoviylashtirish, fanlarni ona tilida o'qitish va bolalarni yoshligidan jamoaviy ishlarga jalb qilish masalalariga e'tibor qaratadi.

Avloniy bu davrda ham o'qituvchilar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida ko'rgan va respublika bo'ylab ta'limni ommalashtirishda faol ishtirok etgan. Shu bilan birga, u o'zining avvalgi ma'rifiy g'oyalaridan voz kechmagan, balki ular asosida yangi siyosiy-ijtimoiy kontekstga moslashtirilgan ta'lim konsepsiyasini shakllantirgan.

Abdulla Avloniy pedagogik faoliyati bir necha bosqichda rivojlanib, har bir bosqich o'zining muayyan tarixiy-madaniy sharoitiga, ijtimoiy-siyosiy vaziyatiga qarab shakllangan. U ilk bosqichlarda jadidchilik g'oyalari orqali maktab islohoti va ma'rifatni yoyish bilan shug'ullangan bo'lsa, keyingi bosqichlarda bu g'oyalarni keng ijtimoiy qatlamlarga yetkazish, ommaviy madaniyat vositalari orqali pedagogik g'oyalarni targ'ib qilishni maqsad qilgan. So'nggi bosqichda esa rasmiy davlat tizimi doirasida pedagogik islohotlarni hayotga tatbiq etgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Abdulla Avloniyning pedagogik merosi milliy madaniyat va ta'lim tizimining rivojlanishiga ulkan ta'sir ko'rsatdi. U ta'limni nafaqat ilmiy, balki ma'naviy-axloqiy tarbiya manbai sifatida ko'rgan. Uning

asarlarida xalqning milliy qadriyatlarini, din va axloqni ta'lim jarayoniga joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Avloniyning faoliyati va pedagogik qarashlari o'z vaqtida zamonaviy ta'limning yangi talablariga javob berishga intilgan. Uning asosiy maqsadi —

o'quvchilarda intellektual, ma'naviy va ijtimoiy bilimlarni o'rgatish, shuningdek, ularda milliy tafakkur, xalq madaniyati va an'analariga hurmat tuyg'usini shakllantirish edi.

**ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /
REFERENCES):**

1. Avloniy A. *Turkiy guliston yoxud axloq*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
2. Avloniy A. *Adabiyot yoxud milliy she'rlar*. – Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2013.
3. Qalandarova D.A. Abdulla Avloniy darsliklarining bugungi kundagi ahamiyati. // *sciencepromotion.uz*, 2024-yil 30-may.
4. Avloniy A. *Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar: O'zbekiston xalq pedagogikasi*. – Toshkent: Ma'naviyat, 1991.
5. Olim O. *Jadid adabiyoti namoyondalari: Abdulla Avloniy*. – Toshkent: Zabarjad Media, 2022. – 432 b.
6. Avloniy A. *Tanlangan asarlar* (Selected Works). Ikki jildda. / Nashrga tayyorlovchi: B. Qosimov. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

O‘ZBEKISTONDA KEKSALAR VA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ FUQAROLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING RIVOJLANISHI: QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA

Tursunov O‘ktam Saypullayevich

Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o‘qituvchisi

e-mail: utursunov089@gmail.com.

<https://orcid.org/0009-0004-4942-0601>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda, xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida, qariyalar, yolg‘iz va kam ta‘minlangan nafaqaxo‘rlarni ijtimoiy himoya qilish tizimining evolyutsiyasini tahlil qiladi. Unda mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar va ularning nafaqa tizimiga ta‘siri, shuningdek, ijtimoiy himoyada yuzaga kelgan nomutanosibliklar yoritilgan. Maqolada “Nuroni” jamg‘armasining tashkil etilishi va uning faxriylarga moddiy, ma‘naviy, tibbiy yordam ko‘rsatishdagi, shuningdek, milliy qadriyatlarni targ‘ib qilishdagi o‘rni atroflicha ko‘rsatilgan. Maqola O‘zbekistonda ijtimoiy himoya siyosatining bosqichma-bosqich takomillashuvini va ushbu jarayonda erishilgan yutuqlar hamda hal etilishi lozim bo‘lgan masalalarni aks ettiradi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy himoya, nafaqa, "Nuroni" jamg‘armasi, Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati, faxriylar, nogironlar.

Аннотация: В статье анализируется эволюция системы социальной защиты пожилых, одиноких и малообеспеченных пенсионеров в Узбекистане, в частности в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях. Освещены экономические трудности первых лет независимости и их влияние на пенсионную систему, а также возникшие диспропорции в социальной защите. В статье подробно описывается создание Фонда «Нуроний» и его роль в оказании материальной, моральной и медицинской помощи ветеранам, а также в продвижении национальных ценностей. В статье отражено постепенное совершенствование политики социальной защиты в Узбекистане, достижения и проблемы, которые необходимо решить в

этом процессе.

Ключевые слова: Социальная защита, пенсия, Фонд «Нуроний», Кашкадарьинская область, Сурхандарьинская область, ветераны, инвалиды.

Abstract: This article analyzes the evolution of the social protection system for the elderly, single and low-income pensioners in Uzbekistan, in particular in the Kashkadarya and Surkhandarya regions. It highlights the economic difficulties of the early years of independence and their impact on the pension system, as well as the imbalances that have arisen in social protection. The article describes in detail the establishment of the Nuroni Fund and its role in providing material, moral and medical assistance to veterans, as well as in promoting national values. The article reflects the gradual improvement of social protection policy in Uzbekistan and the achievements and issues that need to be resolved in this process.

Keywords: Social protection, pension, Nuroni Fund, Kashkadarya region, Surkhandarya region, veterans, disabled people.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga, xususan, qariyalar, yolg‘iz va kam ta‘minlangan nafaqaxo‘rlarga g‘amxo‘rlik qilishni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgiladi. Bu borada respublikaning turli hududlarida, jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi. Biroq, mustaqillikning ilk yillaridagi

iqtisodiy va tizimiy qiyinchiliklar ijtimoiy himoya mexanizmlarining to'liq shakllanishiga to'sqinlik qildi, bu esa ushbu yo'nalishda yangi yondashuvlar va tizimli islohotlarga ehtiyoj tug'dirdi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1990-yillarning boshlaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar nafaqa tizimining barqaror ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu davrda mamlakat yangi bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida edi, moliyaviy resurslar cheklangan bo'lib, bu nafaqaxo'rlarga to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirishda jiddiy uzilishlarga olib keldi. Misol uchun, 1992-yilda Qashqadaryo viloyati bo'yicha 106 million so'm nafaqa berilishi lozim bo'lgan bo'lsa-da, moliyaviy yetishmovchilik tufayli amalda atigi 68 million so'm berilgan. Surxondaryo viloyatida ham vaziyat shunga o'xshash bo'lib, rejalashtirilgan 82 million so'm o'rniga faqat 40 million so'm nafaqa tarqatilgan. Bu holat, shubhasiz, nuroniylar va kam ta'minlangan oilalar hayotiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.

Yolg'iz qariyalar ustidan g'amxo'rlik qilishga alohida e'tibor berilgan bo'lsa-da, ularning barcha muammolarini to'liq hal etish imkoniyati cheklangan edi. 1992-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Surxondaryo viloyatida 1850 nafar yolg'iz qariya mavjud bo'lib, ularning atigi 1293 nafarigagina moddiy-iqtisodiy yordam va xizmat ko'rsatilgan. Qolaversa, bu qariyalar orasida 909 nafari farzand yoki yaqin qarindoshlarga ega emasligi ularning ijtimoiy zaifligini yanada oshirgan. Ularning 447 nafari mustaqil harakat qila olmasdan, doimiy yordamga muhtoj bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bo'lgan yolg'iz qariyalar soni esa 73 nafarni tashkil etardi, bu ham ularga alohida e'tibor zarurligini ko'rsatardi.

Yuzaga kelgan muammolarni hal etish ikki asosiy yo'nalishda amalga oshirila boshlandi. Birinchidan, mahalliy byudjet hisobidan nafaqa ajratish mexanizmi joriy etildi. Bu markaziy byudjetdagi cheklovlar sharoitida hududlarga o'z imkoniyatlari doirasida aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash imkoniyatini berdi. Masalan, Denov tumanida M. Raxmatova, N. Qiyomova, M. Abdullayeva,

O'. Otamurodova va S. Jo'rayevalarga shahar ijroiya qo'mitasining qarori bilan mahalliy byudjetdan nafaqa belgilandi. Bu tajriba keyinchalik boshqa hududlarda ham qo'llanila boshlandi.

Ikkinchidan, yolg'iz qariyalarni ijtimoiy himoyalash uchun hashar (jamoat yordami) amaliyoti keng yo'lga qo'yildi. Bu O'zbekistonning azaliy qadriyatlaridan kelib chiqqan holda, aholining o'zaro yordam va hamjihatlik ruhini aks ettirdi. Misol uchun, Sariosiyo tumanida birgina 1991-yilning to'rtinchi choragida 27 nafar nafaqaxo'rning uyi kapital ta'mirlandi, yana 41 nafarining uyi joriy ta'mirlandi. Bu kabi hasharlar nafaqat moddiy yordamni ta'minladi, balki yolg'iz kishilarning jamiyatga integratsiyasini mustahkamlashga ham xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekistonda ijtimoiy himoya tizimi hali to'liq shakllanmagan edi. Ehtiyojmand fuqarolar ustidan g'amxo'rlik qilishda ko'plab muammolar mavjud bo'lib, eng asosiysi, ushbu jarayonda mukammal va uyg'unlashgan mexanizm mavjud emas edi. O'sha davrda tashkil topa boshlagan turli jamg'armalar va nodavlat tashkilotlari, masalan, "Mehribonlik va salomatlik", "Bolalar fondi", "Tinchlik" fondi, urush va mehnat faxriylari fondi, karlar, ko'zi ojizlar, baynalmilal-jangchilar, "Chernobilchilar" kabi o'nlab tashkilotlar o'z bank hisob-raqamlariga ega bo'lsa-da, ularning faoliyatida uyg'unlik yo'q edi. Har bir tashkilot o'zicha faoliyat ko'rsatganligi sababli, yolg'iz qariyalarni ijtimoiy himoya qilishda boshboshdoqlik yuzaga keldi.

Bunday nomutanosiblikka barham berish va ijtimoiy himoya tizimini markazlashtirish zarurati tug'ildi. Shu maqsadda, 1996-yil 4-dekabrda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning "O'zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Bu Farmon ijtimoiy himoya sohasida tub burilish yasadi. "Nuroniylar" jamg'armasi faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan nodavlat jamoat birlashmasi sifatida tuzildi. Farmonda jamg'armani qo'llab-quvvatlash, uning faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish

davlat, ishlab chiqarish korxonalari rahbarlari, tadbirkorlar, boshqa yuridik shaxslar va fuqarolarning keksa avlod oldidagi farzandlik burchi ekanligi alohida ta'kidlandi. Bu, jamiyatning barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya ishlariga jalb etishga qaratilgan muhim qadam edi.

Jamg'arma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 31-dekabrda Qaroriga ko'ra, 17 ta davlat va jamoat tashkilotlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Respublika Kasaba uyushmalari federatsiyasi, "O'zbekneftgaz" milliy korporatsiyasi, "Mahalla" xayriya jamg'armasi, "Vatanparvar" tashkiloti va boshqalar tomonidan ta'sis etildi. Bu uning faoliyatiga keng ko'lamli ko'mak va barqarorlikni ta'minladi.

"Nuroni" jamg'armasi O'zbekiston Markaziy Kengashidan tashqari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'limlari, tuman va shahar bo'linmalariga ega bo'lib, ularning huzurida jamoatchilik markazlari faoliyat ko'rsatdi. Jamg'arma belgilangan tartibda ishlab chiqarish hamda tadbirkorlik faoliyatini ham amalga oshirib, o'z mablag' bazasini mustahkamladi.

Mazkur jamg'arma oldiga quyidagi muhim vazifalar qo'yildi:

- Respublikada o'tkazilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishda, ayniqsa urush va mehnat faxriylari, nogironlarni e'zozlash, ularning atrofida ehtiromli muhit hosil qilish, zarur moddiy, ma'naviy, tibbiy yordam ko'rsatish.

- Jamiyatni yangilash va rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini mustahkamlash, faxriylarning ijtimoiy-siyosiy hayotda faol ishtirok etishlari, bor bilim va salohiyatlarini istiqloq ishiga safarbar etishlari, mustabid sovet tuzumining xalqimiz, o'lkamiz taraqqiyotiga yetkazgan zararini chuqur tahlil etishi hamda jamoatchilikka yetkazishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

- Milliy qadriyatlarimiz, o'zbekona erksevarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, totuvlik, boshqalarga izzat-ikrom xislatlarini

avloddan-avlodga o'tib, yanada boyitishga hissa qo'shish.

- Faxriylar va nogironlarning moddiy sharoitini yaxshilash, ular uchun belgilangan imtiyozlarning, nafaqa to'g'risidagi qonunchilikning to'la va o'z vaqtida amalga oshirilishida rahnamolik qilish, bu borada ijrochi hokimiyat organlariga ko'maklashish, keksalar, yordamga muhtoj boshqa turli tabaqalarga savdo, madaniy-maishiy, tibbiy yordamlar ko'rsatish, shu maqsadlarga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, tijorat, noshirlik, xayriya ishlarini amalga oshirish, ommaviy tadbirlar o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni faxriylar va keksa fuqarolarni ijtimoiy himoyalash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi. 1996-yilda Surxondaryo viloyatining o'zida 707 ta boshlang'ich faxriylar tashkilotlari faoliyat ko'rsatgan. Shulardan 212 tashkilot mahallalarda va 495 tashkilot mehnat jamoalarida bo'lib, ular 145942 nafar nafaqa oluvchi nuroniyni o'z saflariga birlashtirgan. Ushbu nafaqa oluvchi nuroniylarning 4900 nafardan ko'prog'i urush qatnashchilari va 11200 nafari esa front orti-mehnat faxriylari edi. Bu ma'lumotlar jamg'armaning aholini keng qamrab olishga muvaffaq bo'lganini ko'rsatadi.

Surxondaryo viloyatida "Nuroni" jamg'armasi bo'limi faxriylar korxonalarini tashkil etish masalasiga ham alohida e'tibor bera boshladi. Xususan, 1996-yilda viloyatda 42 ta shunday korxonalar tashkil etildi. Ularda 280 nafar kishi, jumladan, 185 nafar urush va mehnat faxriylari mehnat qildilar. 1996-yilning 9 oyida faxriylar korxonalari tomonidan 11,6 million so'mlik ish bajarildi. Shu jumladan, 1,3 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, 8,9 million so'mlik qurilish va ta'mirlash ishlari bajarildi, aholiga 1,4 million so'mlik turli xizmatlar ko'rsatildi. Bu iqtisodiy faoliyat orqali ham faxriylarning moddiy ta'minotini yaxshilashga erishildi[1].

Surxondaryo viloyatida nuroni-faxriylarni ijtimoiy himoyalash bo'yicha muayyan ishlar davom ettirildi. 1998-yilda viloyatda jami 159493 nafar nafaqa oluvchilar bo'lgan bo'lsa, ularning 35362 nafari nogironlar edi. Ikkinchi

jahon urushi nogironlarining soni 2061 nafarni tashkil etdi. “Nuroni” jamg‘armasi Surxondaryo viloyat bo‘limi nogironlarni moddiy-iqtisodiy jihatdan ta‘minlash uchun turli vositalardan foydalandilar. 1998-yil davomida O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta‘minot vazirligi tomonidan ajratilgan 38 ta nogironlar aravachalari, 35 ta eshitish apparatlari hamda 764 ta tayanch vositalari egalariga yetkazildi. Shu yilning o‘zida 92 nafar nogiron faxriylar “Semashko”, “Surxon” kabi sihatgohlarda o‘z salomatliklarini tikladilar. [2]

Ayni paytda, ta‘kidlash lozimki, viloyatda bu borada qator muammolar ham mavjud edi. Masalan, kam ta‘minlangan ko‘p bolali oilalar soni yildan yilga ortib bordi. Jumladan, bunday oilalar soni 2000-yil 1-yanvardagi ma‘lumotlarga binoan 12406 nafar bo‘lsa, shu yilning 1-oktyabriga kelib ular soni 1558 nafarga ortib, jami 13964 nafarni tashkil etdi. Shuningdek, eng kam pensiya oladiganlar soni ham ortib bordi. Chunonchi, 2000-yil 1-yanvari bo‘yicha ular soni 10671 nafar bo‘lsa, 1-oktyabr ma‘lumotiga ko‘ra ular soni 1514 nafarga ko‘payib, jami 12185 nafarni tashkil etdi. Shu yili viloyatda 1557 nafar ko‘zi ojiz va 100 nafar gung nogironlar ham bor edi.

Shuni ham alohida ta‘kidlash lozimki, butun respublikada bo‘lgani kabi Surxondaryo viloyatida ham urush qatnashchilari, urush nogironlari, urush orti faxriylari soni muttasil ravishda kamayib bordi. Jumladan, 2000-yil 1-yanvar hisobiga ko‘ra bu yerda urush qatnashchilari soni 1116 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, shu yilning oktyabrida ular soni 272 nafarga kamaydi. Urush nogironlarining soni esa 292 nafarga kamaydi. Shu qisqa muddat ichida urush orti faxriylarining soni 1047 nafarga kamaydi. Bu tendensiya mavjud faxriylarga bo‘lgan g‘amxo‘rlikni yanada oshirishni talab qilar edi.

Ushbu misollar shundan dalolat beradiki, faxriylar, yolg‘iz faxriylar, urush qatnashchilari soni yildan yilga muntazam ravishda kamayib bordi. Ushbu faktning o‘zi ham ularga bo‘ladigan g‘amxo‘rlik, davlat tomonidan beriladigan moddiy va ma‘naviy g‘amxo‘rlikni yanada oshirishni talab qildi. Ayni paytda, bunday yordamlar o‘z ijobiy

ta‘sirini ko‘rsata boshladi. Viloyatda o‘zgalar yordamiga muhtojlar soni kamayib bordi. Xususan, yuqorida muddatlari keltirilgan davr mobaynida viloyat bo‘yicha o‘zgalar yordamiga muhtoj oilalar soni 146 taga kamaydi.

Viloyatda mavjud urush qatnashchilari, front orti faxriylarini ijtimoiy himoyalashda ularni reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta‘minlash alohida o‘ringa ega edi. Shuning uchun ham Surxondaryo viloyatida bu masalaga katta e‘tibor berildi. Viloyat bo‘yicha 1999-yilda 69 ta nogironlar aravachasi tarqatilgan bo‘lsa, bu raqam 2001-yilga kelib 189 taga yetdi. Shuningdek, 1999-2001-yillarda 182 ta eshitish moslamasi, shu davr mobaynida 1318 ta qo‘ltiq tayoq, 1615 ta hasa topshirildi. 2001-yilgi ma‘lumotlarga binoan 933 nafar nogironlar sihatgohlarga yo‘llanmalar oldilar. [3] Bu chora-tadbirlar nogironlarning mustaqil hayot kechirishlari va jamiyatga integratsiyalashuviga yordam berdi.

O‘zbekiston Respublikasida azaliy qadriyatlar, qadimiy urf-odatlar qariya, yoshi ulug‘ insonlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularni moddiy va ma‘naviy jihatdan rag‘batlantirib turish butun jamiyat, har bir fuqaroning sof insoniy burchi ekanligidan dalolatdir. Bunday hol O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan muntazam ravishda e‘tiborga olib kelinmoqda. Shu asnoda 2002-yil O‘zbekistonda “Qariyalarni qadrlash yili” deb e‘lon qilindi. Bu tashabbus keksalarga bo‘lgan hurmat va ehtiromni yanada oshirish, ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli tadbirlar uchun zamin yaratdi.

Haqiqatdan ham, yuqorida qayd etilgani kabi, O‘zbekiston jamiyatida nuroniylarga bo‘lgan munosabat o‘ta samimiy, aniq va manfaatli ravishda olib borilishi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimov ta‘kidlaganidek, o‘sha vaqtda “bunday faxriylarimizning soni 3 million 87 ming nafar kishini tashkil etadi. Ularga har oyda 28 milliard so‘m miqdorida pensiya to‘lanmoqda.” Davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam bilan birga, keksalarimizga ko‘pgina jamoat tashkilotlarining ham moddiy va ma‘naviy ko‘mak berayotgani, bunday harakat kengayib

borayotgani, ayniqsa ibratli edi. Xususan, “Nuroni” jamg‘armasi tomonidan urush va mehnat faxriylariga 125 million so‘mdan ortiq yordam ko‘rsatilgani ham bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasida “Qariyalarni qadrlash yili”ning e‘lon qilinishi, bu bo‘yicha chiqarilgan huquqiy dasturi, shuningdek, O‘zbekistonning barcha hududlarida qariya, nogiron, faxriylarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha olib borilgan ishlar o‘zining muayyan samarasini berdi.

2004-yilda Surxondaryo viloyatida 223669 kishi pensiya va nafaqa oldi. Shulardan 3000 nafari urush qatnashchilari va nogironlari bo‘lib, ularning 1043 nafari 1-guruh, 1079 nafari 2-guruh urush nogironlari edi. 16064 nafar urush orti faxriylari, 145276 nafari yoshi to‘lib pensiyaga chiqqan keksalar edi. Birgina 2002-yildan 2004-yilgacha Surxondaryo viloyatida 12475 nafar fuqaroga yangi pensiyalar tayinlandi. [4]

Shuningdek, viloyatda 281 nafar Afg‘on urushi nogironlari, 366 nafar ChAES (Chernobil AES) nogironlari va 1780 nafar yakka-yolg‘iz qariyalar istiqomat qilishdi. Viloyat bo‘yicha tasdiqlangan tartibga binoan 2614 nafar yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlar hisobga olingan. Ulardan 1110 kishi uylarida, 594 kishi shifoxonalarda davolandilar. Dori-darmonlarga ehtiyoji bo‘lganlarning har biriga o‘rtacha 5,5 ming so‘mlik dori-darmon yetkazildi. Har bir ro‘yxatga olingan yakka-yolg‘izga 55 ming so‘mlik qo‘shimcha moddiy yordam ko‘rsatildi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. Karimovning “O‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz keksalarni ijtimoiy himoya qilish haqida”gi Farmoniga binoan ro‘yxatga olingan fuqarolarga 55,4 million so‘mlik 9 turdagi oziq-ovqat mahsulotlari, homiylar hisobidan 30,8 million so‘mlik moddiy va insonparvarlik yordami ko‘rsatildi. Shu bilan birga, muhtoj nogironlarga 153 ta nogironlar aravachasi, 282 ta hassa, 164 ta qo‘ltiqayoq, 83 ta ko‘zoynak, 151 ta eshitish moslamalari tarqatildi. 259 nafar yolg‘iz pensioner turli sihatgohlarga borib sog‘liklarini tikladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 7-sentyabrdagi PQ-459-sonli qarori bilan tasdiqlangan “2007-2010 yillarda yolg‘iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni aniq ijtimoiy muhofaza qilish va ularga ijtimoiy xizmat ko‘rsatishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi dastur avval qabul qilingan dasturlarning mantiqiy davomi bo‘lib, uning maqsadi yolg‘iz keksa pensionerlar va nogironlarning, kam ta‘minlangan oilalar va boquvchisini yo‘qotgan oilalarning manfaatlarini himoya qilish borasidagi respublikada amalga oshirilayotgan maqsadli ishlarni yanada chuqurlashtirish, ularning ko‘lami va ta‘sirchanligini oshirish edi.

Dastur 3 ta yo‘nalishdan iborat bo‘lib, unda 30 ta chora-tadbirning ijrosi ko‘zda tutilgan:

1. “Ijtimoiy xizmat tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi yo‘nalishda 10 ta chora-tadbir.

2. “Yolg‘izlarni davolash va sog‘lomlashtirish, gerontologik va geriatric yordamni kuchaytirish to‘g‘risida”gi yo‘nalishda 16 ta chora-tadbir.

3. Yolg‘izlarning “Uy-joy maishiy sharoitlarini yaxshilash borasida”gi yo‘nalishda 4 ta chora-tadbir.

Dasturda ko‘zda tutilgan chora-tadbirlarning ijrosi uchun jami 30144,3 million so‘m ajratish rejalashtirilgan bo‘lib, ulardan 14282,8 million so‘m (rejaning 47,4 foizi) byudjet mablag‘idan, 15862,2 million so‘mi (52,6 foizi) esa idora va tashkilotlar, homiylar mablag‘laridir. Bu ulkan mablag‘lar ijtimoiy himoya sohasiga davlat va jamiyat tomonidan ko‘rsatilayotgan ulkan e‘tiborni ko‘rsatadi.

O‘zbekiston hukumati ehtiyojmand yoshi ulug‘larni ijtimoiy himoyalashni maqsadli ravishda, qat’iy reja asosida, muntazamlilik tamoyillariga amal qilgan holda olib bordi. Shu o‘rinda mamlakat Prezidentining 2007-yil 17-sentyabrdagi “Pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu Farmondan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad esa aholi daromadlari va farovonligi darajasini muttasil o‘stirib borish bo‘yicha aniq maqsadga yo‘naltirilgan siyosatni amalga oshirishni davom ettirish, keksalar to‘g‘risidagi

g'amxo'rlikni har tomonlama oshirish, shuningdek pensiya ta'minoti tizimini izchillik bilan takomillashtirib borishdan iborat edi.

Ma'lumki, mamlakat Prezidenti tomonidan strategik vazifa – har uch yilda aholi daromadlari va ish haqining o'rtacha hisobda 2-2,5 barobar oshirilishini ta'minlash, yaqin yillardayoq o'z aholisi daromadlari va farovonligining yuksak standartlarini ta'minlayotgan mamlakatlar darajasiga ko'tarish vazifasi qo'yilgan. Bu vazifa ijtimoiy himoya siyosatining asosini tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatida aholining nochor qatlamlarini, ayniqsa, keksa yoshdagi faxriylarni ijtimoiy himoyalash borasida qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bepul qoramol bilan ta'minlanadigan 4250 ta kam ta'minlangan oilalar ro'yxati tuzib chiqildi. Viloyat hokimining qarori bilan tasdiqlangandan so'ng ularga qoramollar tarqatildi. Ushbu rejalarni amalga oshirish bo'yicha belgilangan tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib kelindi. 2007-yilda 2007-2010-yillarda keksa yolg'izlar, pensionerlar va nogironlarni aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoya qilishni va ularga ijtimoiy xizmat ko'rsatishni yanada kuchaytirish rejasi tuzilib, tasdiqlandi va joylarga yetkazildi. 2120 nafar yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlar aniq yo'naltirilgan ijtimoiy himoyaga olindi, ro'yxatlar tuzildi, ularning ehtiyoji o'rganib chiqildi va viloyat dasturiga kiritildi.

Surxondaryo viloyatida gerontologiya (keksalarning salomatligi va kasalliklarini o'rganuvchi tibbiyot sohasi) xizmatini yaxshilash maqsadida viloyat bo'yicha 140 o'rinli gerontologiya bo'limi va xonalari tashkil etilib, keksalar va pensionerlarni sog'lomlashtirish ishlari olib borildi. 914 nafar yolg'iz keksalar uy, ambulatoriya va statsionar sharoitlarida davolandilar. Ularga ijtimoiy xizmatni yanada kuchaytirish maqsadida har biriga homiyar biriktirildi. 1042 nafar yolg'iz

keksalar, pensioner va nogironlarning uylari va kvartiralarini ta'mirlash amalga oshirildi. Bu kompleks yondashuv keksalarning nafaqat moddiy, balki tibbiy va maishiy ehtiyojlarini ham qondirishga qaratilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Mahalliy ijro hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 24-avgustdagi PQ-5230-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlarining funksional vazifalari hamda faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari to'g'risidagi namunaviy Nizomlarni tasdiqlash haqida" 2021-yil 28-avgustdagi 548-sonli qaroriga muvofiq viloyat hokimining tarmoqlar bo'yicha o'rinbosarlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash tizimi joriy qilindi. Bu tizim boshqaruv samaradorligini oshirish va har bir vazifaning ijrosini nazorat qilishga qaratilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekistonda, xususan, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida qariyalar, yolg'iz va kam ta'minlangan nafaqaxo'rlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi mustaqillikning dastlabki qiyinchiliklariga qaramay, izchil rivojlanib borgan. "Nuroniy" jamg'armasining tashkil etilishi, "Qariyalarni qadrlash yili" kabi tashabbuslar va ko'plab davlat dasturlari orqali aholining ushbu qatlamiga bo'lgan g'amxo'rlik muntazam ravishda kuchaytirilib borilgan. Bugungi kunda ham ushbu sohada faol ishlar olib borilib, boshqaruv samaradorligini oshirish va aholi farovonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar davom etmoqda. Ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali mamlakat har bir fuqaroning qadrigimmatini ta'minlashga intiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Yormatov F.J. *O'zbekistonda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi: holati, shakllanish jarayoni, rivojlanish istiqbollari (1991–2010 yillar. Janubiy viloyatlar misolida):* Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2010. – 172 b.

2. Rahimov B. *O'zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida, 1991–2005-yillar)*: Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2008. – 160 b.
3. Surxondaryo viloyati “Nuroni” jamg'armasining joriy arxivi. – 1996-yilgi ma'lumotlar.
4. Surxondaryo viloyati “Nuroni” jamg'armasining joriy arxivi. – 1998-yilgi ma'lumotlar.
5. Surxondaryo viloyati Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmasining joriy arxivi. – 2001-yilgi ma'lumotlar papkasi.
6. Surxondaryo viloyati. *Statistik ma'lumotlar*. – 2004.

TOSH DAVRI ODAMLARINI "AHOLI" DEB ATASH QANCHALIK TO'G'RI?

Shodmonov Anvar

Termiz davlat universiteti o'qituvchisianvarshodmonov83@gmail.com<https://orcid.org/0009-0006-0296-0023>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur ishda paleolit davri odamlarini "aholi" deb atash mumkinligining ilmiy asoslari ko'rib chiqiladi. Garchi bu davrda yashagan insonlar ko'chmanchi va son jihatdan juda kam bo'lgan bo'lsalar-da, ular aniq hududlarda yashagan, ijtimoiy guruhlar shakllantirgan va ovchi-yig'uvchilar jamiyatini tashkil etganliklari sababli "aholi" tushunchasi shartli ravishda qo'llanilishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda bunday guruhlar odatda "populyatsiya" yoki "inson jamoalari" deb ataladi. Shu bilan birga, bu atamadan foydalanishda ehtiyotkorlik zarurligi, zamonaviy "aholi" tushunchasining hududiy va siyosiy kontekstlarga ega ekanligi maqolada alohida ta'kidlanadi.

Kalit: so'zlar: Paleolit, "aholi", "protoaholi", demografiya, arxeologik yondashuv, til, nutq, Teshiktosh, Obirahmat, Samarqand makoni.

Abstract: The scientific basis for referring to Paleolithic humans as "population" will be discussed in this work. Although the individuals who lived during this period were nomadic and few in number, they inhabited specific regions, formed social groups, and established hunter-gatherer societies, which allows for the conditional application of the term "population." In scientific literature, such groups are often referred to as "populations" or "human communities." However, caution is advised when using this term, as the modern concept of "population" carries territorial and political connotations, which will be emphasized in the article.

Keyword: Paleolithic, Population, Proto-population, Demography, Archaeological approach, Language, Speech Teshiktosh, Obirahmat, Samarkand region.

Аннотация: В данной работе рассматриваются научные основания возможности называть людей палеолита

"населением". Хотя люди этого периода были кочевыми и численно очень малочисленными, они все же жили на определенных территориях, формировали социальные группы и организовывали общество охотников и собирателей, что позволяет условно использовать термин "население". В научной литературе такие группы обычно обозначаются как "популяции" или "человеческие сообщества". Однако стоит отметить, что при использовании этого термина необходимо проявлять осторожность, так как современное понятие "население" связано с территориальными и политическими контекстами.

Ключевые: Палеолит, Население, Протонаселение, Прото-население, Демография, Археологический подход, Язык, Речь, Тешикташ, Обирахмат, Самаркандский регион.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Aholi — bu yer yuzida yoki uning ma'lum bir hududi (qit'a, mamlakat, viloyat, shahar)da yashovchi insonlar(ijtimoiy guruhlar) yig'indisidir. Aholi nufuzi masalalarini o'rganish bilan maxsus fan — demografiya shug'ullanadi.

Tosh davri odamlari haqida so'z borganda ularni "aholi" deb atashda ehtiyotkorlikka rioya qilish lozim. Chunki "aholi" atamasi zamonaviy davrda odatda davlat chegaralari(dunyo aholisi yoki mamlakat aholisi) yoki shaharlarga nisbatan qo'llaniladi. Paleolit davrida(davrga nisbatan bu tushuncha ishlatilmaydi) esa bunday tushunchalar mavjud bo'lmagan. Aholini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar qatorini — uning takror barpo qilinishi (tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish, tabiiy o'sish), joylanishi, urbanizatsiyasi, migratsiyasi, yosh jinsiy

tarkibi va oilaviy holati, ma'lumot darajasi, irqiy, til, etnik, diniy tarkibi tashkil etadi.

Tosh davrida yashagan odamlarni "aholi" deb atash ilmiy jihatdan asosli bo'lishi uchun dalillar antropologiya, arxeologiya, tarix va biologiya fanlariga tayangan holda taqdim etilishi lozim.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Aholi deb atalishi uchun qat'iy belgilanadigan aniq odamlar soni mavjud emas, lekin bu tushuncha kontekstga bog'liq ravishda ishlatiladi: demografiya, arxeologiya, biologiya yoki sotsiologiyada aholini belgilashda turli yondashuvlar mavjud.

Quyida bu masalaga ilmiy jihatdan asoslangan tushuntirishlar keltiraman:

Aholi statistikasi (Demografik) nuqtai nazaridan: "Aholi" deganda odatda bir hududda doimiy yashovchi odamlar yig'indisi tushuniladi. Shahar yoki qishloq aholisini hisoblashda odatda son jihatdan chegaralanmaydi: 10 kishilik qishloq ham "aholi punkti" bo'lishi mumkin.

Biologik va genetik barqarorlik nuqtai nazaridan: Aholi bo'lish uchun kamida 160 kishidan 500 kishi oralig'ida bo'lishi kerak, aks holda genetik xilma-xillik yo'qoladi. Bu ko'rsatkich asosan uzoq muddatli omon qolish uchun zarur bo'lgan sonidir. Tosh davrida aholi genetiklikni saqlab qolish uchun bir nechta madaniyatlar va yodgorliklarda aks etgan. (Obirahmat, Ko'lbuloq Samarqand makoni v h.)

Sotsiologik mezonlar: Mehnat taqsimoti, til, nikoh, madaniyat kabi ijtimoiy tizimlar shakllanishi uchun 20–50 kishilik guruhlar yetarlidir.

Arxeologik yondashuvda tosh davrida yashagan odamlarni "aholi" deb atash ilmiy jihatdan asosli bo'lishi uchun dalillar antropologiya, arxeologiya, tarix va biologiya fanlariga tayangan holda taqdim etilishi lozim:

-Aholi deb hisoblash uchun son emas, doimiy yoki mavsumiy yashash belgilarining mavjudligi muhim. Bu joylarda uy-joyga o'xshash tuzilmalar, o't o'chog'i izlari va oziq-ovqat qoldiqlari topilgan. Bu esa ular tasodifiy emas, balki tashkil topgan guruh bo'lib joylashganliklarini ya'ni, aholi sifatida yashaganliklarini bildiradi.

-Ijtimoiy tuzilma va mehnat taqsimoti belgilarining mavjudligi. Topilgan ashyolar (ov qurollari, mehnat qurollari, ayollar va erkaklar ish faoliyatidagi farqlar) bu jamoada mehnat taqsimoti bo'lganligini ko'rsatadi. Masalan, erkaklar ov qilish, ayollar esa o'simlik yig'ish va bolalarni parvarish qilish bilan shug'ullangan.

-Diniy tasavvurlar izlari. G'or rasmlari, hayvon surati tushirilgan petrogliflar, dafn marosimlari – bular jamiyatdagi urf-odat va e'tiqodlar mavjud bo'lganligini bildiradi. Bu esa insonlar o'rtasida madaniy uzviylik va ijtimoiy aloqalar bo'lganligini anglatadi. Ular oddiy to'da emas, balki aholi sifatida yashagan.

-Ko'payish va avlodlar davomiyligi. Topilgan jasadlar turli yoshdagi odamlarga tegishli: chaqaloqlar, bolalar, kattalar va keksalar. Bu esa biologik jihatdan doimiy yashovchi populyatsiya bo'lganligini bildiradi.

-Yashash joylarining geografik doirasi va aholi zichligi. Arxeologik joylar sonining ko'pligi O'rta Osiyoda odamlar keng tarqalganini va ko'plab kichik-kichik guruhlarda (klasterlarda) yashaganini ko'rsatadi. Bu guruhlar bir necha o'n kishilik bo'lishi mumkin bo'lsada, ular aholi birliklari hisoblanadi.

Hatto 20–30 kishilik ovchi-terimchi guruh ham aholi sifatida qaraladi, agar ular biror turar joyda yashagan bo'lsa.

O'rta Osiyoning eng qadimgi hududlari sirasiga kirgan Farg'ona vodiysidagi Selungur g'oridan taxminan 35-40 yoshli erkakning ikkita yuqori kesma tishlari, taxminan 40 yoshli ayolning yuqori tishlari va uchta pastki tishlari topilgan. Bu g'orda yashagan odam ajdodlari yagona bo'lmaganidan dalolat.

Yana bir muhim yodgorliklardan biri bu Obirahmat g'oridir. Bu g'orda 21 ta madaniy qatlamdan iborat bo'lib, ushbu g'or yodgorligining ahamiyatli jihati shundaki 1 qatlamdan to 21 qatlamgacha bo'lgan davrda qurollar evolutsiyasini ko'rish mumkin [10]. Antropolog olimlar suyaklar neandertal va zamonaviy odam oralig'idagi bo'g'inni tashkil qiladi, deb hisoblaydi [4]. Bu madaniy qatlamlarda 30 mingdan oshiq qurol va aslahalar va suyak qoldiqlari topilgan [5].

Bunchalik ko'p qurol aslahalarni 1 yoki 2 kishi yasamaganligi butun davr mobaynida bir necha guruhlar bilan tizimli ishlaganligini ko'rish mumkin. Qadimgi odamning 6 dona tishi, 1 dona quloq suyagi va maydalanib ketgan suyak parchalari topilganligi buning isbotidir.

Boysun tumanidagi Teshiktosh g'oridan topilgan Neandertal bola suyagi ham boy antropologik manba hisoblanadi. Ushbu antropologik topilmani 1938-yilda qazishmalar muallifi A.P. Okladnikov, 1-madaniy qatlamni tekshirish paytida odam skeletining qoldiqlari topildi. Odam suyaklari 25 smlik chuqurdan topilgan.

Zamonaviy fan neandertal odamlarning dafn etish marosimlari bilan bog'liq bo'lgan qabrlarni 20 dan ortig'iga guvoh bo'lgan. Ko'mish marosimlarining mavjudligi jahondagi ko'plab yodgorliklarda kuzatiladi. Lekin, O'rta Osiyoning ajralmas qismi bo'lgan O'zbekistondagi neandertallarning ko'mish marosimi echki shoxlar bilan o'rab olinishi negadir boshqa yodgorliklarda e'tiqod qilishni aks ettiradigan elementlar bunchalik aniq, ravshan uchramaydi. Paleolit davri bilimdoni O'.Islomov ilk e'tiqod qilish an'analari O'rta Osiyo hududida, jumladan mamlakatimiz hududida boshlangani haqida qat'iy ilmiy fikrlarni bildirib o'tgan [8]. Bu ataylab ko'mish marosimlari ham aholi tushunchasi kriteriyalarining birini to'ldiradi.

Keyingi tadqiqotlar natijasida yurtimizdagi so'nggi paleolit davrining yodgorligi Kitob tumani hududida joylashgan Angillak g'or makonlari kiritildi [9]. Qashqadaryo vohasidagi Angillak g'ori madaniy qatlamlarining 42-27 ming yillar bilan belgilangan absolyut davriy sanasi bo'lishiga qaramasdan, uning materiallarini o'rta paleolit davriga oid, degan fikrlar ham mavjud [11]. Ko'pgina topilmalar bilan birgalikda bu yerda odam oyog'i kaft suyagining bir bo'lagi topilgan.

So'ngi paleolit davriga kelib antropologik tavsifga ko'ra Samarqand makonidan topilgan har xil yoshdagi odamlarning suyak qoldiqlari ya'ni, 25-35 yoshlardagi ayollarning jag' suyaklari, yosh bolaning bosh suyagi va katta erkak kishining son suyaklari topilgan.

Samarqand makonida 3 ta urug' jamoasi qo'shni bo'lib yashaganligi dalillar asosida isbotlandi. Kulba uchun ustun va o'choqlarning qoldiqlariga ko'ra ularning har biri o'z kulbalariga ega bo'lishgan. Kulbalarining har birida 35-40 kishi yashagan [2].

Endi tadqiqotlarning ko'rsatishicha birgina Samarqandning o'zida 10 -12 ta urug' jamoalari yashagan [2]. Bu esa paleolit davrida "protroaholi" ko'rinishiga ega bo'lgan jamoalar yashaganligining yorqin isbotidir.

Butun dunyoda aholi soni aniq va turlicha bo'lsa ham, katta darajada mahalliy tabiiy muhitga bog'liq. Dunyo miqyosida aholi soni quyi paleolit uchun taxminlar 1 milliondan 10 million kishigacha etganligi asoslangan. Bu jarayonda yuqoridagi bir necha guruhlarining mavjudligi asosida O'rta Osiyo hududi ham chetda qolmaganligini ko'ramiz.

Til masalasi ham aholi darajasiga chiqishning muhim shartidir. Albatta, tosh davri aholisining tili bo'lganligi masalasida aniq manbalar haligacha noma'lum. Lekin, tilgacha bo'lgan jarayonlar nutqning vujudga kelish shakllari mavjud.

Til qachon paydo bo'lganini hech kim aniq bilmaydi, ammo genetik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, tilning vujudga kelishi 150 -200 ming yil oldin Afrikaning sharqiy yoki ehtimol janubida yashagan anatomik jihatdan zamonaviy Homo sapiensga borib taqaladi [1]. Chunki barcha inson guruhlariga tilga ega, tilning o'zi yoki hech bo'lmaganda uning qobiliyati, ehtimol, kamida 150 -200 ming yillik tarixga ega. Arxeologik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, taxminan 40000 yil oldin zamonaviy inson obyektlarida san'at va boshqa madaniy artefaktlar gullab yashnagan, bu esa ba'zi arxeologlarning nasl-nasabimizdagi kech genetik o'zgarishlar tilning bu keyingi davrda paydo bo'lishiga olib kelgan degan fikrga olib keladi [3].

Massachusetts texnologiya instituti jamoasi tomonidan "Psixologiyadagi chegaralar" jurnalida chop etilgan maqolasida xam inson tilining kelib chiqishi Homo sapiens populyatsiyasida 135 ming yil oldin mavjud bo'lganligini ta'kidlaydi [6].

Britaniyalik olimlarning fikricha esa, 2-1,5

million yil oldin qadimgi odamning miyasi hajmi tezlik bilan o'sdi. 1,8 million yil oldin odamlar deyarli tik holatga kelib, bosh suyagi shakli o'zgarganini ta'kidladilar. Bu "deyarli shubhasiz" ovoz yo'lining shakli va pozitsiyasini o'zgartirish jarayonini boshladi va nutqni amalga oshirishga imkon beradi. Taxminan 1,6 million yil oldin tosh asboblarni yasash uchun murakkab texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bilim va ko'nikma avloddan-avlodga o'tib kelgan. Bu jarayon esa olimlarning tadqiqotlarida nutqning mavjudligini ko'rsatadi.

Yana bir muhim jihat shundaki aholi

darajasiga osib borishning sharti sifatida odamlarning o'rtacha yosh masalasidir. Ibtidoiy odamlarning tafakkuri sekin kechganligi singari insonning biologik o'zgarishi ham nihoyatda sekin kechgan. Katta davrlar mobaynida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi o'sib borgan. Ayniqsa o'rta paleolitning oxirgi davrlaridan boshlab so'ngi neandertallar misolida o'rtacha umr ko'rish davomiyligi osha borgan. Bronza davriga kelib esa o'rtacha umr davomiyligi insonning aql zakovati, tafakkurining rivoji natijasida o'sib borganligini ko'ramiz [7].

№	Davrlar	Erkak	Ayol	O'rtacha umr yoshi
1	Astrolopitek:			
	A.Robustus			19.8
	A.Afrikanus			22.9
2	O'rta paleolit davri odamlari (Neandertallar)			26.2
3	So'ngi paleolit odamlari (Homo sapiens sapiens)	33.3	28.7	31
4	Mezolit odamlari	35.3	29.3	32.3
5	Neolit odamlari	34.3	29.8	31.1
6	Eneolit odamlari			
7	Ilk bronza	33.3	29.5	31.4
8	O'rta bronza	36.3	30.8	33.6
9	So'ngi bronza	36.4	32.1	34.3

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, O'rta Osiyo sarhadlari kishilik tarixi taraqqiyoti tosh asri paleolit davrida odamzod yashashib, o'ziga xos madaniyat yaratgan.

Aholi bo'lish uchun aniq bir odamlar soni belgilanmaydi, chunki bu "aholi" tushunchasi nima uchun qo'llanilayotganiga bog'liq. Ammo arxeologik jihatdan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki yashash izlari bo'lsa, har qanday kichik guruh "aholi" hisoblanadi. Nega "aholi" deb atash mumkin:

-ular aniq hududlarda yashagan guruhlar bo'lgan (masalan, O'rta Osiyo, Yevropa, Afrika va boshqalarda). Ular ijtimoiy guruhlar bo'lib, ovchilik, yig'uvchilik bilan shug'ullangan;

-arxeologik topilmalar (uy-joy izlari, asboblari, qoldiqlar) ular bir joyda yashab, vaqtinchalik yoki doimiy yashash joylariga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Bunda tosh davri odamlari to'laqonli aholi bo'lmasada aholi an'analari mavjud bo'lgan protoaholi tushuncha deb qo'llash o'rinli bo'ladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Brown F.H., McDougall I., Fleagle J.G. Correlation of the KHS Tuff of the Kibish Formation to volcanic ash layers at other sites, and the age of early *Homo sapiens* (Omo I and Omo II) // *Journal of Human Evolution*. – 2012. – Vol. 63(4). – P. 577–585.
 2. G‘oyibov B.S. va boshq. *O‘zbekiston tarixi*. IX jild. Samarqand tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 20–21.
 3. Henshilwood C.S., Dubreuil B. Reading the artefacts: glean language skills from the Middle Stone Age in southern Africa // *Cradle Language*. – 2009. – Vol. 2. – P. 61–92.
 4. Ibragimov R. *Arxeologiya*. – Toshkent: Fan, 2022. – 32 b.
 5. Krivoshepin A. Obiraxmat odami: evolutsiya jumbog‘i // *Fan va turmush*. – 2008. – № 3–4–5. – B. 29.
 6. Miyagawa Sh., DeSalle R., Nóbrega V.A., Nitschke R., Okumura M., Tattersall I. Linguistic capacity was present in the *Homo sapiens* population 135 thousand years ago // *Frontiers in Psychology*. – 2025. – DOI: 10.3389/fpsyg.2025.1503900
 7. Shodmonov A.A. O‘rta paleolit davri odamlarining umr davomiyligi (tabiiy o‘limning tafakkurga ta’siri) // *Qo‘qon davlat pedagogika instituti ilmiy xabarlari*. – 2025. – 1-son. – B. 562.
 8. Анарбоев А., Исломов У., Матбобоев Б. *Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона*. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 32.
 9. Махкамова Н.А. Қашқадарё воҳаси тош даври ёдгорликлари ўрганилиш тарихидан // *Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида*. ЎзР ФА Археология институти. – Республика конференцияси материаллари, 27–28 март, 2013. – Б. 21–22.
 10. Сулаймонов Р. Обирахматский человек и технологическая революция каменного века // *Фан ва турмуш*. – 2008. – № 3–4–5. – Б. 31–34.
 11. Сулейманов Р.Х. *Мустьерская стоянка Ангиллак*. – Ташкент: ОНУ, 2004. – С. 27.
- Internet manzillar**
12. Названо время появления речи у древних людей // MIR24. – <https://mir24.tv/news/16584333/nazvano-vremya-poyavleniya-rechi-u-drevnih-lyudei>.
 13. Aholi // *Vikipediya* – <https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi>.
 14. <https://doi.org/10.30884/seh/2023.02.09>.

O'ZBEKISTON TARIXIY-MADANIY MEROSINI TIKLASHDA XALQARO EKSPEDITSİYALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Shamayev Umarali Turg'unboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0005-1502-888X>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston hududida mavjud bo'lgan tarixiy-madaniy meros obyektlarini tiklash va saqlash jarayonida xalqaro ekspeditsiyalarning o'rni va faoliyati tahlil qilinadi. Istiqbol yillarida arxeologik yodgorliklarga zamonaviy va kompleks yondashuv shakllanganligi, xalqaro hamkorlik aloqalarining rivojlanishi, O'zbekiston ilmiy muassasalari va xorijiy ekspeditsiyalar o'rtasidagi hamkorlikning natijalari yoritib beriladi. Shuningdek xalqaro tajriba asosida meros obyektlarini restavratsiya qilish va o'rganishning dolzarb yo'nalishlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: UNESCO, Buyuk Ipak yo'li, restavratsiya, konservatsiya, konservatsiya, Registon, Ichan Qal'a.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и деятельность международных экспедиций в процессе восстановления и сохранения объектов историко-культурного наследия, расположенных на территории Узбекистана. Освещается формирование современного и комплексного подхода к археологическим памятникам в годы независимости, развитие международных партнерских отношений, результаты сотрудничества между научными учреждениями Узбекистана и зарубежными экспедициями. Также указываются актуальные направления реставрации и изучения объектов наследия на основе международного опыта.

Ключевые слова: ЮНЕСКО, Великий шелковый путь, реставрация, консервация, Регистан, Ичан-Кала.

Abstract: This article analyzes the role and activities of international expeditions in the process of restoring and preserving historical and cultural heritage sites located in Uzbekistan. It highlights the development of a

modern and comprehensive approach to archaeological monuments during the years of independence, the expansion of international cooperation, and the outcomes of collaboration between Uzbek scientific institutions and foreign expeditions. Additionally, the article outlines current trends in the restoration and study of heritage sites based on international experience.

Key words: UNESCO, Great Silk Road, restoration, conservation, Registon, Ichan Qal'a.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Tarixiy-madaniy meros — insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo'lib, ularni saqlash va tiklash jamiyatning madaniy o'zligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston hududi qadimdan ko'plab sivilizatsiyalar va madaniy markazlar joylashgan, bu esa uning tarixiy merosini boy va noyob qiladi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tarixiy obidalarni tiklash va saqlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi, bu jarayonda xalqaro ekspeditsiyalar va hamkorlik aloqalarining o'rni kattadir. Xalqaro ekspeditsiyalar nafaqat arxeologik yodgorliklarni o'rganishda, balki madaniy almashinuv va ilmiy hamkorlikni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, O'zbekistonning Buyuk Ipak yo'li hududida Fransiya, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlar bilan olib borilgan qo'shma ekspeditsiyalar arxeologik tadqiqotlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda [1].

Xalqaro ekspeditsiyalar orqali O'zbekiston tarixiy merosining global ilmiy hamjamiyatda o'rganilishi yanada kengaymoqda. Ular nafaqat arxeologik qazilmalarni olib boradi, balki zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, yangi ilmiy metodikalarni amaliyotga tatbiq

etish va yosh olimlar uchun tajriba almashish imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birga, xalqaro ekspeditsiyalar natijasida O'zbekistonning qadimiy shahar madaniyati va Ipak yo'li tarixidagi o'rnini yanada aniqroq yoritilmoqda.

Zamonaviy restavratsiya va konservatsiya texnologiyalari esa meros obyektlarini nafaqat saqlab qolish, balki ularning tarixiy ko'rinishini tiklash imkonini beradi. Masalan, Samarqanddagi Registon maydoni va Xivada joylashgan Ichan-Qal'a kompleksining tiklanishi ushbu yondashuvlarning muvaffaqiyatli namunalari hisoblanadi [2]. Bundan tashqari, O'zbekiston UNESCO va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda meros obyektlarini saqlash va dunyo miqyosida targ'ib qilish bo'yicha loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu esa mamlakat tarixiy va madaniy qadriyatlarini global darajada tanitishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston tarixiy-madaniy merosi nafaqat milliy boylik, balki jahon madaniyati uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ushbu merosni saqlash, tiklash va ilmiy tadqiq qilish muammolari global miqyosda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro ekspeditsiyalar va zamonaviy yondashuvlar O'zbekiston hududidagi tarixiy obidalarini chuqurroq o'rganish, ularning asl holatini saqlab qolish hamda restavratsiya qilish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shuningdek, global madaniy hamkorlik tizimida O'zbekiston madaniy merosining ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etilishi mamlakatning dunyo ilmiy maydonidagi o'rnini yanada mustahkamlaydi. Bu esa milliy tarixni rivojlantirish, yosh avlodga yetkazish va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro ekspeditsiyalar va zamonaviy texnologiyalar asosida merosni saqlash va tiklash tadqiqotlari bugungi kun uchun nihoyatda dolzarbdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (JINTEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS). Ushbu maqola tayyorlash jarayonida O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini tiklash bo'yicha mavjud ilmiy manbalar keng ko'lamda o'rganildi. Tadqiqotlarda asosan milliy va

xalqaro ilmiy nashrlar, arxeologik ekspeditsiyalar haqida ma'lumot beruvchi materiallar, shuningdek, madaniy merosni saqlash bo'yicha davlat siyosati va dasturlariga oid rasmiy hujjatlar asosiy manba sifatida ishlatildi. Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy ilmiy markazlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham tahlil qilindi. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar hamda xalqaro hamkorlik doirasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ham o'z aksini topgan.

Maqolada tarixiy manbalar, arxeologik topilmalar va xalqaro ekspeditsiyalar hisobotlari asos qilib olindi. Turli mamlakatlarning hamkorlikdagi tajribalari analitik va taqqoslash usullari orqali o'rganildi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ekspertlarning fikrlari tahlil qilindi. Sifat va miqdoriy ma'lumotlar birgalikda tahlil qilinib, tarixiy-madaniy merosni tiklash jarayonining dolzarb jihatlari aniqlandi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar va ilmiy hamkorliklar sezilarli darajada kengaydi. Fransiya, Italiya, Rossiya, Yaponiya, Xitoy, AQSH kabi mamlakatlar bilan birgalikda olib borilgan tadqiqotlar yangi topilmalarni kashf etishga va tarixiy-madaniy merosni chuqurroq o'rganishga imkon yaratdi. Masalan, Jarqo'ton, Shoxruhiya, Poykend kabi joylarda topilgan noyob arxeologik obidalar O'zbekistonning boy tarixini yoritishda muhim ahamiyatga ega.[3] Ushbu xalqaro hamkorliklar nafaqat ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga, balki O'zbekistonning tarixiy-madaniy merosini global ilmiy hamjamiyatga tanitishga ham xizmat qilmoqda. Misol uchun, Fransiya bilan olib borilgan qo'shma ekspeditsiyalar Samarqandning Afrosiyob hududida olib borilgan qazishmalar orqali qadimgi So'g'd madaniyatiga oid yangi ma'lumotlarni kashf etdi. Bu topilmalar O'zbekistonning tarixiy o'tmishini yanada boyitishga yordam berdi. Shuningdek, Xitoy bilan olib borilgan hamkorliklar ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Surxondaryodagi

Chinortepa hududida olib borilgan qo'shma qazishmalar orqali Yueji qabilasining tarixiga oid yangi ma'lumotlar kashf etildi. Bu topilmalar Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi tarixiy aloqalarni yanada chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.[4]

Xalqaro ekspeditsiyalar nafaqat arxeologik qazilmalarni amalga oshirishda, balki madaniy almashinuvni rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning Buyuk Ipak yo'li bo'ylab joylashgan hududlarida Fransiya, Germaniya va Yaponiya bilan birgalikda olib borilgan qo'shma ekspeditsiyalar arxeologik tadqiqotlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ushbu hududlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar nafaqat tarixiy ma'lumotlarni aniqlashga, balki Ipak yo'li tarixining ilmiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqilishiga sabab bo'ldi.[5] Bunday xalqaro arxeologik ekspeditsiyalar natijasida O'zbekistonning qadimiy shahar madaniyati, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining o'rni yanada aniqlashdi. O'zbek olimlari va xorijiy tadqiqotchilar o'rtasidagi hamkorlik ilmiy sohadagi yangi izlanishlarga turtki bo'ldi. Bu jarayonni ilmiy asosda o'rganish, tarixiy obidalarni tiklashda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashni kengaytirishga olib keldi. O'zbekistonning arxeologik yodgorliklarini global ilmiy maydonda o'rganishning asosiy yo'nalishlaridan biri bu – tarixiy obidalar va arxeologik qazilmalarni zamonaviy texnologiyalar yordamida to'liq tiklash va tahlil qilishdir.

Zamonaviy restavratsiya texnologiyalari so'nggi yillarda tarixiy obidalarni saqlash va tiklash jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.[6] Ushbu texnologiyalar yordamida ko'plab qadimiy yodgorliklar o'z asl ko'rinishiga qaytarilmoqda, shuningdek, yangi va ilg'or metodlar orqali obidalarining saqlanishi yanada mustahkamlanmoqda. O'zbekiston, o'zining boy tarixiy merosi bilan dunyoga mashhur bo'lgan mamlakat sifatida, bu jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, ayniqsa, Samarqanddagi Registon maydoni va Xivadagi Ichan-Qal'a komplekslarining restavratsiyasida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bu yondashuvlar o'zbek

me'moriy merosining saqlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Registon maydonidagi madrasalar va me'moriy yodgorliklar, o'zining tarixiy ahamiyati va go'zalligi bilan ajralib turadi. Bu obidalarni saqlash va tiklashda zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Registon maydonidagi obidalarni tiklashda 3D skanerlash texnologiyasi qo'llanilgan. Ushbu texnologiya yordamida obidalar har bir detaliga qadar chuqur o'rganilib, ularning asl holatiga qaytarilishiga imkon yaratildi. Bu texnologiya, ayniqsa, o'zgarmas vaqtincha ko'rinishlarni, ya'ni binolar va ularning ichki qismlarini saqlab qolish uchun foydalidir. Misol uchun, Sherdor madrasasining fasadidagi o'zgartirishlar va yangilanishlar aniq belgilab, bu obidaning original holatini tiklashda yordam berdi. [7] Xivadagi Ichan-Qal'a kompleksi ham O'zbekistonning eng qadimiy me'moriy obidalaridan biri bo'lib, uning restavratsiyasi jarayonida zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribalar joriy etilgan. Bu jarayonda Xitoy ekspertlarining texnik yordamidan foydalanildi va an'anaviy qurilish uslublari ham hisobga olindi. Shuningdek, restavratsiya ishlari O'zbekistonning madaniy merosini global miqyosda tanitishga yordam beradi.[8]

Bu kabi texnologiyalar nafaqat saqlash jarayonida, balki tarixiy obidalarni tadqiq qilishda ham katta rol o'ynaydi. Har bir detalni to'g'ri qayta tiklash uchun zamonaviy usullar asosida olib borilgan tadqiqotlar, obidaning tarixiy qiymatini yanada oshiradi. Shuningdek, Registon maydonidagi obidalar nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham keng tanitilgan. Bu esa turizmni rivojlantirishda va ilmiy tadqiqotlar olib borishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

O'zbekistonning madaniy merosini saqlash va rivojlantirishda UNESCO bilan hamkorlik katta ahamiyatga ega. 1993-yilda UNESCO tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatimiz, shu bilan birga, 1996-yilda Toshkentda UNESCO vakolatxonasini ochdi. Bugungi kunda UNESCO Toshkent vakolatxonasi turli sohalarda faoliyat yuritmoqda, jumladan texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarni malakasini oshirish, media islohotlarini

amalga oshirish, shuningdek, an'anaviy va nomoddiy madaniy merosni saqlash kabi masalalarda hamkorlikni yo'lga qo'ygan. UNESCO tomonidan taqdim etilayotgan texnik yordam va tavsiyalar O'zbekistonning tarixiy obidalarini saqlashda muhim rol o'ynaydi [9]. O'zbekiston va UNESCO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir muhim yutuqlaridan biri — 2021-yilda tashkil etilgan Butunjahon merosi obyektlari bo'yicha Xalqaro maslahat kengashining (IAC) ishga tushirilishidir. Ushbu kengash, O'zbekistonning tarixiy obyektlarini saqlash va boshqarish bo'yicha xalqaro ekspertlar bilan birgalikda tavsiyalar ishlab chiqadi va amalga oshiradi. Bu kengashning tashkil etilishi, o'zbek tarixiy merosini dunyo miqyosida saqlash va tanitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro maslahat kengashining faoliyati, O'zbekistonning madaniy merosini saqlashda yurtimizning ekspertlarining bilim va tajribalarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, bu jarayon nafaqat mamlakat ichidagi obidalarni saqlashni kuchaytiradi, balki O'zbekistonni xalqaro maydonda tanitishda ham samarali vosita bo'ladi [10].

Bu hamkorlik, shuningdek, o'zbekistonlik yosh olimlarga o'z bilimlarini kengaytirish va xalqaro miqyosda ilmiy almashinuvlar o'rnatish imkoniyatini yaratadi. Yosh olimlar uchun UNESCO tashkiloti bilan hamkorlik, o'zlarini xalqaro ilmiy jamiyatga tanitish, yangi ilmiy metodlar va yondashuvlarni o'rganish uchun keng imkoniyatlar taqdim etadi. Natijada, yosh olimlar O'zbekistonning tarixiy merosini saqlash va tiklash bo'yicha yangi texnologiyalarni qo'llashda muhim rol o'ynaydilar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekiston tarixiy-madaniy merosini tiklash va saqlash jarayonida xalqaro ekspeditsiyalar va zamonaviy yondashuvlar muhim rol o'ynaydi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda tarixiy obidalarni tiklashda ilg'or ilmiy metodlar va texnologiyalar joriy etilib, xalqaro hamkorliklar kengaytirildi. Xalqaro ekspeditsiyalar, jumladan, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar bilan olib borilgan tadqiqotlar orqali yangi arxeologik topilmalar kashf etildi va O'zbekistonning boy madaniy merosi global ilmiy hamjamiyatda yanada kengroq o'rganildi. Zamonaviy restavratsiya va konservatsiya texnologiyalarining qo'llanilishi esa tarixiy obidalarining saqlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Samarqandning Registon maydoni, Xivadagi Ichan-Qal'a kabi obidalar, yangi texnologiyalar va xalqaro tajribalar yordamida tiklanib, nafaqat milliy, balki xalqaro darajada keng tanitilmoqda. O'zbekistonning madaniy merosi UNESCO bilan hamkorlikda dunyo miqyosida yanada tanilgan va saqlanmoqda. Bundan tashqari, xalqaro ekspeditsiyalar nafaqat ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, balki madaniy almashinuvni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Bu jarayonlar O'zbekistonning tarixiy-madaniy boyliklarini saqlash va yoritishda, turizmni rivojlantirishda va ilmiy izlanishlarga turtki berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, O'zbekiston tarixiy merosini tiklashda xalqaro hamkorlikning yanada kengayishi va zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash zaruriyati muhim strategik yo'nalishlardan biridir.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. *International Cooperation in Archaeology: Uzbekistan and France Joint Expeditions.* – <https://archaeology.uz/en/pages/the-international-cooperation>.
2. *Uzbekistan to Restore 34 Cultural Heritage Sites in 2022* // Uzbek Travel. – <https://uzbek-travel.com/about-uzbekistan/news/uzbekistan-to-restore-34-cultural-heritage-sites-in-2022>.
3. *The Discovery of Ancient Sogdian Artifacts* // National Center of Archaeology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan. – <https://archaeology.uz>.

4. *China Reaches Back in Time to Challenge the West. Way, Way Back* // The Wall Street Journal. – <https://www.wsj.com/science/archaeology/china-reaches-back-in-time-to-challenge-the-west-way-way-back-236c4e90>.
5. *National Center of Archaeology, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.* – <https://archaeology.uz>.
6. *Registonni asrashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalaniladi* // Daryo.uz, 24.05.2019. – <https://daryo.uz/2019/05/24/registonni-asrashda-zamonaviy-axborot-texnologiyalaridan-foydalaniladi>.
7. *Samarqandda Registon maydonining restavratsiyasi* // Gazeta.uz, 04.06.2018. – <https://www.gazetuz.uz/2018/06/04/restavratsiya>.
8. *Ichan-Qala – Restavratsiya va hamkorlik* // UNESCO World Heritage Centre. – <https://whc.unesco.org>.
9. *UNESCO Toshkent vakolatxonasi haqida* // UNESCO. – <https://www.unesco.org/en/fieldoffice/tashkent/about>.
10. *Xalqaro maslahat kengashi haqida ma'lumot* // UNESCO. – <https://whc.unesco.org/en/statesparties/uz>.

YOSHLARNING TA'LIM VA BANDLIGINI TA'MINLASH SIYOSATI

Chorshanbiyeva Diyora Chorshanbiyevna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi<https://orcid.org/0009-0002-4144-1030>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh avlod vakillarining ta'lim olishi va ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlashga doir davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil etiladi. Unda O'zbekistonda yoshlar ta'limi va bandligini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan dastur va qarorlar, mavjud muammolar yoritilgan. Shuningdek, maqolada yoshlarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish, kasbiy tayyorgarligini oshirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili", IT Park, "One Million Uzbek Coders", "Yoshlar daftari", gender tenglik.

Аннотация: В данной статье анализируются приоритетные направления государственной политики в сфере образования молодого поколения и обеспечения его достойными рабочими местами. В ней освещаются реформы, осуществляемые в Узбекистане в области образования и занятости молодежи, принимаемые программы и решения, а также существующие проблемы. Кроме того, в статье особое внимание уделяется вопросам развития инновационного мышления молодежи, повышения ее профессиональной подготовки и широкого вовлечения в предпринимательскую деятельность.

Ключевые слова: "Год поддержки молодежи," IT Park, "Один миллион узбекских программистов," "Молодежная тетрадь," гендерное равенство.

Abstract: This article analyzes the priorities of state policy concerning the education of the younger generation and providing them with decent employment opportunities. It highlights the reforms being implemented in Uzbekistan to ensure youth education and employment, adopted programs

and decisions, as well as existing challenges. The article also pays special attention to developing innovative thinking among young people, enhancing their professional training, and widely engaging them in entrepreneurial activities.

Keywords: "Year of Youth Support," IT Park, "One Million Uzbek Coders," "Youth Registry," gender equality.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida har bir davlatning barqaror taraqqiyoti va kelajagi, avvalo, yosh avlodning bilim darajasi, kasbiy salohiyati va mehnatga bo'lgan munosabati bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan ham ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda yoshlarni sifatli ta'lim bilan ta'minlash, ularning zamonaviy kasb-hunarlariga ega bo'lishiga imkon yaratish va bandligini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillaridan boshlab yoshlarga oid siyosat bosqichma-bosqich takomillashib, keyingi yillarda u yanada izchil va tizimli tus oldi. "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasida yoshlarning har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, vatanparvar shaxslar bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, ularni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlar har qanday jamiyatning intellektual va iqtisodiy salohiyatini belgilovchi asosiy omildir. Ularning ta'lim olishi, zamonaviy kasb va ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, mehnat bozorida o'z o'rnini topa olishi – mamlakat taraqqiyotining barqarorligida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, yoshlarning ta'lim va bandligini ta'minlash bo'yicha izchil va samarali siyosat yuritilishi dolzarb

vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, bugungi kunda global iqtisodiy muhitda yuzaga kelayotgan o'zgarishlar, mehnat bozorida raqobatning kuchayishi va texnologik rivojlanish sharoitida yoshlarning kasbiy tayyorgarligi va bandligini oshirish masalasi dolzarblik kasb etmoqda. O'zbekistonda bu boradagi davlat siyosati yoshlarga oid qonun hujjatlari, milliy strategiyalar va dasturlar orqali mustahkamlanib, amaliy chora-tadbirlar bilan boyitilmoqda. Mazkur mavzuni o'rganish nafaqat mavjud muammolarni tahlil qilish, balki ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlash, zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish hamda davlat siyosatini takomillashtirishga ilmiy asoslar bilan hissa qo'shish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (JINTEPATYPA II METOD / MATERIALS AND METHODS). Yoshlarning ta'lim olishi va mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasi masalasi O'zbekistonda ko'plab ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tashkilotlar hisobotlarida keng yoritilgan. Jumladan, Jahon bankining "Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges" nomli hisobotida yoshlarning maktabdan ishga o'tish jarayonidagi muammolar, ayniqsa, kasb-hunar ta'limi va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish zaruriyati ta'kidlangan. Hisobotda faol mehnat bozoriga oid dasturlar (ALMPs) samaradorligini oshirish, xususan, amaliyot dasturlari va ish haqi subsidiyalarini kengaytirish tavsiya etilgan. [1]

UNICEF tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistondagi yoshlarning 77% ta'lim, 61.8% esa bandlik masalalarini eng dolzarb muammolar sifatida ko'rsatgan. Tadqiqotda, shuningdek, 54.6% yoshlar maktabni tugatgach na ta'limda, na ishda, na kasb-hunar o'qishida ishtirok etmayotgani aniqlangan. Bu ko'rsatkich ayollar orasida 74% ga yetgan. [2] K. X. Abdurahmonovning ilmiy ishlari yoshlar bandligini ta'minlashda davlat siyosatining ahamiyatini yoritadi. Uning tadqiqotlarida yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi ish o'rinlari yaratish va kasb-hunar ta'limini

modernizatsiya qilish muhimligi ta'kidlangan. Muallif, shuningdek, yoshlar bandligiga oid xalqaro tajribalarni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish zarurligini qayd etadi.[3]

Davlat siyosati doirasida, "Yoshlar daftari", "Har bir oila — tadbirkor" va "Yoshlar mehnat guzari" kabi dasturlar yoshlarning bandligini oshirishga qaratilgan. Biroq, mavjud adabiyotlarda bu dasturlarning samaradorligi, ularning yoshlar ehtiyojlariga mosligi va uzoq muddatli ta'siri bo'yicha chuqur tahlillar yetarli emas.

Ushbu tadqiqotda yoshlarning ta'lim va bandligini ta'minlash siyosatini o'rganish uchun aralash metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda huquqiy hujjatlar, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat statistika qo'mitasi tomonidan taqdim etilgan yoshlar bandligi va ta'lim darajasi bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, yoshlar, ta'lim muassasalari vakillari va ish beruvchilar bilan so'rovnomalar va chuqur intervyular o'tkazildi. Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar deskriptiv va sifatli tahlil usullari yordamida tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistonda yoshlar ta'limi va bandligini ta'minlash siyosatining samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatini izchil amalga oshirish orqali ta'lim va bandlik sohalarida muhim yutuqlarga erishmoqda. 2024-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan e'lon qilingan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili" doirasida 400 ming yoshning bandligini ta'minlash va yoshlar ishsizligi darajasini 14 foizdan 11 foizga tushirish maqsad qilingan.[4] Bu tashabbus mamlakatda yoshlar masalalariga bo'lgan e'tiborning yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi.

Yoshlar bandligini oshirishda "Yoshlar daftari" dasturi muhim rol o'ynadi. Ushbu dastur orqali 648 ming nafar ishsiz yosh ro'yxatga olinib, 283 ming nafari ish bilan ta'minlandi.[5] Ayniqsa, "Uychi tumani tajribasi" asosida 62,9 ming yoshning bandligi ta'minlangani ushbu modelni boshqa hududlarga ham tatbiq etish zarurligini

ko'rsatmoqda. Shaxsiy tahlilimizga ko'ra, bu kabi hududiy loyihalar yoshlar bandligini hal qilishda nisbatan qisqa muddatda samarador natijalar bera oladi.

Ta'lim sohasida ham ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Masalan, "One Million Uzbek Coders" loyihasi doirasida 215 ta IT o'quv markazi tashkil etilib, ko'plab yoshlar zamonaviy raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishdi [6]. Bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirmoqda. Shu bilan birga, UNICEF tomonidan amalga oshirilgan loyihalar, ayniqsa, chekka hududlardagi qizlar, jumladan, nogironligi bo'lgan qizlarni qamrab olgani ta'limdagi inklyuzivlik darajasi oshayotganidan dalolat beradi [7].

Biroq, mavjud muammolar hamon dolzarb bo'lib qolmoqda. Jahon banki hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda 15–29 yoshdagi yoshlarning 42 foizi na ta'limda, na bandlikda, na o'qishda (NEET) ishtirok etmayapti. Ayniqsa, bu ko'rsatkich ayollar orasida 74 foizga yetgani jiddiy e'tiborni talab qiladi. Shaxsiy mulohazamizga ko'ra, bu holat gender tengligi muammolarining hali to'liq bartaraf etilmaganligini anglatadi. Shu sababli, ayollar uchun maxsus dasturlarni joriy etish, ularga qulay mehnat sharoitlarini yaratish dolzarb vazifa sifatida qaralishi kerak.

Xalqaro tajribalar ham yoshlar bandligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Jahon banki tavsiyalariga ko'ra, amaliyot dasturlari va ish haqi subsidiyalarini kengaytirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi imkoniyatlar yaratish samarali choralar sirasiga kiradi [8]. Bu yerda O'zbekiston uchun aynan mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan xalqaro modellardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasi uchun nafaqat raqamli ko'nikmalarni oshirish, balki psixologik tayyorgarlik va kasbiy maslahat xizmatlarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Jahon banki hisobotida ta'kidlanganidek, yoshlar orasida ishga joylashishdagi asosiy muammolardan biri — mehnat bozorining talablariga mos keladigan kasbiy mahorat va motivatsiyaning yetishmasligidir[9]. Shuning uchun yoshlar

uchun kasbiy rejalashtirish va ish qidirish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha maxsus trening va seminarlar tashkil etilishi zarur. Shu nuqtayi nazardan, yoshlarni ishga joylashtirishda ko'proq individual yondashuv qo'llanilishi kerak. Har bir yoshning qobiliyatlari, ta'lim darajasi va qiziqishlariga mos ish o'rinlarini taklif qilish uchun davlat organlari va xususiy sektor hamkorligini yanada mustahkamlash lozim.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda O'zbekistonda yosh tadbirkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Yoshlar biznesni boshlash uchun imtiyozlar va grantlar" dasturlari ko'plab yoshlarning o'z biznesini yaratishiga yordam bermoqda[10]. Bu esa iqtisodiy faollikni oshirishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ammo, tajriba shuni ko'rsatadiki, yosh tadbirkorlar uchun malaka oshirish, moliyaviy boshqaruv va marketing sohalarida ko'proq qo'llab-quvvatlash kerak.

Shuningdek, yoshlar orasida innovatsiyalarni rivojlantirish uchun ilmiy va texnologik startaplar ko'paymoqda. IT Park va Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan taqdim etilgan grantlar va inkubator dasturlari yoshlarning ijodiy va texnologik salohiyatini ochishga xizmat qilmoqda[11]. Bunday dasturlarni kengaytirish yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirishga yordam beradi.

Ayollar bandligi bo'yicha olib borilayotgan ishlar alohida e'tibor talab qiladi. Ayollarning ishga joylashishdagi muammolari, ayniqsa oilaviy majburiyatlar va gender stereotiplari sababli yuzaga keladi. Shu bois, oilaviy mas'uliyatlarni kamaytirish uchun davlat darajasida bolalar bog'chalari va kun bo'yi faoliyat yurituvchi xizmatlarni rivojlantirish zarur[12]. Bu esa ayollarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilishni osonlashtiradi. Yoshlar orasida ijtimoiy faoliyat va ko'ngilli harakatlarni rag'batlantirish ham bandlikni oshirishda yordam beradi. Turli ijtimoiy loyihalar va sport tadbirlari yoshlarning jamoat bilan integratsiyasini kuchaytirib, ularning ishga bo'lgan qiziqishini oshiradi[13].

Qishloq joylarda yoshlar uchun kasb-hunar o'quv markazlarini kengaytirish muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, qishloq

xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida yoshlarni rag'batlantirish, ularga zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim berish zarur [14]. Boshqa davlatlarning tajribasini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, Yaponiya va Germaniyada yoshlarni ish bilan ta'minlash uchun davlat va biznes o'rtasida kuchli hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Ushbu tajriba O'zbekistonda ham yoshlarni ish bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishda o'rganilishi va joriy qilinishi mumkin [15].

2024-yil oxiriga kelib, O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining ishsizlik darajasi 5,8 foizni tashkil etdi, bu esa yil boshiga nisbatan 1 foiz punktga pasayishni ko'rsatmoqda. Natijada, taxminan 876 ming nafar fuqaro ish bilan ta'minlanishni kutmoqda [16]. Bu raqamlar iqtisodiyotda ish o'rinlari yaratish sohasida sezilarli yutuqlar borligini ko'rsatadi, biroq ish bilan band bo'lmaganlar soni hali ham yuqori darajada.

Shu yil davomida "Yoshlar daftari" dasturi doirasida 300 mingdan ortiq yoshlarning bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan bo'lib, ushbu loyiha yoshlarni ro'yxatga olish va ularning turli muammolarini hal etish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy xizmatlar ko'rsatishni o'z ichiga oladi [17]. Ushbu dastur yoshlarning bandligini oshirish bilan birga, ularning hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, "One Million Uzbek Coders" loyihasi orqali 15 mingdan ziyod iqtidorli yoshlar xalqaro standartlarga mos keladigan dasturlar asosida IT sohasida tayyorlanadi. Mazkur loyiha yoshlar orasida axborot texnologiyalarini keng targ'ib qilish va sohaning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan [18]. Bu esa mamlakatning raqamli iqtisodiyotga o'tishini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Jahon bankining taqdim etgan ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda ayollar bandligi darajasi past bo'lib, gender tengligi masalasi dolzarb muammo sifatida qolmoqda. Ayollarning ishga joylashishidagi qiyinchiliklar asosan oilaviy majburiyatlar va gender stereotiplari bilan bog'liq [19]. Gender tengligini ta'minlash uchun kompleks choralar ko'rilishi zarur, chunki bu nafaqat ijtimoiy adolat, balki iqtisodiy rivojlanish uchun ham

muhim. Shu bois, qishloq joylarda yoshlarni kasb-hunar o'quv markazlari orqali tayyorlashni kengaytirish muhim vazifaga aylanmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarida yoshlarni zamonaviy texnologiyalar bilan tanishtirish va ularga sifatli ta'lim berish rag'batlantirish choralari orasida bo'lishi zarur [20]. Bu esa qishloq hududlarida ishchi kuchi sifatini oshirishga yordam beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosatini izchil amalga oshirish orqali ta'lim va bandlik sohalarida sezilarli yutuqlarga erishmoqda. "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash yili" doirasida belgilangan maqsadlar – yoshlarning bandligini oshirish va ishsizlik darajasini kamaytirish davlat tomonidan yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligiga qaratilgan ustuvor vazifa ekanligini ko'rsatadi. "Yoshlar daftari" kabi dasturlar va hududiy loyihalar yoshlarni ish bilan ta'minlashda samarali mexanizmlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ta'lim sohasida, ayniqsa "One Million Uzbek Coders" loyihasi va UNICEFning inklyuziv ta'lim tashabbuslari yoshlarning zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishiga yordam bermoqda, bu esa ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirmoqda. Biroq, ayniqsa ayollar orasida NEET ko'rsatkichining yuqoriligi va gender tengligi muammolari dolzarb masala sifatida qolmoqda. Shu sababli, gender muammolarini hal etish va ayollarni iqtisodiy faoliyatga keng jalb qilish uchun maxsus dasturlarni joriy etish lozim. Xalqaro tajribalar asosida davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, yoshlarni kasbiy tayyorlash, psixologik qo'llab-quvvatlash va ishga joylashish ko'nikmalarini rivojlantirish yoshlar mehnat bozoriga muvaffaqiyatli integratsiyasida muhim omillardir. Qishloq joylarda kasb-hunar o'quv markazlarini kengaytirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xizmat ko'rsatish sohalarida yoshlarni rag'batlantirish davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatida davom ettirilmoqda. Umuman olganda, yoshlarni ta'lim va bandlik sohalarida qo'llab-quvvatlash uchun kompleks va individual yondashuvni rivojlantirish,

gender tengligini ta'minlash hamda xalqaro tajribalarni o'zlashtirish mamlakatimizda yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. World Bank. (2021). *Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*. – <https://documents1.worldbank.org/curated/en/666311634704762319/pdf/Youth-Employment-in-Uzbekistan-Opportunities-and-Challenges.pdf>.
2. UNICEF. (2021). *U-Report Uzbekistan: Youth Perspectives on Education and Employment*. – <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/youth-report-pr>.
3. Abdurahmanov K.H. *Youth Entrepreneurship in the Context of Digital Economy Development // Problems and Prospects of Ensuring Employment...*, Samarkand, 2021. – https://ru.wikipedia.org/wiki/Абдурахманов,_Каландар_Ходжаевич.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. *Yoshlarni qo'llab-quvvatlash — mamlakat taraqqiyotining drayveri*. – <https://parliament.gov.uz/articles/1952>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. *Yoshlar bilan ishlash borasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar*. – <https://gov.uz/oz/yoshlar/news/view/31498>.
6. IT Park Uzbekistan. *Digital Technologies and Transport*. – https://gov.uz/en/activity_page/digital_technology.
7. International Trade Centre. *How the UN guides Uzbekistan's youth in its digital journey*. – <https://www.intracen.org/news-and-events/news/how-the-un-guides-uzbekistans-youth-in-its-digital-journey>.
8. Jahon banki. *Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*. – <https://documents1.worldbank.org/curated/en/666311634704762319/pdf/Youth-Employment-in-Uzbekistan-Opportunities-and-Challenges.pdf>.
9. Jahon banki. *Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*. – <https://documents1.worldbank.org/curated/en/666311634704762319/pdf/Youth-Employment-in-Uzbekistan-Opportunities-and-Challenges.pdf> (takroriy, murojaat qilingan sana: 04.07.2025).
10. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi. *Yosh tadbirkorlikni rivojlantirish*. – <https://investment.gov.uz/uz/yosh-tadbirkorlik>.
11. IT Park Uzbekistan. *Yoshlar uchun inkubator va grant dasturlari*. – <https://itpark.uz/uz/programs>.
12. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. *Ayollar bandligini oshirish choralari*. – https://mehnat.uz/uz/gender_policy.
13. Yoshlar ishlari agentligi. *Ijtimoiy faol yoshlar*. – <https://yoshlar.gov.uz/uz/social-activities>.
14. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi. *Qishloq yoshlarini qo'llab-quvvatlash*. – <https://agro.uz/uz/yoshlar>.
15. OECD. *Youth Employment Policies in OECD Countries*. – <https://www.oecd.org/employment/youth/>.
16. Jahon banki. *Youth Employment in Uzbekistan: Opportunities and Challenges*. – <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/>.
17. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi. Rasmiy sayt: <https://mehnat.uz>.
18. Raqamli texnologiyalar vazirligi. *One Million Uzbek Coders loyihasi haqida*. – <https://digital.gov.uz>.
19. *Demokrat.uz*. *Yoshlar daftari dasturi va yoshlar bandligi*. – <https://demokrat.uz>.
20. *Kun.uz*. *Ayollar bandligini oshirish masalalari*. – <https://kun.uz>.

NAVOIY VILOYATI YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATIDA QO'SHMA KORXONALARNING FAOLIYATI

Xoliqulov Shuxratjon Boymaxammadovich

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0007-9635-1022>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola Navoiy viloyatida mustaqillik yillarida yengil va oziq-ovqat sanoati sohasida tashkil etilgan qo'shma korxonalarining faoliyatini kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada 1993-yildan boshlab Italiya, Turkiya, Germaniya, Kipr kabi davlatlar bilan hamkorlikda amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalar, xususan, paxta, jun va terini qayta ishlash korxonalari misolida mintaqaning sanoat salohiyati yoritiladi. Shuningdek, qo'shma korxonalarining eksport faoliyati, viloyatning tashqi savdo aylanmasidagi o'zni hamda iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'sish dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida ko'rsatib berilgan. So'nggi yillarda Xitoy va Janubiy Koreya investitsiyalari hisobiga baliqchilik va sintetik ip ishlab chiqarish sohasidagi yangi loyihalar, shuningdek, mahalliy o'simlik yog'i ishlab chiqarish korxonasining yaratilishi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qo'shma korxonalar, xorijiy investitsiyalar, eksport salohiyati, Italiya, Turkiya, Germaniya, Kipr.

Аннотация: Статья посвящена комплексному анализу деятельности совместных предприятий, созданных в легкой и пищевой промышленности Навоийской области за годы независимости. В статье освещается промышленный потенциал региона на примере крупных инвестиционных проектов, реализованных совместно с такими странами, как Италия, Турция, Германия, Кипр с 1993 года, в частности предприятий по переработке хлопка, шерсти, кожи. Также на основе статистических данных показана экспортная деятельность совместных предприятий, их место во внешнеторговом обороте региона, динамика роста

экономических показателей. За последние годы проанализированы новые проекты в сфере рыболовства и производства синтетических нитей за счет инвестиций из Китая и Южной Кореи, а также создание местного предприятия по производству растительного масла.

Ключевые слова: Навоийская область, легкая промышленность, пищевая промышленность, совместные предприятия, иностранные инвестиции, экспортный потенциал, Италия, Турция, Германия, Кипр.

Abstract: This article is devoted to a comprehensive analysis of the activities of joint ventures established in the light and food industries in Navoi region during the years of independence. The article highlights the industrial potential of the region using the example of large investment projects implemented in cooperation with countries such as Italy, Turkey, Germany, and Cyprus since 1993, in particular, cotton, wool, and leather processing enterprises. Also, the export activities of joint ventures, their place in the region's foreign trade turnover, and the growth dynamics of economic indicators are shown based on statistical data. In recent years, new projects in the field of fisheries and synthetic yarn production due to investments from China and South Korea, as well as the creation of a local vegetable oil production enterprise, are analyzed.

Keywords: Navoi region, light industry, food industry, joint ventures, foreign investments, export potential, Italy, Turkey, Germany, Cyprus.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va jahon

bozorlariga integratsiyalash jarayonida chet el investitsiyalarini jalb etishga ustuvor ahamiyat qaratdi. Bu jarayonning muhim qismi sifatida mamlakatimizning har bir hududida, jumladan, boy resurs salohiyatiga ega bo'lgan Navoiy viloyatida ham turli sohalarda qo'shma korxonalar faoliyati jadal rivojlandi. Xususan, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati sohalarida tashkil etilgan qo'shma korxonalar viloyat iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlarning lokomotivi bo'lib xizmat qildi. Ushbu kirish qismi Navoiy viloyatining iqtisodiy rivojlanishida xorijiy investitsiyalar va qo'shma korxonalarning o'rni, ularning viloyat eksport salohiyatini oshirishdagi hamda yangi ish o'rinlari yaratishdagi muhim rolini ko'rsatib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Ushbu maqolani tayyorlashda Navoiy viloyatining yengil va oziq-ovqat sanoatidagi qo'shma korxonalar faoliyatini kompleks o'rganish maqsadida turli xil adabiyotlar va manbalardan foydalanildi. Tadqiqot, asosan, Navoiy viloyati davlat arxivi materiallari (Fond-100, 1-ro'yxat, 4-ish; 31-ish; 135-ish; 247-ish), "O'zbekiston Respublikasi Ensiklopedik ma'lumotnomasi" (2002) kabi ilmiy manbalar, shuningdek, "Yangi O'zbekiston" gazetasi va "yuz.uz", "agro.uz" kabi zamonaviy internet resurslariga tayanildi.

Maqolani tayyorlashda quyidagi ilmiy tadqiqot metodlari qo'llanildi: tarixiy metod, statistik tahlil, qiyosiy tahlil, induktiv va deduktiv yondashuv hamda mantiqiy tahlil. Ushbu ilmiy tadqiqot metodlari Navoiy viloyatidagi xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va aholi farovonligining oshishiga ta'sirini chuqur va ilmiy asoslangan holda yoritish imkonini berdi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 1993-yilda Navbahor tumanida chorvadorlari davlatga 21 191 dona qorako'l teri, 1588 sentner jun, 222 tonna pilla topshirib, yillik rejani ortig'i bilan bajardilar. 1994-yil yilda Italiya davlati bilan hamkorlikda yiliga 1700 tonna paxtani qayta ishlaydigan ip yigiruv korxonasi qurildi[1].

1993-yilda Turkiyaning "Deri-maksan" firmasi bilan terini qayta ishlovchi zavod, Germaniyaning "Universal" firmasi bilan junni tozalab, xomashyo oluvchi liniyalar qurilishi ham boshlandi[2].

1994-yilda "Agama" qo'shma korxonasi 250 ming dollarlik ustki kiyimlar, 50 ming dollarlik paypoq mahsulotlarini chetga eksport qildi. "Karakaral" qo'shma korxonasi filialida oyoq kiyimlari tayyorlash uchun teri mahsulotlarini qayta ishlovchi baza yaratildi. Viloyatda "Tadbirkorbank" filiali tashkil etildi. Ushbu bank tomonidan kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash maqsadida 350 million so'm miqdorida kredit ajratildi[3].

1995-yilda Nurota tumanida Kipr davlati bilan hamkorlikda "Nurota-Runo" junni qayta ishlash fabrikasi tashkil etildi. Ushbu korxona 170 tonna junni qayta ishlash quvvatiga ega bo'lib, 100 ming dollarlik chet el texnologiyasi asosidagi dastgohlar bilan jihozlandi[4].

O'zbekistonda eksport salohiyatini oshirish maqsadida, xorijiy davlatlar bilan o'zaro hamkorlik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu borada hukumatimiz tomonidan bir qancha qarorlar qabul qilingan va ushbu qarorlar asosida eksport salohiyatini rivojlantirish davlat dasturi ishlab chiqildi.

O'zbekistonning savdo sotiqdagi asosiy mijozlari: Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya, Shveysariya, AQSh, Janubiy Koreya, Rossiya, Italiya, Niderlandiya, Belgiya, Turkiya, Fransiya, Xitoy va boshqa mamlakatlar. O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasida keyingi yillarda muhim tarkibiy o'zgarishlar bo'lmoqda. Dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo qilinmoqda[5].

Sanoatda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari ishchi kuchi qiymatiga sezuvchan bo'ladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni kiritishning asosiy tahdidlari mavjuddir. Bularga mamlakatdagi moliyaviy beqarorlik, harbiy va siyosiy beqarorlik, investitsiya muhitining o'zgarishi va boshqa omillar sabab bo'lishi mumkin. Eng muhim tahdidlar ichida birinchi o'ringa harbiy va siyosiy beqarorlik chiqadi. Investorlar javobiga Iroq, Afg'oniston va dunyoning boshqa hududlaridagi harbiylarning reja va

harakatlari ta'sir qiladi.

Investitsiya iqtisodiyotning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biridir. Investitsiya yordamida yangi sanoat korxonalari quriladi, mavjudlari ta'mirlanadi, yangi mashina va uskunalar sotib olinadi. Mamlakatimizning import va eksport salohiyatiga nazar tashlar ekanmiz, 1991 yillarda viloyatimizda kichik, xususi va qo'shma korxonalar tashkil etila boshlanganligiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, paxta tolasini ip-gazlamaga, gazlamani esa tayyor kiyim-kechakka aylantirish, iqtisodiyotimizga o'zining ijobiy o'zgarishlarini ko'rsatishi muhim vazifa qilib olindi.

Navoiy viloyatida olib borilayotgan tashqi iqtisodiy aloqalar natijasida, 1996-yilda jami tashqi savdo aylanmasining hajmi 472,3 mln AQSh dollariga teng yoki 1995-yilga qaraganda 2,6 barobar ko'p bo'ldi. Uning 205,6 mln AQSh dollari eksportni (3,6 barobar oshdi) va 267,0 mln AQSh dollari importni (2,1 marta oshgan) tashkil etdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasidagi asosiy hamkorlari Rossiya (20 foiz), Buyuk Britaniya (28 foiz), Qozog'iston (21 foiz), AQSh (12 foiz), Shvetsariya (3,5 foiz), Yaponiya (2,5 foiz) va boshqalar[6].

Jami eksportning 57,0 mln AQSh dollarini paxta tolasi tashkil etib, o'sish 2,8 marta ko'paygan. Jami ishlab chiqarilgan paxtaning 78,8 foizi eksportga yo'naltirilgan. Jami importning 34,4 mln AQSh dollarini oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish 77,6 foizni, 108,3 mln AQSh dollarini sanoat uchun kerakli mashina va asbob-uskunalar iborat bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish 2,6 martani, 22,8 mln AQSh dollarini bug'doydan iborat bo'lib, o'tgan yilga nisbatan o'sish 118 foizni tashkil etdi. Importning asosiy qismi sanoat uchun kerakli mashina va asbob-uskunalar (40,5 foizi) va oziq-ovqat mahsulotlari (12,8) dan iborat edi. Viloyatda 39 ta qo'shma korxona mavjud edi[6].

2020-yilda Navoiy viloyatida Xitoyning "Youkang Agriculture" korxonasi 10 million dollarlik investitsion loyiha, ya'ni 10 ming tonnagacha baliq sanoati uchun zarur bo'lgan yem mahsulotlarini ishlab chiqarish

imkoniyatiga ega bo'lgan zavod hamda Qiziltepa tumanidagi To'dako'l suv havzasida besh ming tonna baliq o'stirish sharoiti bo'lgan baliqchilik fermasini qurildi. "Youkang Agriculture" korxonasi 2010-yil Xitoyning Fuszhan provinsiyasida tashkil topgan[7].

2022-yilda "O'zcharsanoat" uyushmasi hamda Koreya Respublikasining "Selen CO LTD" kompaniyasi rahbari Kim Xyunxeyui mamlakatimizning charm-poyabzal va mo'ynachilik sanoatiga "Navoiy" EIZ hududida "NAV SILIN" MChJ QK yangi korxonasini tashkil etishdi. Yangi loyiha faoliyati asosan sintetik ip ishlab chiqarishga yo'naltirildi. Loyiha qiymati 6 million dollarni tashkil etadi. Bu yerda yiliga 120 tonna mahsulot ishlab chiqariladi. Yangi qo'shma korxona to'liq quvvatda 2023-yilda foydalanishga topshirildi. Natijada 200 dan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi[8].

Aytish joizki, Navoiy viloyati qishloq xo'jaligida o'ziga xos maktab yaratganligi bilan mashhur. Hudud mehnatkashlari paxta deymizmi, g'alla deymizmi yoki poliz ekinlari-yu, meva-cheva bo'lsin – har sohada estafetani qo'ldan boy bermaslik uchun tinimsiz mehnat qilmoqdalar.

Birgina misol: Navbahor tumanida yangi tashkil etilayotgan, o'simlik yog'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Pure nature oils" MChJni oladigan bo'lsak, bu yerda paxta va kungaboqarni qayta ishlash hisobiga 80 ta yangi ish o'ri yaratildi.

Aytish joizki, 2 gektarda qad rostlagan ushbu majmuada bugungi kunda bozorgir bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish yo'lga qo'yilmoqda.

Yog' mahsulotlarini ishlab chiqarishni keng ko'lamda tashkil etish maqsadida, Turkiya va Xitoydan texnologiyalar keltirilib o'rnatildi. Sutkasiga o'rtacha 200 tonna xomashyo qayta ishlab chiqarish orqali yillik qiymati 55,7 mlrd. so'm bo'lgan, 17 ming tonna o'simlik yog'ini ishlab chiqarildi[9].

Navoiy viloyati iqtisodiyotining rivojlanishida yengil sanoat va oziq-ovqat sanoatidagi qo'shma korxonalarning faoliyati juda katta ahamiyatga ega. Ular quyidagilardan iborat:

Qo'shma korxonalar, ayniqsa xorijiy

investitsiyalar hisobiga tashkil etilganlari, Navoiy viloyatining iqtisodiy o'sishiga sezilarli hissa qo'shdi. Ular yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mavjudlarini modernizatsiya qilish va texnologik yangilanishni ta'minlash orqali viloyatning sanoat salohiyatini oshirdi. Paxta, jun, teri kabi mahalliy xomashyolarni chuqur qayta ishlashga yo'naltirilgan loyihalar qo'shilgan qiymat zanjirini uzaytirdi va umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshirdi.

Qo'shma korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlar, ayniqsa paxta tolasi, qayta ishlangan jun va teri mahsulotlari, shuningdek, tayyor kiyim-kechak va poyabzal kabi mahsulotlar viloyatning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirdi. Xorijiy hamkorlar bilan tuzilgan shartnomalar va zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari jahon bozorlariga raqobatbardosh mahsulotlarni olib chiqishga imkon berdi. Bu esa viloyatga valyuta tushumlarini oshirib, tashqi savdo balansini ijobiy tomonga o'zgartirdi.

Sanoat korxonalarining tashkil etilishi va rivojlanishi bevosita ish o'rinlari yaratishga olib keldi. Ayniqsa, yengil va oziq-ovqat sanoati mehnat talabchan sohalar bo'lib, ular ko'plab fuqarolarni, jumladan, ayollarni ish bilan ta'minladi. Yangi ishlab chiqarish liniyalari, zavodlar va fabrikalarning ishga

tushirilishi yuzlab, minglab odamlarning doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga xizmat qildi. Bu esa aholining turmush darajasini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'ldi.

Xorijiy investitsiyalar bilan birga viloyatga zamonaviy texnologiyalar, ilg'or uskuna va jihozlar kirib keldi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashuvi, mahsulot sifatining yaxshilanishi va mehnat unumdorligining oshishiga olib keldi. Shuningdek, sanoat zonalarining tashkil etilishi, transport va energetika infratuzilmasining rivojlanishi ham umumiy iqtisodiy muhitni yaxshilashga xizmat qildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mustaqillik bergan imkoniyatlar va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni viloyat yengil sanoati taraqqiyotida ham muhim o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Natijada, sanoatning ushbu sohasiga chet el investitsiyasini jalb etish, kichik va o'rta tipdagi korxonalarni bunyod qilish borasida muhim o'zgarishlar amalga oshirildi. Viloyat hududining ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan umumiy va samarali foydalanish, provardida yangi ish o'rinlari yaratildi va aholi daromadini oshirishga xizmat qildi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 31-ish, 16-varaq.
2. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 4-ish, 37-varaq.
3. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 31-ish, 62-varaq.
4. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 135-ish, 19-varaq.
5. Ўзбекистон Республикаси. *Энциклопедик маълумотнома*. – Тошкент: Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 333.
6. Navoiy viloyati davlat arxivi. Fond-100, 1-ro'yxat, 247-ish, 11-varaq.
7. *Xitoylik tadbirkorlar Navoiyda qo'shma korxona tashkil etdi // Yangi O'zbekiston*. – 2020-yil 15-dekabr. – <https://yuz.uz/uz/news/xitoylik-tadbirkorlar-navoiyda-qoshma-korxona-tashkil-etdi>.
8. *Koreyalik ishbilarmonlar Navoiy viloyatida yangi qo'shma korxona tashkil etadi // Biznes24*. – Mart, 2022. – <https://yuz.uz/uz/news/koreyalik-ishbilarmonlar-navoiy-viloyatida-yangi-qoshma-korxona-tashkil-etadi>.
9. Agro.uz rasmiy sayti. – <https://www.agro.uz/17-08-2023-4/>.

MUSTAQILLIGIMIZNING DASTLABKI YILLARIDA ONALIK VA BOLALIKNI MUHOFAZA QILISH TARIXI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

O'rolova Malika

Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi

uralovamalika25@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0008-5020-100X>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Onalik va bolalikni muhofaza qilish, har bir jamiyatning asosiy qadriyatlaridan biridir. Bu jarayon onalarning va ularning farzandlarining sog'lig'i, ta'limi va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning janubiy qismida joylashgan bo'lib, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlari va an'anaviy qadriyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: oila, farzand, ta'lim, huquqiy himoya, sog'liqni saqlash, xalqaro tashkilotlar, sog'liqni saqlash tizimi, korxona va sexlar

Anotation. The protection of motherhood and childhood is one of the main values of each society. This process is related to the health, education and social protection of mothers and their children. Surkhondaryo region is located in the southern part of Uzbekistan and is characterized by its unique socio-economic conditions and traditional values.

Keywords: family, child, education, legal protection, health, international organizations, health system, enterprise and sexes

Аннотация. Охрана материнства и детства — одна из основных ценностей каждого общества. Этот процесс связан со здоровьем, образованием и социальной защитой матерей и их детей. Сурхандарьинская область расположена в южной части Узбекистана и отличается особыми социально-экономическими условиями и традиционными ценностями.

Ключевые слова: семья, ребенок, образование, правовая защита, здравоохранение, международные организации, система здравоохранения, предпринимательство и пол.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Birinchi prezidentimiz

I.A.Karimovning so'zlari bilan aytganda, "Ayolni ulug'lamoq-oilani Vatanni, hayotni ulug'lamoq demakdir"[2]. Arabcha "ayol" so'zi — "oila" kalimasi bilan o'zakdosh. Demak, ayol so'zining ortida farzand, oila tushunchalari tub mazmunini tashkil etadi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish — bu jamiyatning kelajagini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega kasb etadi. Ushbu jarayon, nafaqat onalar va bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun sog'lom va barqaror kelajakni yaratishga xizmat qiladi. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalarning sog'lig'ini, bolalarning o'sishi va rivojlanishini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy sharoitlarni yaxshilashni o'z ichiga oladi.

АДАБИЙОТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОД (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS).

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, mamlakatimizda onalik va bolalikni muhofaza qilish masalasi dolzarb masalaga aylangan. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 13-iyunda "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish to'g'risida"gi Farmoyishi e'lon qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000-yil 19-dekabrda F-1306-son farmoyishiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5-fevraldagi "Ona va bola davlat dasturi to'g'risida"gi 58-qarori ham, aynan, onalik va bolalikni muhofaza qilish chora-tadbirlari tatbiq etishga qaratilgan[15]. Bundan tashqari maqolada, mahalliy gazetalardan "Surxon tongi" gazetasi maqolalaridan ham unumli foydalanilgan.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jamiyatning asosiy

ustunlaridan biri onalik va bolalikni muhofaza qilish bo'lib, uning rivojlanishi va barqarorligini ta'minlaydi. Ushbu jarayonning ahamiyati quyidagi asosiy jihatlar bilan belgilanadi:

1. Sog'liqni saqlash
2. Ta'lim
3. Ijtimoiy barqarorlik
4. Iqtisodiy rivojlanish
5. Huquqlarni himoya qilish

1. Sog'liqni saqlash. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, onalar va bolalarning sog'lig'ini yaxshilashga qaratilgan. Sog'lom onalar, sog'lom bolalarni dunyoga keltiradi. Bu sog'liqni saqlash xizmatlari, emlash dasturlari va tug'ruqdan keyingi parvarish bilan bog'liq. 1997-yil noyabr oyida Termizda dori-darmonlar ishlab chiqarish bo'yicha "Surxon-Ajanta" qo'shma korxonasi tashkil etildi. Uni Termiz farmaseftlari "Ajanta farma LTD" yetakchisi hind firmasi hamkorligida tashkil etishdi[3]. 2000-yil mart oyida Qiziriqda Surxondaryoda birinchi shoshilinch tibbiy yordamning tuman filiali foydalanish uchun topshirildi. Shuningdek bir vaqtning o'zida yigirma bemorni qabul qilishga mo'ljallangan ikki qavatli bino zamonaviy apparat va asbob uskunalar bilan jihozlangan[4]. 2000-yil sentyabr oyida Termizdagi shahar kasalxonasi negizida 140 o'rinli shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi ishga tushirildi[3]. Shu yili Sariosiyo tumanida ham markaziy shifoxona tarkibida "Tez yordam" bo'limi ochildi. 2001-yil "Onalar va bolalar yili"da vohamizda onalar va bolalarning sog'lom bo'lishi, yangi tug'iladigan chaqaloqlardagi tug'ma nuqsonlarni aniqlash uchun Termiz shahrida "Ona-bola skrining markazi" ochildi[4]. Shu yili viloyatimizda 390 mingdan ortiq homilador ayol qayd etilgan. Bolalar o'limi darajasini pasaytirish: Onalik va bolalikni muhofaza qilish dasturlari bolalar o'limi darajasini pasaytirishga yordam beradi. Sog'lom onalar va bolalar, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. 1998 – yil 13-iyunda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish bo'yicha davlat dasturini ishlab chiqish to'g'risidagi" Farmoyishi e'lon

qilindi[3]. Sariosiyo tumanida 2000 –yil 14 yoshgacha bo'lgan 55,8 ming nafar bolaning 54,7 ming nafari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi[5].

2. Ta'lim. Bolalarning ta'limi: Onalik va bolalikni muhofaza qilish ta'lim tizimiga ham ta'sir qiladi. Sog'lom va baxtli bolalar, ta'limda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarur sharoitlarga ega bo'lishadi. Ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishi, jamiyatning kelajagi uchun muhimdir. 2001-2002-yil o'quv yilida respublika Vazirlar Mahkamasining 2001-yi 5-fevraldagi "Ona va bola davlat dasturi to'g'risida"gi 58-qarorining 90-bandini ijrosini tashkil etish uchun bir qator ishlar qilindi. Misol uchun, Angor tumanidagi 41 ta maktabda 2-sinfdan 8-sinfgacha bo'lgan o'quvchilarga 39 nomdagi darsliklar ijara tizimi bo'yicha tarqatildi. Bu tizim birinchi marta joriy etildi[6].

Ona tarbiyasi: Onalikni muhofaza qilish onalarga tarbiya berish va bolalarini muvaffaqiyatli o'stirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarni taqdim etadi. 2001–yil "Ekosan" xalqaro jamg'armasi viloyat bo'limining tashabbusi bilan yosh onalar tanlovi o'tqazildi. Tanlovdan asosiy maqsad onalik oid bilim va ko'nikmalar shartlar asosida sinab ko'rildi. Viloyat bosqichida Zebuniso Amirqulova barcha shartlarni qoyilmaqom bajarib, tanlovning mutlaq g'olibi bo'ldi[6].

3. Ijtimoiy barqarorlik. Ijtimoiy himoya: Onalik va bolalikni muhofaza qilish jamiyatda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytiradi. Bu onalar va bolalar uchun zarur sharoitlarni yaratish, ularni himoya qilish va qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. 1997-yil yanvar oyida Surxondaryo viloyatida "Ayol va zamon" gazetasi chiqa boshladi. 1998-yil fevral oyida Surxondaryo viloyati Termiz shahrida viloyat hokimligining majlisxonasida "Ayol va huquq" mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Unda asosiy masala hokimlik, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish majmuasi tashkil etildi. Ta'kidlanishicha, dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'shib hisoblaganda 1200 ziyod ayollar rahbarlik lavozimida ishlagan. Qishloq xo'jaligida mehnat qilayotganlarning 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi[7].

Ijtimoiy qulaylik: Onalik va bolalikni muhofaza qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy muammolarni hal qilish va jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, ayollarni ish bilan ta'minlash, oilani, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish, ta'lim-tarbiya sohasidagi dolzarb vazifalarga alohida e'tibor qaratdi. Xotin-qizlar o'rtasida bandlik masalalarini har tomonlama ko'rib chiqish lozim. Davlat tomonidan ko'rsatilayotgan yordam bilan bir qatorda, birinchi navbatda, ularning o'zlariga ishlab daromad topish uchun imkoniyat tug'dirish kerak. Bu yo'nalish vaqtinchalik ish o'rinlari barpo etish, kasanachilik faoliyatini tashkil etish va shu singari ayollarning ijtimoiy bandligini ta'minlaydigan ko'plab usullarni o'z ichiga oladi[1].

“Sog'lom avlod uchun” Xalqaro xayriya jamg'armasi tomonidan birgina 1997-yil sara hisoblariga ko'ra, 1032,0 ming so'mlik xayriya va 630 ming 625 so'mlik dori-darmon muruvvat yordami onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodni sog'lomlashtirish, ko'p bolali, kam ta'minlangan oilalarga, tug'ish yoshdagi va homilador ayollarga va o'smirlarga tibbiy – ijtimoiy yordam berildi[8]. 1998-yil Surxondaryo viloyati Denov tumanida Denov neft mahsulotlari korxonasi qoshida tashkil etilgan tikuvchilik sexida 40 nafar xotin-qiz foydali mehnatga jalb etildi. Bu yerda 15 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqariladi[9].

4. Iqtisodiy rivojlanish. Iqtisodiy o'sish: Sog'lom onalar va bolalar, kelajakda iqtisodiy rivojlanishga hissa qo'shadilar. Ular mehnat bozoriga kirganda, sog'lom va ta'limli avlod sifatida iqtisodiy o'sishga yordam beradi. Angor tumanida 1998–yil “Zang” jamoa xo'jaligida xonatlas to'qiydigan sexning ochilishi va ishga tushirilgani xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy qulaylik yaratilishiga imkon yaratildi. Sexda o'rnatilgan 6 ta dastgoh bilan kuniga 50-60 metrdan kamalak rang xonatlas to'qib chiqarildi. Bu sexda mohir to'quvchilardan biri Sanobar Berdimurodovadir[10]. Bundan tashqari, “Zang” jamoa xo'jaligi markazida gilam to'qish sexi mavjud bo'lib, 8 ta dastgoh hamda

24 nafar ayollarni ish bilan ta'minlagan.

Denov tumanidagi “Yurchi” ulgurji matlubot hissadorlik jamiyatida shu yili tikuvchilik sexi ochilib, tikuvchilik va zardo'zlik yo'lga qo'yildi. 20 dan ortiq xotin-qiz ish bilan ta'minlandi. 1994–yilning noyabr oyidan boshlab, Jarqo'rg'on to'quv fabrikasi “Surxon tekstil” hissadorlik jamiyatiga aylantirildi. 1995-yil to'quv sexi qayta jihozlanib, Byaz 44-46 deb nomlanadigan yangi mahsulot ishlab chiqara boshladi[11]. 1999-yil ma'lumotlariga ko'ra, “Surxon tekstil” hissadorlik jamiyati 1120 nafar xotin-qizlar fidoiylik ko'rsatgan bo'lib, ularning 80 foizi yoshlar tashkil etadi[12].

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, bir qator qiyinchiliklar va muammolarga ham duch kelishimiz mumkin. Misol uchun, 2000 — yillarda Boysun tumanida mehnat yoshdagi ayollarning soni 18848 tadan 2950 nafari ish bilan band[14]. Yoshlar orasida sog'lom oila tushunchalarini targ'ib etish va voyaga yetmagan qizlarni turmush bermaslik borasidagi muammolar voha tumanlarida targ'ibot masalasi bo'lib qolmoqda. Afsuski, ayollarimiz orasida shifokor ko'rigidan o'tmay, maslahat va talablariga loqaydlik bilan qaraydiganlar ham uchrab turadi.

5. Huquqlarni himoya qilish. Bolalar huquqlari: Onalik va bolalikni muhofaza qilish, bolalarning huquqlarini himoya qilishni ta'minlaydi. Bu, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlarini himoya qilishga yordam beradi. Birlashgan millatlar tashkilotining Toshkentdagi vakolat xonasida O'zbekistonning YUNISEF bilan 2000-2004 yillardagi hamkorlik qilish dasturi strategiyasi muhokamasiga bag'ishlangan maslahat kengashi bo'lib o'tdi. Unda respublika hukumati, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanuvchi milliy va xalqaro tashkilotlarning vakillari ishtirok etdilar. Birlashgan millatlar tashkilotining Bolalar jamg'armasi (YUNISEF) mamlakatimizda 1992-yildan beri faoliyat ko'rsatmoqda. O'sha vaqtdan boshlab hukumatimiz ushbu tashkilot bilan bolalar huquqini, ularning sog'lig'ini himoya qilish hamda ta'lim berishni Xalqaro konvensiyaga

muvofig ta'lim berishni amalga oshirish masalalari borasida yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. O'zbekiston hukumati 1994-yilda ushbu Konvensiyaga a'zo bo'lgan edi[3]. 1998-yil iyun oyida vohamiz bolajonlari uchun Termiz shahrida "Bolajon" bolalar madaniyat va istirohat bog'i ochildi. Bolalarning ta'til kunlari sermazmun o'tishiga xizmat qilyapti.

Ona huquqlari: Onalarning huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy va iqtisodiy hayotdagi o'rnini mustahkamlashga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi "Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish to'g'risidagi" PF-2177-sonli farmonining ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyat hokimining qaroriga muvofiq, ishlaydigan onalarga bolasi ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilish uchun nafaqalar tayinlash, bu nafaqa pullarni viloyat Xalq bank tomonidan maxsus ilova hisob varaqalari orqali amalga oshirish ko'zga

tutildi[13]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5 fevraldagi "Ona va bola" davlat dasturi to'g'risidagi 68-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Surxondaryo viloyat hokimligi qaror qabul qildi. Unga ko'ra, ona sog'ligini mustahkamlash va sog'lom bola tug'ilishi masalalariga e'tiborni kuchaytirish, zamonaviy tibbiyot asbob uskunolari, profilaktika tadbirlarini muntazam o'tkazish yordamida amalda tibbiy ko'rikdan o'tkazish masalalari va bir qator vazifalar belgilab olindi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Onalik va bolalikni muhofaza qilish, nafaqat onalar va bolalar uchun, balki butun jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanish kabi ko'plab sohalarda ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, onalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan dasturlar va siyosatlar, har bir jamiyatda ustuvor vazifalardan biri bo'lishi zarur.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Karimov I.A. *Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq*. T. 12. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 400 b.
2. *Ayolga ehtirom* (majmua). – 1999.
3. Tyurikov V., Shog'ulomov R. *Istiqlol yilnomasi. O'zbekiston Respublikasi: odamlar, sanalar, voqealar (1991–2001)*. – Toshkent: G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2001. – 459 b.
4. *Surxon tongi* gazetasi. – 2001-yil 30-may, №23 (16549).
5. *Surxon tongi* gazetasi. – 2001-yil 14-mart, №12 (16538).
6. *Surxon tongi* gazetasi. – 2001-yil 22-avgust, №35 (16561).
7. *Surxon tongi* gazetasi. – 1998-yil 20-fevral, №25 (16188).
8. *Surxon tongi* gazetasi. – 1998-yil 28-fevral, №30 (16213).
9. *Surxon tongi* gazetasi. – 1998-yil 22-yanvar, №10 (16193).
10. *Surxon tongi* gazetasi. – 1998-yil 13-fevral, №21 (16204).
11. *Ayol va zamon* gazetasi. – 1999-yil mart, №3 (26).
12. *Surxon tongi* gazetasi. – 1998-yil 6-mart, №38–39 (16391).
13. *Surxon tongi* gazetasi. – 1999-yil 2-fevral, №19 (16371).
14. *Ayol va zamon* gazetasi. – 2000-yil aprel, №4 (41).
15. *Xalq so'zi* gazetasi. – 2001-yil 6-fevral soni.

1970-1980-YILLARDA SURXONDARYO VILOYATI SANOATIDA KADRLAR TAYYORLASH TIZIMI: BOYSUN, SHARG'UN VA SHO'RCHI SHAHARLARI MISOLIDA

Xoliyorov Aliyor Panjiyevich

Jarqo'rg'on tumani ixtisoslashtirilgan maktabi tarix fani o'qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0006-0198-4774>

UDK: 94(575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqola 1970-1980-yillardagi Surxondaryo viloyati Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlaridagi sanoat, qurilish va transport korxonalarida ishchi kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qiladi. O'sha davrda ayollarni ishlab chiqarishga jalb etishning obyektiv zarurati va ularni kasbga o'rgatish usullari ko'rib chiqilgan. Maqolada asosan "ustoz-shogird" usuli va brigada usuli keng qo'llanilgani, ba'zi korxonalarda qisqa muddatli kurslar tashkil etilgani qayd etiladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, Boysun, Sharg'un, Sho'rchi, kadrlar tayyorlash, mehnat resurslari, malaka oshirish, ayollar mehnati, sanoat.

Аннотация: В данной статье анализируется система подготовки и повышения квалификации рабочих на промышленных, строительных и транспортных предприятиях городов Бойсун, Шаргун и Шорчи Сурхандарьинской области в 1970-1980-е годы. Рассматривается объективная необходимость привлечения женщин в производство в то время и методы обучения их профессии. В статье отмечается, что широко применялись метод «учитель-ученик», бригадный метод, на некоторых предприятиях организовывались краткосрочные курсы.

Ключевые слова: Сурхандарья, Бойсун, Шаргун, Шорчи, подготовка кадров, трудовые ресурсы, повышение квалификации, женский труд, промышленность.

Abstract: This article analyzes the system of training and advanced training of workers in industrial, construction and transport enterprises in the cities of Boysun, Shargun and Shorchi of Surkhandarya region in the

1970s and 1980s. The objective need to involve women in production at that time and the methods of training them in the profession are considered. The article notes that the "teacher-student" method and the brigade method were widely used, and short-term courses were organized at some enterprises.

Keywords: Surkhandarya, Boysun, Shargun, Shorchi, personnel training, labor resources, advanced training, women's labor, industry.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

1970-1980-yillarda O'zbekiston SSR, xususan, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi shiddatli tus oldi. Bu davrda iqtisodiy o'sishni ta'minlashda malakali ishchi kuchi va mutaxassislariga bo'lgan ehtiyoj keskin oshdi. Aholi tarkibida erkaklar va ayollar sonining deyarli barobar bo'lishi, ayrim ishlab chiqarish sohalariga ayollarni jalb etishni obyektiv zaruratga aylantirdi. Shu sababli, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etdi. Biroq, bu jarayonlar har bir shaharda o'ziga xos xususiyatlarga va muammolarga ega bo'lgan.

Ushbu tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatining Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida 1970-1980-yillar davomida sanoat, qurilish va transport korxonalarida ishchi kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini tahlil qilish, ushbu tizimlarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va ularning sanoat rivojlanishiga ta'sirini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS).

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy tahlil, statistik tahlil va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Ma'lumotlar asosan O'zbekiston Markaziy Arxivining (O'z MA) 2113-fondi materiallari, Surxondaryo viloyat davlat arxivining tegishli fondlari, Sharg'un g'isht zavodlari boshqarmasi, "Sharg'un ko'mir" boshqarmasi, Boysun shahar ijroiya qo'mitasi va Sho'rchi paxta tozalash zavodi, Sho'rchi shahar hokimiyatining joriy arxivlaridagi hisobotlar va axborot materiallari kabi birlamchi manbalardan to'plangan. Shuningdek, davriy nashrlar ("Lenin bayrog'i", "Kommunizm g'alabasi" gazetalari) va ilmiy adabiyotlardan ham foydalanildi. Tadqiqot 1970-yildan 1990-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va Surxondaryo viloyatining uchta shahri – Boysun, Sharg'un va Sho'rchi sanoat korxonalarida misolida o'tkazilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Korxonalarga ishga kirgan yoshlar va uy bekalari asosan yakka (individual) yoki brigada usulida, tajribali ishchilar tomonidan bevosita ish joyida 3 oydan 6 oygacha muddatda kasbga o'rgatilgan. Kasbni egallash davrida ularga shogirdlik maoshi to'langan.

Boysun va Sho'rchi shaharlaridagi paxta tozalash, "O'zselxoztexnika" ta'mirlash, konserva va vino zavodlari, promkombinatlar, tikuv fabrikalari o'zlariga zarur ishchi mutaxassislarni asosan "ustoz-shogird" usulida tayyorlaganlar.

Faqat Boysundagi eksperimental shoyi to'qish fabrikasi va Sho'rchidagi non va un mahsulotlari kombinati ishga tushish arafasida qisqa muddatli kurslar tashkil etib, yosh ishchilarni kasbga o'rgatgan. Masalan, 1980-yilda shoyi to'qish fabrikasida 300 dan ortiq yoshlar, jumladan 255 nafar xotin-qizlar ishchi kasbini egallagan. 1990-yilga kelib bu ko'rsatkich 230 nafarni (208 nafar xotin-qizlar) tashkil etgan [1].

1970-90-yillarda O'zbekistonning o'rta ta'lim tizimidagi ijobiy o'zgarishlar tufayli sanoat, transport, qurilish va boshqa sohalarga ishga kelganlarning umumta'lim darajasi ortib bordi. Boysundagi sanoat korxonalarida 1971-yilda to'liq bo'lmagan va o'rta ma'lumotlilar

32 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1981-yilda bu ko'rsatkich 59 foizga, 1989-yilda esa 78 foizga yetdi [2].

Sharg'un ko'mir koni va g'isht zavodlarida ishchi mutaxassislarni tayyorlash tartibi boshqacha edi. Yer ustida mehnat qiladiganlar "ustoz-shogird" va brigada usullarida o'rgatilgan bo'lsa, yer ostida ko'mir qazish ishlari uchun mutaxassislar maxsus kurslarda, Angren va Donetsk kabi ko'mirchilar shaharlarida o'qitilgan. Konchilar Sharg'unning o'zida 3-6 oylik kurslarda yoki Angren va Donetskda 6 oylik kurslarda tayyorlangan [3].

Sharg'un g'isht zavodlarida doimiy ishlovchilar va mahbuslarning soni deyarli barobar bo'lgan. Mahbuslar tez-tez almashib turgani sababli ularni kasbga o'rgatish uzluksiz olib borilgan.

G'isht ishlab chiqarishning og'irligi, ayniqsa mo'ri ichida ishlovchilar uchun, ishchilar qo'nimsizligini yuqori darajada ushlab turgan. 1970-yilda 1110 ishchidan 107 nafari zavoddan ketgan, shulardan 74 nafari mahbuslar edi [4]. 1979-yilda ishga 95 kishi qabul qilingan va 107 nafar shartli ozod etilganlar jalb etilgan bo'lsa, 175 nafar ishchi (jumladan 100 ga yaqin shartli ozod etilganlar) bo'shab ketgan [5].

1980-yillarda Sharg'un g'isht zavodlarida mehnat sharoitlari yomonlashgani va mehnat haqi kamaygani ishchilar qo'nimsizligini yanada oshirgan [6]. Shunga qaramay, Sharg'un g'isht zavodlarida ko'p yillar davomida mehnat qilgan barqaror tarkibdagi ishchilar (60 nafardan ortiq) va mutaxassislar (32-34 kishi) ishlab chiqarish hajmini oshirishni ta'minlab, har yili o'rta hisobda deyarli 100 ming g'isht yetkazib bergan [7].

Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlaridagi korxonalar 70-80-yillarda ishchi va mutaxassislarning malakasini oshirishga xizmat qiluvchi takomillashgan tizimga ega bo'lmaganlar. Biroq, ular o'z imkoniyatlaridan foydalanib, texnikaviy o'qishlarni muntazam o'tkazib, ilg'or ishchilarning mehnat usullarini o'rganishga e'tibor berishgan.

Korxonalar ma'muriyati O'zbekistonning boshqa turdosh korxonalarining tajribasini

o'zlashtirishga, vazirliklar tomonidan tashkil qilingan o'quv kombinatlarida va qisqa muddatli kurslarda o'qishga ahamiyat bergan.

Boysun eksperimental shoyi to'qish fabrikasi ishchilari Moskva, Marg'ilon, Namangan shoyi kombinatlaridagi kurslarga yuborilgan. 1975-1985-yillarda 75 nafar, 1986-1989-yillarda esa 72 nafar shoyi to'quvchi malakasini oshirgan [8, 9].

O'zbekiston paxta tozalash vazirligiga qarashli o'quv kombinatida 1972-1987-yillarda Boysun va Sho'rchi paxta tozalash zavodlarining 170 dan ortiq ishchi va mutaxassislari malaka oshirish dasturini o'tgan [10].

Sharg'un ko'mir koni ishchilaridan qariyb 250 nafari Angren, Qizil-Qiyo, Donetsk shaharlaridagi kurslarda malaka oshirgan [11].

Sharg'un g'isht zavodlaridan har yili 15-20 nafar ishchi va mutaxassis Toshkentdagi "Orgtextstroyateriali" o'quv kombinatida o'qishga yuborilgan [12].

Sharg'un g'isht zavodlarida muhandis-texnik xodimlar tarkibida oliy va o'rta maxsus ma'lumotlilar ulushi ortgan. 1976-yilda 33 nafar muhandis-texnik xodimdan 5 nafari oliy, 9 nafari o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan [13]. 1980-yilda bu ko'rsatkichlar mos ravishda 8 va 9 nafarni tashkil etgan [14]. Biroq, 1986-yilga kelib mutaxassislarning soni qisqartirilishi natijasida 29 nafar muhandis-texnik xodimdan 7 nafari oliy, 5 nafari o'rta maxsus ma'lumotli bo'lgan [15].

Sharg'un ko'mir konida mutaxassislarning ma'lumot darajasi yuqoriroq bo'lgan: 1975-yilda 70% o'rta maxsus, 27% oliy ma'lumotli bo'lsa, 1989-yilda oliy ma'lumotlilar ulushi 46% gacha oshgan [16].

Sho'rchi shahridagi sanoat korxonalarida oliy va maxsus o'rta ma'lumotli mutaxassislarning salmog'i Boysun va Sharg'undagidan biroz balandroq edi. Paxta tozalash zavodida 1971-yilda 26 nafar xizmatchi va muhandis-texnik xodimdan 9 nafari o'rta maxsus, 8 nafari oliy ma'lumotli bo'lgan. 1989-yilda esa 32 nafar xodimdan 14 nafari o'rta maxsus, 13 nafari oliy ma'lumotli bo'lgan [17].

Sho'rchi don va un mahsulotlari kombinatida 1985-yilda mutaxassislarning

8%, 1989-yilda 11% oliy va maxsus o'rta ma'lumotga ega bo'lgan [18]. Korxonadagi mexanizatsiyalashuv darajasi tufayli bu son yetarli deb hisoblangan.

Ammo Sharg'un tikuv fabrikasi, temir yo'l stansiyasi, mexanizatsiyalashgan ko'chma qurilish kolonnasi va maishiy xizmat kombinati mutaxassislarning bilan yetarli darajada ta'minlanmagan edi [19].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1970-1980-yillarda Surxondaryo viloyatining Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlarida sanoatning jadal rivojlanishi malakali kadrlar yetishmovchiligini keltirib chiqargan. Bu muammo asosan ishlab chiqarish jarayonida, "ustoz-shogird" usuli orqali kasbga o'rgatish yo'li bilan hal qilingan. Ayollarning ishlab chiqarishga jalb etilishi, ayniqsa Boysun shoyi to'qish fabrikasi misolida, bu davrda mehnat resurslaridan samarali foydalanishning muhim yo'nalishi bo'lgan.

Boysundagi umumta'lim darajasining sezilarli darajada oshishi, kadrlar bazasining sifatli o'zgarishidan dalolat beradi. Bu, o'z navbatida, ishchilarning yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishi uchun asos yaratgan. Biroq, Sharg'un ko'mir koni va g'isht zavodlaridagi ishchilar qo'nimsizligi muammosi, ayniqsa mahbuslar va shartli ozod etilganlar mehnatidan foydalanish bilan bog'liq bo'lganligi, kadrlar tayyorlash va ularni saqlab qolish jarayonini murakkablashtirgan. Mehnat sharoitlarining og'irligi va maoshning pastligi ham bu qo'nimsizlikni yanada kuchaytirgan, bu esa korxona ma'muriyatining mas'uliyatsizligi bilan bog'liq holda jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib kelgan.

Malaka oshirish tizimi, garchi markazlashgan va takomillashgan tizimga ega bo'lmasa-da, har bir korxona o'z imkoniyatlari doirasida va vazirliklar ko'magida mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga harakat qilgan. Moskva, Angren, Donetsk, Toshkent kabi yirik sanoat markazlaridagi kurslarga ishchilarning yuborilishi bilim va tajriba almashish uchun muhim mexanizm bo'lgan. Bu holat, Boysun va Sho'rchidagi qator korxonalarda mutaxassislarning ma'lumot darajasining o'sishiga

olib kelgan. Shoʻrchining ixtisoslashuv yoʻnalishi va yuqori malakali mutaxassislarni jalb etishga eʼtibor berilganligi, u yerdagi kadrlar salohiyatining nisbatan yuqoriroq boʻlishiga yordam bergan.

Lekin tadqiqot shuni koʻrsatadiki, butun Oʻzbekistonda boʻlgani kabi, mazkur shaharlarda ham ishlab chiqarish uchun mutaxassislarni tayyorlashning yagona dasturi boʻlmagan. Hunar-texnika bilim yurtlari asosan qishloq mexanizatorlarini tayyorlaganligi sababli, sanoatga kerakli ishchi-mutaxassislar koʻproq bevosita ishlab chiqarishda tayyorlangan. Shahar va korxona rahbarlari qishloq joylardan kelgan yoshlarning kasbiy tayyorgarligini

taʼminlashda yetarli darajada tashkiliy ishlar olib bormaganlar, bu esa turli noxush hodisalarga sabab boʻlgan [20].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, 1970-1980-yillarda Boysun, Shargʻun va Shoʻrchi shaharlarida sanoat, qurilish va transport korxonalarining rivojlanishi kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasidagi muayyan yutuqlar bilan birga, jiddiy tizimli kamchiliklar va inson omiliga eʼtiborsizlik ham kuzatilgan. Bu esa shaharlar iqtisodiyotini yuksaltirishga hissa qoʻshgan boʻlsa-da, baʼzi ijtimoiy muammolarni keltirib chiqargan.

ADABIYOT VA MANBALAR ROʻYXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Boysun tumani arxivi. – 1990-yil, yanvar. 13-ish, 1-papka, 17-varaq.
2. Boysun tumani arxivi. – 1990-yil, yanvar. 13-ish, 1-papka, 18-varaq.
3. “Shargʻun koʻmir” boshqarmasining joriy arxivi. Mutaxassislarni tayyorlash boʻlimining materiallari. – 1986–1990-yillar. 2-ish, 42-varaq.
4. *Lenin bayrogʻi* gazetasi. – 1971-yil, 3-sentyabr.
5. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 1920-ish, 8-varaq.
6. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat: 2058-ish, 7-varaq; 2973-ish, 14–15 varaqlar.
7. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 1884-ish, 4-varaq.
8. Boysun tumani arxivi. Eksperimental shoyi toʻqish fabrikasining hisobotlari. – 41-ish: • 14-papka, 16-varaq (1979-yil), 17-papka, 19-varaq (1985-yil).
9. Boysun tumani arxivi. Eksperimental shoyi toʻqish fabrikasining 1989-yil uchun hisoboti. – 41-ish, 22-papka, 14-varaq.
10. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 2978-ish, 14–15 varaqlar.
11. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 1653-ish, 4–15 varaqlar.
12. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 2372-ish, 105-varaq.
13. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 1884-ish, 11–16 varaqlar.
14. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 2372-ish, 102-varaq.
15. Oʻz MA. 2113-fond, 2-roʻyxat, 3247-ish, 1–3 varaqlar.
16. Oʻz MA. 2113-fond, 2-roʻyxat, 2973-ish, 14–15 varaqlar.
17. Shoʻrchi tumani arxivi. Mutaxassislar boʻlimi: 1971-yil uchun hisobot – 16-varaq; 1989-yil uchun hisobot – 7–8 varaqlar.
18. Shoʻrchi tumani arxivi. Iqtisodiy boʻlimning materiallari: 6-ish, 14-bet; 11-ish, 7-bet.
19. Shoʻrchi tumani arxivi. Iqtisodiy boʻlimning materiallari: 61-ish, 18-bet.
20. Oʻz MA. 2113-fond, 28-roʻyxat, 809-ish, 1–3 varaqlar.

O'ZBEK ARXELOGIYASINING YIRIK NAMOYONDALARI

Toshimov Bahodir

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix ta'lim yo'nalishi talabasi**e-mail: btoshimov98@gmail.com**<https://orcid.org/0000-0001-0812-4545>**UDK: 94 (575.1)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston arxeologiyasiga o'zining munosib hissalarini qo'shgan va qo'shib kelayotgan taniqli arxeologlar hayoti va vatanimiz hududida olib borgan arxeologik tadqiqotlari haqida, shuningdek, ularning yozuvsiz davrdan to hozirgacha ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan boy tariximizni o'rganishga va uni kelajak avlodlarga bema'lol yetkazish, vatanimiz tarixini yanada chuqur bilish, boyitish va dunyoga tanitish borasidagi ishlari hamda bu borada yirik arxeologlarimizning tutgan o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Y. G'ulomov, A. Asqarov, E. V. Rtveladze, T. Shirinov, hayoti, arxeologiya, O'zbekiston tarixi, tadqiqot ishlari, topilmalar.

Аннотация: В статье представлена информация о жизни выдающихся археологов, внесших и продолжающих вносить достойный вклад в археологию Узбекистана, об их археологических исследованиях на территории нашей родины, а также об их работе по изучению нашей богатой истории, доставшейся нам от предков с дописьменных времен до наших дней, и свободной передаче ее будущим поколениям, чтобы глубже узнать, обогатить и познакомить мир с историей нашей родины, и о роли наших великих археологов в этом отношении.

Ключевые слова: Ю. Гулёмов, А. Аскарлов, Э. В. Ртвеладзе, Т. Ширинов, жизнь, археология, история Узбекистана, исследовательская работа, находки.

Abstract: This article provides information about the lives of prominent archaeologists who have made and continue to make worthy contributions to the archeology of Uzbekistan and their archaeological research in the territory of our homeland, as well as their work to study our rich history, inherited from our ancestors from pre-written times to the present

day, and to freely convey it to future generations, to learn more deeply, enrich and introduce the history of our homeland to the world, and the role of our great archaeologists in this regard.

Keywords: Y. Gulyomov, A. Askarov, E. V. Rtveladze, T. Shirinov, life, archeology, history of Uzbekistan, research work, findings.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Bizga ma'lumki, hududimizga bosqinchi Chor Rossiyasi va sobiq Sovet hukumati tomonidan olib borilgan urushlar natijasida madaniyatimiz, tariximizdan darak beruvchi juda ko'plab muqaddas qadamjolar, masjidlar, maqbaralar va ko'p mingyillik tariximizni o'zida aks ettiruvchi yodgorliklarimiz vayron etildi. Keyinchalik, vatanimizda joylashgan yodgorliklarni tadqiq etish bo'yicha turli xil ekspeditsiyalar tashkil etildi. O'zbekiston arxeologiyasining vujudga kelishi XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Ya'ni, Turkistonda 1895-yilda Arxeologiya havaskorlar to'garagi tashkil etilib, vatanimiz tarixiga oid tadqiqot ishlari olib borildi. Dastlabki tadqiqot ishlarini rus arxeologlari olib borgan bo'lsa, 1970-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qoshida Arxeologiya instituti tashkil etildi. Bu esa arxeologiya fani va uning rivojida muhim qadam bo'ldi. Sobiq Sovet hukumati tomonidan vatanimiz hududida paxta xomashyosi yetkazib beruvchi hududga aylantirilishi va o'lkadagi barcha qadimiy makonlar hamda yaroqli yerlarning o'zlashtirilishi natijasida boy tariximizdan darak beruvchi ko'pgina arxeologik yodgorliklarimiz yo'q qilindi. Lekin ana shu davrda yodgorliklarni saqlab qolish, ularni moddiy madaniyatimiz ro'yxatiga o'tkazish va arxeologik tadqiqotlarni olib borishda Y. G'ulomov, A. Asqarov, E. V. Rtveladze, A. S. Sagdullayev, R. H. Sulaymonov, O'. Islomov,

T. Shirinov va boshqa arxeologlarimiz tomonidan ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Aynan bu arxeologlar tomonidan tariximizni o'rganish bo'yicha Xorazm, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilib, juda ko'pgina qimmatbaho topilmalar, yodgorliklarni o'rganish orqali O'zbekiston tarixi fani rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbek arxeologiyasi yirik namoyondalari to'g'risidagi maqolani yozishda ko'plab arxeologik olimlarning kitoblari, arxeologik izlanish natijalari va arxeologiyaga oid maqola va monografiyalarga tayanildi. Xususan, Ya.G'.G'ulomov, A.Asqarov, E.V.Rtveladze, N.Egamberdiyeva kabi olimlarning O'zbek arxeologiyasi va O'zbekistonda arxeologiyani vujudga kelishi to'g'risidagi izlanishlari, arxeolog olimlar hayotlari va ilmiy izlanishlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qildi.

MUHOAKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbek arxeologiyasining otasi sifatida e'tirof etiladigan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, tarix fanlari doktori, akademik Yahyo G'ulomovich G'ulomov 1908-yilning 1-mayida Toshkent shahridagi madrasa mudarrisi oilasida tavallud topdi. Otasidan juda erta yetim qolib, boshlang'ich qizlar maktabida dars beradigan onasi qo'lida tarbiyalandi. 1921-yildan esa bolalar maktab-internatida, boshlang'ich ta'limning 6-sinfini tugatgandan keyin xalq ta'limi yo'nalishidagi erkaklar instituti (1921-1926 yy.)ni tugallagach Toshkent shahridagi boshlang'ich maktabda dars beradi. 1921-1930-yillarda Yahyo G'ulomovich o'sha davrlardagi O'zbekistonning birinchi poytaxti Samarqandda tashkil etilgan O'zbek Davlat pedagogika akademiyasiga o'qishga kirgan. 1921-yildan 1931-yilgacha Ya. G'ulomov Xalq Komissarlari huzuridagi tarix kabineti assistenti va aspiranti, 1933-1940-yillarda esa Qadimgi yodgorliklar va san'atni saqlash qo'mitasida (Uzkomstaris) ilmiy xodim va ilmiy kotib lavozimlarida ishladi. Aynan shu

davrlarda Yahyo G'ulomov arxeologik razvedkalarda va arxeologik qazishmalarda ishtirok etadi hamda arxeologiya bilan yaqindan tanishadi. 1940-yildan boshlab Ya. G'. G'ulomov Ittifoq Akademiyasida O'zbekiston filialining bo'lim boshlig'i bo'ldi. 1943-yildan boshlab esa tashkil etilgan O'zbekiston FA Tarix instituti filialining Qadimgi va o'rta asrlar tarixi bo'limining boshlig'i lavozimlarida ishladi.

Yahyo G'ulomov tomonidan juda ko'plab arxeologik qazishma ishlari tashkil etilgan. Jumladan, Samarqanddagi Afrosiyob yodgorligi, Farg'ona vodiysidagi Quva shahrining xarobasi, Axsikent yodgorligida, Surxondaryo vohasi yodgorliklarida, Samarqand, Buxoro, Jizzaxdagi voha yodgorliklarini o'rab turgan mudofaa devorlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga bosh-qosh bo'ldi.

1938-yilda Yahyo G'ulomov Janubiy Xorazm arxeologik obyektlarini keng ko'lamda tekshirishga kirishdi. Xorazm xalqining tarixi, etnografiyasi va folklori bilan birinchi tanishgandayoq, bizning oldimizda mamlakatni irrigatsiya jihatidan o'zlashtirish tarixini o'rganish masalasi qad ko'tardi, chunki aynan shu masalada sotsial munosabatlar juda ham aniq va ravshan o'z ifodasini topgan.

Yahyo G'ulomov sa'y-harakatlari bilan O'zbekistonda arxeologiyaning o'ziga xos maktabi shakllangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Olimning shogirdlaridan A. Asqarov, O'. Ismoilov, A. Sagdullayev, T. Shirinov, R. Sulaymonov, Sh. Shaydullayev, A. Abdulhamidovlar ustozning ishlarini davom ettiradigan mashhur arxeologlar bo'lib yetishishdi.

Y. G'ulomovning shogirdlaridan A. Asqarovning ta'kidlashicha, o'tgan asrning 50-yillari ikkinchi yarmi va 60-yillar domla uchun fanda va jamoat orasida parvoz yillari bo'ldi desam xato qilmayman. Ustoz professor (1995) bo'ldilar, O'zbekiston FA muxbir a'ziligiga (1956) saylandilar, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1958) ilmiy unvoniga sazovor bo'ldilar. 60-yillar davomida ustoz tashabbusi va bevosita ilmiy rahbarligida arxeologiya sohasida o'nlab

yuqori malakali milliy kadrlar yetishib chiqdi. 1966-yilda ustoz milliy akademiyamizning haqiqiy a'ziligiga saylandilar, 1967-1968-yillarda to'rt jildli "O'zbekiston tarixi" chop etildi va uning yaratilishida Yahyo G'ulomovning hissasi beqiyos edi[1:13-14]. Bir so'z bilan aytganda, Yahyo G'ulomovning O'zbekiston ilm-fani rivojiga va arxeologiya faniga qo'shgan hissasi ulkandir.

Ahmadali Asqarov 1935-yilning 25-sentyabrida Namangan viloyati Norin tumanidagi Uchtepa qishlog'ida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan. 1957-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika institutini tugallagan. Talabalik yillarida Yahyo G'ulomovdan eshitgan ma'ruzalari tufayli Ahmadali Asqarovda tarix va arxeologiyaga qiziqish ortdi. Ahmadali Asqarov Buxoro, Qarshi, Surxon cho'llarida, Toshkent va Farg'ona vohalaridan tortib to uzoq Sibir kengliklarigacha bo'lgan hududlarda ko'plab arxeologik izlanishlar olib borgan fidoiy tadqiqotchi hamdir. U Boyko'l (Baykal), Krasnoyarsk, Mohindaryo, Janubiy Turkmaniston arxeologik ekspeditsiyalarining ilmiy-tadqiqot ishlarida faol qatnashdi. Ahmadali Asqarov ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatining rivojlanishiga O'zbekiston Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti tarkibida olib borgan faoliyati katta rol o'ynadi. Ayniqsa, 1970-yilda davlat qarori bilan Respublika Fanlar akademiyasi tarkibida Arxeologiya institutining tashkil etilishi va bu institutni tashkil etish A. Asqarov zimmasiga yuklatilishi A. Asqarovning keyingi ilmiy-tashkiliy faoliyatiga katta ta'sir etdi. Arxeologiya instituti Samarqand shahrida ochilganligi tufayli ilgari Toshkent shahrida ishlab kelgan bir qancha arxeolog ilmiy xodimlar oilaviy sharoitlari tufayli Samarqand shahriga kela olmadilar. Bunday sharoitda A. Asqarov juda katta sa'y-harakatlari bilan Respublikaning turli oliy o'quv yurtlarini tugallagan yoshlarni Moskva va Leningradning yirik arxeologlari qo'lida nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini himoya qilish uchun o'nlab mutaxassislarni yuborish imkoniyatini topdi[3:57-58].

Ahmadali Asqarov tomonidan olib borilgan eng yirik arxeologik tadqiqot jarayonlari

Axsikent, Sopollitepa va Jarqo'ton yodgorliklarida olib borildi. Shubhasiz, olim Bronza davrining eng yetuk mutaxassisi sanaladi, aynan olim tomonidan ochib o'rganilgan Jarqo'ton yodgorligi Markaziy Osiyo ilk shahar-davlat ekanligini isbotlab berdilar. Ahmadali Asqarovning aytishicha, 1973-yil iyun oyining boshlarida Zartepaga V. M. Masson guruhining ishlari bilan tanishgani keldim. Kutilmaganda, arxeologlar joylashgan kolxoz dala shiyponiga arxeolog Shokir Pidayev topib kelgan sopol parchalariga ko'zim tushdi. Sopol parchalarini ko'zdan kechirar ekanman, ushbu topilma Bronza davrining noyob Sopollitepa materiallariga o'xshashligini eslab, Shokir Pidayevni yangi noyob yodgorlik bilan tabrikladim va darhol yangi obyekt bilan tanishib kelishni taklif etdim. Barcha tashkiliy ishlarni o'z zimmasiga olib, Jarqo'tonga yo'l oldik. Ko'p yillik izlanishlar davomida Jarqo'ton haqiqatda O'zbekiston hududidagi eng qadimgi ilk shahar-davlat ekanligini isbotlovchi juda boy ashyoviy dalillar topildi[4:4].

Albatta, matningizni tinish belgilari va imloviy xatolarini tuzatib beraman:

O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi, Markaziy Osiyo va uning atroflari xalqlari tarixi, arxeologiyasi, numizmatikasi, madaniyati, san'ati bo'yicha yirik olim, akademik Edvard Vasilevich Rtveladze 1942-yilda Gruziyaning Borjomi shahrida tug'ilgan.

Toshkent Davlat universitetining arxeologiya kafedrasini tugallagandan keyin M. E. Masson rahbarligidagi "Shimoliy Kavkaz shahar madaniyati tarixi va uni O'rta Osiyo bilan aloqalari" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini, 1989-yilda esa "Qadimgi Baqtriya – Toxariston rivojlanishining dinamikasi" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi. E. V. Rtveladze o'zining ustozlari M. E. Masson va G. A. Pugachenkova an'alarini davom ettirib, yoshlar ichidan iqtidorlilarini tanlab, ularning kelgusidagi ishlariga ustozlik qilmoqda. Uning shogirdlari orasida faqat bizning vatanimiz hududidagina emas, balki jahonning Gretsiya, Isroil, AQSh, Fransiya, Kanada, Rossiya kabi mamlakatlarida ijod qilib kelmoqda.

E. V. Rtveladze 1985-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, 2001-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordenining sohibi, Gruziya Respublikasining “Girdebis ordeni” sohibi, 1999-yilda Badiiy akademiyaning oltin medali sohibi unvon va ordenlariga sazovor bo‘lgan[3:68- 69].

E. V. Rtveladze uzoq yillar mobaynida Surxon vohasidagi Eski Termiz va Kampirtepada arxeologik tadqiqot ishlarini olib bordilar. Kampirtepa yodgorligi Muzrabot tumanida joylashgan Shimoliy Baqtriya yirik shahar hisoblanadi. U mil. avv. IV asrning oxirlari – milodiy II asr o‘rtalariga oid. Kampirtepada 1972-yildan buyon akademik E. V. Rtveladze boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya a‘zolari tadqiqot olib bormoqdalar. Kampirtepani qazish vaqtida ko‘chalar, ibodatxona, shahar xazinasi, hunarmandchilik ustaxonalari topilgan. E. V. Rtveladze yozma va arxeologik tadqiqot ishlarining natijalarini solishtirish orqali Kampirtepa Oks bo‘yidagi Aleksandriya shahri bo‘lishi mumkinligini asoslagan[5:21].

O‘rta Osiyo xalqlarining qadimgi davr tarixini o‘rganish bo‘yicha juda katta ishlarni amalga oshirgan akademik Anatoliy Sagdullayev 1951-yilning 15-iyunida Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida ziyolilar oilasida tavallud topgan.

O‘rta maktabni bitirgandan keyin 1968-1973-yillarda ToshDU (hozirgi O‘zMU) ning tarix fakultetida tahsil olgan. U 1973-yildan 1981-yilgacha mazkur o‘quv dargohida kichik ilmiy xodim, 1981-1983-yillarda Etnografiya, Qadimgi dunyo, O‘rta asrlar tarixi kafedrasida katta o‘qituvchi, 1983-1987-yillarda ushbu kafedra dotsenti, 1987-1992-yillargacha ToshDU tarix fakultetining dekani lavozimida ishladi. Anatoliy Sagdullayev o‘zining ilmiy-ijodiy faoliyati davomida juda ko‘p monografiyalar, ilmiy maqolalar, ilmiy-ommabop kitoblar yozib, iqtidorli shogirdlar tayyorlab kelmoqda. Anatoliy Sagdullayev Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida 38 yoshida fan doktori ilmiy darajasini olgan yagona arxeolog olimdir. U kishi ilgari fanga ma‘lum bo‘lmagan Mo‘lali, Mirshodi, Bandixon, Uzunqir, Daratepa, Sangirtepa kabi

yodgorliklarni topgan, o‘rgangan va fanga kiritgan arxeolog. Baqtriyaning ilk temir davri xronologiyasini, shaharsozligini, uy-qo‘rg‘onlarini, O‘rta Osiyoda temir kashf etilishi va tarqalishi tarixini yoritgan arxeolog sifatida mashhurdir.

Anatoliy Sagdullayevning ilmiy ishlarining umumiy soni 200 dan ortiq, shulardan 20 dan ortiq o‘quv-uslubiy ko‘rsatma, oliy o‘quv yurtlari fakultetining talabalari uchun darslik, o‘quv qo‘llanmalari, maktab o‘quvchilari uchun darsliklar tashkil etadi[3:70-71].

O‘zbek arxeologiyasining eng mashhur arxeologlaridan biri professor Rustam Hamidovich Sulaymonov 1939-yil 30-may kuni Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Yoshlik yillari urush va urushdan keyingi qiyinchiliklar yillariga, Stalin tomonidan uyushtirilgan repressiyalar davriga to‘g‘ri keldi. 1957-yilda o‘rta maktabni tugatgandan keyin Toshkent Davlat universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kiradi. R. H. Sulaymonov o‘zining ilmiy faoliyatini O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida boshladi. Ya. G‘. G‘ulomov boshchilik qilgan bir qator ekspeditsiyalarda qatnashdi va arxeologiya faniga bo‘lgan qiziqishi yanada ortdi.

R. H. Sulaymonov arxeologiya tarixida birinchilardan bo‘lib, tosh qurollarni ilmiy o‘rganish uslublarini rivojlantirib, uni o‘rganishga matematik uslublarni qo‘lladi va bu bilan ilmiy-uslubiy g‘oyalar orqali arxeologiyaning nazariy qismlarini ham rivojlantirish imkoniyati tug‘ildi. Uning bu g‘oyalari “Obirahmat g‘ori va Obirahmat g‘orini matematik-statistik o‘rganish tajribasi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi sifatida 1968-yilda yoqlandi va o‘sha davrda jahon olimlari orasida yakdillik bilan ma‘qullandi[3:72].

R. H. Sulaymonov 1985-yilda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofotining sovrindori, 2008-yilda esa O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo‘lgan[3:73].

Taniqli arxeolog, ilk metall davri arxeologiyasi (mil. avv. III-I mingyilliklar) bo‘yicha mutaxassis Temur Shirinov 1950-yilning 10-mart kuni Jizzax viloyati Forish

tumani Qamish qishlog'ida tavallud topgan. Termiz Davlat universitetini tamomlagach, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutining bronza va ilk temir davri bo'limiga ishga kirgan. 1976-yilda Leningraddagi Arxeologiya instituti aspiranturasiga kiradi va uni 1980-yilda bronza hamda ilk temir davri tosh qurollarini o'rganish mutaxassisligi bo'yicha nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qiladi. 1986-yili shu asosda yirik monografiya e'lon qiladi. 1979-1993-yillarda T. Shirinov Surxondaryo viloyatidagi arxeologik qazishmalarda faol ishtirok etib, Jarqo'ton, Bo'ston, Mo'lali, Kuchuktepa kabi arxeologik yodgorliklarda katta kashfiyotlarga erishdi. 1993-2004-yillari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti direktori vazifasida ishlar ekan, qadimshunoslik faniga salmoqli hissa qo'shdi. Rossiya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Polsha, Yaponiya kabi davlatlar bilan yirik xalqaro qo'shma ekspeditsiyalar tashkil etildi. Undan tashqari, olim 2001-2010-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Samarqand bo'limi raisi, 2004-2011-yillari mamlakatimizdagi yirik oliy o'quv yurti Samarqand Davlat universiteti rektori vazifasida ishladi[3:73-74].

Yana bir mashhur arxeolog O'tkir Islomov 1932-yilda Toshkent shahrida, ziyoli o'qituvchilar oilasida tavallud topdi. Uning otasi Ismoilov Islom O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan o'qituvchi, onasi Ismoilova Habiba mohir pedagog, tarbiyachi bo'lib, bo'lajak olimni ilmga qiziqqan inson sifatida tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi. Oiladagi yuksak ma'naviy muhit yosh O'tkir Islomovni 1947-yili Toshkent pedagogika bilim yurtiga yetaklaydi. 1952-yilda bilim yurtini tugatgandan keyin 1952-1956-yillari Toshkent Davlat pedagogika institutini imtiyozli tugatgach mutaxassis sifatida Toshkent viloyati Qorasuv tumanidagi 14-maktabda o'qituvchilikdan boshlaydi. Lekin talabalik yillarida taniqli olim Yahyo G'ulomovdan tinglagan ma'ruzalari, u kishi bilan bo'lgan muloqotlari unga tinchlik bermay, Respublika Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya institutida katta faoliyat olib borayotgan

Yahyo G'ulomov qo'l ostiga laborantlik lavozimida o'zining mehnat faoliyatini boshlaydi[3:61].

O'tkir Islomov keyingi ilmiy faoliyatini hozirgi Sankt-Peterburg, o'sha paytlardagi Leningrad shahridagi SSSR Fanlar akademiyasi Arxeologiya instituti Leningrad bo'limida mashhur arxeolog, akademik A. P. Okladnikov rahbarligidagi aspiranturada nomzodlik dissertatsiyasini yozadi. Bu yerda o'z davrining eng yirik qadimshunos olimlari M. M. Gerasimov, M. P. Gryaznov, S. A. Semyonov, P. I. Boriskovskiy, N. N. Gurina, V. M. Masson kabi olimlar bilan kundalik muloqotda bo'ladi va arxeologiya fanining eng nozik qirralarini o'rganishda bu olimlarning bergan saboqlari juda katta bo'ldi. Arxeolog sifatida uzoq yillik faoliyati davomida O'rta Osiyoning barcha tog'lari, vohalari, Rossiyaning g'arbiy chekkalaridan Uzoq Sibirning kengliklarigacha bo'lgan yerlardagi tosh davri arxeologik obidalarida olib borilgan qazishmalarda qatnashdi.[3:61-62].

1980-1988-yillarda arxeolog O'. Islomov boshchiligidagi O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Arxeologiya institutining paleolit otryadi Selung'ur makonini qayta tekshirdi. Makonning eng muhim topilmalari bo'lgan odam suyaklari 3 va 2-qatlamlardan topilgan. U yerdan odamning yelka suyagining bir bo'laki, bosh suyagining jag' qismining bir bo'laki, 14 ta tish topilgan. Antropologlar ularni tadqiq qilib, ashel davrida yashagan arxantrop deb topdilar. Olimlar uning o'ziga xos tomonlarini ko'rsatish uchun unga Fergantrop deb nom berdilar[6:21].

Shunday qilib, akademik O'tkir Islomov o'zining uzoq yillik mehnat faoliyati davomida faqat O'zbekiston hududidagina emas, balki butun O'rta Osiyo hududida yashagan ibtidoiy ajdodlarimizning hayoti va moddiy madaniyatini o'rgangan, o'z faoliyati davomida juda ko'plab shogirdlar chiqargan olim hisoblanadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, vatanimizda arxeologiya fani rivoji uchun bu olimlarning ko'pchiligi shogirdlar tayyorlash va biz yoshlarga tariximizni chuqur

o'rgatish orqali vatanga bo'lgan muhabbat hamda ilmi, salohiyatli barkamol avlod sifatida tarbiyalashda o'zlarining hissalarini qo'shishmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng vatanimizning qadimiy tarixini tiklash va dunyoga tanitish bo'yicha juda ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Undan

tashqari, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Rossiya, Xitoy kabi davlatlar bilan qo'shma arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etilmoqda. Hozirgi vaqtda vatanimizning barcha hududlarida arxeologik tadqiqotlar samarali olib borilmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Akademik Yahyo G'ulomov nomidagi Arxeologiya instituti, Tarix instituti. *Akademik Yahyo G'ulomov zamondoshlari va shogirdlari xotirasida*. – Toshkent, 2009. – 120 b.
2. G'ulomov Ya.G'. *Xorazmning sug'orilish tarixi*. – Toshkent, 1969.
3. Madrimov Sh.B. *O'zbekiston arxeologiya fanining paydo bo'lishi va taraqqiyoti*. – Nukus, 2014.
4. Asqarov A. *Eng qadimiy shahar*. – Toshkent, 2001.
5. Egamberdiyeva N.A. *Arxeologiyadan izohli lug'at*. – Toshkent, 2020.
6. Egamberdiyeva N.A. *Arxeologiya*. – Toshkent, 2021.

ETNOGRAFIYA

ФОРИШ ТУМАНИ ЎЗБЕК ВА ТОЖИКЛАРИНИНГ БОЛА ПАРВАРИШИГА ОИД АНЪАНАВИЙ УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР

Убайдуллаева Барно

Ўзбекистон Миллий университети “Археология ва этнология”

кафедраси профессори, тарих фанлари доктори

<https://orcid.org/0009-0008-4597-231X>

UDK: 94(575.1).

Аннотация: Ушбу мақолада этнографик материаллар асосида Фориш тумани ўзбек ва тожикларининг бола туғилиши ва парвариши билан боғлиқ анъанавий удумлари ҳамда маросимлар кўриб чиқилади. Шу билан бирга мазкур масала борасида замонавий трансформациялари таҳлил қилинади.

Калит сўзлар: Фориш, бола, тўй, қишлоғи, маросим, бешик, она, халқ, суннат, аёл, ўзбек, тожик, чилла, удум, анъана

Аннотация: В статье на основе этнографических материалов рассматриваются традиционные обычаи и обряды узбекского и таджикского населения Фаришского района, связанные с рождением и воспитанием детей. Одновременно анализируются современные трансформации по этому вопросу.

Ключевые слова: Фариш, ребенок, свадьба, деревня, церемония, колыбель, мать, народ, суннат туй, женщина, узбек, таджик, чилла, обычай, традиция.

Abstract: Based on ethnographic materials, the article examines traditional customs and rites of the Uzbek and Tajik population of the Farish district related to the birth and upbringing of children. At the same time, modern transformations on this issue are analyzed.

Keywords: Farish, child, wedding, village, ceremony, cradle, mother, people, sunna-tuy, woman, Uzbek, Tajik, chilla, custom, tradition.

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Марказий Осиё халқларининг анъанавий оилавий

маросимларида умумийлик бўлсада, ҳар бир ҳудудда ўзга хос локал жиҳатлар ҳам мавжуд. Фориш тумани оилавий маросимларида ҳам ана шунда ўзига хосликни кузатиш мумкин.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Фориш тумани Жиззах вилоятининг маданий ва этник жиҳатдан бой ҳудудларидан бири бўлиб, бу ернинг маҳаллий аҳолиси ўзбек ва тожиклар ҳисобланади. Уларнинг бола парваришига оид урф-одатлари маҳаллий анъаналар, диний қадриятлар ва ўзбек-тожик маданиятининг синтезидан иборат. Бола туғилиши ва парвариши билан боғлиқ анъаналари этнологияда энг кўп тадқиқ этилган мавзулардан бўлишига қарамай, ҳеч қачон ўз долзарблигини йўқотмайди. Сабаби, гап халқнинг ёш авлодни тарбиялашга оид тажрибалари ҳақида кетяпти. Шу билан бирга бу масалани ўрганиш орқали халқнинг турмуш тарзи, қадриятлари, эътиқодий тасаввурлари қисқаси, халқ менталитети ҳақида маълумотларга эга бўлиш мумкин.

Маълумки, халқ анъаналарида болани парваришлаш уни она қорнида эканидаёқ бошланади. Форишда ҳам маҳаллий аҳоли ҳомиладорларга алоҳида эътибор билан муносабатда бўлади. Агар бола тушаверса, айрим иримларни бажаришган. Масалан, Усто маҳалласида, агар аёлнинг боласи тушаверса, унинг яқинлари 13 кулча тугиб қассобга олиб боради, қассоб бир бўлак гўшти чангадан ўтказиб беради аёл шуни ейиши керак. Бизнингча, бу ўрнида гўшт – ҳомила ва чангак – унга тўсиқ сифатида тасаввур қилинади. Балки, гўштининг чангадан ўтказилган гўшти ейиш орқали

аёл ҳомилага гўё тўсиқларни енгиш кучини беради, деб ишонишлари мумкин. Можирум қишлоғида шундай ҳолат юз берса, аввал докторга кўрсатишади, наф бўлмагач, бола “пастга тушмаслиги” учун, туя жунидан тайёрланган ип билан келиннинг этаги томонидан пастдан тепага қаратиб тикиб қўйишади [17].

“Сайёд” қишлоғида ой куни яқинлашган пайтда “момо оши” маросимини қилишади. Бу маросим учун ёши катта, яқин қариндош ва қўшнилардан 5-8 нафар аёл айтилади. Маросимнинг асосий таоми – узма хамирли шўрва ҳисобланади. Шўрвага ҳамма масаллиқ солингач, хамирни узиб- узиб ташлашади, аммо кесишмайди, чунки, кесилса, “болани умри қисқа бўлади”, деб ирим қилишади. Бахши келиб чироқ ёқади, келган аёлларнинг ҳаммаси ёқилган чироққа “тавоф қилади”, ва аёл эсон омон қутилиб олсин, деб тилак қилишади. Ахборотчининг маълумот беришича, “момо оши” – момолар учун ўтказилади, “момолар эса – бу арвоҳлар дегани”. Шунинг учун қадимдан момолар босибди, деган гап бор[18].

Можирум қишлоғида ҳам ҳомиладорликнинг сўнгги ойида “момо оши” қилишади ва аёлни оловдан айлантиришади. Бу ерда бахшиларни “эмдорлар” деб аташади ва момо ошини қилиб бўлгач, боғлаган нарсани очиб қўйилади, “шунда болани йўли очилиб соғлом туғилади” – деб ишонишади. Бу қишлоқдаги аёллар “момо” деганда, авлодлардан қўл олиб келаётган аёлларни назарда тутишади[16].

Она ва чақалоқ қирқ кун чилла тутиши бутун Марказий Осиё халқларида кенг ёйилган. “Чилла” сақлаш ҳақида адабиётларда етарлича маълумот бўлгани учун батафсил тўхталиб ўтirmаймиз[1, 2, 3,4,5,6,7, 10,12].

Умуман, чилла даврида кўпроқ боланинг ва онасининг соғлигини асрашга алоҳида эътибор қаратилган. Шунинг учун ҳам кўп ҳолларда оналар қирқ кун давомида уй юмушларидан озод қилинган. Аёллар орасидаги қарашларга кўра, чилла пайтида туққан аёлнинг бирон жойи шамолласа у

умрбод қолади, шунинг учун туққанда сўнг бел боғлаш керак[18].

Фориш туманидаги айрим қишлоқларда чилла даврида, туққан аёл учун алоҳида қўй сўйиб, унинг гўшtidан таомлар тайёрлаш одати ҳозиргача бор.

Агар илгари болани қулоғига “азон чақириш”, яъни уни мусулмон сифатида “қулоғини очиш” чақалоқ туғилган кундан бошлаб уч кун ичида амалга оширилган бўлса, энди, она ва бола туғруқхонадан чиққанларидан сўнг амалга оширилмоқда[11. 105].

Чилла даври ичида ўтказиладиган маросимлардан яна бири – бешикка белаш маросимидир. Фориш туманидаги ўзига хос удум, шуки, бу ерда “болани бешикка бахшилар солар” экан. Кейинги йилларда бешикка белаш аёл туғруқхонадан чиқиши билан ўтказилмоқда. Катта боғдонда болани бешикка белашдан олдин уч хил рангли матони олиб тутатилади, тешиқларда (дарахтлар ораси, ўчоқларнинг тешигидан) ўтказиб олишади, “куйиндича” – яъни чўзмача қилиб 5-6 уйга тарқатилади. Бу амалларни бахши аёл бажаради[18].

Чилла даврида она истеъмол қилаётган таомларга ҳам алоҳида эътибор қаратилган. Янги туққан аёлга атала бериш одати гарчи бутун ўзбек ва тожиклар орасида кенг тарқалган ва ҳозирги кунларимизгача сақланиб келса-да, атала тайёрлаш усули, унга қўшиладиган масаллиқларга қараб фарқланган. Форишда чилла даврида аёлга қатлама патир, қатлама, чалпак тайёрлаб беришади. Бу ҳудудда аталани сариқ ёғ билан унни ковуриб тайёрлашади, аммо унга сут қўшилмайди, кимдир новвот солади. Бу аталани ранги қизғиш бўлгани учун “қизил атала” дейишади. Айтишларича, чиллани аёл қизил атала еса “чақалоқнинг қорни дам бўлмайди. Туққан аёлга кўпроқ сергўшт қайнатма шўрва ва чақалоқнинг бўйини тезроқ қотсин деб, қўйнинг бўйин гўштини ковуриб, беришади. Туққан аёл қирқ кун давомида қора чой ичиши ва иложи борича хамирли таомлар емаслиги керак[16]. Айрим қишлоқларда, қизил аталага ёнғоқ ҳам қўйилади, ва туққан аёлга ширчой ҳам

беришади.

Чилла даври тугагач, қайнона келинни ва набирасини олиб, ўз қудасини уйига чилла қочди қилиб боради. Можирумда бу одатни, “чилла гардон” деб айтишади. “Чилла гардон” қилиб борган неvara учун келиннинг она томонидан бир қўй беришади. Бир ахборотчимизнинг маълумот беришича, унга уч набираси учун учта қўй беришган[16]. Тукқан аёл “чилла гардон” қилиб бошқа қариндошларнинг уйларига ҳам бориши мумкин.

Катта боғдонда айнан шу удум “чилла қочди” деб номланади ва бу ерда ҳам борганларга совға сифатида қўй берилади. Бу қишлоғидаги одатнинг ўзига хослиги шуки, бу ерда нафақат келин ва қайнона, балки, шу билан бирга оила аъзоларнинг ҳаммаси боришади. Келининг онаси борган меҳмонларнинг ҳаммасига сарпо беради[17]. Айримлар, ҳатто, “чилла қочди” қилиб келган набираси учун бир “тана” – ҳўкиз ҳам берган.

“Чилла қочди” ёки “чилла гардон” маросимидан кейингиси бу – бешик тўйидир. Форишда бешик тўйининг ҳамма сарполарини келининг онаси қилади. Куёв томон элга ош беради, одатда маккажўхоридан “гўжа” қилинади. Айримлар катта тўй қилади ва бунда ҳам келин томон пиширик, гуруч, ёғ, ширинликлар олиб келади, кимдир қўй, кимдир эса гўшт сотиб олиб беради. Бешик тўйида 200 дан 400 кишилар чақирилади. Келин томони 50 кишигача келади. Улар бола учун бешик ва бешик анжомлари, кийимлар, коляска, “ходинок” ва ҳақ олиб келишади[19].

Маълумотларга кўра, Сайёд қишлоғида илгари (30 йил олдин) бешик тўйи бундай катта тантана қилинмаган, “ҳозир ҳамма бир биридан ўтай деб кўп нарсa қилишяпти”. “Ўзимни болаларим ва невараларим тўйини солиштираман” – дейди ахборотчи, “илгари 50 киши билан тўй қилганмиз, ҳозир кўп одамлар айтилади, кам одам айтсангиз..... одамлар гапиради, вой бешик тўйига 10 киши келди дастурхон ҳам яхши бўлмади -дейишади. Бизда коляска ходинок қилишади, аммо мебел

беришмайди, шаҳарда мебел ҳам қилишади[17].

Усто қишлоғида бешик тўйини чилладан сўнг, бола бир ёшга етгунча ўтказиш мумкин. Бу ерда бешик тўйида асосан қўни қўшни ва яқин қариндошлар айтилади ва камтарроқ қилиб нишонланади. Бешик олиб борилганда, қайнатма шўрва, палов, гўжа қилинади, сўнгги пайтларда қўй ёки товук гўшtidан “яхни” қилиш урфга кирмоқда[20].

Маълумки, ўтмишда ўзбек ва тожикларда боладаги ривожланиш ва ёш босқичларига қараб кўплаб, турли-туман удум ва маросимлар амалга оширилган бўлиб, уларнинг аксарияти бугунги кунда унутилмоқда.

Ҳозирги техника тараққиёти ва ахборот асри даврида Фориш туманида ҳам ўтмишда қўлланиб келган кўплаб урф-одат ва иримлар ҳам камайиб бормоқда. Жумладан, гўдакнинг дастлабки тирноғини олиш, сут тишлари чиқиши ва тушиши, болани тили чиқиши, юриши билан боғлиқ удумларни шулар сирасига киритиш мумкин. Агар бу удумлар ёки иримларни синчиклаб ўрганилса, кўп ҳолларда боланинг ривожланиш босқичлари кўнгилдагидек кечмаган ҳоллардагина амалга оширилгани маълум бўлади. Айтайлик, гўдак кеч юрса ёки тезда гапиравермаса маълум бир иримлар амалга оширилган.

Биз Форишда ҳозирга қадар сақланиб келаётган айрим удумлар ҳақида тўхтаб ўтмоқчимиз. Бундай одатлардан бири болани “қорин сочи” билан боғлиқ удумлардир. Масалан, айрим қишлоқларда болани қорин сочи чилласи чиққандан сўнг бир кекса кишига олдирилади[17]. Бошқа қишлоқларда, ёши улўғроқ қариндошлардан бири олим бўлсин, деб китобнинг устига сочини қайчи текизиб озгина кесиб қўяди, қолганини онанинг ўзи олиши мумкин[16].

Форишда болани илк тиши чиқиши билан боғлиқ иримларни ҳам учратиш мумкин. Масалан болани тиши чиққанда бўғирсоқ пишириб, парварда, нўхатлар билан қўшиб боланинг устидан сочишади.

Бунинг учун боланинг атрофига дастурхон солишади, сўнг “сочала” қилишади, сочилган нарсалар дастурхонга тушади ва тушган нарсаларни олиб кўни-қўшни, болаларга тарқатишади[15].

Бола энди юришни бошлагач, кулчалар қилиб, “тушов кесди” қилишади, бола учун алоҳида кулчалар ёпишади ва уларни бола оёғини орасида юмалатиб юборишади ва устидан ширинликларни сочишади. Болалар кулчаларни олиб қочиши керак[17].

Этнограф олима Т.Тошбоева 80 – йилларда ўзбекларнинг турмуш тарзи ҳақида гапириб “энди бешикнинг камдан-кам ҳолатларда сотиб олинаётганлиги, чақалокқа кўпроқ замонавий аравача ёки осма беланчак олишаётганлиги”, ҳақида маълумот беради[9. 112]. Аммо Фориш туманида ҳозиргача болани бешикда парвариш қилишади. Боланинг она томонидаги бувиси олиб келадиган нарсалар ичида албатта ясатилган бешик бўлиши шарт. Болалар 1-2 ёшгача бешикда ётишади. Ахборотчиларимиз ўтган асрнинг 70-80 йилларида болалар, ҳатто уч ёшгача бешикда ётганини айтишди. Масалан, бир ахборотчимиз Ўтган асрнинг 70 – 80 йиллари ҳақида гапириб: “Мен 8 фарзанд кўрдим, уларнинг ҳаммаси бешикда катта бўлишган 2-3 ёшгача ётишган” – дейди. Яна бир ахборотчимиз, яқин ўн-ўн беш йиллар ҳақида сўзлаб, “мени невараларим 2-3 ёшгача бешикда ётади, оёғи бешикдан чиқиб қолса ҳам ётади, мен памперс ишлатмайман, улар аллергия беряпти, болаларни касал қияпти. Учта неварамни “памперс”сиз катта қилдим. Келиним бошида озроқ хафа бўлди, аммо кейин тушуниб, миннатдор бўлди” – дейди[16].

“Невараларим бешиксиз ухламайди” – дейди яна бошқа ахборотчимиз[20]. Умуман, Форишда катта авлод вакиллари бола парваришида кўпроқ анъаналарга ва халқ табобатига таянишини кўриш мумкин. Анъаналар деганда исломга қадар бўлган диний тасаввурлар билан боғлиқ қарашларни ҳам назарда тутяпмиз. Масалан, шомонлик, аждодлар култи, тотемизм ва бошқалар. Шунинг учун

болалар касал бўлса, бахшиларга олиб бориш, қоқтириш, кинна солдириш, томоғини бостириш каби амалларни бажаришади. Масалан, бўри тотемига ишонч ҳозирга қадар сақланган. Айримлар бола касал бўлаверса, уни “даволаш” учун бўрини териси ёки оғзидан айлана тайёрлаб болани шу айлана орасидан ўтказишади[15]. Бу ўринда “Бўрининг оғзидан ўтказиш” одати боланинг жисмоний ва маънавий жиҳатдан кучли бўлиб ўсишига ишониш билан боғланади. Баъзида қадимий тасаввурлар билан халқ табобатини аралаштириб қўллашади. Ўзини “қўл олгани”ни айтган бир ахборотчимизнинг маълумотига кўра, “болаларнинг кўп касал бўлишининг сабаби уларга кўз тегишидир. Шунинг учун кўз тегишдан асраш мақсадида болани оёғига қорадўлана мевасини тақиб қўйиш керак, шахсан у шундай йўл тутди”. Кўпинча, болалар касал бўлиб қолса, халқ табобати бўйича гиёҳлардан фойдаланади. Масалан, бола иссиғи чиққанда беҳини баргини қайнатиб ичиришади, бола шамоллаганда отқулоқни илдизини қайнатиб беришади ва исирик тутатилади ва ҳақ[18].

Ўзбек ва тожикларнинг анъанавий маросимларида суннат тўйи алоҳида ўрин тутди. Ўзбек ва тожикларда суннат тўйини ўтказишнинг кўп томонлари ўхшаш бўлса, тўйгача, тўй жараёнида ва ундан сўнг ўтказиладиган маросимлар бир-биридан фарқ қилади. Масалан, Гараша қишлоғида азалдан суннат тўйини ўтказиш учун бир неча ойлаб тайёргарлик кўрилган. Тўйгача, тўй жараёнида ва тўйдан сўнг қанча маросим ва тадбирлар, турли ўйин ва томошалар ўтказилган. Булар “Ўтин Хашари”, “Кўрпа йиғди”, “Супраочди”, “Эрталабки ош”, “Чукрон сарпоси”, “Болакўрди”, “Кўпкари”, “Чорқарсак, Бешқарсак” ва бошқалар. Қишлоқдаги бой-бадавлат хонадонларда ўтказиладиган суннат тўйи бир неча кун давом этган ва уларда катта томошалар кўрсатилган[8. 130].

Ўтмишда тўй базми асосан кечкурун ўтган. Кундуз куни пойга, кўпкари ёки кураш ташкил этилган. Қадимда ҳам, яқин

ўтмишда ҳам қишлоқ тўйлари миллий курашсиз ўтмаган. Тўйлари кураш билан ўтказишда муайян мақсадлар кўзлашган. Ёшларни келажакда чиниққан, зўр курашчи, бақувват йигит бўлиши учун бундай белашув энг қулай йўл ҳисобланган.

Кундуз куни келган меҳмонларни кечкурунги базм бошлангунга қадар тўй оқсоқоли буйруғи билан тўй эгасининг қўни қўшнилари ва яқинлари тўйга узоқ-яқиндан келган одамларни “меҳмон”, кўноқ қилиб уйларига олиб кетишган. Уйига меҳмон олишини билган кишилар олдиндан тайёргарлик кўришган. Ҳатто, меҳмонларнинг от-уловлари ҳам ем хашаксиз қолмаган. Кечки, базмдан олдин тўй эгаси одам жўнатиб меҳмонларни кечки базмга таклиф қилган. Меҳмон олган уйнинг эгаси меҳмонлар билан тўйхонага келиб, базмни улар билан ўтказган [13. 63].

Илонсой қишлоғида суннат тўйи жуда катта тантана билан нишонланган. Тўйда илгари 500 лаб одам келган. Шунинг учун бу тўйга катта тайёргарлик кўрилган. Тўйдан бир ҳафта ёки ўн кун олдин маслаҳат оши бўлган, бу маслаҳатда ҳамма вазифалар ва харажатлар тақсимланган. Албатта яқин қариндошлар тўйга олдинроқ келишган. Чунки, 10-11 қоплаб унлардан нон ёпилган, шу сабаб, “нон ёпти” маросими бўлган ва унга яқин қариндошлар ва қўшнилар ёрдамга чиқиб нон ёпганлар. Кимдир уйда нон ёпиб келган, бунинг учун унга бир ёки икки қоп ун берилган. Нон ёпганларга хизмати учун мато, гўшт, нон ва ҳақ берилган. Ёши катталар илгари 10-15 кун тўй бўлгани 3-4 ёшли буқа, уч ёки тўртта қўй, бир ёки иккита серка сўйилгани ҳақида гапиришади. Кўпроқ гўшт пиширилган, гўштан яхнilar тайёрланган. Азиз меҳмонларга калла гўштарини пишириб қўйилади. Ҳар бир ҳовлида мевали дарахтлар етиштирилгани учун ўша мевалардан дастурхон тузатилган, бозордан сотиб олишга доим ҳам эҳтиёж бўлмаган. Болани тўйдан ўн кунлар олдин “чукрон” яъни, хатна қилишган, сабаби, тўй кунигача тузалиб, “тўйда ўйнаб юрсин” дейишган. Суннат тўйида боланинг тоғаси той безатиб

келишади. (Олдин той сотиб олинган ҳозир прокатга от олинади ва ана шу тойни безатиб, унга болани ўтказиб, тоғаси даврани айлантиради) [19].

Суннат тўйида ҳам боланинг онаси томонидagi қариндошлари болага сарполар қилиб келишади. Ўтган асрнинг 80 йиллари охирида тўй қилган ахборотчи ўз фарзандининг суннат тўйини шундай тасвирлайди: “Биз бир хўкиз ва ўн тўртта қўй сўйдик. Биринчи овқат қовурдоқ, иккинчисига ош қилдик. Яна кураш ташкил этдик. Ютуқ учун қўй, улоқлар ҳам олиб қўйдик ва ғолибларга бердик. Тўйда 5 қоп ун кетди. Шу тўй учун 5-6 йил йиғиниб юрдик”. Ўтган асрнинг 90 йилларидан суннат тўйида чучвара қилиш, “чак-чак” пишириш ҳам урфга кирган. Ҳозир нони бозордан олишади [16].

Усто маҳалласида суннат тўйига боланинг она томондаги қариндошлари (бувиси, бобоси, тоғаси) томон фақат қўй олиб боради. Яна бувиси 4-6 та кўрпа, икки жуфт ёстик, кўрпача, бола учун “сарпо” қилади, илгари махсус чопончалар ҳам тикишган, ҳозир тайёрини сотиб олишади. Айтишларича, бу маҳаллада илгари суннат тўйи жуда катта бўлган, 400-500 одам айтилган, ҳозир эса қисқариб боряпти [20]. Аммо, Катта боғдон қишлоғидагилар бу фикрнинг аксини айтишди. Ахборотчининг маълумот беришича, илгари суннат қилганда, кексаларни чақириб кичкина қилиб, худойи қилиб ўтказилган, мақсад, қарияларни дуосини олиш бўлган. Охирги ўн йилларда суннат тўйи жуда катта бўлиб кетди. Бутун қишлоқдан 400-600 кишигача келади, уларга махсус таклифномалар тарқатилади. Суннат тўйида алоҳида мол сўйилади, яхна қилади, тандир гўшт тайёрланади, бир суюқ ва бир куюқ овқат қилинади. Кўпинча биринчисига шўрва ва иккинчисига картошка ва гўшт қовурдоқ қилиб берилади. Ҳовли жойи катта бўлса, ўша ерда базм қилади, жойи йўқлар тўйхонада қилишади” [18].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса қилиб айтиш мумкинки, тадқиқот натижалари Форишда бола парваришига оид урф-одатларнинг

кўпчилиги халқ табобатига таянган ҳолда амалга оширилганини кўрсатди. Шу билан бирга қадимий диний тасаввурлар билан боғлиқ иримларни ҳам учратиш мумкин. Аммо, бундай удумлар камайиб бормоқда.

Ўзбек ва тожикларнинг бола парвариши билан боғлиқ урф-одатлар ва маросимлари бир томондан замонавий ҳаётга мослашиб, бошқа томондан жамоатчилик муносабатлари негизида ўз аҳамиятини сақлаб қолганлигини кўриш мумкин. Бундай жамоатчилик муносабатлари бола

ривожланишида муҳим роль ўйнайди.

Олиб борилган кузатишлар суннат тўйини қай даражада ўтказиш оиланинг иқтисодий шарт-шароитларидан ташқари, оила аъзоларининг дунёқарашига ҳам боғлиқлигини кўрсатмоқда. Фориш туманидаги тадқиқотларда маросимлар ортиқча сарф-харажатлар билан ўтказилаётгани аниқланди. Аммо, умумий тарзда кўпчилик онгида, ортиқча харажатларни қисқартириш керак деган, фикр шаклланиб бормоқда.

АДАБИЁТ ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТРАТУРА / REFERENCES):

1. Абрамзон С.М. Рождение и детство киргизского ребёнка. Из обычаев и обрядов Тянь-Шанских киргизов // СМЭИ. Т. XII. – М.; Л.: АН СССР, 1949. – С. 79–139.
2. Бикжанова М.А. Семья в колхозе / Сухарева О.А., Бикжанова М.А. *Прошлое и настоящее селения Айкыран*. – Ташкент, 1955. – 221 с.
3. Гершенович Р.С. О бытовой гигиене узбекского грудного ребёнка // *Труды САГУ. Серия XII. Этнография*. Вып. 1. – Ташкент, 1928. – С. 18–20.
4. Зарубин И.И. Рождение шугнанского ребёнка и его первые шаги // Сб. В.В. Бартольд. – Ташкент, 1927. – С. 370–373.
5. Кисляков Н.А. *Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана*. – Л.: Наука, 1969. – 240 с.
6. Пандей Р.Б. *Древнеиндийские домашние обряды*. – М.: Высшая школа, 1990.
7. Толеубаев А. *Реликты доисламских верований в семейной обрядности казахов*. – Алма-Ата: Ёлым, 1991. – 219 с.
8. Толипов Файзулла. *Мозийга бўйлашган маскан Гараша қишлоғи ҳақида тарихий-этнографик рисола*. – Тошкент, 2008.
9. Тошбаева Т., Савуров М. *Новое и традиционное в быту сельской семьи узбеков*. – Тошкент: Фан, 1989. – 160 с.
10. Троицкая А.П. Первые сорок дней ребёнка (чилля) среди оседлого населения Ташкента и Чимкентского уезда // Сб. В.В. Бартольд. – Ташкент, 1927. – С. 349–360.
11. Убайдуллаева Б. *Ўзбек этнопедагогикаси тенденциялари*. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 200 б.
12. Чвырь Л.А. Три «чилля» у таджиков // *Этнография Таджикистана*. – Душанбе: Дониш, 1985. – С. 69–76.
13. Хакимов Кўчкор. *Аждодлар маскани: Тарихий-этнографик китоб*. – Самарқанд, 2023.
14. *Этнография детства. Традиционные формы воспитания детей и подростков у народов Восточной и Юго-Восточной Азии*. – М.: Наука, 1983.
15. Дала ёзувлари. Фориш тумани қишлоқлари бўйлаб, 2024 йил.
16. Дала ёзуви. Можирум қишлоғи, 2024 йил.
17. Дала ёзуви. Сайёд қишлоғи, 2024 йил.
18. Дала ёзуви. Катта Боғдон қишлоғи, 2024 йил.
19. Дала ёзуви. Илонсой қишлоғи, 2024 йил.
20. Дала ёзуви. Усто қишлоғи, 2024 йил.

AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIKDA USTA-SHOGIRD MUNOSABATLARI BILAN BOG'LIQ URF-ODAT VA MAROSIMLAR

Abduqodirov Sarvar Begimqulovich

Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi

*“Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası mudiri,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

<https://orcid.org/0009-0002-0036-1234>

Bozorboyeva Nilufar Anarbayevna

*Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi “Huquqiy va
ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrası tarix fani o'qituvchisi*

UDK: 94(575.1).

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashuv sharoitida o'zbek an'anaviy hunarmandchiligining ijtimoiy tashkilotlari, urf-odatlar va marosimlarini ilmiy asoslashga qaratilgan. Unda hunarmandchilik birlashmalarining tuzilishi, ularning funksiyalari, kasb madaniyati va ayniqsa usta-shogird an'anasining ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Maqolada hunarmandlarning risolalarda belgilangan 12 ta axloqiy qoidasi, "arvohi pir" va "belbog' bog'lash" kabi muhim marosimlar, shuningdek, "kayvoni" va "korgar" kabi atamalarning ma'nolari ochib berilgan. Ayol hunarmandlarning o'ziga xos amaliyotlari ham ko'rib chiqilgan. Maqola O'zbekiston hududlarida hunarmandchilik bilan bog'liq lokal xususiyatlar va qadriyatlarning bugungi kundagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: Hunarmandchilik, globallashuv, etnologiya, urf-odatlar, marosimlar, usta-shogird an'anasi, "arvohi pir", "belbog' bog'lash", "kayvoni", "korgar".

Аннотация: Целью данной статьи является научное обоснование социальных организаций, обычаев и ритуалов узбекских традиционных ремесел в контексте глобализации. В ней глубоко анализируется структура ремесленных объединений, их функции, профессиональная культура и особенно значение традиции мастер-ученик. В статье раскрываются 12 этических правил ремесленников, изложенных в трактатах, важные ритуалы, такие как «арвохи пир» и «белбог' баг'лаш», а также значения таких терминов, как «кайвони» и «коргар». Также

рассматриваются специфические практики женщин-ремесленников. В статье показана важность местных особенностей и ценностей, связанных с ремеслами в регионах Узбекистана сегодня.

Ключевые слова: Ремесла, глобализация, этнология, обычаи, ритуалы, традиция мастер-ученик, «святой-призрак», «завязывание пояса», «кайвони», «коргар».

Abstract: This article is aimed at scientifically substantiating the social organizations, customs and rituals of Uzbek traditional crafts in the context of globalization. It deeply analyzes the structure of craft associations, their functions, professional culture and especially the importance of the master-apprentice tradition. The article reveals the 12 ethical rules of craftsmen set out in the treatises, important rituals such as "arvohi pir" and "belbog' bag'lash", as well as the meanings of terms such as "kayvoni" and "korgar". The specific practices of female craftsmen are also considered. The article shows the importance of local characteristics and values associated with crafts in the regions of Uzbekistan today.

Keywords: Crafts, globalization, ethnology, customs, rituals, master-apprentice tradition, "ghost saint", "belt tying", "kayvoni", "korgar".

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). So'nggi yillarda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni ilmiy

asoslashga sabab bo'lmoqda. Bugun zamonaviy etnologiyada tadqiqot mavzusi yanada chuqurlashtirilgan holda eng yirik etnoslardan tortib kam sonli xalqlarni ham izchil o'rganishga, ularning turmush tarzi bilan bog'liq urf-odat va marosimlarni tadqiq qilishga e'tibor qaratilmoqda.

Usta hunarmandlar turli kasblarning badiiy va texnik usuli, bezagi va an'analarini yaratib shogirdlariga yetkazishgan.

O'zbek an'anaviy hunarmandchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – ma'lum bir soha hunarmandlarining muayyan ijtimoiy tashkilotga ega bo'lishidir. Bu tashkilotlar o'ziga xos jamoatchilik an'alariga tayangan maxsus uyushmalarga birikkan bo'lib, hunarmandchilik texnikasi va ishlab chiqarish xarakteri bilan bog'liq ravishda o'z hamkasblari manfaatini qo'riqlash maqsadida tashkil topgan. Birlashmalar, asosan, chetdan u yoki bu ishlab chiqarish uchun yordam so'rash, bir turdagi ikki hunarmandning mahsulot ishlab chiqarishiga ko'maklashish, ma'naviy, ba'zan huquqiy javobgarlik, ehtiyotkorlik bilan buyurtmani tez bajarish, ishlab chiqarish va hunarmandlar o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarni nazorat qilishga doir masalalarni hal etgan. Birlashmalarda hunarmandlar jamoaviy tarzda bitta ishlab chiqarishga uyushgan bo'lib, bu an'analar bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). XIX asr oxiri – XX asr boshlarigacha o'lkada mavjud bo'lgan barcha hunarmandchilik birlashmalari asrlar davomida shakllangan urf-odat va marosimlariga ega bo'lgan. Uyushmada mavjud odatlar hunarmandlarga tizimli uyushtirilgan jamoaviy tarzda yordam bo'lib, asosan uyushma a'zolari bilan iqtisodiy munosabatlarda muhim o'rin tutgan. Har qanday marosim u yoki bu xalqning ma'lum tarixiy taraqqiyot bosqichidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy rivojlanish darajasini ko'rsatuvchi asosiy belgilarni o'zida mujassamlashtirgan holda vujudga keladi va yashaydi.

O'zbek hunarmandchiligida kasb madaniyati, usta-shogird o'rtasidagi hurmat, sadoqat, to'g'riso'zlik, halollik fazilatlar

alohida o'rin tutib, hunarmandchilik risolalari asosida amalga oshiriladi. Har bir hunarning alohida risolasi bo'lib, unda hunar tarixi, pir-u murshidlar, mashhur ustalar haqida ma'lumotlar bo'lgan. Unga ko'ra, har bir usta o'z shogirdi tarbiyasiga javobgar bo'lib, u bir necha yil davomida hunar sir-asrorlarini o'rgatishi va uni tarbiyalashi kerak bo'lgan. Shuningdek, usta shogirdidan risolaga amal qilish, gunoh ishlar qilmaslik, odamlar bilan xushmuomalada bo'lish va ishni chin dildan bajarishni talab qilgan. Bu usta-shogirdlikda ta'lim va tarbiyaning uzviyligidan dalolat bergan[1].

Zargarlikda hunar va ustaxonani rivojlantirish, asbob va mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirishda risola asosiy manba vazifasini bajargan. Zargarlik ustaxonasi pirxona sifatida hunar pirlarining ruhi keladigan joy hisoblanib, agar hunar egasi ularga atab is chiqarib turmasa, hunarmand va uning oila a'zolari kasallik yoki boshqa baxtsiz hodisalarga chalinadi, deb tushunilgan. Hunarmand uchun ish boshqaruvini tashkil etishda risola tili, xarakteri, mazmuniga ko'ra "Xudodan qo'rqish", "Allohning karomati" sifatida alohida o'rin tutgan. Hozirda bularning ahamiyati yo'qolib ketgan bo'lsa-da, har bir hunarmand o'z ishini Alloh nomi bilan boshlaydi.

Risolalarga ko'ra, usta vazifasini bajarish uchun hunarmandlar 12 ta qoidaga: 1) tahorat olishi va masjidga jamoa bilan ibodat qilish; 2) ilmga intilganlar bilan suhbatda bo'lish; 3) ustozini hurmat qilish va o'rganayotgan hunar turini puxta egallash; 4) do'konda tozalikka rioya qilish; 5) asbob-uskunalarni ham toza saqlash; 6) kelganlarga xushmuomalada bo'lish; 7) chorshanba va payshanba kunlari kechqurun avliyolar, pirlar ruhiga atab chiroq yoqish; 8) soch va soqolini olmay yurganlardan hazar qilmaslik; 9) kundalik olingan foydaning yarmini sadaqa qilish; 10) mehnatga yarasha ozgina taqdirlanishdan ham ko'ngli to'q bo'lish; 11) sabrli va chidamli bo'lish; 12) rahmdil bo'lishi kerak bo'lgan[2]. Hozirgacha bu odatlar charmgar, etikdo'z va kulollarda an'ana bo'lib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, hunarmandchilikdagi har bir an'ana, ishlab chiqarish tartiblari amal qilinishi

lozim bo'lgan qoidalarga asoslangan.

Mavjud birlashma hunarmandlaridan tashqari baqqol, savdogar, o'qchi, cho'pon, tabib, mulla, choyxonachi, bo'yoqchilar erkin kasb egalari hisoblanishgan. Ularning ham xuddi o'rta asrlardagi kabi korporatsiya, ittifoq, gildiya, birodarlik va hunarmandchilik sexlari, saylanma boshliqlari (oqsoqollari), shuningdek, avliyo darajasidagi "pir" (patron – pater ota homiy ma'nosida)lari va yig'ilishlariga ham ega bo'lishgan. Shuningdek, bitta hunar doirasidagi yig'ilish va maslahatlardan iborat o'ziga xos ma'naviy kuchga ega yuqori hunarmandchilik organi bo'lgan.

Risolalarda, ayniqsa usta-shogird munosabatlarini tartibga solish muhim hisoblangan. Jumladan, to'quvchilar risolasida usta 7 yoshdan 12 yoshgacha bo'lganlarni shogirdlikka olishi mumkin, dastlab ular diniy bilim va marosimlarga o'rgatilganidan so'ng hunar lozimligi ta'kidlangan.

Hunarmandchilikning o'ziga xos marosimlaridan biri *arvohi pir* bo'lib, har yili oqsoqol boshchiligida jamoa bir yerda yig'ilgan. Har bir hunarmand ustalar safiga kirishi uchun o'z o'rnida an'anaga ko'ra, avval shogirdlik kursini o'tab, ustozidan "fotiha" olishi, ikkinchidan urf-odatni bajarishi, ya'ni "arvohi pir" marosimini[3] o'tkazib, hunarmandlar birodarlariga tortiqlar ulashishi, hunar pirlari haqqiga duo qilishi, katta ustalariga sovg'alar berishi, uchinchidan esa belbog' bog'lash marosimidan o'tishi shart bo'lgan. Hunarmand usta uchun bu uch shart nihoyatda muhim bo'lib, ustozga minnatdorchilik bildirish, undan duo olish risolalarida saqlanib qolgan "kamarband", "kamarbasta" (kamar bog'lash va kamar olish) tartib-qoidalari bilan bog'liqdir. Shuningdek, bu an'ana "kamar-band" va "miyon-band" akti deb ham nomlanadi[4]. Kamarbasta atamasi ma'lum kasb sirlarini egallagan hunarmandlarga nisbatan ishlatilgan. Afsuski, endilikda bu odatlarning aksariyati unutilib ketgan.

Buxoro amirligi bekliklarida voyaga yetgan, ya'ni biror hunarni egallay olgan yosh usta kasaba yig'ini chaqirib *arvohi pir* yoki *piravi* marosimi o'tkazib, pirlar haqqiga

ziyofat bergan. Bunday marosimlar hududlar hunarmandlari tomonidan jamoaviy tarzda ustalardan yig'ilgan mablag' evaziga pirlarga atab qurbonlik keltirishni ko'zlab o'tkazilib turilgan bo'lsa, Xorazmda har bir usta tomonidan navbatma-navbat o'tkazilgan.

Arvohi pir marosimida faqat qurbonlik qilish bilan cheklanilmay, balki sohaga bog'liq turli masalalar muhokama qilingan va muammolar o'z yechimini topgan. Shogird usta unvonini olgach ustoz va pirlar davomchisi boboga sarpolar hadya qilgan[5]. Janubiy hududlarda ayol hunarmandlar ham pirlar haqqiga chiroq (pilik)lar yoqishib, qurbonlikka non va oq mato ulashganlar. Piri bir hunarmandlar bir kasb-kor ahli bo'lmasada, bir-biriga birodar hisoblanib, bayram va turli marosimlarda yig'ilishib turishgan.

Marosimlar millatning o'ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va kelajakka yetkazish vositasi sifatida milliy hayotning ulkan belgisi (semiotik) hodisasidir. Ayni paytda, ma'naviy qadriyatga aylangan urf-odat va rasm-rusumlar zamon talablari asosida qayta baholanib boradi. Ushbu etnosemiotik jarayon ham an'anaviylikning ustuvorligidan kelib chiqadi.

Shogirdlar usta nomini olish uchun bu marosimni o'tkazishi shart bo'lgan. Agar shogird ustaning o'g'li yoki qarindoshi bo'lsa, uning faqat fotiha olishi yetarli bo'lgan. Usta bu paytda obro'li ustalarni taklif qilib, ustaxonada ziyofat uyushtirgan. Unda shogirdi tayyorlagan mahsulot namoyishi o'tkazilgan va mustaqil ishlashiga ruxsat bergan[6]. Kulolchilikda bu marosim sal boshqacharoq o'tkazilib, usta shogirdi tayyorlagan mahsulotni sotgan va tushgan pulni kamar basta marosimi uchun yig'ib qo'ygan. Umumiy ziyofatdan so'ng ustalikka nomzod katta ustalar qarshisiga chiqib ustaxona risolasini ovoz chiqarib o'qigan va ustaxona boshlig'i nomzodga belbog' bog'lagan. So'ngra usta shogirdiga kulolchilik asbobi sovg'a qilib, unga oq fotiha bergan hamda mehmonlarga sovg'alar ulashilgan[7].

Turkiyada ustalikka o'tkazish marosimi kuni shogirdlar yetakchisi *jo'raboshi* ustaxona a'zolarini to'playdi va "uch hoshiyali qizil entari" kiygan shogirdlarni bir qator

o'tqizadi[8]. Marosimni shayx oyatlar o'qib ochgach, shogirdlar kalima keltirishadi va jo'raboshi ularga belbog' bog'lab qo'yadi[9]. Bu marosimda usta va shogirdlar o'rtasida savol-javoblar o'tkazilib, shogird ustalik maqomiga qabul qilingan. Tadbir shogirdning ustoziga sovg'alar in'om qilish va ziyofat berish bilan yakunlangan[10]. Ustalikka o'tkazish marosimi yoqut temirchilarida ham bo'lib, temirchi bo'lishni xohlagan odam zarur asboblarni sotib olib ishni boshlayvergan[11]. Ular temirchilik ustaxonasi o'z ustasiga ega bo'lganligini ustaxonadan eshitilayotgan bolg'a va bosqonning ovoizidan bilishgan.

O'rganilayotgan vohalarda hunarmandchilik birlashmalarining o'ziga xos tomonlaridan biri – patriarxal munosabatlarning mustahkam saqlanishi tufayli mazkur birlashma munosabatlarning juda uzoq vaqt davomida hech qanday o'zgarishlarsiz qolganligidir. Bu esa hunarmandchilik bilan bog'liq jamoaviy munosabatlarning ma'lum ma'noda taraqqiyotdan orqada qolib ketishiga sabab bo'lgan. Xususan, Turkistonda mahalliy aholi odatlarini o'rgangan V.Nalivkin va M.Nalivkinalar 1886 yilda tub aholi turmush tarzida yo'qolib borayotgan o'sha davrga xos bo'lgan anjumanlar ruslar kelishidan bir necha yil oldin o'tkazilganligini qayd etgan. Biroq, rus tadqiqotchisining ushbu fikrlari biroz mubolag'ali bo'lib, aslida mahalliy aholi o'rtasida marosimlar u yoki bu ko'rinishlarda o'tkazilgan va bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Dehqonchilik kabi hunarmandchilik sohasida ham *kayvoni* atamasi uchraydi. Kayvoni vohaning tog'li tojliklari orasida katta oilalardan tayinlangan ayol bo'lib, barcha ayollarga ishni ta'minlab beruvchi hisoblangan. Jizzax vohasining Forish tumanida o'zbek turkmanlari aholisi orasida kayvoni atamasi faqat ayollarga nisbatan emas, balki hunarmandchilik masalalari bilan shug'ullanuvchi qishloqning katta yoshdagi erkaklariga nisbatan ham qo'llangan. U Farg'ona vodiysida – *xodim*, Buxoroda – *kayvoni*, Toshkentda *dasturxonchi* deb atalib, barcha oilaviy marosimlarni o'tkazish, mehmonlarga yeguliklar tortish va sovg'a

berishda o'z maslahatini bergan.

A.Beleniskiy tadqiq etgan Samarqandning o'rta asrlarga oid qozilik hujjatlari orasida ham *korgar* atamasi uchraydi[12]. Unda keltirilishicha, “hunarmandchilik ishlab chiqarishida usta asosiy boshchi – ustaxona xo'jayini va shogird o'quvchi hisoblangan”. U O'rta Osiyo sexlari xuddi o'rta asr yevropaliklari kabi ustazoda, shogird shaxsini bilishmaganligini, hujjatda keltirilgan ma'lumotlarda *korgar*–ishchi nomini aniqlash juda mushkul ekanligini ta'kidlagan. Bizningcha, bu biroz mubolag'ali bo'lib, O'rta Osiyoda har bir hunarmandchilik sohasida usta-shogird an'anasini bo'lgan, buni hunarmandchilik risolalari ham isbotlaydi. Ehtimol, uning kuzatishicha, boshqacha nomlangan bo'lishi mumkin. O'zbek hunarmandchiligi buni inkor etmagan holda, *korgar* sex ishchisi yoki yollanib ishlaydigan *xalfa-hunarmand* bo'lishi ham mumkin. ye. Peshereva *korgar* atamasini qarshilik ko'ngchilardan eshitganligi va yollanib ishlaydigan *xalfalar* ekanligini qayd etadi. Uning fikricha, *korgarlar* mahalliy aholi orasidan bo'lmay, balki boshqa joylardan kelgan shaxslar bo'lgan[13].

Shunisi e'tiborga loyiqki, hunarmandchilikda nafaqat erkaklar, balki ayollar ham o'z kasbini oila a'zolari va shogirdlariga meros qilib qoldirishgan. Xususan, kashtachilikda faqat fotiha berilgan va ba'zan kichikroq ziyofat ham uyushtirilgan. Usta o'z shogirdiga fotiha berayotib, vafotidan keyin uning ruhi qo'llashini aytgan. SHogird ustalik maqomiga ega bo'lgach, topgan mablag'ining bir qismini bu dunyodan o'tgan ustalar ruhini shod etish uchun xudoyi qilib ishga sarflagan[14]. Hunarmandchilik marosimlari orasida shogirdning ustalikka o'tishi alohida o'rin tutib, uning hunar bilan mustaqil shug'ullanishidan dalolat beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, hunarmandchilik ravnaqi ishlab chiqaruvchi kuchlar, tovar-pul munosabatlarning rivoji va natural rentaning pul bilan almashinuviga bog'liq bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan aholining ish qurollarining oddiylikdan murakkablikka, texnikaviy rivojlanishga o'tgani sari,

hunarmandchilikning boshqa sohalari ham yuksak san'at asari namunalari yaratila boshlangan. Mintaqamizdagi mavjud vohalarda bugungi kunda hunarmandchilik bilan bog'liq urf-odat, marosim va an'analar har bir hududning o'ziga xos lokal xususiyatlarni yuzaga keltirgan. Mamlakatimizda hunarmandchilik bilan

bog'liq yuzdan ortiq urf va odatlarida buni yaqqol ko'rish yoki uchratish mumkin. Bunday qadriyatlar har bir vohalarda tarixiy jarayonlar davomida shakllanganligi o'z isbotini dala kuzatuvlar davomida hamda ilmiy tadqiqotlar natijasidan ham o'z aksini topgan.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Такие ремесленников // *Туркестанские ведомости*. – 1910. – № 62. – С. 570.
2. Гаврилов М.Ф. *Рисоля сартовских ремесленников*. – С. 21.
3. *Современный кишлак Средней Азии*. – С. 140–144.
4. Пещерева Е.М. О ремесленных цехах Средней Азии в конце XIX – начале XX в. – С. 39.
5. Пещерева Е.М. *Гончарное производство Средней Азии*. – С. 317–322.
6. Сванидзе А.А. *Ремесло и ремесленники средневековой Швеции (XIV–XV вв.)*. – М., 1967. – С. 244–246; Ёша муаллиф. *Наемный труд и трудовая этика в ремесленных цехах Швеции: уставные принципы // Город в средневековой цивилизации Западной Европы*. – М., 1999. – Т. 2. – С. 1–20.
7. Пещерева Е.М. *Городское гончарное производство Средней Азии*. – С. 312–314.
8. Гордлевский В.А. Из жизни цехов в Турции. К истории Ахи // *Азиатский музей. Записки коллегии востоковедов*. – Л., 1927. – Т. II. Вып. 2. – С. 239–243; Куравлев В.П. К организации ремесленных цехов в Турции // *Социальная история народов Азии*. – М., 1975. – С. 260–269.
9. *Ислам. Энциклопедический словарь*. – М., 1991. – С. 231, 246.
10. Centlivres-Demont M. Un corpus de risola du Turkestan Afghan // *Madrassa: la transmission du savoir dans le monde musulman / Sous la direction de Nicole Grandin et Mart Caborieau*. – Paris, 1997. – P. 84–88.
11. Докторов П.И. *Ремесло и кустарное производство якутов (История и современность)*. – Якутск: Якутский государственный университет, 1999. – С. 49–51.
12. Беленецкий А.М. Организация ремесла в Самарканде в XV–XVI вв. // *КСИИМК*. – М.–Л., 1940. – Вып. XVI. – С. 43–47.
13. Пещерева Е.М. О ремесленных организациях Средней Азии в конце XIX – начале XX в. – Б. 44.
14. Сухарева О.А. *Сузани – среднеазиатская декоративная вышивка*. – М., 2006. – С. 44.

UNIQUE TRADITIONS AND SEWING TECHNOLOGY OF EMBROIDERY IN SURKHAN OASIS

Aymuratova Dिल्фуза Borievna

TTA Termiz branch Physical and legal working with individuals'

appeals head of the control and monitoring department

<https://orcid.org/0009-0002-1029-5566>

UDK 94 (575.1)

Abstract: This article aims to present the significance of Boysun embroidery school in Surkhan oasis embroidery today, its history and development, the introduction of national embroidery training activities and the process of implementation. The style and examples of oasis embroidery art and various approaches to its formation are scientifically justified in the article. At the same time, it is also described about the patterns of embroidery and the types of sewn items.

Key words: Boysun, sozana, boghoma, sardevor, takiyaposh, joynamaz embroidery, embroidery decorations, national crafts, sewing, silk.

Аннотация: Целью данной статьи является представление значения школы вышивки Байсуна в вышивке Сурханского оазиса сегодня, ее истории и развития, внедрения национальных мероприятий по обучению вышивке и процесса внедрения. В статье научно обоснованы стиль и примеры искусства вышивки оазиса и различные подходы к его формированию. В то же время, также рассказывается об узорах вышивки и видах сшитых изделий.

Ключевые слова: вышивка Байсуна, сузана, богома, сардевор, такияпош, джойнамаз, украшения вышивки, национальные ремесла, шитье, шелк.

INTRODUCTION. Embroidery works are of high value not only for their decorativeness, but also for their beautiful forms, antiquity, and deep philosophical, educational, and spiritual properties. Unique historical monuments, residential buildings, and household items decorated with embroidery awaken people's love for folk applied art and teach them to perceive and enjoy the beauties of existence.

DISCUSSION. Embroidery, which is one

of our national traditions, is of particular importance in the regions of our republic based on tribes, clans and families. It is known that one of the main decorations in every Uzbek house is embroidery. They are especially important in the Uzbek household during wedding ceremonies and national traditions and ceremonies: large embroidered flowers are placed in the right proportion to the room, and they look good from afar. The colorful silk embroideries placed in the dark houses stand out and give a person an aesthetic spirit. The walls of the rooms reserved for the bride are decorated with embroideries made by the bride. The aspect of Anana that differs from other nations and peoples comes from the unique embroidery style of our regions, that is, "Taqiyaposh" (In Nurato, Bukhara it is called "bolinposh", in Samarkand, "yostiqlposh" in Shakhrisabz) in the oasis of Surkhan, pillow, lolabolish. These are 15-20 cm wide blankets gathered on a takhman (rax) and decorated with special colored threads called hand and various embroidery decorations when covering the pillows and taking them as an oasis. Decorated with ornaments, this ula, based on its flowers and shapes, belongs to a certain region or tribe, and is prepared with the intention for a long and happy life of this new family. Takhmon (rax) will be in the grid of the house.

Embroidery gives people aesthetic pleasure, it was widespread among the people not only because of its importance in decorating houses, but also because of the customs and patterns formed over the centuries.

Sozana, takiyaposh, joynamaz — people, especially women — are associated with happy events in the family life of girls. They are mainly made by the bride's side for the

happiness of the bride and groom, and the mandatory and main part of the girl's dowry is given outside. According to the long-standing tradition, the young bride-to-grooms are embroidered with "evil eye" amulets and black-and-white eyes. Some parts of the finished embroidery are deliberately left unfinished. And this indicates a unique symbolism, i.e. the continuation of generations, the connection of life, passing from one generation to the next, or the good intentions that the wedding will come and the embroidery will be sewn, that my daughter will be safe, and that our heads will not be filled with joy.

The size of the embroidery is different: 230 — 280 cm and 170 — 200 cm. They discover a whole landscape. Takyaposh are smaller than sozana, 170 — 250 cm tall, 120 — 150 cm wide, similar in composition to sozana. The flowers of Joynamaz and marriage bedclothes (joyposht) are different. Flowers are not planted in the middle.

Will be kind. Height 130 — 150 cm, width 90 — 110 cm. The border is not sewn from the foot of the prayer, it is left open. Sardevor: the length of the room is 450-500 cm, the width is 50-60 cm and it is decorated with silk threads. Size: height 260 — 285 cm, width 160 — 200 cm. Its home side is decorated with a P-shaped border. Bughjoma: (bughka) is designed to surround the place during the day or to hide various items. A square ornament is sewn in its center, and a flower is sewn in one corner.

In the art of embroidery, women instill their dreams and hopes about their future children and their happiness, their love for nature and their desire for beauty. The creation of this kind of embroidery as a unique art awakens the viewer's love for language, humanism, love for life and nature, spiritual nourishment. Embroidery is a custom in every family, and girls are taught from a young age. They continued embroidering their mother's unfinished embroidery and also made new embroideries themselves.

Sozanas construction lasted one and a half to two years. If the girl's marriage is accelerated, then relatives, relatives, friends and neighbors came to help in order to finish it

before the wedding. The flower is sewn in pieces of unpainted fabric and joined at the end. A talented folk artist called "Kalamqosh" or "Chizmakash" drew flowers on the embroideries. Each place (territory) has its own characteristics, which depends on the artist's skills, his nature, and how well he knows the surrounding environment. While they were mostly based on ancient drawings, they added their own fantasy to the drawings. The unique feature of Uzbek embroidery is that it fascinates everyone, that the same elements are not found in them and that they are not mechanically repeated.


Until the 80s of the 19th century, large



decorative embroideries were sewn on white "karbos" on yellow "malla" fabric. Currently, the company "Zukhro" has started to embroider white house "karbos" with natural dyes and silk threads made by themselves. In natural dyes, the technology of preparation is restored and developed. Each nation has its own traditions and artistic styles in which the decorative art of embroidery has been developing since ancient times. All working tools are: needle, looped and non-looped braids, needle, pliers, scissors.

The short sewing belt has a loop and a wooden handle. A special tool worn on the finger so as not to injure the fingers during embroidery is "nohunak" — a Tajik word, "nohunak" means a nail, worn on a nail. Bigiz is a sewing weapon with a sharp tip, called "darvsh" in the oases and other regions by its name only in Bukhara. When sewing with braids, silk threads are first made in the form of kalava and dyed. After dyeing, the kalava is again rolled into a ball and one of the threads is turned to the right and one to the left, after which they are joined, the two threads are folded and rolled into a small ball. The surface

of the fabric to be sewn with a braid is cut at an angle of about 30-40 degrees, and the thread is fed from under the fabric with the help of fingers. When embroidering with a "crotch stitch", the chain of crochet stitches is continued along the outline of the flower. Embroiderers rely on a free style when filling large flowers with a chain of embroidery. Flowers, birds, and fruits are often depicted in Uzbek embroidery, as are the most widely used motifs of each nation in the art of embroidery. Embroidery is very common in Central Asia, women in every Uzbek family knew how to embroider. In every family, women made sardevor, sozana, spoon bag, lolabolish, glass bag, tea bag, etc. by themselves. The Uzbek people have been known to the world for their profession, hard work, honesty and purity since time immemorial. Alisher Navoi says: The master of the craft is the netgum, the end is the end. Great scholars have described the




importance of craft in human life. When our people say "Make money from a craft", it means that a person's livelihood comes from his craft and work. Our forefathers have

always been artisans, creators and craftsmen. Although hundreds of years have passed, their crafts have not lost their value and show their freshness.

When we talk about the work of the master embroiderers of the mountainous Boisun region of the Surkhan oasis, they sewed the largest word in the world by the artisans of Boisun, dedicating it to the 1st International festival of embroidery art, which will be held in Surkhandarya. We must admit that this work of art was created by 20 florists with fine taste and high skill. Its length is 25 meters, width is 6 meters, and its weight is 60 kilograms. Crafted by skilled embroiderers, this sozana took six months to create. 16 kilograms of silks in various bright colors reflecting the oasis were used to create the embroidery pattern, which is considered the product of tireless work. "We used the filling method of ancient


embroidery typical of the oasis to sew the sozana," says craftsman Nilufar Jo'raeva. The circle diameter of each of the 5 flowers depicted in its center (called moons in embroidery) is 2 meters, and the diameter of each of the 14 small flowers around it is 1 meter.

Before sewing a sozana, it is necessary to prepare its drawing (drawing of flowers). This process requires the most important attention from the embroiderer. It should be said that before sewing on the word, it is necessary to prepare its drawing (draw flowers). This process requires the most important attention from the embroiderer. Flowers are drawn from the center to the right and left.



Each detail is drawn based on mathematical measurements. Skilled embroiderers prepared the drawing of flowers printed on Alvon fabric in 6 days. After that, the processes of sewing, priming, embroidering and embellishing the drawings in the style of filling with silk are quite complicated.


Sozanas embodying Surkhan national customs and values and ancient traditions are a rich cultural heritage of our people. It is necessary to preserve the direction of embroidery, which is considered one of the types of folk decorative art, and to pass it on to the next generation.



Just as each nation has its own most

commonly used patterns in embroidery, Uzbek embroidery is also common to all regions in that it often depicts flowers, animals, birds, and fruits. This is due to the religious beliefs of the population. Patterns are divided into geometric (geometric), plant-like (Islamic), zoomorphic (animal-shaped), and anthropomorphic (human-shaped) patterns according to their characteristics[1]. Therefore, the world of real objects is hidden in the image of plant or geometric patterns, and they express one or another idea about the world around us[2]. Ornithomorphic (bird-like) themes are widespread in the applied art of nomadic peoples[3]. In particular, Uzbek embroidery depicts plant-like patterns, spatial objects, stylized images of fruits and animals, verses, and later also human figures and architectural monuments[4]. For example, embroidery depicting red and white doves flapping their wings can be found on the sozanes embroidered by embroiderers in the oasis[5].

The patterns and ornaments sewn on the fabric are divided into the following types and are used by all peoples living in the oasis. The




types of ornaments that reflect plants or some of their elements include tulips, flowers on a canvas, bouquets, pomegranates, apples, roses, apple flowers, almond

flowers, grapes, and sunflowers. For example, in Kashkadarya, women embroidered patterns that had a certain meaning on various clothes and items such as wallets, boghjoma, boghcha, nimcha, kamzul, chapon, and skullcaps. Birds and trees depicted in the embroidery symbolized a prosperous lifestyle[6].

On the placemats sewn in the oasis, the image of the moon means a new family, bright like the sun, the almond flower is a sign of a new family, the cotton flower means that the life of two young people is soft and smooth, the pepper means that the eye does not touch the life of two young people, and the white lines mean that life is not smooth, and the patterns that repeat in two rows of the pattern are called crane rows. The curtains were sewn using filling embroidery, leaving the spaces on top. Some elements of the embroidery decoration depicted specific animals and birds, while images of animals and birds such as roosters, nightingales, pigeons, peacocks, parrots, swallows, deer, goats, rams were drawn on white fabrics and used to decorate window curtains. Other themes could also be multifaceted.

CONCLUSION. Oasis embroidery is unique, like the most ancient types of applied art of the peoples of Central Asia, and the embroidery also reflects the centuries-old historical ties formed by the population. It is the embroidery ornaments that testify to the ethnogenesis, strength of cultural and economic ties of the peoples who created it.

Also, the patterns and ornaments that provide information about the spiritual world of man are based on



symbolic, semantic expressions. In addition, the embroidery patterns also reflect the religious views, spiritual world, thinking, morality, philosophy, abilities, aesthetic taste and artistic worldview of the embroiderers.

REFERENCES:

1. Гюль Э. *Диалог культур в искусстве Узбекистана*. – Ташкент, 2005. – С. 12.
2. Андреев М.С. *Орнамент горных таджиков верховьев Амударьи и Памира*. – Ташкент, 1928.
3. Богословская И. Қорақалпоқ нақш санъатида зооморф унсурлар // *San'at*, 2009. – №2. – Б. 16.
4. Давлатова С.Т. *Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида*. – Тошкент, 2018. – Б. 18.

5. Ҳакимов А., Носирова З. *Косон анъанавий каишачилиги*. – Б. 8.
6. Давлатова С.Т. *Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида*. – Б. 277.
7. Bulatov S.S. *Uzbek Folk Decorative Art: O'quv metodik qo'llanma*. – Toshkent, 1991.
8. Hasanov E.G., Akromkhodzhaeva M., Akromkhodzhaeva R. *Methodical Use of "Embroidery"*. – Toshkent, 2004.
9. Vorobev A.I. *Didactics of Labor Polytechnic Education*. – [Nashr joyi va yili ko'rsatilmagan].
10. Sharipov N.S., Vorobev A.I., Muslimov N.A., Ismailova M. *Pedagogy of Professional Education*. – Toshkent, 2005.
11. *Field Research – Boysun District, Surkhandarya Region*. – October 20, 2023.

“BADASH” OHANGLARIDA VATANPARVARLIK TARANNUMI

Shuhratova Husnora Shuhrat qizi

Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

xshuhratova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-4338-713X>

UDK 378:371

Annotatsiya: Yurtimizda tugʻilib oʻsgan har bir inson “Vatanim” deganida oʻz uyini, qishlogʻini yoki shahrini emas, balki Oʻzbekiston Respublikasini nazarda tutadi. Bu esa vatan tuygʻusining, vatanparvarlikning xalqimiz qalbidagi ifodasidir. Vatan tuygʻusini shakllantirishda nomoddiy madaniy meroslardan, tarixiy manbalardan, pedagogik metodlardan foydalanish orqali yosh avlodga singdirish.

Kalit soʻzlar: vatan, vatan tuygʻusi, yoʻl badash, askar badash, tarbiya, qadriyat, dars.

Abstract: Every person born and raised in our country, when they say “My Homeland,” does not refer only to their home, village, or city, but to the Republic of Uzbekistan as a whole. This reflects the feeling of patriotism and the deep-rooted sense of homeland in the hearts of our people. Inculcating a sense of patriotism in the younger generation can be achieved by using intangible cultural heritage, historical sources, and pedagogical methods.

Keywords: hometown, Sense of patriotism, badash way, badash soldier, Upbringing, tradition, Lesson.

Аннотация: Каждый человек, родившийся и выросший в нашей стране, говоря «Моя Родина», имеет в виду не только свой дом, деревню или город, а именно Республику Узбекистан. Это является выражением чувства Родины и патриотизма в сердцах нашего народа. Формирование чувства Родины у молодого поколения возможно через приобщение с использованием нематериального культурного наследия, исторических источников и педагогических методов.

Ключевые слова: Родина, Чувство Родины, солдат бадаши, дорога бадаши, Воспитание, Ценность, Урок.

INTRODUCTION). Xalqqa va vatanga sadoqat ota-onaga sadoqatdan boshlanadi. Biz mehr va muhabbatni, sadoqat va fidoiylilikni munis onalarimizdan, bebaho vatanimizdan olamiz. Bizning ham jamiki ezgu niyatlarimiz, xayrli ishlarimiz ularga atalgandir. Oʻzbekiston-muqaddas vatan. Ota-bobolarimiz hoki yotgan yer. Oʻzimiz yotadigan yer. Farzandlarimizni shu zaminga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbida shu muborak zaminning har bir qarichiga mehr-u muhabbat uygʻotish-bugungi kunning eng ustuvor fazilatlaridan biriga aylanayotgani hammamizni quvontiradi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz lozim. Vatanparvarlik-bu kishilarning ona yurtiga, oʻz oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy boʻlgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuygʻu, maʼnaviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning oʻz vatanlari taqdiri bilan bogʻliq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning oʻzlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yoʻlidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuygʻular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning oʻtmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon boʻladi. Vatanni sevmoq iymondandir deya bejizga aytishmagan. Vatanini sevuvchi, ona zaminining istiqboli porloq boʻlishi uchun oʻz jonidan kechishga tayyor insonlar zaminimizda koʻplab topiladi. Vatan ravnaqi va bizning bugungi shod-xurram kunlarda yashashimizga jonlarini fido qilishgan insonlar oldida abadiy qarzdormiz. Vatanparvarlik-vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yoʻlida fidoyilik koʻrsatib yashash, ona xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-

KIRISH

(ВВЕДЕНИЕ

/

g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek dunyodagi eng muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadigan tushuncha ekanligini yosh avlodga singdirish bugungi zamon pedagogining oldida turgan eng muhim masala.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLARI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS). Ushbu maqolani yozishda ko'plab olimlarning Surxondaryoda musiqaning badash deb nomlangan yo'nalishi haqidagi kitoblari, ilmiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izalanishlar natijalari, badash yo'nalishining vujudga kelish tarixi to'g'risidagi maqola va monografiyalarga tayanildi.

Xususan, Umarov I., Xudoyberdiyev E.larning "Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar" (hatakilar urug'i misolida), Tursunov S., Umarov I., Pardayev T.larning "O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi", Qo'ng'irotova A.ning "Hayot orzulardan iborat emas", S.Tursunov, T.Pardayev, N.Tursunova, B.Murtazoyev "O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyot tarixi" kabi ilmiy tadqiqotlaridan keng foydalanildi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Vatan tushunchasi muqaddas tushunchadir. Uni asrab avaylash har bir insonning, ayol-u erkakning burchi. Qadimdan ota-bobolarimiz o'z bolalarini yurtga sadoqat ruhida tarbiya qilishgan. Farzandlari kuchli, chidamli va chayir bo'lishlari uchun turli sport o'yinlari tizimini yaratishgan. Masalan, piyoda poyga, qorxat, chillik, qo'lga urib qochish, quvlashmachoq, bekinmachoq, qo'l to'pi otish, oq suyak, sandiqcha, zuv-zuv singari o'yinlar o'ynalgan. Voyaga yetganda esa, kurash(olish), ko'pkari, chavgon, ot chopish va hokazolarda ishtirok etishgan. Shu yo'l bilan ular o'zlarini chiniqtirib tayyorlab borishgan. Harbiy xizmatda bo'lganlarida otda va piyoda holatida qilichbozlik, nayzabozlik, palaxmon otish, merganlik, kamonbozlik, qo'l jangi singari usullarni o'rganishgan. Bunda yoshlikda olgan saboqlari ularga qo'l kelgan. Shu sabab bo'lsa kerak, Turkiston yurti qadimdan o'zining qahramonlari, botirlari, polvonlari bilan shuhrat qozongan. Ularning

jasorati haqida qadimgi, o'rta asrlardagi tarixchilar ham e'tirof etishgan.

Qadimgi dostonlarimiz bo'lmish "Alpomish", "Kuntug'mish", "Go'ro'g'li"da xalqimizning jasur o'g'lonlari kuylangan. Yurtimizdan yetishib chiqqan To'maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy, sohibqiron Amir Temur, Mirzo Bobur, Mahmudbiy otaliq, Madaminbek, Ibrohimbek singari ko'plab qahramonlar xalq qalbidan chuqur joy oldi. Quyida yurt ozodligi yo'lida kurash olib borgan yana bir ulug' ajdodimiz — Alo al-mulk II Termiziy haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Alo al-mulk II Xudovandzoda Termiziyning asl ismi Shamsiddin bo'lib, Amir ush-Shahid nomi bilan mashhur bo'lgan. Termizda tug'ilib voyaga yetgan va Termiz hokimi bo'lgan. O'zining mardligi bilan dong taratgan. Termiz Chingizxon tomonidan vayron etilgach, yangi joyda, hozirgi "Sulton Saodat" maqbarasi atrofida tiklangan. Alo al-mulk II Termiz hokimi bo'lgan vaqtda shahar obod bo'lgan. Shaharda hunarmandchilik, savdo-sotiq va ilm-fan keng rivojlangan. Shunga qaramay Movarounnahrda notinchlik hukm surgan. Mahalliy turkiy xalqlar o'z ozodligi uchun Mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurash olib borgan. Chig'atoy xonlaridan o'n to'qqizinchisi, hijriy 726-734 (milodiy 1326-1334) yillarda Movarounnahrda hukmronlik qilgan Alouddin Tramashirin (buddaviycha Dxarma-Shila, ya'ni "budda qonunlariga amal qiluvchi") islom dinini qabul qilib, ko'chmanchi hayot tarsi (Yasa) dan chekinadi. Shu sababdan Chig'atoy ulusi sharqidagi ko'chmanchi mo'g'ullar unga qarshi isyon ko'tarib uni o'ldirganlar. Chig'atoy xonlarining qarorgohi Ili daryosi sohiliga ko'chiriladi. Movarounnahr taxtiga Bo'zon chiqadi. Bo'zon davrida Movarounnahr aholisining Mo'g'ullarga qarshi kurashi yanada kuchayadi. Bu biz uchun adolatli bo'lgan, tom ma'nodagi vatan urushi edi. bu yurtiga ega chiqish maqsadida necha-necha sarkarda-yu, podshohlar qilich o'ynatib keldi. Bizning bugungi dorilomon kunlarda yashashimiz o'z o'zidan bo'lmaganligini, yurt ozodligi uchun kurashga Sohibqiron Amir Temur boshchiligidagi yangi avlod vakillari

kirib, ajdodlari tugata olmagan ishni nihoyasiga yetkazishdi. Badash san'atida chet el bosqinchilariga qarshi kurashga o'tlangan jangchilarni kuzatish bilan bog'liq bo'lgan turli marosim va o'lanlar yaratilgan. Ulardan askar badash, yo'l badash nima deydi, askar qiz badashlarini ko'rsatishimiz mumkin. Quyida ular haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Yo'l badash

Yo'l badashning qoidasi: oq yo'l bo'lsin bolam oy borib omon qaytgin yo'llaringdan yurganingda shamollarni shabbodasi yuzlaringga urmasin. Mayda toshlar qumlari ko'zlaringga tegmasin. Mo'ljalingga eson omon yetib bor. Yo'ling ravon turmushing farovon bo'lsin bolam. Yo'llaringga qarab turay o'ynab-kulib kelgin bolam. Gul-gul yonib charosdayin ochilib kelgin bolam.

Mazkur badash o'z farzandini urushga kuzatgan onalar, eri jangga yo'l olgan kelinlar tomonidan aytilgan. 20-30 ta onalar, kelinlar, singillar dalada o'roq o'rib, chanqab, meshdan suv ichib, ko'rsatgich va o'rta barmoqlarini tomog'iga solib maromda tez-tez urib, baland ovoz bilan xudodan, tog'lardan, ko'kdan, yulduzlardan farzandlari haqida so'rab qo'shiq kuylaganlar:

Ana tog'lar tog'mikin?
Ko'lankasi zog'mikin?
Borgich-kelgich bormikin?
Meni bolam sog'mikin?
Ona o'g'lini kutmoqda,
Kelin yorini kutmoqda
Hammani sog'intirdi,
Buncha ham kechiktirmadi.

Kelinchaklar esa quyidagi qo'shiqni kuylaganlar:

Davlatim, toj-u taxtim,
Begim, shunqorim, baxtim,
Ko'zim nuri to'kildi,
Siz kelar yo'lga qarab,
Qachon kelursiz?

Yo'l badashning ohangi:

Bijda bada bijda bada
Bijda bada bijda bada
Bovru bada bovrubada
Bovru bada bovrubada
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd Avji
Bovrubada bijd bovrubada bijd

Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bijda bada bijda bada
Bijda bada bijda bada
Bijda bada bijda bada
Bovru bada bovrubada
Bovru bada bovrubada
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bijda bada bijda bada

Bijda bada bijda bada
Bijda bada bijda bada

Bovru bada bovrubada
Bovru bada bovrubada
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bovrubada bijd bovrubada bijd
Bijda bada bijda bada

Askar badash

Askar badashning qoidasi uni vazifasi vatanni himoya qilib, xalqni sog'-salomat saqlash uchun, yov qahridan elni eson-omon saqlab qolish uchun, jangga o'tlangan ayollar haqida so'zlash. Bu yerda badash nima demoqchi. Aytmoqchiki, vatanni himoya qilish har bir erkag-u ayolning burchidir. Bu haqida tarixiy manbalar ham guvohlik beradi. Bundan 2500 yil muqaddam ulug' momomiz To'maris Eron shohi Kir II ni tor-mor etgan. Massaget ayollari erkaklar qatori jang qilganlari tarixiy manbalarda ham o'z isbotini topgan. Qadimgi rim tarixchisi Klavdiy Elianning ma'lumotiga ko'ra, sak otlari chavandozni yiqitib qo'ysa, qayta minib olishi uchun to'xtab turadi. Agar erkak biron qizni xotinlikka olmoqchi bo'lsa, u bilan kurashadi. Qaysi biri yutsa, o'sha buyuradi va hukumronlik qiladi, yengilgan bo'ysunadi. Ikkovi ham raqibini o'ldirish uchun emas, g'alabaga intiladi.

VII asrning 70-yillarida arab bosqinchiligi vaqtida buxorxudot g'abax xotunning tadbirlari tufayli Buxoro vohasi ma'lum muddat istilo dahshatlaridan omon qolgan. Chingizxon boshliq mo'g'ullar ko'hna Urganch va Termizni qamal qilishgan vaqtlarda shahar

mudofaasi uchun erkag-u ayollarning barisi bir yoqadan bosh chiqarishgan edi. Termiz shahridan birorta ham xoin chiqmaganligi uchun unga “Madinat ur-rijol”, ya’ni “mardlar shahri” nomi bilan atalganligini e’tirof etishimiz lozim.

Chor Rossiyasi istilosi davrida Toshkentni himoya qilishda erkaklar bilan birga ayollar ham ishtirok etishgan edi. Qonxo’r rus generali Skobelev Farg’onani bosib olayotganida unga “oloy malikasi” nomi bilan shuhrat qozongan Qo’qon sarkardasi Qurbonjon dodxoh kurash olib borgan edi. Qo’qonliklarning mardonavor qarshiligini ko’rgan general Skobelev oxiri Qurbonjon moma bilan muzokara olib borishga majbur bo’lgan edi. Yoki bo’lmasa, 1873-yilda rus qo’shinlari Xiva xonligining himoyasiz qolgan ovullarini zabt etayotganlarida yosh onalar bir qo’lida bolasi va ikkinchi qo’lida qilichini ko’tarib bosqinchilarga qarshi jang qilganliklari tarix solnomalarida yozib qoldirilgan.

Askar qiz daryo kechib,
Tog’- u toshlardan oshib,
Yoriga ko’mak uchun,
Ot minib jo’nab ketdi.

Askar qiz uzoq yo’l bosib yaqinlarini izlab topibdi. Yovni yakson etib, barchalari sog’- salomat uylariga qaytib ketishdi.

Dushmanlarni tor-mor etib,
Uyiga qaytar askar qiz,
Bog’ giliday ochilib,
Ot o’ynatar askar qiz.

Yov urug’in qahshatib,
Uyga qaytar askar qiz,
O’z elini shod etib,
Yetib keldi askar qiz.

Askar qiz ohangi:

Bol bala bol bala
Bol bala bol bala
Bijd bala bijd bala
Bijd bala bijd bala
Bijdi badom bij

Bol bala bol bala
Bol bala bol bala
Bijd bala bijd bala
Bijd bala bijd bala

Bijdi badom bij

Bol bala bol bala
Bol bala bol bala
Bijd bala bijd bala
Bijd bala bijd bala
Bijdi badom bij

Yaratilgan vatanparvarlik tuyg’usi milliy o’ziga xoslikning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Bu o’z ona Vataniga, uning tarixi, madaniyati, urf-odatlar va kundalik hayotiga muhabbat, g’urur va sadoqat tuyg’usida, uni himoya qilishning axloqiy burchini anglashda, shuningdek, boshqa jamoalarning qadr-qimmatini anglashda, bir-biri bilan qarama-qarshilik qilmasdan ularning shaxsini va yashash huquqini tan olishda ifodalanadi. Albatta, vatanparvarlik hissi haqida uni shakllantirish omilisiz gaplashish mumkin emas, bu tarbiyadir. Ta’limning psixologik tomoni va milliy madaniyatning o’rnini psixolog olim I.A.Ilyin bolada vatanparvarlik tuyg’usini rivojlantirishda, shaxsini shakllantirishda, bolalar tarbiyasida milliy-ma’naviy xususiyatlarni uyg’otish sifatida belgilaydi. Bolada hayratlanish, axloqiy va estetik tuyg’ular, qiziquvchanlik, yutuqqa chanqoqlik, milliy bo’lishga intilish juda muhimdir.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilish mumkinki:

1) Insonlar urug’, qabila, elat, millat kabi ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy birliklarni boshidan kechirgan. Har bir davrda ham inson o’zini qaysidir guruhga mansub ekanligini anglab turgan. Birgalikda qilgan mehnatlari ularning ishlarini baroridan keltirgan. Hamkorlikda mehnat esa ularda urug’ga, qabilaga, elatga, millatga tegishli ijtimoiy-psixologik holatlarning vujudga kelishiga, rivojlanishiga, mustahkamlanishiga olib kelgan. Shu tarzda insonlarda birdamlik, birlik hissi paydo bo’lgan va shakllangan.

2) Millatga tegishli bo’lgan urf-odatlar, an’analar, madaniyat, til, san’at aynan shu millatga tegishli bo’lgan ijtimoiy-psixologik xarakterni paydo bo’lishiga olib kelgan. Milliy manfaatlarni, milliy o’zini-o’zi anglagan millatdagina milliy birdamlik va birlik mavjud bo’ladi.

3) Milliy birlik tuyg'usi millat tarixi, vatanparvarlik tuyg'usi, milliy o'zini-o'zi anglash, shaxsning psixologik kechinmalari, shaxsning bilim darajasi, dunyoqarashi kabi tomonlar bilan chambarchas bog'liqdir.

4) Vatanparvarlik tuyg'usi bu yoshlikdan inson hayoti faoliyati davomida shakllanadi. Insonning o'z Vatanini sevishi avvalo o'z oilasidan, yaqinlaridan boshlanadi.

5) Vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida insonlarning ijtimoiy-

psixologik munosabatlari ham muhimdir. Iroda, tafakkur, xotira, milliy xarakter kategoriyalari ham vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishida asosiy omillar vazifasini bajaradi, hatto psixologik mexanizm rolini bajarishi mumkin.

6) Vatan tuyg'usi, vatanparvarlik e'tiqodi va milliy birlik bu bir-biri bila bog'liq ijtimoiy-psixologik jarayon bo'lib, unda inson, jamiyat, muloqoti asosida shakllanib boradi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. *Vatan va xalq mangu qoladi: hikmatli so'zlar va iboralar to'plami.* – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
3. Umarov I., Rahmonov A., Xudoyberdiyev E. *Surxon vohasida etnik tarix va etnomadaniy jarayonlar (xatakilar urug'i misolida).* – Toshkent, 2014.
4. Tursunov S., Umarov I., Pardayev T. va boshq. *O'zbekistonda toponimik nomlar va ularning tarixi.* – Termiz: Surxonnashr, 2017.
5. Qo'ng'irotova A. *Hayot orzulardan iborat emas.* – Termiz: Surxonnashr.
6. Tursunov S., Pardayev T., Tursunova N., Murtazoyev B. *O'zbekistonda baxshichilik san'atining shakllanishi va taraqqiyot tarixi.* – Toshkent, 2015.

MUNDARIJA

TARIX

Турсунов Сайпулло Нарзуллаевич. Термиз давлат университети Жаҳон тарихи кафедраси профессори, тарих фанлари доктори. **Чўтматов Жўрабек Омонович,** тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Термизийларнинг ёрқин алломалари ва дунёвий тасаввурлари*.....3

Sulaymanov Amaliddin Nurboyevich. Guliston davlat universiteti “Tarix” kafedrasida dotsenti. *O‘zbekistonning antropologiya maktabi vakillari va ularning fan rivojida o‘rni*.....9

Tursunov Jovli Narzullayevich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tarix va falsafa kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi. *XX asrning 70-80-yillarda Surxondaryo viloyati sanoati (Sharq‘un va Sho‘rchi shaharlari misolida)*17

Raximov Boxodir Saidmusayevich. Termiz davlat universiteti “Jahon tarixi” kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi. *Surxondaryo viloyati sanoat salohiyatini oshirish bo‘yicha investitsiyalarning jalb qilinishi (2017-2023-yillar)*.....21

Xolmanova Feruza Uralovna. Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida dotsenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa доктори (PhD). *Surxondaryo viloyati sanoat korxonalarining texnikaviy ta‘minot masalalari*.....27

Умаров Икромжон Ибрагимович. Термиз давлат университети катта ўқитувчиси, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD). *Афросиёб шахси тўғрисидаги янги қарашлар*.....31

Атаназаров Хуршид Наджимович. Сурхондарё вилояти ИИБ бошлиғи ўринбосари, ИИБ хузуридаги тергов бошқармаси бошлиғи, подполковник. *Оилавий (маиший) зўравонликнинг шакллари ва таснифи: илмий-таҳлилий ёндашув ва тарихий тажриба*.....41

Ergasheva Sayyora Abdusotovna, Termiz davlat universiteti Jahon tarixi kafedrasida katta o‘qituvchisi. *Surxon vohasida qadimgi va ilk o‘rta asrlarda hunarmandchilik sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy asoslari*.....48

Qulboshev Sirojiddin Jumayevich. Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi. *Surxon-Sherobod cho‘llarining o‘zlashtirilgan hududlarida ijtimoiy-madaniy infratuzilmaning rivojlanishi*.....54

Qarshiyev Ahmad Abdulazizovich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi. *Surxon vohasi bekliklarida hunarmandchilik va mahalliy ustaxonalarining iqtisodiyotdagi o‘rni*.....60

Mulkamanov Mansur Xudoyqulovich. Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrasida o‘qituvchisi. *Temir izlarda tarix aks-sadosi: Termiz temir yo‘l magistrali tarixi*.....66

Azimova Dilfuza Usmonovna. Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limda matematika va ona tili kafedrası o'qituvchisi. *Abdulla Avloniy va jadidchilik harakati*.....71

Tursunov O'ktam Saypullayevich. Termiz davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası o'qituvchisi. *O'zbekistonda keksalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishi: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari misolida*.....77

Shodmonov Anvar. Termiz davlat universiteti o'qituvchisi. *Tosh davri odamlarini "aholi" deb atash qanchalik to'g'ri?*.....84

Shamayev Umarali Turg'unboyevich. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi. *O'zbekiston tarixiy-madaniy merosini tiklashda xalqaro ekspeditsiyalar va zamonaviy yondashuvlar*.....89

Chorshanbiyeva Diyora Chorshanbiyevna. Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi. *Yoshlarning ta'lim va bandligini ta'minlash siyosati*.....94

Xoliqulov Shuxratjon Boymaxammadovich. Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi. *Navoiy viloyati yengil va oziq-ovqat sanoatida qo'shma korxonalarining faoliyati*.....99

O'rolova Malika. Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix kafedrası o'qituvchisi. *Mustaqilligimizning dastlabki yillarida onalik va bolalikni muhofaza qilish tarixi (Surxondaryo viloyati misolida)*103

Xoliyorov Aliyor Panjiyevich. Jarqo'rg'on tumani ixtisoslashtirilgan maktabi tarix fani o'qituvchisi. *1970-1980-yillarda Surxondaryo viloyati sanoatida kadrlar tayyorlash tizimi: Boysun, Sharg'un va Sho'rchi shaharlari misolida*.....107

Toshimov Bahodir. Termiz iqtisodiyot va servis universiteti tarix ta'lim yo'nalishi talabasi. *O'zbek arxeologiyasining yirik namoyondalari*.....111

ETNOGRAFIYA

Убайдуллаева Барно. Ўзбекистон Миллий университети "Археология ва этнология" кафедраси профессори, тарих фанлари доктори. *Фориш тумани ўзбек ва тожикларининг бола парваришига оид анъанавий урф-одат ва маросимлар*.....117

Abduqodirov Sarvar Begimqulovich. Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi "Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası mudiri, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). **Bozorboyeva Nilufar Anarbayevna,** Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi "Huquqiy va ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrası tarix fani o'qituvchisi. *An'anaviy hunarmandchilikda usta-shogird munosabatlari bilan bog'liq urf-odat va marosimlar*.....123

Aymuratova Dilfuza Borievna. TTA Termiz branch Physical and legal working with individuals'appeals head of the control and monitoring department. *Unique Traditions and Sewing Technology of Embroidery in Surkhan Oasis*.....128

Shuhratova Husnora Shuhrat qizi. Termiz davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti.
“Badash” ohanglarida vatanparvarlik tarannumi.....133

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ ҲУДУДИЙ ИННОВАЦИЯ ФАОЛИЯТИ ВА ТЕХНОЛОГИ-
ЯЛАР ТРАНСФЕРИ МАРКАЗИ ҲАМДА СУРХОНДАРЁ ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР-
НИ

РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ЦЕНТРА РЕГИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ТРАНС-
ФЕРА ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЦЕНТРА РАЗВИТИЯ
НАУКИ И ТЕХНОЛОГИЙ СУРХАНДАРЬИ

SURKHANDARYA REGIONAL TERRITORIAL INNOVATION ACTIVITY AND TECH-
NOLOGY TRANSFER AND SURKHANDARYO SCIENTIFIC JOURNAL OF SCIENCE AND
TECHNOLOGY DEVELOPMENT CENTER

Илм келажасимиз равнақидир

СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР
SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR
СУРХАНДАРЬЯ: НАУКА И МЫШЛЕНИЕ
SURKHANDARYA: SCIENCE AND
CONTEMPLATION

Илмий мақолалар журнали

N-2 2025

«СУРХОНДАРЁ: ИЛМ ВА ТАФАККУР» ЖУРНАЛИДА ЧОП ЭТИЛАДИГАН МАҚОЛАЛАРГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР

“SURXONDARYO: ILM VA TAFAKKUR” JURNALI TAHRIRIYATIDAN

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali yiliga 4 marta (har chorakda) nashr qilinadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi (OAK)ning 2021 yil 12 dekabrda № 01-06/25-04 raqamli xati asosida ro‘yxatga olingan. Jurnal “Tarix” ixtisosligi bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. Jurnalda o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi maqolalar nashr etiladi. Maqolalar quyidagi tartibda qabul qilinadi: maqola hajmi 6 sahifadan kam bo‘lmasligi lozim. Maqola tahririyatga Times New Roman shrifti, 14 o‘lchovda, 1,5 qator oralig‘ida, chap tomondan 3 sm, qolgan tomonlardan 2 sm qoldirilgan holatda A4 formatli standart qog‘ozda Word 2000-2023 dasturi, doc yoki docx formatida tursunovsafullo12@mail.ru elektron pochta manzili hamda +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55 raqamli telegram sahifalari orqali qabul qilinadi.

Maqolaga tegishli fan sohasi bo‘yicha fan doktori, professor, fan nomzodi, dotsent yoki tegishli fan bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasiga ega bo‘lgan xodimning taqrizi talab qilinadi (Ilova tariqasida maqolaga yozilgan taqrizning imzolangan nusxasi rangli holatda, skanerlangan variantda yuborilishi kerak).

Maqolani rasmiylashtirilganda, dastlab yuqori chap tomondan UO‘K (UDK) qaydi, bir oraliqdan so‘ng bosh harflarda maqola mavzusi, keyingi satrda muallif(lar)ning ismi, sharifi, otasining ismi, ilmiy darajasi va ilmiy unvoni, ish joyi va lavozimi to‘liq, o‘zbek, ingliz va rus tillarida yoziladi. Keyin o‘zbek, rus va ingliz tillarida annotatsiya va kalit so‘zlar keltiriladi. Matnda adabiyotlarga havola kvadrat qavslarda ko‘rsatiladi. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati amaldagi davlat standartlari asosida rasmiylashtiriladi. Maqolalar kirill va lotin alifbosida qabul qilinadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING 2024-YIL 31-YANVARDAGI 24-SON BUYRUG‘IGA BINOAN maqolalar xalqaro IMRAD talablari asosida quyidagi namuna bo‘yicha qabul qilinadi:

NAMUNA

MAVZU (O‘ZBEK, INGLIZ, RUS TILLARIDA)

Qarshiyev Islom Maxmarahim o‘g‘li, ish joyi, lavozimi, ilmiy unvon (o‘zbek, ingliz va rus tillarida), elektron pochta manzili, muallifning ORCID identifikatori, ya’ni identifikatsiya raqami; maqolaning DOI raqamli obyekt identifikatori (DOI.org) platformasidan ro‘yxatdan o‘tganligini tasdiqlovchi identifikator raqami).

Annotatsiya (Abstract / Аннотация): Annotatsiya o‘rtacha 200-250 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim. Agar maqola o‘zbek va rus tilida yozilgan bo‘lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida ABSTRACT beriladi.

Kalit so‘zlar (Key words / Ключевые слова): Kalit so‘zlar o‘rtacha 8-12 so‘zdan iborat bo‘lishi lozim.

KIRISH (БЕДЕНИЕ / INTRODUCTION) Kirish, kirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS)

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (iqtibos)

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS) Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (iqtibos)

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION) Xulosa, xulosa.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. G‘oziyev.E.G. Umumiy psixologiya –T.: Sharq, 2010. – B. 459.

2. Doniyorov H.T. O‘zbekistonda dunyoviylik va diniylik muvozanatini ta’minlash – ijtimoiy barorlikning bosh omili sifatida. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali. Toshkent, 2018 yil - № 2 - B. 57- 61.

3. Buranov S.M. China’s geopolitical role and influence in solving the modern Afghan problem // International conference «Scientific research of the SCO countries: synergy and integration», Beijing, 2020. – P.127-132.

4. Rahmatjonova K. Hindiy va o‘zbek tillaridagi kelishik shakllarida izomorfizm hodisasi // Ilm sarchashmalari. - Urganch davlat universitetining ilmiy-metodik jurnali, №1, 2019 yil. - B.38-40.

5. Pulatova M.R. Handwritten copies of «Arba’in»works // Indonesian Journal of Education Methods Development. Volume 8, November 2019. – P. 194-196. ISSN: 0738-0593 (№23, SJIF – 5.083).

6. Barduhn, S. (2014). Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom. Teaching English, British Council, BBC. <https://www.teachingenglish.org.uk/article/developingcross-cultural-awarenessmonolingual-classroom-0> (adabiyotlar shu tartibda yozilishi lozim)

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va to‘g‘riligiga mualliflar javob beradi.

Bog‘lanish uchun muallifning telefon raqami, elektron pochta manzili ko‘rsatilishi shart. Muallifning sifatli fotosuratining elektron shakli taqdim etilishi lozim.

Tahririyat maqolalarni tahrir qilish va qisqartirish huquqiga ega. Talab darajasida rasmiylashtirilmagan maqolalar jurnalda e’lon qilinmaydi. Maqola mualliflariga tahririyat qo‘lyozmalarni qaytarish va yozma javob berish majburiyatini olmaydi. Maqolani tahrir qilish, nashrga tayyorlash va chop qilishga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun __ ming so‘m miqdorida badal puli to‘lanadi.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnalining mavjud sonlari bilan nashrning rasmiy sayti <https://surxondaryoilmtafakkur.uz> orqali tanishishingiz va yuklab olishingiz, telegram kanalga <https://t.me/surxondaryoilmtafakkur> havolasi orqali kirishingiz mumkin.

“Surxondaryo: ilm va tafakkur” jurnali bosh muharriri Tursunov Saypulla Narzullayevich.

Tel: +998 91 577 90 50; +998 97 695 67 55